Harbiy psixologiyada profaylingni kognitiv, emotsional va xulqiy tahlil usullari bilan birlashtirish kasbiy moslikni oshiradi. Milliy kontekstga moslashtirishda harbiy ta’limida profaylingni vatanparvarlik va milliy qadriyatlar bilan bog‘lab, simulyatsion mashqlarni kengaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmadjonov, M.X. (2019). *Harbiy ta’limning milliy xavfsizlikdagi o‘rni*. Toshkent: Qurolli Kuchlar Akademiyasi.

2. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

3. Davydov, V.P. (2019). *Psixologicheskie osnovy podgotovki voennosluzhashchix*. Moskva: Voennyy Universitet.

4. Ekman, P. (2003). Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life. Times Books.

5. Turvey, B. E. (2011). Criminal Profiling: An Introduction to Behavioral Evidence Analysis. Academic Press.

6. Leontiev, A. A. (1999). Psixolingvistika asoslari. Moskva: Smysl.

7. Qodirov, M., Tojiyev, A. (2021). “Harbiy psixologiyada shaxsiy xususiyatlarni o‘rganish metodlari.” O‘zbekiston Psixologiya Jurnali, №2.

HARBIY XIZMATCHILARDAGI STRESSLI VAZIYATLARDA ADAPTATSIYA VA REINTEGRATSIYA JARAYONINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Ikmatullayev G‘ayrat Zokirovich,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

«Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash»

kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Anotatsiya: Mazkur maqola stressli vaziyatlarda harbiy xizmatchilarning adaptatsiyasi va psixologik tiklanishi masalalarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Unda stressga moslashish jarayonining psixologik, emotsional, ijtimoiy va kasbiy jihatlari ko‘rib chiqiladi hamda ushbu jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar, jumladan, psixologik chidamlilikni ta’limga integratsiya qilish, liderlik strategiyalarini ishlab chiqish va zamonaviy psixologik treninglarni joriy etish kabi choralarga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: adaptatsiya, psixologik tiklanish, stress, emotsional barqarorlik, coping mexanizmlari, jamoaviy qo‘llab-quvvatlash, chidamlilik, jismoniy tayyorgarlik, kasbiy rivojlanish, stress boshqaruv, kognitiv funksiyalar, muhit dinamikasi.

Аннотация: Данная статья представляет собой научно-обоснованный анализ вопросов адаптации и психологического восстановления военнослужащих в стрессовых ситуациях. В ней рассматриваются психологические, эмоциональные, социальные и профессиональные аспекты процесса адаптации к стрессу, а также практические рекомендации по их совершенствованию. Особое внимание уделяется таким мерам, как интеграция психологической устойчивости в образовательные программы, разработка лидерских стратегий и внедрение современных психологических тренингов.

Ключевые слова: адаптация, психологическое восстановление, стресс, эмоциональная устойчивость, копинг механизмы, командная поддержка,

устойчивость, физическая подготовка, профессиональное развитие, регуляция стресса, когнитивные функции, динамичная среда.

Annotation: This article provides a scientifically grounded analysis of the issues of adaptation and psychological recovery of military personnel in stressful situations. It examines the psychological, emotional, social, and professional aspects of the stress adaptation process, as well as practical recommendations for their improvement. Special attention is paid to measures such as the integration of psychological resilience into educational programs, the development of leadership strategies, and the implementation of modern psychological training.

Keywords: adaptation, psychological recovery, stress, emotional stability, coping mechanisms, team support, resilience, physical training, professional development, stress regulation, cognitive functions, dynamic environment.

Stressli vaziyatlarda harbiy xizmatchilarning adaptatsiyasi, ularning ruhiy va jismoniy holatini saqlab qolishda asosiy rol o‘ynaydi. Zero, bu jarayon harbiy xizmatchilarda qiyin sharoitlarga moslashish va tiklanish qobiliyatini rivojlantirib, xizmat faoliyati samaradorligini oshirishda ishtirok etadi. Harbiy muhitdagi stress, bizningcha, jangovar vaziyatlar, uzoq muddatli yuklamalar hamda izolyatsiya hissi, harbiy xizmatchilarni ruhiy va jismoniy jihatdan sinovdan o‘tkazadi. Ammo muvaffaqiyatli adaptatsiya ularni nafaqat xizmat faoliyatida psixogigenik nuqtai nazardan saqlab qoladi, balki o‘sishiga olib keladi. Ilmiy tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, stressli vaziyatlardagi adaptatsiya, psixologik tiklanish bilan chambarchas bog‘liq hisoblanib, bu jarayon harbiy xizmatchilarning mental muhitdagi salomatligini himoya qiladi va kasbiy faoliyatni davom ettirishlariga yordam beradi. Misol uchun, AQSh armiyasida o‘tkazilgan tadqiqotlarda, stressli operatsiyalar davrida bardoshlilik yuqori bo‘lgan harbiy xizmatchilar, depressiya va travmadan keyingi buzilishlarga kamroq duch kelishlari aniqlanganligi yuzasidan xulosalar beriladi. Bu ularda tez tiklanishni ta’minlab, ekstremal holatlarda, adaptatsiya va tiklanish harbiy xizmatchilarning individual va tashkiliy omillariga bog‘liq bo‘lishi tasdiqlaydi[4].

Harbiy xizmatchilarda emotsional barqarorlik stressli vaziyatlarda adaptatsiya va psixologik tiklanishning asosiy komponenti hisoblanib, u harbiy harbiy xizmatchilarni ruhiy zarbalarga chidamlilikni oshirishi va tiklanishini tezlashtirishga yordam beradi. Bu jarayon, ko‘pincha bir necha bosqichdan iborat: dastlabki bosqichda harbiy xizmatchilar stressga duch kelib, emotsional taranglikni his qiladi. Masalan, jangovar missiyalarda duch kelgan travmatik voqealar bo‘lishi mumkin. Keyingi bosqich esa, ular coping (himoya) mexanizmlarini harakatga keltirib, o‘zini o‘zi tiklanishga undaydi. Bu ularda tashvish darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional adaptatsiya, harbiy xizmatchining individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, optimizm va o‘zini boshqarish qobiliyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Harbiy xizmatchilarning ruhiy chidamliligi, ularning kognitiv funksiyalarini stress ostida saqlab qolishga yordam beradi, bu esa qaror qabul qilishni yaxshilaydi. Mazkur jarayon, mas’uliyatlilik va qiyinchiliklarga tayyorlikdan iborat bo‘lib, xizmatchilarni murakkab jarayonlarda, muhitdagi dinamiklikda ishlay olishga imkon beradi. Emotsional tiklanishda R.Lazarus va S.Folkman tomonidan taklif qilingan «tranzaksional stress nazariyasi» mavzu uchun muhim hisoblanib, harbiy xizmatchilarda stressni «chaqiruv, qutqaruv» signal sifatida baholash zarurligini tushuntiradi. [3]

Harbiy jamoalardagi jamoaviy qo‘llab-quvvatlashga moslashish, stressli vaziyatlarda adaptatsiya va psixologik tiklanishni kuchaytiradi, bu jarayon harbiy xizmatchilarni guruh bilan aloqa o‘rnatish va jamoaviy hamkorlikda tiklanishga o‘rgatadi. Harbiy muhitda ijtimoiy adaptatsiya, yangi munosabatlarni shakllantirish va guruh qadriyatlari bilan birlashishdan iborat bolib, sohaga oid tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy yordam, tiklanishning muvaffaqiyatli kechishiga asos bo‘lib, aynan jamoadoshlarning tengdoshlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ularni izolyatsiya hissidan himoya qiladi. Ayrim tadqiqotlarni ta’kidlashicha, ijtimoiy yordam har doim ham to‘liq tiklanishga olib kelmaydi, balki harbiy xizmatchining o‘zi aloqalarni faollashtirishi ortidan ijobiylashadi. Misol uchun, Hindiston harbiy tizimida ijtimoiy adaptatsiya bosqichlari, guruh integratsiyasini mustahkamlashni ta’kidlaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu ularda jamoaviy tiklanishni oshiradi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida harbiy bo‘linmalarda harbiy xizmatchilar ijtimoiy izolyatsiyaga

duch kelgan, ammo virtual aloqadan foydalanishni faollashishi tez tiklanishga va natijada ularda moslashuvchanlikni rivojlanishiga xizmat qilgan [2].

Jismoniy chidamlilikni oshirish, stressli vaziyatlarda adaptatsiya va psixologik tiklanishni ta’minlaydi va bu jarayon harbiy xizmatchilarni uzoq muddatli yuklamalar vaqtida tiklanishiga yordam beradi. Harbiy xizmatda jismoniy tayyorgarlik, muntazam mashqlar orqali amalga oshiriladi. Masalan, maxsus treninglarda ishtirok etish mushak chidamliligi va reaksiya tezligini oshiradi. Bu adaptatsiya, psixofiziologik komponentlarni o‘z ichiga olib, e’tibor va fikrlashni rivojlantiradi, chunki jismoniy charchoq psixik holatni tiklanishiga ta’sir qiladi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, jismoniy moslashuv, umumiy tiklanishga ta’sir etadi, masalan, charchoq vaqtidagi mashqlar ruhiy chidamlilikni kuchaytiradi. Amaliy misol sifatida aytishimiz mumkinki, AQSh harbiy tadqiqotida, jismoniy yuklamalarga moslashuv, tiklanishni yaxshilanishigan, ammo noto‘g‘r yoki me’yordan yuqori yuklamalar jarohatlarga sabab bo‘lgan. Jismoniy tiklanishda, «yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirish nazariyasi» muhim hisoblanib, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ruhiy muvozanatini saqlashlari zarurligini ko‘rsatadi. [3].

Harbiy xizmatchilarni kasbiy ta’minlash stressli vaziyatlarda adaptatsiya va psixologik tiklanishning asosiy jihati bo‘lib, u harbiy xizmatchilarda strategik qarorlar qabul qilishga va jamoani boshqarishga tayyorlaydi. Bu jarayon, amaliy vazifalar orqali bajarilib, shaxsiy xususiyatlar, jumladan, innovatsion fikrlashni kuchaytiradi. Bu yerda o‘ziga ishonch nazariyasi muhim rol o‘yanab, harbiy xizmatchilarni qiyinchiliklarga tayyorlaydi va jarohatdan keyingi tiklanishni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, kasbiy adaptatsiya, harbiy xizmatchini psixik yuqori chidamliligi o‘zgaruvchan muhitda yaxshiroq tiklanishni ta’minlaydi. Xususan, Ukraina ziddiyatlarida, harbiy xizmatchilarning kasbiy moslashuvi yangi taktikalar orqali tiklanishga erishgan.

Stressni regulyatsiya qilish, stressli vaziyatlarda adaptatsiya va psixologik tiklanishda hal qiluvchi omil bo‘lib, u harbiy xizmatchilarni murakkab vaziyatlarda psixologik muvozanatni saqlashga o‘rgatadi. Ilmiy adabiyotlarda, stressni boshqarish muammoni yechish strategiyalari orqali amalga oshiriladi, masalan, harbiy xizmatchilar

stressni psixofiziologik o‘sish imkoniyati sifatida ko‘rishlari zarur. Bugungi kunda tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, stress darajasi harbiy xizmatchilarning mental tiklanishini pasaytirishi bilan bir vaqtda hissiy tiklanish muvaffaqiyatiga ta’sir etadi. Bu holatda, stress treninglari, kognitiv ishlashni yaxshilaydi. BYuqoridagi fikrimizni Norvegiya harbiy tizimida stressni boshqarish orqali pasaytirilganligi bilan ham tushuntirishimiz mumkin[1]

Muhitning dinamikligining integratsiyasi, stressli vaziyatlarda adaptatsiya va psixologik tiklanishning muhim qismi bo‘lib, u xizmatchilarni innovatsion fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Harbiy kontekstda, muhitning dinamikligi yangi texnologiyalarga javob berishni talab etadi. Bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, moslashuvchanlik, tiklanishni ta’minlash bilan birga harbiy xizmatchilarning adaptiv ishlashini oshirgan[6]. Umuman olganda, stressli vaziyatlarga adaptatsiya va psixologik tiklanish, ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali yaxshilanadi, bu esa harbiy xizmatchilarda kasbiy rivojlanishni ta’minlaydi hamda harbiy tizimning samaradorligini oshiradi.

Xulosa o‘rnida harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatga adaptatsiyasini ta’minlash uchun quyidagilar tavsiya etiladi. Jumladan,

psixologik chidamlilikni harbiy ta’lim dasturlariga integratsiya qilish bo‘lib, bu jarayon harbiy xizmatchilarni stressli vaziyatlarga tayyorlash va tiklanish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Sababi, bugungi tadqiqotlar psixologik chidamlilikni ta’limda qo‘llashni tavsiya etadi. Masalan, AQSh armiyasida o‘tkazilgan dasturlar orqali, harbiy xizmatchilarning depressiya va jarohatdan keyingi stressli buzilishlar darajasini pasaytirgan, chunki bu yondashuv ularda emotsional barqarorlikni shakllantiradi va kasbiy samaradorlikni oshiradi. Bu tavsiyani amalga oshirish uchun, ta’lim dasturiga maxsus modul qo‘shish kerak, unda harbiy xizmatchilar real simulyatsiyalar orqali stressni boshqarishni o‘rganadilar.

Ikkinchidan, liderlar uchun maxsus strategiyalarni ishlab chiqish bo‘lib, bu komandirlar o‘z qo‘shinlarida psixologik chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi. NCO Journalda tavsiflanganidek, harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini

yaxshilashda muhim, chunki ular individual yondashuv orqali motivatsiyani oshiradi va kasbiy adaptatsiyani tezlashtiradi.

Uchinchisi, yosh harbiy xizmatchilar uchun dinamik adaptatsiya jarayoni dasturlarini joriy etish bo‘lib, bu ularda moslashuvchanlikni rivojlantiradi. To‘rtinchidan harbiy tajribani kasbiy rivojlanishda ishlatishdir hisoblanadi. Bu harbiy xizmatchilarni o‘zgarishlarga tayyorlaydi. Tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, harbiy tajriba taktika va strategiyalarni doimiy baholash orqali adaptatsiyani kuchaytiradi. Ya’ni harbiy bo‘linmalarda haftalik baholash o‘tkazish, harbiy xizmatchilarning moslashuvchanligini oshiradi.

Beshinchidan, zamonaviy psixologik treninglarni harbiy xizmatchilar uchun takomillashtirish hisoblanadi. Tadqiqotlarda ko‘rsatilganidek, bunday treninglar kuchli va zaif tomonlarni aniqlab, adaptatsiyani yaxshilaydi. Bu tavsiyani amalga oshirish uchun, treninglarni muntazam o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mavlonov F.F. Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish jarayonini modellashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. «Raqamli ta’limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 25-oktabr 2023-yil. https://doi.org/10.5281/zenodo.10036461. – c. 295-296

2. Селье Г. «Стресс без дистресса». М.Прогресс, вт.изд.2006.– с. 226

3. Utepov M.D. Inson tanasining jismoniy yuklamalarga adaptatsiyasi. Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborotnomasi. 4 (63) 2023. – c.147-148

4. Шерматов Ф.Т. «Выводы и рекомендации о способах определения стресса и его средств, возникающих в служебной деятельности военнослужащих». ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2023 год №2). – с.325-326

MUTAASSIB SHAXSLAR BILAN ISHLASHDA MUTAXASSIS SHAXSINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

AKRAMOV MIRMUXSIN RUSTAMOVICH

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori

Ma’lumki, mutaassiblik insoniyat bosib o‘tgan barcha ijtimoiy rivojlanish bosqichlarda turli din va ijtimoiy yo‘nalishlar orasida keskin bo‘linish, tarafbozlik, guruhbozlik, ommaviy tartibsizliklar, nizo hamda to‘qnashuvlar kelib chiqishiga turtki vazifasini bajarib kelgan. Individ rivojlanishida genetika va tarbiya bilan bir qatorda muhit ham prinsipial axamiyatga ega. Muhit ta’sirida biz insonning individual rivojlanishiga xal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan kuchlarni kashf etamiz.

Ularga bola yashaydigan va katta odam bo‘lib shakllanadigan quyidagi muhitlarni misol qilish mumkin:

1.Oilaviy muhit, (nafaqat jismoniy va yashash tizimi, balki bola katta bo‘layotgan muhitdagi kishilarning o‘zaro munosabatlari)

2.Maktab muhiti (bog‘chaning kichik guruhlaridan to o‘rta maktabni bitirguncha va undan keyin ham)

3.Emotsional muhit (bola rivojidagi emotsional atmosfera)

4.Keng ma’noda esa atrof muhit

Yetuk individning shakllanishida boshqa faktorlar ta’siri, ya’ni genetik xususiyat hamda tizimli tarbiyalash xam ahamiyatsiz emas.

Diqqatimizni individning autogenezi (shaxsning genetik va muhitiy uzviyligidagi taraqqiyoti) bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim muammolarga qaratamiz. Bunda, yuqorida ta’kidlanganidek, genetik faktor, tarbiya va muhitni uyg‘unlikda aks ettirishni unutmaslik lozim.

Istalgan, hatto yetarlicha chuqur o‘ylangan tarbiya tizimi ham; sinalgan tajriba, an’analar va qayta ishlangan bilimlarga tayangan xolda tug‘ma xususiyatlar asosida

shakllantirilib, ma’lum muhitda amalga oshiriladi. U esa bir qator mezonlarni o‘z ichiga oladi: tabiiy, madaniy, ijtimoiy...[2]

“Mutaassiblik”ka ijtimoiy psxologiya fani nuqtaiy nazaridan tarif beradigan bo‘lsak “Shaxsni biror – bir nazariya yoki g‘oyani ilgari suruvchi shaxsga bilimsizligi (tajribasizligi) ta’sirida ko‘r – ko‘rona ruhan ixlos qilib ergashishi hamda o‘zini idrok va irodasini boshqarishni rahnomosiga topshirishi hamda o‘zligidan ihtiyoriy ravishda vos kechish tushiniladi. O‘z navbatida uni psixo-fizologik asosini shaxsning bosh miyasidagi bir nerv markazi asta-sekinlik bilan kuchli “dominanta”likka (ustunlikka) erishishi natijasida boshqa nerv markazlarini kuchli tormizlanishi qonuniyati tashkil etadi.

“Mutaassiblik” - (arab. “g‘uluv ketish”, “chuqur ketish”) muayyan g‘oyalarning to‘g‘ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilish, “o‘zgalar” va “o‘zgacha” qarash hamda g‘oyalarga murosasiz munosabatda bo‘lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etishi, ularni tan olmaslikda namoyon bo‘ladi” deb ta’rif beriladi.

“Mutaassib shaxs” - qiyinchilik paydo qiluvchi, istilohda esa o‘z fikr-mulohaza va dunyoqarashi to‘g‘riligiga o‘ta qattiq ishonib, boshqa e’tiqodlarga murosasiz munosabatda bo‘lish, boshqalarning fikrini inobatga olmaslik hamda inkor qilish va hamisha o‘zini haq deb e’tiqod qiluvchi hamda o‘z fikrini amalda ko‘rsatishga harakat qiluvchi kishi[3].

Xarakterdagi radikallik hech qachon bir turdgi radikal tuzilma bilan qanoatlanmaydi (belgilanmaydi). U har doim turli ko‘rinishda, ko‘pincha - qarama-qarshi psixologik tendentsiyalarning aralashmasi hisoblanadi.

Radikal shaxs - bu radikalizm (radikalizm – muayyan shaxs yoki guruhning mavjud ijtimoiy, siyosiy va madaniy holatini tubdan va murosasiz o‘zgartirish istagidan iborat jarayondir) tarafdori, ya’ni, qoida tariqasida ijtimoiy tuzumdagi chuqur o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday qarashlarning murosasiz vakili[4].

[2] Akramov M. R. Shaxs ichki ziddiyatlarining tabiatga bo‘lgan munosabatidagi ifodasi //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2015. – №. 10. – S. 20-25.

[3] Tursunov L.S. Mutaassiblikning ijtimoiy psixologik sabablari. Usl qo`llanma O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi – Toshkent 2019.

[4] Akramov M.R. Zamonaviy sharoitda mutaassiblikni shakllantiruvchi psixologik omillar. «Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari» mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy, masofaviy konferensiya materiallari (27 yanvar 2022 yil) – T.: Rishton XTB 2022

Radikal shaxs - emotsiyalari, fikrlari anglanmagan, ijtimoiy tajribaga asoslangan muloqotga kirisha olmaydigan va atrofdagilarga ochiqchasiga xujum (verbal) qiladigan, o‘z ta’sirini kengaytirish uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qiladigan, jamiyat tomonidan o‘rnatilgan qoidalarga qarshi chiqadigan individ[5].

Mutaassib shaxslar bilan ishlashda mutaxassisning faoliyatida quyidagi qobiliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Muloqot qilish qobiliyati: mutaxassisning tinglovchilar bilan ma’ruza jarayonlarida guruh bilan aloqa o‘rnata (ijobiy-ruhiy iqlim yaratish) olishi.

2. Voqealarni oldindan ko‘ra olish (prognostik) qobiliyati: ushbu qobiliyat turi har bir mutaxassisning sergakligi va ziyrakligida, tinglovchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko‘ra olishida namoyon bo‘ladi.

3. Eshitish va his qilish qobiliyati: Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan insonlar suhbat ohangini yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida yaxshi o‘qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa atrofdagilarni yaxshi tinglay oladi.

4. Kinestetik qobiliyat: mutaxassisning o‘z hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, harakat ohangini his qilib yo‘naltiradi, vaqtni, harakat sur’atini his qilish, maishiy qulayliklarni yarata olish.

5. Mantiqiy qobiliyat: mulohaza yuritishni, muammolarni hal qilishni, murakkab masalalarni ishtiyoq bilan hal qilish, sababiyat va natijalarni tushunish malakasi, voqelikda asosiyni ikkinchi darajalisidan ajrata olish;

6. Shaxsning ichki qobiliyati: o‘z-o‘zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati. Erkin shaxsda qo‘rquv yoki noerkinlik tuyg‘usi kamdan-kam holda bo‘ladi.

Ushbu qobiliyatlar mutaxassisning individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda tajribali mutaxassislar o‘z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko‘proq yutuqlarga erishadilar[6].

Mutaxassis savodli gapirishi, o‘z nutqini tushunarli, ta’sirchan qilib bayon qilishi, o‘z fikr va his-tuyg‘ularini so‘zda aniq ifodalash malakalariga ega bo‘lishi lozim.

[5] Akramov M. R. Shaxs ichki ziddiyatlarining tabiatga bo‘lgan munosabatidagi ifodasi //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2015. – №. 10. – S. 20-25.

[6] Аминов Н.А., Молоканов М.В. Социально-психологические предпосылки специальных способностей школьных психологов//Вопросы психологии. 1992. № 1-2. С. 74-84.

Mazmunli, savodli, ta’sirchan gapiruvchi mutaxassislarning fikrlari tinglovchilar ongiga tez yetib boradi, axborotlarni o‘zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, tinglovchilar bunday mutaxassislarning ma’ruzalarini toqatsizlik bilan kutadilar. Mutaxassislar o‘z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so‘zlarning chiroyli, ma’noli, ta’sirchan bo‘lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapazonlari kuchi, nutq tembrining harakatchanligi, diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

Ovoz diapazoni chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past ohangda so‘zlashish tinglovchining idrokini bo‘shashtiradi va susaytiradi.

Mutaxassis tovush diapazonini, uning tembri bilan bog‘lab ishlatsa, gaplari chiroyli, jozibali chiqib, tinglovchilarni o‘ziga jalb etadi va axborot mazmunini yanada yaxshi idrok qiladi.

- Mutaxassisning ovozida so‘zlarni aniq, to‘g‘ri, tiniq eshitilarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo‘ladi. To‘g‘ri va mukammal ovoz diksiyasiga ega bo‘lgan mutaxassis so‘zlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag‘ ishtirok etadi. Mutaxassis ifodali gapirishi, so‘zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim. Shunday qilib, nutq malakalari muhim ahamiyat kasb etar ekan, mutaxassis doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur.
- avvalo, mutaxassis o‘z ma’lumotlarini, uzatadigan axborotlarini o‘zaro aloqadorlikda bilishi, axborot texnologiyalarini, psixologiya, dinshunoslik fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi, kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalay oladigan bo‘lishi zarur. Chunki axborotni qanday uzatish va ta’sirchanligi mutaxassisning individual shaxsiy xususiyatlariga ham bog‘liq. Har bir mutaxassis o‘z tafakkuriga, fikrlash qobiliyatiga, o‘zining kasbiy yo‘nalishiga ega bo‘lishi kerak. Bu yo‘nalishni mutaxassisning o‘zi mustaqil fikr yuritish, mustaqil bilim olish, mahoratini oshirib borish orqali qo‘lga kiritadi va mohir mutaxassisga xos fazilatlarni tarbiyalaydi[7].
- mutaxassisning tashkiliy - metodik malakalarni egallashiga zarur bilimlar bo‘yicha ma’ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o‘qish orqali qo‘lga kiritiladi. Tashkiliy-

[7] Э.Фромм Догмат о Христе /Э. Фромм. - М.: АСТ, Олимп, 1998. - С. 215.

uslubiy malakalar aytilgan yo‘l-yo‘riqlar, ko‘rsatmalarni o‘zining individual kasbiy tajribasida sinab, ko‘nikma hosil qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tashkiliy-uslubiy malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo‘lib ishlash, faoliyat ko‘rsatish asosida qurilgani ma’qul. Chunki guruh yoki jamoa bo‘lib o‘qitish, ishlash har bir mutaxassisga refleksiv qobiliyatlari asosida, o‘zini boshqalar ko‘zi bilan ko‘rishni va baho berishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va hulq-atvorning yangi shakllarini izlab topish va sinash imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash uchun asos bo‘ladi.

- nutq madaniyatining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro‘y beradigan nuqsonlar e’tirof etiladi.

- Shuni ham unutmaslik lozimki, mutaxassisning umumiy madaniyati, ma’naviy va estetik dunyoqarashi muhim o‘rin tutadi. Agar mutaxassisning tashqi ko‘rinishi qashshoq, so‘zlarni talaffuz qilish qobiliyati past, estetik jihatdan omi, bo‘lar bo‘lmas voqealarga nisbatan o‘z hissiyotiga erk beradigan bo‘lsa, tinglovchilarning e’tiqodiga, aql-idrokiga, bilish va anglash tafakkuriga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, radikal g‘oyalar ta’sirga tushishga moyil shaxslar bilan ishlashda mutaxassis o‘zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim.

ПОВЕДЕНЧЕСКИЙ ПРОФАЙЛИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПСИХОДИАГНОСТИКИ КУРСАНТОВ ВОЕННЫХ ВУЗОВ

Абдуллажанова Дильнозахон Султанбековна

Доктор психологических наук (DSc), профессор кафедры Воспитательно-психологического обеспечения служебной деятельности, Университет общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация: Деятельность сотрудников органов внутренних дел связана с риском. Условия службы и специфика решаемых оперативно-служебных задач обусловливают ежедневное наличие опасности. Умение ее замечать и выявлять заранее может снизить количество происшествии, которые возникают в деятельности сотрудников. Регулярное нахождение в ситуации опасности способствует привыканию сотрудников к ней. Это может приводить к потере бдительности, совершению действий, которые приведут к ошибкам и повлекут за собой негативные последствия.

Ключевые слова: профайлинг, курсанты военных вузов, психодиагностика; невербальная коммуникация, целенаправленное наблюдение, поведенческие паттерны, психологическая готовность.

В последнее время термин «профайлинг» получил массовое распространение, его часто употребляют на страницах газет и журналов, в сети Интернет, он звучит в радиоэфире и с экранов телевизоров. Анализируя контексты использования термина «профайлинг», следует отметить, что специалисты вкладывают в это понятие различный смысл. Профайлинг (англ. «profile» – профиль) – это понятие, обозначающее совокупность психологических методов и методик оценки и прогнозирования поведения человека на основе анализа наиболее информативных частных признаков, характеристик внешности, невербального и вербального поведения [1].

Под понятием «профайлинг» имеют в виду:– технологии, позволяющие с высокой степенью вероятно сти выявлять лиц, склонных к совершению противоправных деяний;– технологии предотвращения противоправных действий

посредством выявления потенциально опасных лиц и ситуаций с использованием методов прикладной психологии. Категория «профайлинг» своими методологическими корнями уходит в западно-европейскую и североамериканскую психологические школы и в основе своей опирается на необихе виористский подход (П. Экман, О. Фрай, Д. Мацумото, Д. Моррис, Р. Плутчик, Дж. Хессет, Д. Эфрон, Л. Лаундес, В. Ф. Биркенбил, М. Нэпп, Д. Холл, К. Изард, Ф. Фарелли, Д. Брандсма, Д. Наварро, М. Карлинс и др.). Российские психологи также внесли весомый вклад в такие аспекты профайлинга, как практическая характерология, оценка эмоциональных состояний человека и специфические отличия в поведении причастного лица от непричастного (А. Я. Бродецкий, А. П. Егидес, Е. П. Ильин, А. Р. Лурия, В. В. Пономаренко, П. В. Симонов, Ю. В. Щербатых и др.). История профайлинга, как известно, связана с работой спецслужб (КГБ, ЦРУ, др.) сотрудников МВД и МИДов разных стран [2].

Наиболее известные «источники» и разработки связаны с деятельностью отдела поведенческих наук Академии ФБР в США (Куантико), которыми в конце 1970-х гг. была разработана программа психологического профилирования. Определение метода дано «родоначальником» идеи профилирования, Р. Ресслером как «процесса идентификации всех психологиче ских характеристик индивидуума, составляющий общее описа ние личности, основанный на анализе совершенных им преступлений» [4].

Подробнее о моделировании пишет Т. С. Волчецкая, отмечая особую роль мысленного моделирования. Поскольку на первоначальном этапе расследования объективно часто имеет место информационная неопределенность, то мысленное моделирование становится тем вспомогательным средством, которое помогает процессу расследования. Развивая данную мысль, можно отме тить, что помимо идеальной (мысленной) модели преступления, может существовать и частная идеальная модель преступника, а данная идея уже максимально близка к построению психологи ческого профиля. Таким образом, специалист-профайлер, как правило, работает с матери [3].

Поведенческий профайлинг - это система оперативного выявления потенциально опасных лиц (преступников, контрабандистов, наркокурьеров,

террористов, психически неустойчивых лиц) в потоках пассажиров, посетителей или просто в толпе. В 160 аэропортах США оперативным профайлингом пассажиропотока занимается около 3000 BDO - Behavior Detection Officers - специалистов службы безопасности Транспортной администрации США по поведенческому профайлингу пассажиров. Поведенческий профайлинг пассажиров направлен на выявление психофизиологических и поведенческих внешних признаков стресса, обмана, страха, преступных мотивов и намерений. Специалисты по профайлингу оценивают «язык тела» в виде непроизвольно моторики и движений, рисунок передвижений, взаимодействие с другими пассажирами и служащими аэропорта, полицией и службой безопасности, оценивают «микроэмоции» по Полу Экману при контрольном опросе. Каждая поведенческая, моторная, эмоциональная и словесная реакция пассажира оценивается профайлеров по специальной шкале в баллах.

Основной системой оперативного профайлинга пассажиров в аэропортах США является система поведенческого анализа пассажиров SPOT - Screening of Passengers by Observation Techniques (акроним переводится на русский язык как «определять, выявлять»), которая была внедрена службой безопасности Транспортной администрации США в 2006 году. Существуют и другие дополняющие программы поведенческой оценки потенциальных преступников: BASS (Behavior Assessment Screening System), BPRP (Behavioral Pattern Recognition Programm), BASC-2 (Behavioral and Emotional Screening System), TARR (Terrorist Activity Recognition and Reaction) и другие. Например, в рамках программы BPRP (Behavioral Pattern Recognition Programm) подозрительными лицами в транзитных зонах аэропорта считаются лица, проявляющие следующие поведенческие признаки.

Профайлинг в современных условиях рассматривается как эффективный инструмент психодиагностики и прогнозирования поведения человека в различных сферах служебной деятельности. Для курсантов военных вузов овладение данной технологией имеет особую значимость, так как оно напрямую связано с обеспечением национальной и общественной безопасности. Применение профайлинга в военной среде целесообразно:

1. Для составления психологического профиля личности, потенциально представляющей угрозу безопасности;
2. Для предотвращения девиантного поведения, которое может проявляться в условиях коллективного проживания и службы;
3. Для раннего выявления курсантов с повышенной конфликтогенностью или риском девиантных форм поведения;
4. Для формирования у курсантов способности к прогнозированию поведенческих реакций партнёров по взаимодействию в условиях служебной деятельности.

Ключевым навыком при осуществлении профайлинга является выделение и интерпретация невербальных сигналов в поведении человека. Под невербальной коммуникацией понимаются такие средства передачи информации, как мимика, жесты, позы, телодвижения, особенности внешнего вида, а также характеристики голоса (тон, тембр, громкость, интонация). Психологические исследования показывают, что от 60 до 65 % информации в межличностной коммуникации передаётся именно невербальными средствами, при этом они чаще оказываются более достоверными, чем вербальные высказывания. В учебном процессе военных вузов развитие навыка наблюдательности у курсантов выступает одной из приоритетных задач [5]. Целенаправленное наблюдение позволяет фиксировать поведенческие паттерны, сопоставлять их с психодинамическими особенностями личности и делать выводы о её мотивации и намерениях. Для курсантов важно формировать навык комплексного восприятия информации не только визуальной, но и аудиальной, тактильной, контекстуальной. Практические занятия по дисциплинам «Психология», «Социально-психологический тренинг профессионального общения», а также по специализированным курсам военных вузов могут быть дополнены упражнениями на развитие наблюдательности и распознавания невербальных сигналов. Опыт показывает, что у значительной части курсантов данный навык находится на среднем или низком уровне развития, что требует системной и целенаправленной работы. Таким образом, внедрение технологии профайлинга в образовательный процесс военных вузов будет способствовать:

- развитию профессионально значимых качеств курсантов;
- повышению уровня их социальной и психологической компетентности;
- формированию устойчивых навыков наблюдательности и аналитического мышления;
- способности прогнозировать поведение людей в служебных и экстремальных ситуациях.

Профайлинг как элемент профессиональной подготовки курсантов военных вузов не только способствует формированию навыков целенаправленного наблюдения, но и служит важным инструментом укрепления психологической готовности будущих офицеров к обеспечению общественной и государственной безопасности.

Список литературы

1. Регуш Л.А. Психология прогнозирования: успехи в познании будущего. – СПб.: Речь, 2003.
2. Бочарова Е.Е. Профайлинг как метод психодиагностики: теория и практика. – М.: Юрайт, 2020.
3. Гришина Н.В. Психология общения. – СПб.: Питер, 2018.
4. Ekman P. Psychology of Lies. – New York: Macmillan, 2009.
5. Лабковская А.И., Жуков Д.А. Психология безопасности: профайлинг в правоохранительной деятельности. – М.: Академический проект, 2019.

JAMOAT XAVFSIZLINI TA’MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY FAOLIYATIDA PROFAYLINGDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Jamoat Xavfsizligi Universiteti
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedra katta o‘qituvchisi
Sh.A.Shkarboyeva

Annotatsiya: Jamoat xavfsizlini ta’minlashda harbiy xizmatchilariga o'zining vakolatliligi va professionalligini takomillashtirish uchun nafaqat kasbiy bilimlar, balki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyati, turli psixologik mahorat, xususiyatlar va usullarni egallash ham zarur. Psixologik aloqa o'rnatish uchun Jamoat xavfsizlini ta’minlashda harbiy xizmatchilari samarali muloqot uchun qulay shart-sharoitlar va psixologik zamin yaratishga qaratilgan bo'lishi kerak. Samarali muloqotning eng muhim sharti – jamoat xavfsizlini ta’minlashda harbiy xizmatchi bilan o'zaro aloqada bo'lgan shaxsning asosiy reprezentativ tizimini aniqlash va keyingi aloqa jarayonida unga tayanishdir.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari xodimi, huquqni muhofaza qilish faoliyati, vakolatlar, profayling, faoliyatni tashkil etish.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОФАЙЛИНГА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: Для совершенствования компетентности и профессионализма военнослужащих при обеспечении общественной безопасности необходимы не только профессиональные знания, но и развитие коммуникативных навыков, способность к логическому мышлению, овладение различными психологическими умениями, качествами и методами. Для установления психологического контакта военнослужащие, обеспечивающие общественную

безопасность, должны быть ориентированы на создание благоприятных условий и психологической основы для эффективного общения. Важнейшим условием эффективной коммуникации является определение ведущей репрезентативной системы личности, находящейся во взаимодействии с военнослужащим, и опора на неё в последующем процессе общения.

Ключевые слова: сотрудник органов внутренних дел, правоохранительная деятельность, полномочия, профайлинг, организация деятельности.

SPECIFIC FEATURES OF USING PROFILING IN THE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF MILITARY PERSONNEL IN ENSURING PUBLIC SECURITY

Abstract: To improve the competence and professionalism of military personnel in ensuring public security, it is necessary not only to possess professional knowledge but also to develop communication skills, logical thinking abilities, and to master various psychological techniques, qualities, and methods. In order to establish psychological contact, military personnel involved in ensuring public security should be focused on creating favorable conditions and a psychological foundation for effective communication. The most important condition for effective communication is identifying the dominant representative system of the person interacting with the military personnel and relying on it during the subsequent communication process.

Keywords: law enforcement officer, law enforcement activities, authority, profiling, activity organization.

Jamoat xavfsizlini ta’minlashda harbiy xizmatchisi tomonidan kasbiy vazifalarning bajarilishi yuqori darajadagi shaxslararo munosabatlarni talab qiladigan kommunikativ o'ziga xoslik bilan bevosita bog'liq, Shaxslararo muloqot insonlar o’rtasidagi sub’ektiv qabul qilinadigan aloqa bo’lib, birgalikdagi faoliyat va muloqot jarayonida insonlar bir biriga o’tkazadigan o’zaro ta’sir turi va vositalarida ob’ektiv namoyon bo’ladi. Shaxslararo muloqot maqsad, yo’nalish, kutish, stereotip va shunga o’xshash dispozitsiyalar tizimi bo’lib, ular orqali odamlar bir-birini tushunadilar va baholaydilar. Jamoat xavfsizlini ta’minlashda harbiy xizmatchilari har bir insonning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishlari kerak. Aynan Jamoat xavfsizlini ta’minlashda harbiy

xizmatchining fuqarolar bilan shaxslararo muloqoti natijasida psixologik aloqaning o'ziga xos holati shakllanadi, bu esa ma'lumotlarning konstruktiv almashinuviga va qo'yilgan kasbiy vazifalarni hal etishga yordam beradi.

Shaxslararo muloqot orqali bir-birini tushinish, baholash bilan birgalikda psixologik xususiyatlarini, munosabatlarning rost yoki yolg'onni aniqlash mumkin. Bu yo'nalish fanga "Profayling" tushunchasini olib kirdi.

"Profayling" so'zining o'zi Isroil aeroportlarining maxsus xizmatlaridan olingan: aynan o'sha yerda yo'lovchining atrofdagilarga xavf tug'dirishini aniqlash uchun inson xulq-atvorini baholash va bashorat qilish majmuasi birinchi marta qo'llanila boshlandi.

B.N.Sirlievning fikriga ko'ra, "Profayling yoki profayl metodi – shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning xulqidagi o'zgarishlarni tashqi ifoda va hatti-harakatlar asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullardan foydalangan holda oldindan bashorat qilish imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir" deya ta'kidlaydi[8].

Biroq, zamonaviy profayling, har qanday odamning holatini baholashga, uning xarakterologik portretini tuzishga va shuningdek, insonning aytayotgan gaplariga ishonchli baho berishga yordam beradi.

Profayling texnologiyasini qo'llashda **kuzatuv va shubhali shaxslarni aniqlash** asosiy omil ekanligini ta'kidlash lozim. Ushbu bosqich quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- fuqarolarni ular turgan joylarda kuzatish;
- birlamchi ma'lumotlarni tahlil qilish va har birini baholash;
- potensial xavfli shaxsning profiliga mos keladigan shubhali belgilarni aniqlash;
- shubhali belgilarni namoyon etayotgan fuqaroni potensial xavfli toifaga kiritish.

Qoida tariqasida, kuzatuvni amalga oshirishning asosiy joylari ommaviy to'planish joylari, shu jumladan transport infratuzilmasi ob'ektlaridir:

- transport majmualari hududiga kirishdagi nazorat-o'tkazish punktlari;

[8] 3Пенитенциар психология: Маърузалар курси / Б.Н.Сирлиев, Р.Х.Душанов, Э.Н.Сирлиев, И.Х.Калонов, Д.А.Таджибаева ва бошқ.; Масъул муҳаррир Ш.Т.Икрамов.– Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016.

- vokzal oldi maydonlari va unga tutash hududlar;
- vokzallar, aeroportlar yoki stansiyalardagi ko'zdan kechirish punktlari;
- kutish zallari;
- kassalar;
- aeroportlardagi ro'yxatga olish joylari;
- chegara va bojxona nazorati zonalari;
- yo'lovchilarni tushirish/chiqarish joylari va h.k.

Ushbu joylarda profaylingni amalga oshirayotgan xodim yo'lovchilarni diqqat bilan kuzatadi va ularni baholaydi.

Ko'rsatilgan bosqichda baholash quyidagi belgilar bo'yicha amalga oshiriladi:

- tashqi ko'rinish;
- uning yonidagi buyumlar va bagaj;
- fuqaroning xulq-atvori.
- unga hamrohlik qilayotgan (kuzatayotgan) shaxslarning tashqi ko'rinishi va xulq-atvori.

Profaylingni amalga oshirayotgan xodim fuqoro haqida birinchi taassurotni hosil qiladi va uni ma’lum bir turga («biznesmen», «turist», «xizmat safaridagi shaxs», «sportchi» va h.k.) kiritadi.

Bunda xodim har qanday **nomuvofiqliklarga** alohida e’tibor beradi:

- shaxsning turi va uning belgilari o'rtasidagi;
- fuqaroning alohida belgilari o'rtasidagi;
- fuqaroning belgilari va umumiy vaziyat o'rtasidagi.

Har qanday nomuvofiqlik shubhali belgi sifatida talqin qilinadi.

Ko'rib chiqilayotgan bosqichda kuzatuv, tahlil va baholashni amalga oshirayotgan xodim o'ziga doimo quyidagi savollarni beradi:

- Mening oldimda kim turibdi?
- Bu qanday odam?
- U bu yerda nima qilyapti?
- Qayerga ketyapti?
- Qanday maqsadda?

- Uning kiyimi, buyumlari, bagaji, xulq-atvori va vaziyat o'zaro qanday bog'liq?
- Uning hissiy holati nima bilan bog'liq?
- Bunga nima sabab bo'lishi mumkin?

Bu savollarga javoblar fuqoroning tashqi ko'rinishi va xulq-atvoridagi shubhali belgilarga mantiqiy izoh topishga imkon beradi. Biroq, agar mantiqiy izoh xodimni qoniqtirmasa, u yo'lovchini potensial xavfli deb baholaydi.

Ushbu bosqichda xodimning diqqati, shuningdek, noqonuniy aralashuv aktini sodir etish bo'yicha bevosita tahdid soladigan shaxslarni tavsiflovchi tipik belgilarni aniqlashga qaratiladi.

Shubhali belgilar aniqlangan taqdirda, xodim shubhali fuqaro bilan bevosita aloqaga kirishishi va uni so'roq qilishi shart.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash xodimining shubhali fuqaro bilan o'zaro aloqasining ushbu bosqichi quyidagi operatsiyalarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- og'zaki so'rov o'tkazish;
- fuqaroning verbal va noverbal reaksiyalarini kuzatish;
- so'ralayotgan shaxsni potensial xavf toifalaridan biriga kiritish.

Ushbu bosqichning maqsadi shubhani bartaraf etishdir. Bunda shubhalarni tarqatishi yoki kuchaytirishi mumkin bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olishga qaratilgan aniqlashtiruvchi savollardan foydalaniladi.

Savollar maqsadlar, marshrut, shaxsiyat, tashish hujjatlari, bagaj, buyumlar va hokazolarga tegishli bo'lishi mumkin. So‘rov davomida xodim berilayotgan savollarga reaksiyalarni kuzatadi, so‘ralayotgan shaxsning xulq-atvori belgilarini nazorat qiladi va baholaydi. Bunda fiziologik va hissiy holat belgilariga, shuningdek, uning samimiyligi va samimiyatsizligiga alohida e'tibor beriladi, chunki bu holatlar so‘rov davomida olinayotgan ma'lumotlarni baholashga ta'sir qilishi mumkin. Vaziyatga nomaqbul va mos kelmaydigan reaksiyalar, shuningdek, yolg'onchilik belgilari shubhalarni kuchaytiradi. Og'zaki so'rov natijalariga ko'ra, fuqaroni to'rtta potensial xavf toifasidan biriga kiritish kerak:

- «past xavf»,
- «oddiy xavf»,

- «yuqori xavf»,
- «o'ta yuqori xavf».

«Past xavf» toifasiga «xavfsiz fuqaro» profiliga mos keladigan ijobiy belgilarni namoyon etuvchi fuqarolar kiradi.

«Oddiy xavf» toifasidagi fuqarolarga shubhali belgilari so‘rov davomida tasdiqlanmagan shaxslar kiradi. Bunday shaxslar «oddiy fuqaro» profiliga mos keladi.

«Yuqori xavf» toifasiga shubhali belgilari so‘rov davomida qo‘shimcha tasdiq topgan fuqarolar kiradi. Ularning profili «potensial xavfli» deb belgilanadi.

«O‘ta yuqori xavf» toifasidagi fuqarolar so‘rov davomida salbiy (kritik) belgilarni namoyon etadigan shaxslardir. Ular ham «potensial xavfli» profiliga kiritiladi.

Belgilangan potensial xavf toifasiga qarab, fuqaroga nisbatan profayling texnologiyasini qo'llashning yakuniy bosqichida amalga oshiriladigan qo'shimcha tekshiruv choralari qo'llaniladi.

«Yuqori xavf» va «o'ta yuqori xavf» toifasidagi fuqarolarga nisbatan majburiy tartibda batafsil qo'shimcha so'rov, shaxsiy ko'zdan kechirish, shuningdek, shaxsiy buyumlar va bagajni ko'zdan kechirish qo'llaniladi. Bunda ko‘zdan kechirish ham qo‘lda (qo‘lda ko‘zdan kechirish), ham maxsus texnik vositalarni qo‘llagan holda (instrumental ko‘zdan kechirish) amalga oshiriladi.

Kuzatuv bilan bir qatorda, profayling o‘tkazishda qo‘llaniladigan eng muhim usul – shubhali belgilarni namoyon etayotgan potensial xavfli shaxsni so‘roq qilishdir. Bu paydo bo'lgan shubhani bartaraf etish, uni tasdiqlash yoki inkor etish maqsadida o'tkaziladi.

So'rovning vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. potensial tahdidni aniqlash nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lgan verbal va noverbal ma'lumotlarni olish;
2. muloqot davomida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha shubhali belgilarni aniqlash.

Odatda, yashiradigan hech narsasi bo'lmagan xavfsiz («oddiy») fuqarolar o'zlaridagi buyumlar va bagajlarining tarkibi haqidagi savollarga bajonidil javob berishadi. Shuning uchun xodim bilan muloqot qilishdan bosh tortish shubhalarni

kuchaytiruvchi va qo'shimcha tekshiruvni talab qiluvchi belgi sifatida baholanishi mumkin.

Fuqarolar bilan ko'zdan kechirish va so'rov doirasida o'zaro muloqotni taxminan quyidagi mazmundagi kirish jumlasi bilan boshlash tavsiya etiladi: «Kechirasiz. Sizning va atrofdagilarning xavfsizligi uchun sizga bir nechta savol berishim kerak».

Ba'zan fuqarolar, ehtimol o'zlari bilmagan holda, o'z buyumlarida xavf tug'diradigan ma'lum narsalarni olib o'tishlari mumkin.

Fuqarolar bilan muloqot jarayonida xodim suhbatdoshning ruhiy holati o'zgarishini va uning reaksiyalarini nazorat qilishi kerak. Bunda samimiyatsizlik, yolg'on va aldovning namoyon bo'lishi alohida hushyorlikni talab qiladi, chunki ular potensial xavfli shaxslarning kritik belgilari hisoblanadi.

Aldovning noverbal belgilariga quyidagilar kiradi:

- to'g'ridan-to'g'ri nigoh (puxta o'ylangan va oldindan tayyorlangan yolg'on holatida);
- nigohni pastga va chetga qaratish;
- ifodasiz mimika;
- o'rinsiz, assimetrik tabassum;
- yelka qisish;
- gapirayotganda og'izni qo'l bilan berkitish;
- lablar, burun, ensa, bo'yinga tegish;
- lablarni tishlash;
- kaftlarni ishqalash;
- tanani suhbatdoshdan teskari tomonga burish;
- quruq va hissiyotsiz ovoz.

Verbal belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- nutqiy xabarlarning sxematikligi, yodlanganligi;
- axborotni uzatishning tuzilmaviy, xronologik usuli;
- cheklangan miqdordagi tafsilotlar (jumladan, kutilmagan va ortiqcha);

- ixtiyorsiz e'tibor va yodda saqlash doirasiga tushishi kerak bo'lgan holatlarni bilmaslik;
- begonalashgan nutq (o'z ruhiy holatini tasvirlamaslik);
- salbiy iboralardan foydalanish («emas», «na» yuklamalari bilan);
- ko'zbo'yamachilik uchun samimiylik va rostgo'ylikni namoyish etish.

Shuni ta'kidlash kerakki, xulq-atvordagi ushbu xususiyatlarning namoyon bo'lishi har doim ham uning samimiyatsizligi yoki biror narsada aybdorligini bildirmaydi. Biroq, ularning namoyon bo'lishi xodimning kasbiy vazifalarini bajarish jarayonida shubhalarini kuchaytirishi kerak. Bu esa ushbu shaxsni yanada sinchkovlik bilan tekshirish uchun asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, shubhali fuqaroni sifatli so'roq qilish paydo bo'lgan shubhalarni bartaraf etishga imkon beradi. Muloqot davomida ular tarqalishi ham, kuchayishi ham mumkin. Shu bilan birga, so'rov fuqaroni potensial xavf toifasiga aniqroq kiritishga va unga muvofiq harakat qilishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tarasenko Yu. «Profayling: odamlarni tushunishni qanday o'rganish kerak» [Elektron resurs] http://www.psychologies.ru/self-knowledge/profayling-kaknauchitsya-razbiratsya-v-lyudyah/.
2. Kochesokova Z.X., Gelyaxova L.A., Mashekuasheva M.X. Diniy fundamentalizmning ba'zi xususiyatlari. Fanda yangi so'z: rivojlanish istiqbollari. 2015. № 4 (6). 230-231-betlar.
3. Mashekuasheva Margarita Xasanbievna, Kochesokova Zalina Xazratalievna, Gelyaxova Leyla Abdullahovna «IIO xodimlarining kasbiy faoliyatida qonuniy psixologik ta'sir masalalari» // Jamiyat rivojlanishining nazariyasi va amaliyoti. 2014. №12.

PROFAYLING – SHAXS XATTI-HARAKATLARI VA MULOQOT JARAYONINI O‘RGANISH USULI.

I.I.Rejametova

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi” dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Mazkur tezisda profayling usulining mazmuni va mohiyati, uning psixologik, ijtimoiy va amaliy jihatlari yoritilgan. Profayling – shaxsning xatti-harakatlari, mimika va jestlari, nutq ohangi hamda boshqa noverbal belgilar asosida psixologik portretini tuzish usuli sifatida tavsiflanadi. Ushbu metodning ijtimoiy psixologiya, kriminologiya, pedagogika va huquqshunoslik fanlari bilan uzviy aloqadorligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Аннотация

В данной тезисе раскрываются содержание и сущность метода профайлинга, его психологические, социальные и практические аспекты. Профайлинг определяется как метод составления психологического портрета личности на основе анализа её поведения, мимики, жестов, интонации речи и других невербальных признаков. Показана тесная взаимосвязь данного метода с социальной психологией, криминологией, педагогикой и юриспруденцией.

Abstract

This thesis highlights the essence and significance of the profiling method, focusing on its psychological, social, and practical aspects. Profiling is defined as a method of creating a psychological portrait of an individual based on the analysis of their behavior, facial expressions, gestures, speech intonation, and other nonverbal cues. The close connection of this method with social psychology, criminology, pedagogy, and law is emphasized.

Tayanch boralar

Profayling. Psixologik portret. Tezkor psixodiagnostika. Emotsiyalarni tahlil qilish. Mimika va jestlar. Pantomimika. Noverbal muloqot. Psixologik kuzatish. Suhbat/intervyu. Grafologiya.

Ключевые термины

Профайлинг. Психологический портрет (профиль). Оперативная психодиагностика. Анализ эмоций. Мимика и жесты. Пантомимика. Вербальное общение. Невербальное общение. Психологическое наблюдение. Беседа/интервью. Графология.

Keywords

Profiling. Psychological profile. Rapid psychodiagnostics. Emotion analysis. Facial expressions and gestures. Pantomime (body language). Verbal communication. Nonverbal communication. Psychological observation. Conversation/interview. Graphology.

Profayling o‘zining tarkibiga - tezkor psixodiagnostika, emotsiyalarni tahlil qilish, manipulyativ texnikalar, gipnotexnologiya, so‘zamonlik, grafologiya, yuz ifodalari tahlili, mushaklar faoliyatini tahlil qilish va ijtimoiy psixologiyani qabul

fani ijtimoiy fanlar tizimida nisbatan navqiron, lekin juda tez rivojlanib borayotgan istiqbolli fanlardan biridir. Bu fanning rivojlanishiga avvalo ijtimoiy hayot va amaliyotning usib borayotgan extiyojlari, ya’ni jamiyatda bo‘layotgan ijtimoiy xodisalarning sotsial-psixologik jihatdan o‘rganib, tushuntirib berish zarurati turtki bo‘lmoqda. Profayling metodi hozirgi kunda psixologiya sohasining yangi rivojlanib kelayotgan qiziqarli hamda amaliy ahamiyatga ega b‘olgan tarmog‘idan biridir. Uni muammo sifatida nafaqat ijtimoiy psixologiya fani, shuningdek falsafa, pedagogika, mantik, xuquq va etika fanlari tizimida ham o‘rganiladi.

Profayling (inglizcha „profile“- profil) yoki profayl metodi - shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning xulqidagi o‘zgarishlarni tashqi qiyofasi va xatti-harakatlari asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullarni qo‘llab avvaldan bashorat qilish imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir. Profayl metodi asoschilari psixolog olimlar P.Ekman, V.Frizen, M.Sukerman va B.De.Paulo hisoblanadilar. 2012-yilda esa Y.Spiritsa tomonidan yolg‘onni tadqiq qilish bo‘yicha Xalqaro akademiyada kriminal profayling usuli taqdim etildi. Uning fikricha: kriminal

profayling - jinoyatchi deb taxmin qilinayotgan shaxs xususiyatlarini tashxislovchi kompleks usullar yordamida uning psixologik profilini tuzish tushuniladi.

Profayling - bu psixologik portret tuzishdir. 1888-yilda psixologik portret tuzishga uringanlardan biri britaniyalik jarroh Tomas Bond (u bu usulni chavaqlovchi Jek shaxsiga nisbatan qo‘llagan) hisoblanadi.

So‘ngi vaqtlarda, ayniqsa havo transportida, profayl-metod yoki profayling iborasi keng tarqaldi. Ushbu profayling metodi tajribasi Isroil, AQSH, Rossiya kabi davlatlarda bir necha yillardan beri takomillashib kelayapti. Profayling metodi ikkita bir-birini to‘ldiruvchi metoddan, ya’ni psixologik kuzatish va so‘rov (suhbat) metodidan tashkil topgan.

Profilaktika inspektorlari xizmat faoliyati davomidagi munosabatlar tizimi etnopsixologik xususiyatlarga bog‘liq xolda shakllanib boradi. O‘zbek xalqining tarixiy shakllangan an’analari, muayyan urf-odatlari, ma’lum udumlari, shaxslararo munosabati, muloqot maromi va fikrlash xususiyati boshqa xalqlarnikidan sezilarli darajada farq qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ichki ishlar organlari xodimlarining kasb bayrami munosabati bilan yullagan tabrigida “Ayni paytda militsiya xodimlarining aholi hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari bilan yaqin hamkorligi yanada mustaxkamlandi, ularning safarbarligi va sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi tezkor kurash olib borish imkoniyatlari oshib bormoqda” degan edi. Bu, o‘z navbatida, har bir xodimning faoliyati davomida va axoli bilan muloqot qilish jarayonida xushmuomalali bo‘lishga undaydi. Ichki ishlar organlari xodimlari profayling xizmatini uz faoliyatiga tatbiq etishda o‘zbek xalqining milliy xarakteri, fazilatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olishi lozim.

Milliy xarakter o‘z ichiga irodaviy sifatlarni (mustaqillik, chidamlilik, printsipiallik, o‘zini tuta bilish, bardoshlilik, qat’iylik, matonatlilik singari) va axloqiy xislatlarni (madaniyatlilik, xushmuomalalik, poklik, intizomlilik, samimiylik, xaqqoniylik, insonparvarlik va boshqalarni) qamrab oladi. Profayling metodi har bir profilaktika inspektori faoliyatida muxim urin egallaydi. Shuning uchun ham ushbu metodning psixologik qonuniyatlari va mexanizmlari faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Bu metod yordamida xodim psixologiya qonuniyatlariga tayangan xolda shaxslararo munosabatga kirishadi. Profayling jarayonida xodimning har qaysi bilish sifatlari

(xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimning mantiqiy fikrlashiga, xolatni o‘tmishdagi vaziyat bilan bog‘lashiga, o‘zaro solishtirish va kieslash malakasi, ob’ekti va sharoitini mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

Profayling bilan shugullanuvchi shaxslarni odatda profaylerlar deb yuritiladi.

Profaylerning o‘rganish ob’ekti sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin: - mimika; - jestlar; - xatti-xarakatlarning uziga xos xususiyatlari; - nutqning psixolingvistik qonuniyatlari; - verbal muloqotning paralingvistik alomatlari va boshqalar.

Har qanday axborot faqat belgilar, aniqrogi, belgilar tizimi orqali beriladi. Kommunikativ jarayonda foydalaniladigan bir qancha belgilar tizimi mavjud bo‘lib, ularga mos tarzda muloqot jarayonida foydalaniladigan vositalarni tasniflash mumkin. Nutqli (belgilar tizimi sifatida nutqdan foydalaniladi) va nutqsiz (turli nutqsiz belgilar tizimidan foydalaniladi) muloqot vositalari farqlanadi. Mulotsotning verbal va noverbal vositalarining tavsifi. Muloqotning psixologik vositalari ikkiga: verbal va noverbal shakllarga bo‘linadi va quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi: - og‘zaki nutq; - imo-ishora; - ezma nutq; - mimika; - pantomimika.

Nutq orqali axborotning mazmuni deyarli to‘liq beriladi. Verbal muloqot orqali shaxs o‘zining fikr-mulohazalarini bemalol bayon eta oladi. Profilaktika inspektori faoliyatida muloqotning nutqiy vositalaridan foydalanish o‘ta muhim o‘rin tutadi. Xodim xizmat faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan bevosita muloqot jarayonida yoki turli xil xujjatlarni tuzishda o‘z fikrlarini to‘gri ifodalash, ularni to‘gri bayon etishiga bog‘lik. Nutq muloqotning universal vositasi bo‘lsa-da, u faqat faoliyat tizimiga aloqador bo‘lgan sharoitdagina ahamiyatga ega bo‘ladi, faoliyatga daxldorlik esa muloqotning boshqa - nutqsiz vositalarini qo‘llash bilan to‘ldiriladi. Ushbu vositalarning birinchi guruhiga imo-ishora va mimika kiradi. Mimika - yuzning muloqot paytidagi dinamik ifodasi. Jest (imo-ishora) - jamiyatda ishlab chiqilgan va ruhiy xolatni ifodalaydigan harakat. Ularga qarab, biz insonning biror-bir voqeaga, shaxsga, narsaga munosabati xaqida xulosa qilamiz. Imo-ishora odamning istaklari, uning axvolidan darak berishi mumkin. Imo-ishoralar ijtimoiy shakllangan xarakatlar bo‘lib, shaxsning psixik xolatini kursatadi.

Ular asosida insonni u yoki bu xodisa, shaxs, predmetga b‘olgan munosabatini aniqlash mumkin. Insonning imo-ishoralari asosida uning xolatini tushunib olish mumkin. Inson gavdasining mimika, imo-ishora, intonatsiyalar vositasida uning psixik xolatini, ayniqsa, xis-tuygularini ifodalovchi xarakatlarga pantomimika deyiladi. Muloqotning nutqsiz vositasiga kiruvchi boshqa guruhini vokallashtirish tizimi, ya’ni ovoz sifati, uning diapazoni, ohangi va boshqalar tashkil etadi.

Profayling kontseptsiyasi aynan insonlarning profil ko‘rinishi va ular xulq-atvorining tuzilishiga qaratilgan va uni o‘rganishga yunaltirilgan tadqiqot sohasidir. Profayling metodining metodologik asosi bo‘lib, aynan insonlarning noodatiy xarakatlari, tashqi ko‘rinishidagi ba’zi belgilari, o‘zlarini tutishlari, gapirish ohangi, sur’ati va boshqa habar beruvchi a’zolarining o‘ziga xos xislatlari hisoblanadi. Masalan, biror-bir ko‘poruvchilik harakatlarini amalga oshirmoqchi bo‘lgan terrorchi shaxsni aniqlashda profayling metodining afzalliklari shundan iboratki, u orqali terrorchining yuz profili, umumiy va xususiy harakatlari, xujjatlari, olib o‘tayotgan buyumlarini o‘rganish hamda taxlil qilish orqali shaxsni xavfli yoki xavf tugdirmaydigan inson sifatida baholash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning IIV xodimlariga yo‘llagan tabrik nutqi. // *Xalq so‘zi,* 2020.
2. G.Qodirov, A., Jo‘rayev, M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
3. Xaydarov, R. Kasbiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
4. Karimova, V. Muloqot psixologiyasi. Toshkent: Universitet, 2012.
5. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o‘quv qo‘llanmalari: “Profilaktika inspektorining xizmat faoliyatida psixologiya”, Toshkent, 2021.

Маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратишда профайлинг технологияларининг аҳамияти

Алижонов Иброхимжон Рустамжон ўғли,
Жамоат хавфсизлиги университети Илмий-амалий тадқиқотлар маркази бош илмий ходими, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Мазкур мақола ALM-202310202738-сонли “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятида фойдаланиш учун инновацион профайлинг технологиясини ишлаб чиқиш” номли амалий илмий-тадқиқот доирасида бажарилган бўлиб, маҳаллаларда хавфсиз муҳитни таъминлашда профайлинг технологияларини қўллаш масалалари, шунингдек амалга оширилган илмий-тадқиқот натижаларидан жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашишда фойдаланиш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: маҳалла, хавфсиз муҳит, оммавий тадбирларни ўтказиш, истироҳат боғлари, хиёбонлар ва бозорлар, жиноят содир этган шахслар, психологик портрет, жамоат хавфсизлигини таъминлаш, профайлинг, жиноятчиликка қарши курашиш.

Аннотация: Статья выполнена в рамках прикладного научно-исследовательского проекта №АЛМ-202310202738 «Разработка инновационной технологии профайлинга для использования в деятельности по обеспечению общественной безопасности». В ней рассматриваются вопросы применения технологий профайлинга для обеспечения безопасности в жилых кварталах, а также разработка предложений и рекомендаций по использованию результатов исследования для обеспечения общественной безопасности и борьбы с преступностью.

Ключевые слова: жилой квартал, безопасная среда, проведение массовых мероприятий, парки отдыха, скверы и рынки, лица, совершившие преступления,

психологический портрет, обеспечение общественной безопасности, профайлинг, борьба с преступностью.

Abstract: This article was carried out within the framework of the applied scientific research project No. ALM-202310202738 entitled “Development of innovative profiling technology for use in public safety activities”. It addresses the issues of using profiling technologies in ensuring a safe environment in neighborhoods, as well as the development of proposals and recommendations on using the results of the research to ensure public safety and combat crime.

Keywords: neighborhood, safe environment, holding public events, recreation parks, squares and markets, perpetrators of crimes, psychological portrait, ensuring public safety, profiling, combating crime.

Жамиятда хавфсиз муҳитни таъминлаш давлатнинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. Бу жараёнда маҳалла институтининг роли катта аҳамият касб этади. Чунки маҳалла — аҳолининг кундалик турмуш тарзи, ижтимоий муносабатлари ва барқарорлиги билан узвий боғлиқ ижтимоий макон ҳисобланади.

Шу сабабли Президентимиз томонидан маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда, хусусан муҳтарам Президентимизнинг 2025 йил 3-январдаги “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-1-сонли Қарорлари[1] асосида маҳаллаларда ҳуқуқбузарликларни олдини олиш ва криминоген вазиятни барқарорлаштиришнинг мутлақо янги механизмлари жорий этилди, жумладан илмий ва таълим муассасалари криминоген вазияти оғир маҳаллаларга бириктирилиб жиноятларнинг асл омили, сабаб ва шароитларини аниқлаш орқали уларни бартараф этиш чораларини ишлаб чиқиш амалиёти йўлга қўйилди.

Шу билан бирга, мазкур ишларнинг мантиқий давоми сифатида Президентимиз 2025 йил 18 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига маҳаллаларда жиноятчиликнинг барвақт

олдини олиш тизими натижадорлигини янада оширишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ПҚ-253-сон Қарорлари [2] имзоланиб илмий ва таълим муассасалари учун **“илмий хулоса — тавсия — натижа”** тамойили асосида бириктирилган криминоген вазияти мураккаб маҳаллаларда хавфсиз ҳудуд яратиш асосий вазифалардан бири этиб белгиланди.

Мазкур Қарор билан тасдиқланган **“Криминоген вазияти мураккаб маҳаллаларда жиноятларнинг олдини олиш бўйича манзилли чоралар Концепцияси”**да[3] маҳаллаларда фуқаролар ҳаёти, соғлиғи ва мол-мулкига ҳар қандай тажовузларнинг олдини олиш мақсадида ҳуқуқбузарликлар профилактикасига замонавий рақамли технологиялар ва техник воситаларни кенг жорий этиш асосий вазифалардан бири этиб белгиланган.

Дарҳақиқат, таҳлилларга кўра, сўнги беш йилда (2019-2023 йиллар) мамлакатимизда қайд этилган жиноятлар сони **2,3 баробарга** ошган. 2019-йилда **46 089 та** (ҳар 100 минг аҳолига 13,7 та) жиноят қайд этилган бўлса, 2023-йилда бу кўрсаткич **104 096 тага** (ҳар 100 минг аҳолига 28,3 та) ортиб кетган. Мазкур рақамлар жиноятлар тоифалари бўйича таҳлил қилинганида, ҳисобот даврида оғир жиноятлар **29 145 та** (3 467 тага ошиб кетган)ни ташкил этган бўлса, ўта оғир жиноятлар сони **4318 та** (800 тага ошиб)ни ташкил этган[4].

Юқоридаги таҳлиллар, мамлакатимизда жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратишда замонавий технологиялари ва илғор хорижий давлатлар тажрибаларини Ўзбекистонга татбиқ қилиш долзарб аҳамият касб этаётганлигини асослайди.

Халқаро амалиётда жиноятчиликнинг олдини олиш, хавфсизликни таъминлаш ва профилактик чора-тадбирларни кучайтиришда профайлинг технологиялари кенг қўлланилмоқда.

Жумладан, АҚШда хавфсизлик соҳасида профайлинг технологиялари аэропортлар, вокзаллар ва йирик аҳоли масканларида қўлланилади. Масалан, Transportation Security Administration (TSA) ташкилоти "behavior detection officers" тизимини йўлга қўйган бўлиб, улар одамларнинг ташқи кўриниши ва хулқ-атворини кузатиш орқали хавфни баҳолайдилар[5].

Европа мамлакатларида, жумладан Германия ва Буюк Британияда профайлинг технологиялари полиция ишларида жиноятларни башорат қилишда қўлланилади. Масалан, Германиянинг **"Precobs" (Pre Crime Observation System)** дастури маълумотлар таҳлили ва профайлинг асосида муайян ҳудудларда жиноятчилик эҳтимолини аниқлайди[6].

Шунингдек, Японияда полиция аҳоли билан яқин ҳамкорликда ишлайди, маҳаллий ҳудудлардаги профилактика марказлари орқали одамларнинг турмуш тарзи кузатилиб, эҳтимолий хавфли шахслар ҳақида маълумотлар йиғилади. Бу жараёнда бихевиорал профайлинг ва ижтимоий мониторинг усуллари самарали қўлланилади[7].

Профайлинг (инг л. profiling) — муайян шахс ёки гуруҳнинг хатти-ҳаракатлари, ташқи белгилар ва ижтимоий-психологик хусусиятлари асосида уларнинг хатарли ёки хавфсиз эканини башорат қилиш технологиясидир.

Профайлингнинг асосий мақсади — потенциал хавфли шахсларни аниқлаш, уларни ўз вақтида назорат қилиш ва жиноят содир этилишининг олдини олишдан иборат.

Профайлингда қуйидаги асосий йўналишлар ажратилади:

Бихевиорал профайлинг – шахснинг хатти-ҳаракатлари ва эмоционал ҳолати орқали таҳлил қилиш.

Социопсихологик профайлинг – шахснинг ижтимоий роли, психологик хусусиятлари ва муносабатларини баҳолаш.

Криминологик профайлинг – жиноят содир этган шахсларнинг умумий типологияси асосида башорат қилиш.

Маҳаллаларда ушбу технологиялардан фойдаланиш “маҳалла еттилиги”, жумладан профилактика инспектори ва миллий гвардия ходимларига шубҳали хатти-ҳаракатларини яхшироқ англаш, жиноят ва ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олиш имконини беради.

ALM-202310202738-сонли “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятида фойдаланиш учун инновацион профайлинг технологиясини ишлаб чиқиш” номли амалий илмий-тадқиқот лойиҳаси доирасида профайлинг технологияларини

Ўзбекистон шароитига мослаб ишлаб чиқиш ва қўллаш бўйича катта тажриба ортилиб, яхши натижага эришилмоқда.

Жумладан, Миллий гвардиянинг жавобгарлик ҳудуди ҳисобланган шаҳар марказидаги бозорлар, савдо марказлари, истироҳат боғлари, хиёбон ва оммавий тадбир ўтказиш объектларида профайлинг технологияларини қўллашнинг илмий-назарий асослари яратилди ва Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги университетида “Ўзбекистон-Профайлинг мактаби” тамал тоши қўйилди.

Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқда-ки, профайлинг технологияларини нафақат Миллий гвардиянинг жавобгарлик ҳудудларида[8] қўллаш, балким маҳаллаларда фойдаланишни йўлга қўйиш жиноятларни барвақт олдини олиш ва маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратишда муҳим аҳамият касб этади.

Жумладан, профайлинг технологияларини маҳаллаларда жорий этиш қуйидаги имкониятларни яратади:

1. **Хавфли шахсларни эрта аниқлаш** – профилактика инспекторлари ва маҳалла фаоллари жиноят содир этиш эҳтимоли юқори бўлган шахсларни илгаридан билиб олади.

2. **Ахборот базасини яратиш** – маҳаллалардаги аҳоли тўғрисидаги маълумотлар электрон тарзда тўпланиб, уларнинг ижтимоий фаоллиги ва хатти-ҳаракатлари таҳлил қилинади.

3. **Жамоатчилик иштирокини кучайтириш** – аҳоли ҳам хавфли вазиятларни кузатиш ва маълумот бериш жараёнига жалб қилинади.

4. **Жиноятларни олдини олиш** – таҳлиллар асосида хавфли ҳудудлар ёки шахсларга нисбатан махсус профилактик чоралар кўрилади.

Юқоридагиларга асосан, қуйидагилар таклиф этилади:

1. Маҳаллаларда профайлинг технологияларини қўллаш бўйича илмий тадқиқотларни янада жадаллаштириш;

2. Дастлаб криминоген вазияти оғир маҳаллалар еттилигини, кейинги босқичда қолган барча маҳаллалар еттилигини Жамоат хавфсизлиги университетининг “Профайлинг курслари”да ўқитишни йўлга қўйиш;

3. Ички ишлар вазирлиги ва Рақамли технологиялари билан ҳамкорликда “хавфсиз шаҳар концепцияси”га профайлинг технологияларини киритиш ва махсус дастурий маҳсулотларни яратиш;

4. Профилактика инспекторлари, патрул-пост хизмати ва йўл ҳаракати хавфсизлиги хизмати ходимларини тўлиқ “Профайлинг курслари”да ўқитиш амалиётини йўлга қўйиш.

Фикримизча, маҳаллаларга профайлинг технологияларини жорий қилиш маҳаллалардаги криминоген вазиятни барқарорлаштириш, ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олиш орқали хавфсиз муҳитни яратиш, шунингдек пировардида аҳолининг осойишталигини таъминлашга, мамлакатимизнинг “хавфсиз давлат” сифатидаги имижини оширишга ва туристик ҳамда инвестициявий жозибадорлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3-январдаги “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-1-сонли Қарори //http:www.lex.uz.//.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 18-августдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига маҳаллаларда жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш тизими натижадорлигини янада оширишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ПҚ-253-сон Қарори //http:www.lex.uz.//.

3. Шу ернинг ўзидан қаранг.

4. https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/crime-and-justice Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги.

5. U.S. Transportation Security Administration. Behavior Detection Officers Program. Washington, 2022.

6. Mohler, G. O. et al. “Randomized Controlled Field Trials of Predictive Policing.” Journal of the American Statistical Association, 2015.

7. Bayley, D. H. “Patterns of Policing: A Comparative International Analysis.” New Brunswick, Rutgers University Press, 2016.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 29-ноябрдаги ПФ-27-сон қарори билан тасдиқланган “Жамоат хавфсизлиги концепцияси” //http:www.lex.uz.//

FUQAROLARNING XAVFSIZ HARAKATLANISHINI TA’MINLASHDA RAQAMLI PROFAYLING TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Tashmanov Y.B

O‘R IIV Malaka oshirish instituti katta o‘qituvchisi t.f.f.d. (PhD), dotsent

Zamonaviy shahar hayotida fuqarolarning xavfsiz harakatlanishini ta’minlash masalasi dolzarb bo‘lib, bunda raqamli texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Xususan, keng qo‘llanilayotgan videokuzatuv tizimlari xavfsizlikni ta’minlashda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu tizimlar oddiy kuzatuvdan tashqari, zamonaviy algoritmlar va raqamli profayling texnologiyalari bilan integratsiya qilinganda yanada samarali natija beradi.

Oddiy kuzatuv tizimlari faqatgina voqeani qayd etadi, biroq raqamli profayling bilan boyitilgan videokuzatuv real vaqt rejimida xavfli vaziyatlarni prognoz qila oladi va xavfsizlik xizmatlariga tezkor choralar ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Shu bois, videokuzatuv tizimlarini raqamli profayling texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish fuqarolarning xavfsiz harakatlanishini ta’minlashda eng samarali yondashuvlardan biri sifatida ko‘rilmoqda.

Raqamli profayling yordamida videokameralar orqali to‘plangan ma’lumotlar insonlarning xatti-harakati, yuz ifodasi, jamoat joyidagi harakatlanish tezligi va boshqa belgilar tahlil qilinadi. Bu esa, shubhali holatlarni erta aniqlash, xavf tug‘diruvchi shaxslarni aniqlash va fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash imkonini beradi. Ayniqsa, aeroport, temir yo‘l vokzali, metro va yirik tadbirlar o‘tkaziladigan hududlarda videokuzatuv asosidagi raqamli profayling xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi. Biroq, ushbu tizimlarning samarali ishlashida eng katta muammolardan biri real vaqt rejimida tahlil qilish qiyinligidir [1].

Minglab kameralar tomonidan uzluksiz qayd etilayotgan ma’lumotni inson kuchi yordamida tez va aniq tahlil qilish amalda deyarli imkonsizdir. Shu nuqtayi nazardan, xavfsizlik sohasida zamonaviy texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt

(SI) va mashina o‘rganish (MO) algoritmlari muammo yechimida markaziy rol o‘ynaydi.

Sun’iy intellekt va mashina o‘rganish algoritmlari yordamida videokuzatuv tizimlaridan kelayotgan katta hajmdagi ma’lumotlar real vaqt rejimida qayta ishlanishi mumkin. Bu algoritmlar odamlarning xatti-harakatini, yuz ifodalarini, odam oqimini va boshqa parametrlarni avtomatik tarzda tahlil qilib, shubhali vaziyatlarni erta aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, SI tizimlari o‘z tajribasidan o‘rganib, vaqt o‘tishi bilan aniqlik darajasini oshiradi, xatoliklarni kamaytiradi va xavfsizlik xizmatlariga tezkor qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi [2].

Sun’iy intellekt va mashina o‘rganish algoritmlarini videokuzatuv tizimlariga qo‘llashda eng samarali yondashuvlardan biri YOLO (You Only Look Once) modeli hisoblanadi. YOLO ob’ektlarni real vaqt rejimida aniqlash va tasniflashga mo‘ljallangan chuqur o‘rganish (deep learning) algoritmi bo‘lib, videokuzatuv oqimlaridagi har bir kadrni tezkor tarzda tahlil qiladi.

Bu model chuqur o‘qitish texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan dastlabki bir bosqichli obyektni aniqlovchi detektorlardan biri hisoblanadi. YOLO yuqori tezlikda ishlaydi: uning yengil versiyasi VOC07 bo‘lib u ma’lumotlar bazasida 52,7% aniqlik bilan 155 kadr/s tezlikda ishlaydi, takomillashtirilgan varianti esa 63,4% aniqlik bilan 45 kadr/s tezlikka erishgan. YOLO an’anaviy ikki bosqichli detektorlar tamoyilidan farqli ravishda, obyektlarni aniqlash uchun to‘liq tasvirni bitta neyron tarmoq orqali tahlil qiladi. Bu model tasvirni bir nechta hududlarga ajratib, har bir segment uchun chegara qutilari va ehtimolliklarni birdaniga bashorat qiladi [3].

YOLO tezlik jihatidan sezilarli ustunlikka ega bo‘lsada, ba’zi kichik obyektlarni aniqlashda ikki bosqichli detektorlar bilan solishtirganda lokallashtirishdagi aniqligi biroz pastroq bo‘lishi mumkin. Keyinchalik ishlab chiqilgan YOLO versiyalari va SSD modeli ushbu muammolarni bartaraf etishga ko‘proq e’tibor qaratgan. Eng so‘nggi taklif etilgan YOLOv7 modeli esa, dinamik belgilarni belgilash va model arxitekturasini qayta parametrlash kabi optimallashtirish usullarini joriy etish orqali tezlik va aniqlik jihatidan 5 dan 160

kadr/s gacha ishlash imkoniyatini ta’minlab, ko‘plab obyekt detektorlaridan yuqori natijalarni qayd etmoqda [4].

YOLO modeli va uning keyingi versiyalari paydo bo‘lishi bilan, obyektlarni aniqlashni bir bosqichda hal qilishga qaratilgan yondashuvlar katta e’tirofga sazovor bo‘ldi. Ushbu yondashuvda lokalizatsiya muammosi chuqur neyron tarmoqlari yordamida regressiya masalasi sifatida ko‘rib chiqiladi. YOLO obyektlarni aniqlash uchun Single Shot Detector (SSD) mohiyatidan foydalangan dastlabki algoritm hisoblanmaydi. So‘nggi yillarda bir bosqichli obyektni aniqlashga asoslangan turli algoritmlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularga Single Shot Detector (SSD), Deconvolution Single Shot Detector (DSSD), RetinaNet, M2Det, RefineDet++ kabi modellarni keltirish mumkin. Ikki bosqichli detektorlar murakkab va kuchli bo‘lgani uchun odatda bir bosqichli detektorlardan yaxshiroq natija ko‘rsatadi. Biroq, YOLO modeli nafaqat ikki bosqichli detektorlarga, balki oldingi bir bosqichli detektorlarga ham aniqlik va ishlash tezligi bo‘yicha samarali raqobatni ko‘rsatmoqda. Shuningdek, YOLO modeli boshqa SI va mashina o‘rganish texnologiyalari bilan integratsiya qilinib, raqamli profayling tizimlarini yanada samarali qiladi. Masalan, YOLO orqali aniqlangan shubhali shaxs yoki hodisa tahlil qilinib, xavf darajasi avtomatik tarzda baholanadi. Bu xavfsizlik xizmatlariga tezkor choralar ko‘rish, hodisani oldini olish va fuqarolarning xavfsiz harakatlanishini ta’minlash imkonini beradi [5].

Shu tariqa, YOLO modeli videokuzatuv tizimlari va raqamli profaylingni birlashtirish orqali xavfsizlik tizimlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va real vaqt rejimida aniqlikni ta’minlaydi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash va fuqarolarning erkin harakatlanishini nazorat qilishda odamlarni aniqlash va hisoblash muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, yirik shaharlar, transport infratuzilmasi, aeroport va temir yo‘l vokzallari, shuningdek, katta tadbirlar joylarida odamlar oqimi juda katta bo‘ladi. An’anaviy monitoring usullari bu oqimni real vaqt rejimida nazorat qilishda yetarli samaradorlik bermaydi.

Shu nuqtayi nazardan, videokuzatuv tizimlari va raqamli profayling texnologiyalari integratsiyalashgan holda odamlarni aniqlash va hisoblash

imkonini yaratadi. Sun’iy intellekt va mashina o‘rganish algoritmlari yordamida kameralar orqali har bir shaxs aniqlanadi, ularning harakatlari tahlil qilinadi va umumiy statistika shakllantiriladi. Bu nafaqat xavfsizlikni oshirish, balki jamoat transporti va yirik tadbirlar joylarida oqimni samarali boshqarish, tirbandlik va favqulodda vaziyatlarni oldini olish imkonini ham beradi.

Amaliy jihatdan, YOLO yordamida har bir kameradan kelayotgan kadrlar tezkor tarzda qayta ishlanadi, odamlar oqimi monitoring qilinadi va shubhali holatlar avtomatik tarzda aniqlanadi. Bu texnologiya yordamida nafaqat jamoat joylarida odamlar soni hisoblanadi, balki ularning xatti-harakatlari va joylashuvi tahlil qilinadi, bu esa xavfsizlik choralarini samarali rejalashtirish imkonini beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sun’iy intellekt algoritmlari va raqamli profayling texnologiyalari videokuzatuv tizimlariga integratsiyasi odamlarning harakatini monitoring qilish, shubhali holatlarni aniqlash va xavf darajasini baholashda yuqori samaradorlik beradi. Aeroport, metro, stadion yoki jamoat transportida bunday yondashuv xavfsizlik xizmatlariga tezkor qaror qabul qilish imkonini yaratadi va fuqarolarning xavfsiz harakatlanishini ta’minlashda yechim sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гусев А.В., Сидоров Д.В. Методы и алгоритмы автоматического распознавания объектов в видеопотоке // Вестник компьютерных и информационных технологий. 2018. № 5. С. 3-10.

2. Петров М.Н., Ларионов В.А. Применение глубоких нейронных сетей для детектирования и классификации объектов в системах видеонаблюдения // Информационные технологии. 2019. Т. 25. № 7. С. 411-418.

3.Peiyuan Jiang, Daji Ergu, Fangyao Liu, Ying Cai, Bo Ma: A Review of Yolo Algorithm Developments. Procedia Computer Science Volume 199, 2022, Pp:1066-1073.

4.Rishabh Singh: Understanding and Implementing Faster R-CNN. Medium, October 15, 2024.

5.Wei Liu, Dragomir Anguelov, Dumitru Erhan, Christian Szegedy, Scott Reed, Cheng-Yang Fu, Alexander C. Berg, “SSD: Single Shot MultiBox Detector”. Google Inc., University of Michigan.

ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ЖИНОЯТЧИЛИГИГА ҚАРШИ КУРАШДА ПРОФАЙЛИНГДАН ФОЙДАЛАНИШ

Ахмедова Манзура Авазжон қизи

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси

Олий таълимдан кейинги таълим факультети докторанти

Аннотация. Ушбу мақолада жиноятачиликка қарши курашда жумладан вояга етмаганлар томонидан содир қилинадиган жиноятларга қарши курашда профайлингдан фойдаланишнинг ўрни ва аҳамияти тўғрисида фикр юритилган. Бундан ташқари профайлингни ривожланган хорижий давлатлар тажрибаси асосида Ўзбекистон шароитига мослаштириш бўйича айрим таклиф ва тавсиялар билдирилган.

Калит сўзлар. Профайлинг, жиноят, жиноятчилик, жиноятчиликка қарши кураш, криминалистика, психологик таҳлил, криминалистик профайлинг

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и значение использования профайлинга в борьбе с преступностью, в том числе в борьбе с преступлениями, совершаемыми несовершеннолетними. Кроме того, были высказаны некоторые предложения и рекомендации по адаптации профайлинга к условиям Узбекистана на основе опыта развитых зарубежных стран.

Ключевые слова. Профайлинг, преступление, преступность, борьба с преступностью, криминалистика, психологический анализ, криминалистический профайлинг

Abstract. This article discusses the role and importance of using profiling in combating crime, including crimes committed by minors. In addition, based on the experience of developed foreign countries, some proposals and recommendations were made for adapting profiling to the conditions of Uzbekistan.

Keywords. Profiling, crime, criminality, combating crime, criminalistics, psychological analysis, forensic profiling

Ривожланган давлатларда, хусусан, АҚШ ва Буюк Британияда криминалистик профайлинг (criminal profiling) жиноятларни тергов қилиш ва

очишда муҳим ўрин эгаллайди. Бу усул жиноят жойидаги далиллар, қурбон хусусиятлари ва жиноятчининг рафторини таҳлил қилиш орқали жиноятчининг психологик портретини яратишга асосланади. АҚШда Федерал тергов бюроси (ФБР) томонидан ишлаб чиқилган бу усул серияли қотиллик, зўравонлик ва террорчилик жиноятларини тергов қилишда кенг қўлланилади, чунки у гумонланувчилар доирасини қисқартириш ва жиноятчининг келажакдаги ҳаракатларини тахлил қилишга ёрдам беради. Буюк Британияда эса профайлинг “offender profiling” деб номланиб, полиция ва суд экспертлари томонидан жиноят ишларининг психологик таҳлили учун қотиллик ва зўравонлик ҳолатларида доимий фойдаланилиб келинмоқда[9].

Ўзбекистонда криминалистик профайлинг ҳали ҳам ривожланиш босқичида бўлиб, лекин унинг аҳамияти жиноятчиликка қарши курашда ортиб бормоқда. Бу усул жиноятларни тергов қилиш, гумонланувчиларни аниқлаш ва профилактика чораларини кўришда муҳим роль ўйнайди, хусусан, кибержиноятлар, уюшган жиноятчилик ва зўравонлик ҳолатларида. Ўзбекистонда профайлинг эксперт-криминалистик фаолиятнинг бир қисми сифатида қаралади ва унинг долзарблиги жиноятларнинг рақамлашуви билан боғлиқ – масалан, кузатув камераларидан фойдаланиб, жиноий хулқ-атворни таҳлил қилишда.

Криминалистик профайлинг – жиноятчининг психологик, ижтимоий ва хулқ-атвор хусусиятларини жиноят жойи, жабрланувчи ва далиллар таҳлили орқали аниқлаш усули бўлиб, жиноятчиликка қарши курашда муҳим ўрин эгаллайди. Ривожланган давлатларда, хусусан, АҚШ ва Буюк Британияда профайлинг серияли қотиллик, зўравонлик ва террорчилик жиноятларини тергов қилишда стандартлаштирилган восита сифатида қўлланилади, Ўзбекистонда эса бу усул рақамли трансформация ва кибержиноятларга қарши кураш доирасида ривожланмоқда. Ўзбекистонда профайлинг Ички ишлар вазирлигининг рақамли трансформация стратегияси доирасида, хусусан, кузатув камералари ва сунъий интеллект ёрдамида кибержиноятлар ва зўравонликка қарши курвшишда фойдаланилмоқда. Республика мутахассислар етишмаслиги, қонунчиликнинг

9 https://www.researchgate.net/publication/298520627_Offender_profiling_A_review_and_critique_of_the_approaches_and_major_assumptions

етарли эмаслиги ва техник ресурсларнинг чеклангланлиги турли хил амалиётдаги муаммоларни келтириб чиқармоқда. Ўзбекистонда профайлингнинг долзарблиги 2025 йилда киберҳужумларнинг 15% га ошиши прогнозлари ва уюшган жиноятчилик, инсон савдоси, наркотрафик каби муаммолар билан боғлиқ. Ривожланган давлатлар тажрибаси, хусусан, нейрон тармоқлар ва маълумотлар базаларидан фойдаланиш Ўзбекистонда профайлингни ривожлантириш учун муҳим йўналишдир. Буни амалга ошириш учун таълим дастурларини кучайтириш, қонунчилик базасини мустаҳкамлаш ва БМТ, халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликни ривожлантириш зарур. Профайлинг тергов самарадорлигини ошириш, гумонланувчиларни тезроқ аниқлаш ва жиноятларнинг олдини олишда марказий ўрин эгаллайди. Ўзбекистонда ушбу усулнинг тўлиқ жорий этилиши жиноятчиликка қарши курашни янги босқичга олиб чиқади, хусусан, рақамли даврда фуқаролар хавфсизлигини таъминлашда муҳим роль ўйнайди.

Бугунги кунда Ички ишлар вазирлиги томонидан рақамли трансформация доирасида профайлинг тизимлари жорий этилмоқда. 2025 йил май ойида ИИВ сунъий интеллект асосида профайлингни жиноятларни олдини олиш учун қўллашни режалаштирмоқда, бу кузатув камералари орқали шахсларнинг хулқ-атворини таҳлил қилишга имкон беради. Бундан ташқари Суд экспертизаси ва криминалистика соҳасида профайлинг ривожланмоқда.

Профайлинг жиноятларни тезроқ очишга, ресурсларни тежашга ва уюшган жиноятчиликка қарши курашга ёрдам беради, хусусан, Марказий Осиёдаги ўзига хос шароитларда (масалан, инсон савдоси ва наркотрафик). Айни пайтда, Ўзбекистонда жиноятчилик даражаси ортиши мумкин бўлган рақамли ҳужумлар ва киберҳуқуқбузарликлар кўпаймоқда, шунинг учун профайлингнинг рақамли версияси муҳим саналади[10]. Унинг аҳамияти тергов органларининг самарадорлигини ошириш ва фуқаролар хавфсизлигини таъминлашга ҳизмат қилади.

Ривожланган давлатлар тажрибаси асосида Ўзбекистон профайлингни қонуний база ва таълим дастурлари билан ривожлантириши мумкин, бу

[10] https://kun.uz/kr/news/2023/04/15/ozbekiston-jinoyatchilik-darajasi-ortacha-bolgan-davlatlar-royxatiga-kirdi?ysclid=menukf68dm768543956

жиноятчиликка қарши курашнинг янги даражасига олиб чиқади.мисол тариқасида укелтирадиган бўлсак АҚШ ФБРнинг Behavioral Analysis Unit (BAU) махсус методика асосида шахсларнинг психологик портретини тузиш, жиноят содир этиш эҳтимоли юқори бўлган шахсларни олдиндан аниқлашда қонуний асос сифатида қўлланилади. Бу тизимда шахсий маълумотлардан фойдаланиш қатъий қонунлар билан тартибга солинади[11]. Яня бир қанча ривожланган давлатлар Германия, Франция ва Нидерландияда профайлинг тизими кибержиноятчилик, терроризм ва уюшган жиноятчиликка қарши самарали йўналтирилган. Япония полиция тизимида "risk-based profiling" амалиёти йўлга қўйилган. Бу орқали ёшлар орасидаги жиноятчилик ва кибер таҳдидларни олдиндан башорат қилиш мумкин бўлмоқда[12].

Ўзбекистонда профайлинг тизимини қонуний асосга солиш учун қуйидагилар таклиф этилади:

- ЖПК ва МЖтКга қўшимча моддалар киритиш: профилактик суҳбат, шахснинг психологик портретини аниқлаш жараёнида фақат суд рухсати билан маълумот йиғиш амалиёти йўлга қўйилиши лозим.

- “Профайлинг тўғрисида” алоҳида қонун қабул қилиш. Унда қуйидагилар белгиланиши лозим:шахсий маълумотларни ҳимоя қилишнинг кафолатлари; психолог ва педагоглар иштирокида суҳбат олиб бориш тартиби; фақат ижтимоий хавфи юқори бўлган ҳолатларда қўллаш чегаралари.

- Таълим дастурлари ва кадрлар тайёрлаш: Профайлингнинг самарали йўлга қўйилиши кадрлар тайёрлаш билан узвий боғлиқ бўлиб, Ички ишлар академиясида “Криминал психология ва профайлинг” фанини жорий қилиш. Бу фан орқали курсантлар шахснинг ҳаракатини таҳлил қилиш, психологик портрет тузиш, жиноятга мойилликни тахлил қилиш малакаси ўзлаштирилади.

-Педагог ва психологлар тайёрлов дастурлари: Мактаб ва олий таълим муассасаларида ишлаётган педагогларни профайлингнинг асосий элементлари билан таништириш орқали эрта ёшдан жиноятчилик профилактикасини кучайтириш мумкин.

[11] Privacy Act, 1974; Criminal Intelligence Systems Operating Policies
[12] https://www.newbalancejobs.com/fbi-behavioral-analysis-unit-bau/

-Халқаро ҳамкорлик дастурлари: Германия[13], Япония[14] ва АҚШ полиция[15] академиялари билан қўшма семинарлар, онлайн курслар ташкил этиш орқали жиноятларни олдиндан кўра билиш имконияти ортиши, вояга етмаганлар орасидаги жиноятчиликни камайтириш, педагог, психолог ва ҳуқуқ-тартибот органлари ўртасида самарали ҳамкорлик шаклланишига эришилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. https://www.researchgate.net/publication/298520627_Offender_profiling_A_review_and_critique_of_the_approaches_and_major_assumptions
1. https://kun.uz/kr/news/2023/04/15/ozbekiston-jinoyatchilik-darajasi-ortacha-bolgan-davlatlar-royxatiga-kirdi?ysclid=menukf68dm768543956
2. Privacy Act, 1974; Criminal Intelligence Systems Operating Policies
3. https://www.newbalancejobs.com/fbi-behavioral-analysis-unit-bau
4. German Congress on Crime Prevention. (2024). Annual congress reports.
5. National Police Academy of Japan. (2010). International Symposium on Crime Reduction Proceedings. National Police Agency.
6. Federal Bureau of Investigation (FBI). (2023). Behavioral Analysis Unit. U.S. Department of Justice.

[13] German Congress on Crime Prevention. (2024). *Annual congress reports.*
[14] National Police Academy of Japan. (2010). International Symposium on Crime Reduction Proceedings. National Police Agency.
[15] Federal Bureau of Investigation (FBI). (2023). Behavioral Analysis Unit. U.S. Department of Justice.

PROFAYLING METODINI QO‘LLANILISH SOHALARI

I.I.Rejametova

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi” dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O.X.Ergasheva

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur tezisda profayling metodining mohiyati va qo‘llanilish sohalari yoritilgan. Shaxsning xulq-atvori, mimika va imo-ishoralari asosida psixologik portretini yaratish usullari bayon etilib, uning jinoyatchilikni oldini olish, xavfsizlikni ta’minlash va shaxsni tahlil qilishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Аннотация

В тезисе раскрыта сущность метода профайлинга и сферы его применения. Описаны способы создания психологического портрета личности на основе поведения, мимики и жестов, а также показано его значение в предотвращении преступности, обеспечении безопасности и анализе личности.

Abstract

Profiling. Psychological profile. Nonverbal communication. Facial expressions and gestures. Behavior analysis. Criminal profiling. Observational skill. Congruence. Psychological contact. Ensuring security.

This thesis highlights the essence of the profiling method and its fields of application. It describes how psychological profiles of individuals are created based on

behavior, facial expressions, and gestures, emphasizing its role in crime prevention, security, and personality analysis.

Tayanch tushunchalar

Profayling –Psixologik portret –Noverbal muloqot –Mimika va imo-ishora – Hulq-atvor tahlili –Kriminal profayling Kuzatuvchanlik. Kongruentlik. Psixologik aloqa. Xavfsizlikni ta’minlash.

Профайлинг. Психологический портрет. Невербальное общение. Мимика и жесты. –Анализ поведения. Криминальный профайлинг. Наблюдательность. Конгруэнтность. Психологический контакт. Обеспечение безопасности.

Profayling texnologiyasi qanday ishlashini tushunish uchun haqiqiylik, ochiqlik, to‘g‘riso‘zlik ma’nolarini anglatuvchi “kongruentlik” (inglizcha congruence dan) tushunchasini aniqlab olish kerak. Mutaxassislarning aytishlaricha, kongruent xulq yaxlitlik, obro‘-e’tibor, qulaylik singari kechinmalarni aks ettiruvchi ichki holatni ifodalaydi. Bu noverbal ko‘rinishlar – so‘zlar, harakatlar va mimika, imo-ishora, intonatsiya, ovoz tembrining muvofiqligi, harakatlarning uyg‘unligi va vaziyatga muvofiqligi, ya’ni so‘zlarning harakatlar va mimikaga, ovoz intonatsiyasi va tembriga mos kelishi bo‘yicha tashqaridan seziladi (inson qayg‘urganida biz buni uning yuzida ko‘ramiz va ovozida eshitamiz, yoki, aksincha, u shodlansa, buni biz chehrasida, xatti-harakatlari, yurish-turishida, ovozida sezamiz). Ko‘pincha suhbatdoshning kongruentlik darajasi intuitiv ravishda va anglanmagan holda baholanadi

Profayling (ing.”*profile” – profil*) yoki profayl metodi – shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning hulqidagi o‘zgarishlarni tashqi ifoda va xatti-harakatlar asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullardan foydalangan holda oldindan bashorat imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir.

Bu usul ko‘pincha jinoyatchilikni tushunish va oldini olish maqsadida foydalaniladi.

Profayling quyidagi yo‘nalishlardan tashkil topadi:

1. Psixologik profayling.

Shaxsning psixologik xususiyatlarini, ichki holatini va xulq-atvorini tahlil qilish. Bu usulda shaxsning xarakteri, motvatsiyalari va ehtimoliy harakatlari aniqlanadi.

- 2. Demografik profayling.
- Shaxsning ijtimoiy tarkibi (yoshi, jinsi, millat, ta’limi va boshqa demografik o‘lchovlari)
- 3. Hulq-atvor profayling.
- Shaxsning xulq-atvori, odatlari va kundalik hayoti haqidagi ma’lumotlarga asoslanadi.
- Jinoyat profaylingi.

Jinoyatlarni tadqiq qilishda ishlatiladi.

Jinoyatlarni aniqlashda ishlatiladi

Profayl metod asoschilari

psixolog olimlar

- P.Ekman, V.Frizen, M.Sukerman va
- B.De Paulolar hisoblanishadi.
- 2012 yil Yolg‘onni tadqiq qilish bo‘yicha Halqaro Akademiyada Ye.Spiritsa tomonidan kriminal profayling usuli taqdim etilgan.

Inson hulqi va uning xatti-harakatlarini oldindan bashorat etish uchun alohida qobiliyatga ega bo‘lish yoki ko‘plab kitoblar o‘qish shart emas, buning uchun insonlarga, ularni xatti-harakatlarini o‘rganishga qiziqish bo‘lsa bo‘ldi.



Profayl metodi samaradorligini ta’minlaydigan asosiy jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Kuzatuvchanlik xususiyatini shakllantirish (vizuallashtirish)
- Muomalada kirishimlilik, fuqarolar bilan oson til topish;
- Psixologik aloqa o‘rnata olish;
- Shaxslarga psixologik ta’sir o‘tkaza olish;

- Rolga kirishish;
- Shaxslarning tana harakatlarining(pantomimika) ma’nosini bilish;
- Shaxslarda uchraydigan mimikalarni, jestlarni, imo-ishoralarni, to‘g‘ri talqin qilish.

Mimika *– shaxsning ichki ruxiy xolatini aks ettiruvchi yuz muskullarining xarakati*

Imo-ishora (Jest) *– biror sO‘z va ma’noni Qo‘l va tana Harakatlarida aks etishi, kuzatilishi.*

Shaxs profilini yaratishda birinchi bo‘lib e’tiborni qaratish zarur bo‘lgan jihatlarni E.Krechmer taklif etgan. Uning fikricha shaxsning gavda tuzilishga tavsifiga ahamiyat berish zarur hisoblanadi. Tajribalarda esa quyidagi fikrlar kuzatiladi.

Astenik tip egalari – o‘g‘rilik, firibgarlik, tovlamachilikka moyil bo‘ladilar.

Asteniya (yunoncha astenia – darmonsizlik) – asabiy-ruhiy quvvatsizlik; bunday bemorning kayfiyati o‘zgaruvchan bo‘lib, tez toliqadi, ozib ketadi, uyqusi buziladi. Yig‘loqi bo‘lib qoladi; vegetativ nerv sistemasining vazifasi izdan chiqadi, uzoq vaqtgacha bosh og‘riydi. Boshdan kechirilgan kasalliklar, shikastlanishlar, ruhiy toliqish, ichki a’zolar xastaligi (me’da yara kasalligi, gastrit, kolit, xolesistit va boqalar), miya shikastlanishi va boshqa asteniyaga sabab bo‘ladi. Asteniya yuqumli kasalliklardan tuzalish davrida kuzatiladigan holatlardan biri

Piknik tip egalari muttahamlik va qalloblikka moyil bo‘ladilar.

Atletik tip egalari zo‘ravonlik harakatlariga moyil bo‘ladilar.



Xulosa sifatida shuni kayd etish mumkinki, ushbu metodning afzalligi shundaki, u kisqa fursat ichida shaxs haqida to‘lik axborot manbaiga ega bulishi mumkin.

Profaylingni yolg‘onni bilib olish va haqiqatni aniqlash usullari haqidagi fan deb ham ta’riflash mumkin. Profayling konsepsiyasi shaxsning psixologik portretini yaratishga asoslanadi va uning xulqini tahlil qilishga tayanadi. Profaylingdan butun dunyo xavfsizlik xizmatlari jinoiy qilmish sodir etishlari mumkin bo‘lgan shaxslar (masalan, terrorchilik harakatlarini sodir etishga moyil shaxslar)ni aniqlashda foydalaniladi. Bu texnologiyalarning asosiy vazifasi xavfsizlikni ta’minlashdir.

Foydaanilgan adabiyotlar

1. Ekman P. **“Psixologiya luqoyasi: yuz ifodalarini o‘qish san’ati”**. – Moskva: Eksmo, 2012.
2. Ekman P., Friesen V. **“Unmasking the Face: A Guide to Recognizing Emotions from Facial Clues”**. – New Jersey: Prentice-Hall, 1975.
3. Zuckerman M., DePaulo B. **“Verbal and Nonverbal Communication of Deception”**. – New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, 1985.
4. Mehrabian A. **“Silent Messages”**. – Belmont, CA: Wadsworth, 1971.
5. Piz A. **“Jestlar tili”**. – Moskva: Eksmo, 2011.
6. Jo‘rayev M. **“Ijtimoiy psixologiya”**. – Toshkent: TDPU, 2019.
7. Azizxo‘jaev A.A. **“Psixologiya”**. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015

ПЕДАГОГ ВА ПСИХОЛОГНИНГ ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДАГИ ЎРНИ: ТАРИХИ ВА НАЗАРИЙ- ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Ахмедова Манзура Авазжон қизи
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
Олий таълимдан кейинги таълим факультети докторанти

Аннотация. Ушбу мақолада жиноят процессида вояга етмаганлар билан боғлиқ ишларда педагог ва психолог иштирокининг ўрни ва ўзига хос ҳусусиятлари таҳлили қилинган. Бундан ташқари ишни судга қадар юритиш босқичида педагог ва психолог иштирокининг тарихий ривожланиш босқичлари ва назарий-ҳуқуқий асослари бўйича баъзи фикр-мулоҳазалар келтирилган.

Калит сўзлар: педагог, психолог, жиноят, жиноят процесси, вояга етмаган, қонуний вакил, одил судлов, жиноят иши.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и особенности участия педагогов и психологов в делах, связанных с несовершеннолетними, в уголовном процессе. Кроме того, приведены некоторые мнения об этапах исторического развития и теоретико-правовых основах участия педагога и психолога на стадии досудебного производства.

Ключевые слова: педагог, психолог, преступление, уголовный процесс, несовершеннолетний, законный представитель, правосудие, уголовное дело.

Abstract. This article analyzes the role and specific features of the participation of a teacher and psychologist in cases involving minors in criminal proceedings. In addition, some considerations are given on the stages of historical development and the theoretical and legal foundations of the participation of a teacher and psychologist at the pre-trial stage of the case.

Keywords: pedagogue, psychologist, crime, criminal procedure, minor, legal representative, justice, criminal case.

Педагог ва психологнинг жиноят процесси иштирокчиси сифатида шаклланиши, тарихий ривожланишнинг муайян босқичида жиноят процессининг мақсад ва вазифалари ҳақидаги тасаввурларнинг ҳамда тергов ҳаракатлари ва суд жараёнларидаги, хусусан вояга етмаганларга нисбатан, тегишли ўзгаришларни акс эттирган ҳолда ўзининг оз бўлсада ахамиятли йўлини босиб ўтди. Жиноят процессида, айниқса, вояга етмаганлар иштирок этадиган ишларда педагог ва психологларнинг иштироки жабрланувчи, гумонланувчи ёки гувоҳ бўлган болаларнинг психологик ҳолатини тушуниш ва улар билан мулоқотни тўғри йўлга

қўйишда муҳим аҳамиятга эга. Улар боланинг руҳий хусусиятларини инобатга олиб, суд жараёнидаги стрессни камайтиришга ёрдам беради.

Педагог ва психологларнинг Жиноят процессида иштироки вояга етмаганлар ва махсус эҳтиёжли шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, суд жараёнининг адолатлилигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга бўлиб, уларнинг фаолияти Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси ва халқаро нормаларга асосланади ҳамда тарихий жиҳатдан 20-асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб болалар билан ишлашдаги психологик ва педагогик экспертиза заруратидан келиб чиқади.

Республикамиз ҳудудида мавжуд бўлган қадимги давлатларда жиноят ва жазо тизими эрамизнинг VII–VIII асрига қадар одат ҳуқуқи ҳамда зардўштийлик динининг асосий манбаси бўлган “Авесто” китоби асосида тартибга солинган.[16] “Авесто” китобининг “Вендидат” номли бобида жиноят ва жазо масалаларини тартибга солувчи қоидалар келтирилган бўлиб. “Авесто”нинг танланган мадхияларида қуйидагиларни кўришимиз мумкин - Хаома ичгандан сўиг, Ҳақиқат изма-из келар[17] авестода келтирилган ушбу жумлалар хақиқатни юзага чиқариш ва синаш усулларидан бири бўлиб, ёлғонни аниқлашда қўлланилган. Бундан ташқари ўт, қизиган темир, сув билан синаш орқали гумон қилинувчи ва айбланувчиларга ўзини хақлигини исботлашга имкон берилган. Араблар босқинидан то чор Россияси босқинига қадар эса, мамлакатимиз ҳудудидаги феодал давлат тузилмаларида, яъни Хива ва Қўқон хонлиги ҳамда Бухоро амирлигида жиноят ва жазо тизими одат нормалари билан биргаликда, диний-исломий қарашлар сингдирилган шариат нормалари билан ҳам тартибга солинган.[18]

Халқаро ҳуқуқ нормалари, масалан, БМТнинг Болалар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияси (1989) [19]болалар иштирок этадиган суд жараёнларида уларнинг психологик хавфсизлигини таъминлаш учун махсус мутахассислар (психолог ва педагоглар) жалб қилинишини талаб қилади.

[16] Б.Б. Муродов.Жиноят ишини тугатиш институтини такомиллаштириш, Докторлик диссертацияси. 2018-Т. 26-б
[17] Избр. Гимны. Пер. с анг. И. М. С теблин К ам енского. Душ анбе. - “А диб” , 1990. 112-бет. “Хаома- ширасига сут аралаштириб тайёрланган, яшил бутасимон эфедра ўсимлиги”.
[18] Б.Б. Муродов.Жиноят ишини тугатиш институтини такомиллаштириш, Докторлик диссертацияси. 2018-Т.26-б
[19] United Nations. (1989). Convention on the Rights of the Child. https://www.unicef.org/child-rights-convention

Ўтган даврларнинг ривожланиш босқичларидан маълумки, жиноят содир этишда гумонланаётган шахсларнинг берган кўрсатмаларида ёлғон маълумотларни аниқлаш борасида турли хил усуллар мавжуд бўлиб, афсуски бугунги кунда бу усуллар шафқатсиз хисобланади. Масалан, Африкада гумон қилинувчилар қабила аъзоларининг кўз ўнгида сўроқ қилиниб, қабила бошлиғи ёки сеҳргар сўроқ қилинувчини омма олдида ҳидлаб кўрган ҳолда текширган, агар гумон қилинувчининг танасидан тер ҳиди чиққан бўлса демак у айбдор деб топилган.[20] Қадимги Хитой давлатида хам гумонланувчилардан гуруч кукунини оғзига солиб, кейин тупиришларини талаб қилган. Агар кукун қуруқ бўлса, у инсон ёлғон гапрган хисобланган.[21]

Жиноят процессида педагог ва психологларнинг иштироки 20-асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб, айниқса, Ғарб давлатларида кенг тарқалди. Масалан, АҚШ ва Европа Иттифоқида болалар билан ишлашда психологик экспертиза 1960-1970 йилларда институционаллашди. Бу болаларнинг суд жараёнидаги иштирокининг психологик оқибатларини камайтириш мақсадида амалга оширилди. Педагогнинг сўроқда иштирок этиши тўғрисидаги қоиданинг қонунда мустаҳкамланиши тергов ҳаракатларида вояга етмаган шахснинг ёшига боғлиқ бўлган психофизиологик хусусиятларни инобатга олиш зарурияти билан боғлиқ дея тахмин қилиниб, унга ёндошиш, тегишли вазиятларда қўлланиладиган сўроқ қилишнинг тактик усуллурининг мақбуллигини назорат қилиш мақсадида педагогика ва ривожланиш психологияси бўйича махсус билимларга эга бўлган шахсни жиноят процессига жалб этилишига сабаб бўлади. Тан олиш керакки, педагогнинг вазифаси терговчилар томонидан суд жараёнидаги вояга етмаган иштирокчининг жараённи олиб борувчи мансабдор шахслар ва давлат органлари билан энг самарали бўлган ўзаро таъсирини яратишда кўмакчи сифатида кўриб чиқилган, яъни мутахассис сифатидаги роли билан белгиланган.

Жаҳон андозаларига назар ташласак, педагог ва психолог билимларини қўллаш юзасидан бир қанча тассавурларга эга бўлишимиз мумкин. Яъни, жиноят процессида психологнинг ўрни ҳақидаги ғояларни ривожлантиришнингг жиддий

[20] https://tergov.uz/oz/other/ustrojstva-opredeljajuschie-lozh-cheloveka-v-sledstvi (мурожаат қилинган сана) 27.01.2025
[21] https://us.sagepub.com/sites/default/files/upm-binaries/19734_Chapter_3.pdf (мурожаат қилинган сана) 27.07.2025

босқичи гувоҳликнинг ишончлилигини текшириш учун психологни жалб қилиш заруриятининг асосланиши эди. Бу ёндашув Ханс Гросс томонидан тасдиқланган бўлиб, у гувоҳликнинг ишончли бўлиши учун гувоҳларни ўрганиш зарурлигига ишора қилган[22].

Германия судлари амалиётида эса, проф. Н.Н. Полянскийнинг сўзларига кўра, бундай текширув илгари ҳам ўтказилган бўлиб, 1896 йилда Мюнхендаги қотиллик бўйича суд жараёнида ҳимоячининг илтимосига биноан икки нафар эксперт таклиф қилинган хамда улар гувоҳларнинг кўрсатувларига жуда катта эътибор қаратиб, бу воқеага кундалик матбуот қанчалик таъсир кўрсатганлиги тўғрисида хулоса беришган[23].

Юқорида қайд этилган масала юзасидан В. Штерннинг лаборатория тадқиқотлари ёрдам берган бўлиб, у ўз илмий тадқиқот ишларида виждонан бўлсада, ёлғон кўрсатув бериш ёки содда қилиб айтганда - ҳақиқатнинг онгсиз ва беихтиёр равишда бузилишини аниқлаган. Унинг таъкидлашича, одоб-ахлоқ юзасидан виждонан берилган гувоҳлик барча шубҳалардан устун бўлган тақдирда ҳам маълум фоиз хатолар йўлга қўйилишини ҳисобга олиш керак . Хар хил турдаги жиноий маслалар бўйича жалб қилинган гувоҳларнинг айнан бир масала бўйича берилган кўрсатувлари, ҳаттоки эътибордаги энг аниқлари ҳам, бир биридан фарқ қилиши мумкин. [24]

Бундан ҳулоса қилишимиз мумкинки, жиноят процессида педагог ва психолог иштирокинининг нафақат вояга етмаган шахслар жиноят ишларини кўриб чиқишда балки, вазият тақазо этган ҳолларда хар қандай ёшдаги гувох, жабрланувчи, айбланувчи хамда гумон қилинувчиларга нисбатан тайинланган тергов харакатларига жалб қилишимиз мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Б.Б. Муродов.Жиноят ишини тугатиш институтини такомиллаштириш, Докторлик диссертацияси. 2018-Т. 26-б

[22] Гросс Г. Руководство для судебных следователей как система криминалистики. Новое изд., перепеч. с изд. 1908 г. М.: ЛексЭст, 2002. С.131.

[23] Полянский Н.Н. Доказательства в иностранном процессе. Юриздат МЮ СССР. М., 1946. С. 109.

[24] Штерн В. Психологические методы испытания умственной одаренности // Петроград. 1915. С. 3-5,С. 11-14.

2. Избр. Гимны. Пер. с анг. И. М. С теблин К ам енского. Душ анбе. - “А диб” , 1990. 112-бет. “Хаома- ширасига сут аралаштириб тайёрланган, яшил бутасимон эфедра ўсимлиги”.

3. Б.Б. Муродов.Жиноят ишини тугатиш институтини такомиллаштириш, Докторлик диссертацияси. 2018-Т.26-б

4. United Nations. (1989). Convention on the Rights of the Child. https://www.unicef.org/child-rights-convention

5. https://tergov.uz/oz/other/ustrojstva-opredeljajuschie-lozh-cheloveka-v-sledstvi (мурожаат қилинган сана) 27.01.2025

6. https://us.sagepub.com/sites/default/files/upm-binaries/19734_Chapter_3.pdf (мурожаат қилинган сана 27.07.2025)

7. Гросс Г. Руководство для судебных следователей как система криминалистики. Новое изд., перепеч. с изд. 1908 г. М.: ЛексЭст, 2002. С.131.

8. Полянский Н.Н. Доказательства в иностранном процессе. Юриздат МЮ СССР. М., 1946. С. 109.

9. Штерн В. Психологические методы испытания умственной одаренности // Петроград. 1915. С. 3-5,С. 11-14.

ЖАМАОАТ ХАВФСИЗЛИГИ ВА ҲУҚУҚНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ТИЗИМИДА ПРОФАЙЛИНГ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ

Хайдаров Исломжон Маҳмутали ўғли
психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Мазкур мақолада жамоат хавфсизлигини таъминлаш босқичида профайлинг технологиясининг ахамиятли жиҳатлари кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, криминал профайлингни ташкил этиш босқичида қўллаш бўйича жаҳон етакчи психологларининг қарашлари ва криминал психологлар ҳақида батафсил маълумотлар келтирилган. Шунингдек, мақолада профайлингдан жиноятчи шахсини аниқлашда фойдаланиш имкониятлари кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: профайлинг, профиль, психологик портрет, жиноят, криминал, психотип, технология, қотиллик.

Annotation: This article highlights the important aspects of profiling technology at the stage of organizing the initial investigation. It also provides detailed information on the views of the world's leading psychologists on the application of criminal profiling at the stage of organizing the initial investigation and criminal psychotypes. The article also shows the possibilities of using profiling to identify an offender.

Keywords: profiling, profile, psychological portrait, crime, criminal, psychotype, technology, murder.

Кириш: Жамоат хавфсизлиги фаолияти ўзига хослиги билан ажралиб туради хуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятида юз берадиган салбий психик ҳодисалар (руҳий ҳолатлар ва жараёнлар, психологик хусусиятлар)ни яхши билиш, уларга қарши доимо тайёр туришни тақозо этади.

Кўплаб илмий нашрларда ҳуқуқ-тартибот ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолиятида зўравонлик жиноятларини содир этган шахсларнинг шахси ва хулқ-атвори ҳақидаги билимларни қўллаш муаммолари муҳокама қилинмоқда. Хорижий тадқиқотлар натижасида олинган маълумотларга кўра ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимларининг касбий фаолиятини психологик қўллаб-қувватлашда янги йўналиш пайдо қилиниши кераклиги тақозо этилмоқда.

Гап психологик усуллар мажмуидан фойдаланган ҳолда шахсларнинг вербал ва новербал хатти-ҳаракатларидан хусусий белгиларини таҳлил қилиш асосида унинг нима ўйлаётганлигини, рост ёки ёлғон гапираётганлигини қисқа фурсатларда аниқлаб олиш техникаси, яъни профайлинг методи тўғрисида бормоқда. Ушбу йўналишдаги билимлардан ҳуқуқ-тартибот ходимлари жиноятларни аниқлашда, ҳал этиш ва тергов қилиш жараёнида фойдаланишнинг имкониятларини беради. Биз ҳам ушбу мақолада дастлабки терговни ташкил этиш босқичида профайлинг методи қўлланишининг афзалликлари ҳақида тўхталиб ўтамиз.

Авваломбор дастлабки тергов тушунчасини психологик талқинига тўхталсак. Дастлабки тергов - қонунни қўллаш мақсадида терговчи (суриштирувчи) содир этилган жиноят тафсилотларини ойдинлаштиришга қаратилган мулоқотга киришиш, кузатиш, эшитиш, ташкил этиш, эслаш, идрок этиш, хаёлан тиклаш, тафаккур қилиш, тусмол қилиш, хулосага келиш ва қарор қилиш жараёнларидан иборат ақлий фаолиятидир.[25]

Дастлабки терговда психологик билимлардан фойдаланишга зарурат туғилади. Шу жумладан кейинги пайтларда бутун дунёда хукуқни муҳофаза қилувчи органлар томонидан қўлланилаётган профайлинг технологиясини қўллаш ходимнинг фойдали иш коэффициентини сезиларли даражада оширади. Шунингдек, бундай билимларнинг қўлланилиш кўлами ва мазмунига қараб, фаолият самарадорлиги шунчалик ижобий бўлади. “Профайлинг” атамаси инглизча “profile” - профиль сўзидан келиб чиққан ва дастлаб жиноят жойидаги излар асосида номаълум шахснинг қидирув психологик портретини (профилини) тузишда қўлланилган.

Адабиётлар таҳлили ва методология: Ҳозирги кунда хорижий мамлакатлар ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари фаолияти доирасида икки жабҳада профайлинг ишлари олиб борилмоқда. Биринчиси, криминал профайлинг доирасида. 1888 йилда психологик портрет тузишга дастлаб уринганлардан бири британиялик жарроҳ Томас Бонд (чавақловчи Жек шахсига нисбатан қўллаган)

[25] Дастлабки тергов фаолияти психологияси: Дарслик / Б.Н. Сирлиев, И.А. Соттиев ва бошқ.; Ш.Т. Икрамовнинг умумий таҳририда. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – 362 б.

ҳисобланади. Ғарбда шахсни профиллаш 1985 йилда Федерал қидирув бюроси (ФБР)да П. Брукс ва Р.Рёсслер раҳбарлигида зўрлик ишлатилган серияли жиноятларни фош этишга кўмаклашиш мақсадида ишлаб чиқилиб, зўравон жиноятчиларни ушлашнинг VICAP (зўравон жиноятчиларни аниқлаш дастури) дастури доирасида қўлланилган. Зўравон жиноятчиларни ҳибсга олиш дастурининг ишлаши зўравон табиатга эга бўлган, маниакл хулқ-атворли шахсларни кетма-кет жиноятларини аниқлашга ёрдам беради. Австрия, Германияда бундай дастур VICLAS (зўравон жиноятчиларни ўзаро алоқадорлигини таҳлил қилиш тизими) деб аталади.[26] Ушбу дастурнинг асосий мақсади терговга кўмаклашиш бўлиб, хулқ-атворга оид кўрсаткичлар акс этган психологик портрет тузишда намоён бўлади.

Криминал профайлинг деганда, шахснинг ўзига хос фазилатларини ташҳислаш бўйича психологик услублар мажмуасидан фойдаланган ҳолда тахминий (қидирилаётган) жиноятчини психологик портретини тузиш тушунилади. Криминал профайлинг услубиёти, жиноий иш материаллари билан ишлаш ва исботларни талқин қилишни назарда тутади. Профайлер ишининг натижаси бўлиб, криминал профил – содир этилган жиноят ёки жиноятлар серияси негизида жиноятчи ҳамда қурбоннинг шахси ва хулқ-атвори тавсифлаб берилган юридик аҳамиятга эга бўлган ҳужжат ҳисобланади.

Одатда, суд ва криминал психология доирасида олиб бориладиган тадқиқотларда гумонланувчи, айбланувчи, судланган шахсини ўрганиш ҳажми аниқланади, лекин бу шахсни ўрганиш ҳажми ёки схемаси, ҳар қандай психологик тадқиқот объектига тааллуқли бўлиши мумкин: ижтимоий-демографик маълумотлар; жиноий-ҳуқуқий маълумотлар; тиббий маълумотлар; ташқи (жисмоний) маълумотлар; ҳаёт йўли; турмуш тарзи; аҳлоқи; шахснинг йўналганлиги; қобилиятлари; мижози; табиати ва бошқалар.

Иккинчиси, транспортдаги “профайлинг” тушунчаси ҳаво сафарида хавфли шахсларни аниқлаш учун парвоздан олдинги текширув пайтида йўловчиларни

[26] Қодиров М.С. Профайлинг методининг ривожланиш тарихи. “XXI асрда илм-фан тараккиётининг ривожланиш истикболлари ва улар да инновацияларнинг тутган урни” мавзусидаги Республика 1 -илмий онлайн конференцияси. Тошкент. 2018. 126 б.

кузатиш ва интервью олиш технологиясига ишора қилади. Бу йўналиш, божхона органлари фаолиятида истиқболли ҳисобланади.

Профайлинг услубини қўллаш асосига коррупцион, террорчилик жиноятлар, гиёҳванд моддалар, психотроп воситалар, қурол-яроғ ва ўқ-дориларнинг ноқонуний айланиши, шунингдек серияли жинсий жиноятларни содир этувчи жиноятчиларни хулқ-атворининг доимийлигини киритиш зарур. Шу билан бир вақтда, жиноятларнинг ўзи каби жиноий суиқасдларни ҳам идентификациялаштириш мақсадида психологик билимларни қўллаш имкониятларини баҳолаш мақсадга мувофиқдир.[27] Ҳозирги вақтда бу йўналишдаги тажриба, жиноятни содир этишга алоқадорлик қидирув белгиларини аниқлаш учун аниқланмаган шахсни (жиноятчини, бузувчини) психологик портретлашнинг (профиллашнинг) турли моделларини таърифлаб беради. Эҳтимолий шубҳали шахснинг жиноятни ёки шундайни содир этиш суиқасдига алоқадорлигини исботлашнинг илмий асослаш зарурияти, криминалистика, психиатрия, психология каби илмий соҳаларда шакллантирилган билим, восита ва услубларнинг амалдаги ҳуқуқ-тартибот фаолиятига интеграциялаш нуқта-назарида ётади. Ҳозирги вақтгача, хизмат фаолиятини психологик таъминлаш доирасида ёлғон феномени ва яшириладиган маълумотларни ўрганишнинг назарий ва амалий жиҳатларига тегишли бўлган ахборотларнинг катта ҳажми тўпланган. Бу масалани хал этиш учун, жиноий ҳатти-ҳаракатнинг субъектив психологик томони элементларини – ҳуқуқбузарнинг профилига бирлаштирилган унинг шахсий фазилатларини акс эттирувчи ҳатти-ҳаракатларидаги баъзи бир жиҳатларини ўрганиш истиқболли ҳисобланади. Бу услуб, жиноятнинг барча криминалистик таърифлари айбдорнинг шахси ва ҳулқ атворининг билвосита ёки бевосита акси деган ҳолатга таянади.

Хуқуқ-тартибот органларининг амалий фаолиятида жиноятчини портретлаш масалалари билан бир қатор хорижий давлатлар: АҚШ, Буюк Британия, Канаданинг мутахассислари шуғулланишган. Натижада бир нечта мустақил

[27] Асеев В. Г. Мотивация поведения и формирования личности. М., 1976. 246 с.

моделлар (профиллар): Д.Россмо географик модели (Канада), Д.Кантер модели (Буюк Британия), Федерал қидирув бюросининг - ФҚБ модели (АҚШ) яратилган.[28]

Муҳокама: АҚШдаги ФҚБ Академиясининг (Квантико, Виржиния штати) хулқ-атвор фанлари бўлими ходимлари томонидан психологик профиллаш дастури ишлаб чиқилган. Р.Весслер томонидан Ушбу усулнинг қуйидагича таърифи берилган: "шахснинг умумий тавсифини ташкил этувчи индивидумнинг барча психологик таърифларини у томонидан содир этилган жиноятлар таҳлили асосида идентификациялаш жараёни".[29] Турли хилдаги, шу жумладан террористик тусдаги жиноятларнинг криминалистик тавсифлари бир вақтнинг ўзида қамоқдаги жиноятчиларнинг шахсий ва хулқ-атвор фазилатларини тадқиқ этган ҳолда синчиклаб таҳлил қилинган. Ушбу маълумотларни таққослаш жиноятни содир этган шахснинг белгилари ва у томонидан содир этилган жиноий ҳаракат белгилари ўртасида статистик аҳамиятга эга алоқаларни ўрнатишга имкон берди. Бир неча йиллардан кейин шахси аниқланмаган жиноятчининг психологик профилини тузиш услуби ишлаб чиқилди. Ушбу услубни амалиётда қўллаш жараёнида жиноят воқелигининг хулқ атвор реконструкцияси амалга оширилди.[30] Ушбу муолажа кетма-кетликда қуйидагиларни ўз ичига олган:

• психологик талқин нуқтаи назаридан аҳамиятли бўлган маълумотларни тўплаш;

• жиноятнинг умумий кўринишида ҳаракатларни бажариш мантиқи ва мотивацион томонларини аниқлаш;

• жиноятчи томонидан бу ёки бошқа ҳаракатларни бажариш кетма-кетлигини аниқлаш;

• айбдорнинг тавсифлари ва қидирув белгиларини аниқлаш;

[28] Canter D., Heritage R.A Multivariate Model of Sexual Offence Behavior // The Journal of Forensic Psychiatry. 1989. Vol. 1.

[29] Ressler R., Burgess A., Douglas J. Criminal Profiling Research on Homicide. Unpublished Research Report. N. Y., 1982.

[30] Лаговский А.Ю., Скрытников А. И., Тележникова В. Н., Бегунова Л. А. Составление психологического портрета преступника: Учеб.-метод. пособие. М., 2000.

• кейинги қидирувни ўтказиш стратегияси бўйича тавсияларни ишлаб чиқиш.[31]

Кўргазма мисоли сифатида жинсий жиноятларни қидирувини амалга оширишда шахснинг профилланишини қўллаш амалий тажрибаси ҳақидаги маълумотларни келтириш зарур. Ю.М.Антонян жинсий жиноятларга шахснинг жинсий кечинмалари, жинсий қизиқишлари ва мотивлари, жинсий ҳаёти ва унинг жинсий муносабатлари билан боғлиқ бўлган, ноқонуний ҳаётдан маҳрум қилиш ҳолатларини киритишни таклиф қилади. Бу қотилликлар шаҳвоний, масалан, зўрлаш каби ҳатти-ҳаракатлар билан кузатилмаса ҳам, ўзининг ички мазмуни ва субъектив маъноси бўйича айбдорнинг жинсий ҳаёти, унинг қарама-қарши жинсдаги шахслар билан муносабатлари билан шартланади. Бундай қотилликларда жинсий туртки (мотивация) жиноятчи томонидан ўз муддаосини айтиш ёки қурбоннинг жинсий аъзолари билан манипуляциялар, шу жумладан символик жинсий ҳаракатларни бажариш даражасида кузатилади .[32]

Ушбу муаммони хал этиш учун, криминал ҳатти ҳаракатнинг субъектив психологик томони элементларини - жиноятчининг шахсий фазилатларини акс эттирувчи ва жиноятлар серияси доирасида маълум бир доимийликда намоён бўлувчи уни хулқ атворининг баъзи бир жиҳатларини ўрганиш, қидирув жараёнида самарали ҳисобланади.

Натижалар: Д.Дуглас ва К.Манн жиноятчиларнинг (хусусан, серияли қотилларнинг) криминал хулқ-атворини баҳолаб туриб, жиноятчининг ҳаракати усули (modus operandi) ва унинг кўпинча “жиноят дастхати” деб аталувчи автографини (signature) чегаралаб қўйишган. Ушбу тушунча, криминал мақсадга эришиш учун зарур бўлган ҳаракат усулини тавсифлайди. Жиноят дастхати (жиноятчининг дастхати) жиноий фаолиятнинг операционал томони, унинг динамик ташкил этувчиси (тажриба таъсирида ўзгарувчи) ва адаптив ташкил этувчисининг (ситуатив омилларнинг таъсирига берилувчи) уйғунлигидан иборат. Дастхатда, янада индивидуаллаштириладиган, вақтда доимий, вазиятда турғун

[31] Самовичев Е. Г. Оценка розыскного значения признаков поведения преступника на месте преступления // Проблемы использования нетрадиционных психофизиологических методов в раскрытии преступлений: Сб. науч. тр. / Под ред. А. И. Скрыпникова и др. М., 1995.
[32] . Феофанов О. А. Агрессия лжи. М.: Политиздат, 1987. 318 с.

бўлган криминал хулқ-атворнинг мазмунли томони намоён бўлади ва криминал мақсадга эришиш учун зарур бўлиб ҳисобланмайди. [33]Жиноятчининг дастхати, унинг когнитив ва эмоционал жараёнлари динамикасига таъсир кўрсата туриб, жиноятчи хулқ-атвори турткисининг асосида ётади, бу эса охир оқибатда унинг шахси, турмуш тарзи, ҳаёт мазмуни, жинсий тажрибаси ва бошқа кўплаб фазилатларининг билвосита акси бўлади.[34]

Масалан, Д.Дуглас ва К.Манн серияли қотил дастхати (signature analysis) таҳлили заруриятини асослайдилар, уни ўтказиш жараёнида жиноятлар ҳақидаги маълумотларни психологик талқин этиш орқали бир қатор криминал ҳолатларда хулқ-атвор доимийлигини аниқлаш имконияти очилади. Профиллашнинг муҳим жиҳати бўлиб, диққатни "жиноий хулқ-атвор далилларига" қаратиш ҳисобланади, масалан, тергов (тергов ёки юзма-юз учраштириш) ҳаракатларини ўтказишда уларга қуйидагилар киради:

1) руҳий ҳолатнинг умумий ноадекватлиги;

2) ҳуқуқ-тартибот органлари ходимлари билан мулоқот қилишдаги хулқ-атворнинг нотабийлиги ва ясамалик;

3) атрофида бўлаётган нарсаларга бефарқлик.

Профайлинг психотехникаларига тезкор мулоқотни ўрнатиш ва зарур маълумотларни олиш мақсадида мулоқот қилиш ва эҳтимолий жиноятчига таъсир кўрсатишнинг турли хил техникаларини киритиш зарур. Терговчи профайлингга оид бўлган барча йўналишларни эгаллай олса қаршисида турган шахс ҳақидаги маълумотларни қисқа фурсат ичида аниқлай олади. Бунинг учун у визуал психодиагностика, графалогия, физиогномика, эмоцияларни ўқиш, паралингвистик воситалар орқали ёлғоннинг белгиларини аниқлаш техникаларини ва бошқа шу каби касбий компетенцияларни ўзлаштира олса жиноятчининг ҳақиқий профилларини ярата олади.

Криминал профайлингда қидирилувчи, гумонланувчи (айбланувчи) шахсини ўрганиш асосини амалий характерология ташкил қилади. Хорижий психологияда маълум бир психотипга (акцентуация) қараб одамларнинг шахс хусусиятларини

[33] Фернхем А., Хейвен П. Личность и социальное поведение. М.: Питер, 2001. 360 с.

[34] Филонов Л. Б. Психологические способы выявления скрываемого обстоятельства. М.: Изд-во МГУ, 1979. 99 с.

турли хил таснифлаш мавжуд (К.Леонгард, К.Г.Юнг, Р.Кречмер, А.Кемпински, А.Е.Личко, А.П.Егидес, В.В.Пономаренко). Шу билан бир вақтда, Россия юридик психологиясида жиноятчини психологик портретини тузишнинг турли вариантлари ва схемалари таклиф қилинган (А.И.Анфиногенов, В.Л.Васильев, Ю.В.Чуфаровский, Г.Г.Шиханцов). Улар серияли қотил шахсини батафсил кўриб чиққан. Лекин, шу вақтнинг ўзида, терговда иштирок этаётган ходимлар амалий фаолияти нуқтаи назаридан етарли даражада муҳим ва зарур бўлиб, ўз шахсининг бошқа хусусиятлари билан бирга, террорчилик ҳаракати, босқинчилик, таловчилик, безорилик, саломатликка турли даражадаги тан жароҳатлари етказиш ва бошқаларни содир этишга мойил бўлган агрессив психотипларнинг характерологиясини тўлиқ ўрганиб чиқиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Биз, юқорида кўрсатиб ўтилган олимлар томонидан таклиф этилган катта ҳажмдаги психотиплар таснифларидан психолог, собиқ терговчи В.В.Пономаренко томонидан таклиф қилинган таснифни энг батафсил ва аниқ намоён бўлувчи мезонларга эга бўлган тасниф деб ҳисоблаймиз.[35] Мазкур таснифга кўра шахснинг криминал профилини ташкил қилиши мумкин бўлган агрессив психотипларга қуйидагилар киради: истероид, эпилиптоид, параноид, шизоид. Бошқа - гипертим, эмотив, ҳавотирли-шубҳали психотипларнинг - жиноятни ташқи таъсирсиз содир этишга бўлган қобилиятлари даражаси жуда паст.

Жиноий иш материалларини таҳлил қилгач, мутахассис ходим шахсни ўрганиш схемасини ишлаб чиққандан сўнг, жиноят содир этишда гумон қилинган шахслар доирасини торайтириши мумкин, бу кўпинча жиноятлар агрессив психотиплар томонидан содир этилади, улар истероид, эпилептоид, параноид ва шизоидни ўз ичига олади. Айнан иш жараёнида шу каби психологик маълумотларга риоя қилса вақт анча қисқариб, жиноятчининг ҳақиқий профили ҳам аён бўлиши мумкин.

Хулоса: Ҳуқуқ-тартибот органлари хизмат фаолиятининг илмий-услубий таъминоти тизимини, хизмат вазифаларини хал этиш самарадорлигини ошириш мақсадида қўлланилиши зарур бўлган криминологик, криминалистик, психиатрик,

[35] Пономаренко, В.В. Практическая характерология с элементами прогнозирования и управления поведением (методика «семь радикалов»). – Ростов-н/Д.: Феникс. 2006. – 252 с.

психологик технологияларга асосланган профайлинг соҳасидаги билим, услуб ва технологиялар мажмуасига эга бўлган тегишли мутахассисларсиз яратиш ва фаолият кўрсатиши мумкин эмас. Ҳозирги вақтда хуқуни муҳофаза қилувчи органлар ходимларининг малака ошириш дастурларига, эҳтимолий хавфли субъектларнинг (жиноятни содир этишда гумон қилинаётган, жиноят, шу жумладан террористик характердаги ва ҳ.к.) эмоционал ҳолати новербал профиллари услуби сифатида профайлинг психотехнологияси элементларини киритиш зарур. Шунингдек, дастлабки тергов жараёнида хулқ-атвор таҳлили (профайлинг) соҳасида махсус тайёргарликка эга бўлган профессионал психологларнинг иштироки муҳим ҳисобланади. Тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи гуруҳларга профайлерларни жалб этиш, энг мураккаб жиноий ишлар бўйича дастлабки терговни олиб боришда самарали ҳисобланади. Мазкур амалий фаолиятни қотилликлар, босқинчилик, террорчилик, иқтисодий ва коррупцион жиноятлар, шунингдек вояга етмаган ва кекса ёшдагиларга нисбатан жиноятларнинг очилиши ва олдини олишни таъминлашга йўналтириш, профайлерларнинг ихтисослашувларини эса олий касбий таълим муассасалари, шу жумладан идоравий бўйсуниш линияси бўйича ўтказиш самарали.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Дастлабки тергов фаолияти психологияси: Дарслик / Б.Н. Сирлиев, И.А. Соттиев ва бошқ.; Ш.Т. Икрамовнинг умумий таҳририда. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015. – 362 б.

2. Қодиров М.С. Профайлинг методининг ривожланиш тарихи. “XXI асрда илм-фан тараккиётининг ривожланиш истикболлари ва улар да инновацияларнинг тутган урни” мавзусидаги Республика 1 -илмий онлайн конференцияси. Тошкент. 2018. 126 б.

3. Асеев В. Г. Мотивация поведения и формирования личности. М., 1976. 246 с.

4. Canter D., Heritage R.A Multivariate Model of Sexual Offence Behavior // The Journal of Forensic Psychiatry. 1989. Vol. 1.

5. Ressler R., Burgess A., Douglas J. Criminal Profiling Research on Homicide. Unpublished Research Report. N. Y., 1982.

6. Лаговский А.Ю., Скрытников А. И., Тележникова В. Н., Бегунова Л. А. Составление психологического портрета преступника: Учеб.-метод. пособие. М., 2000.

7. Феофанов О. А. Агрессия лжи. М.: Политиздат, 1987. 318 с.

8. Фернхем А., Хейвен П. Личность и социальное поведение. М.: Питер, 2001. 360 с.

9. Филонов Л. Б. Психологические способы выявления скрываемого обстоятельства. М.: Изд-во МГУ, 1979. 99 с.

10. Пономаренко, В.В. Практическая характерология с элементами прогнозирования и управления поведением (методика «семь радикалов»). – Ростов-н/Д.: Феникс. 2006. – 252 с.

STRESSLI VAZIYATLARDA PROFAYLING: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA TAHLIL

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti XFTPT kafedrasi katta o‘qituvchisi katta leytenant A.B.Abdurahmonov

Anotatsiya: Ushbu maqola stressli vaziyatlarda jinoyatchi profaylingini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda xalqaro, asosan AQSh va Yevropa mamlakatlarining tajribasi asosida tahlil qilinadi. Maqola stressning profaylchilarning kognitiv qobiliyatlari va qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta’sirini ochib beradi. Unda stress manbalari (masalan, yuqori mas’uliyat, jarohatli voqealar), shuningdek, uning oqibatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada stressni kamaytirish va profayling samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy usullar, jumladan, **jamoaviy ishlash**, **psixologik qo‘llab-quvvatlash**, **zamonaviy texnologiyalar** va **motivatsiyaga asoslangan tahlil** metodlari yoritilgan. Ushbu maqola O‘zbekiston sharoitida huquq-tartibot va xavfsizlik sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va ularning professional ko‘nikmalarini oshirish uchun foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Profayling, stress, kriminologiya, xalqaro tajriba, jinoyat psixologiyasi, tahliliy ko‘nikmalar, qaror qabul qilish, huquq-tartibot organlarim, motivatsiya.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению криминального профайлинга в стрессовых ситуациях, анализируя опыт зарубежных стран, в основном США и европейских государств. В статье раскрывается негативное влияние стресса на когнитивные способности и процесс принятия решений у профайлеров. В ней указываются источники стресса (например, высокая ответственность, травматические события), а также его последствия. В статье освещаются практические методы снижения стресса и повышения эффективности профайлинга, включая командную работу, психологическую поддержку,

современные технологии и методы анализа, основанные на мотивации. Эта статья послужит полезным ресурсом для подготовки и повышения профессиональных навыков специалистов в сфере правопорядка и безопасности в условиях Узбекистана

Ключевые слова: Профайлинг, стресс, криминология, международный опыт, криминальная психология, аналитические навыки, принятие решений, правоохранительные органы, мотивация.

Annotation: This article is dedicated to the study of criminal profiling in stressful situations, analyzing the experience of international countries, primarily the USA and European nations. The article reveals the negative impact of stress on the cognitive abilities and decision-making processes of profilers. It identifies sources of stress (e.g., high responsibility, traumatic events) and its consequences. The article highlights practical methods for reducing stress and increasing the effectiveness of profiling, including teamwork, psychological support, modern technologies, and motivation-based analysis methods. This article serves as a useful resource for training and enhancing the professional skills of law enforcement and security specialists in the context of Uzbekistan.

Keywords: Profiling, stress, criminology, international experience, criminal psychology, analytical skills, decision-making, law enforcement agencies, motivation.

Profayling — bu shaxsning xulq-atvori, motivatsiyasi va psixologik xususiyatlarini tahlil qilish orqali uning ehtimoliy harakatlarini bashorat qilishga qaratilgan amaliyot. Bu usul, ayniqsa, jinoyat profilaktikasi, terrorizmga qarshi kurash va xavfsizlikni ta’minlash kabi stressli vaziyatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, shiddatli bosim ostida ishlash profaylchining o‘zi uchun ham jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stress profayling natijalarining aniqligiga sezilarli darajada ta’sir qilishi mumkin. Ushbu maqolada stressli vaziyatlarda profayling bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarning xorijiy tajribasi va stressning qaror qabul qilish jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi.

1. Stressning profaylchiga ta’siri: Amerika Qo‘shma Shtatlari tajribasi

AQSh Federal Qidiruv Byurosi (FBI) jinoyatchi profaylingi bo‘yicha dunyodagi yetakchi tashkilotlardan biri hisoblanadi. FBIning xulq-atvor fanlari bo‘limi mutaxassislari, odatda, juda og‘ir va murakkab ishlar ustida ishlaydi. Ular stressning turli manbalariga duch kelishadi:

- **Ish yuklamasi va muddatlar:** Og‘ir ish yuklamasi va qisqa muddatlar ostida ishlash mutaxassislarda surunkali charchoq va diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.
- **Jarohatli voqealar:** Qotillik, zo‘rlash va boshqa og‘ir jinoyatlarga oid dalillar, video tasvirlar yoki guvohliklar bilan muntazam ishlash psixologik jarohatlarga sabab bo‘lishi mumkin. AQShda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, **sud-tibbiyot ekspertlari** kabi mutaxassislar tez-tez **"ikkinchi darajali travma"** (vicarious trauma) holatiga tushishadi, bu esa ularning tahliliy qobiliyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
- **Yuqori mas’uliyat:** Noto‘g‘ri profayl, o‘z navbatida, noto‘g‘ri qarorlarga yoki jinoyatchini topishda kechikishlarga olib kelishi mumkin. Bu esa mutaxassislar zimmasiga katta **ruhiy bosim** yuklaydi.

Tadqiqotlar natijasida, stress ostida ishlagan profaylchilarning ba’zilari o‘z qarorlariga shubha bilan qarashi, hatto ishdan tezda charchashi yoki hissiy jihatdan uzoqlashishi kuzatilgan. Shuning uchun, G‘arb mamlakatlarida stressni boshqarish va ruhiy salomatlikni saqlash bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

2. Buyuk Britaniya va yevropadagi amaliyot

Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Buyuk Britaniyada profayling asosan huquq-tartibot organlari, masalan, **Metropolitan Police Service** (London politsiyasi) doirasida amalga oshiriladi. Ular stressni kamaytirish va profayling sifatini oshirish uchun bir nechta usullarni qo‘llaydi:

- **Jamoaviy yondashuv:** Profayling yakka mutaxassisning emas, balki **jamoaning ishi** hisoblanadi. Guruh tarkibida psixologlar, sotsiologlar, kriminologlar va

tergovchilar ishtirok etadi. Bu, bir kishiga tushadigan ruhiy bosimni kamaytiradi va turli nuqtai nazarlarni ta’minlaydi.

- **Mentorlik va nazorat:** Tajribali profaylchilar yangi xodimlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Bu esa yosh mutaxassislarning stressli vaziyatlarga moslashishiga yordam beradi.
- **Alohida e’tibor:** Agar xodimda stress alomatlari sezilsa, unga zudlik bilan psixologik yordam ko‘rsatiladi. Bu, kasbiy charchoq va **kuyish sindromi** (burnout syndrome) oldini olishga qaratilgan muhim chora hisoblanadi.

Bu yondashuvlar stressli vaziyatlarda profayling samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy ishlash stressni kamaytirib, profaylning umumiy sifatini yaxshilaydi.

3. Stress va qaror qabul qilish aloqasi

Xalqaro miqyosdagi psixologik tadqiqotlar stress va **kognitiv buzilishlar** o‘rtasidagi bog‘liqlikni isbotladi. Stress ostidagi shaxs:

- **Tafsilotlarni noto‘g‘ri talqin qilishi:** Juda ko‘p ma’lumotlar bilan ishlashda muhim va ahamiyatsiz ma’lumotlarni ajrata olmasligi mumkin.
- **Xulosa chiqarishda shoshqaloqlikka yo‘l qo‘yishi:** Bosim ostida tezroq xulosa chiqarishga intiladi, bu esa xatolarga olib kelishi mumkin.
- **Diqqatini jamlashda qiynalishi:** E’tiborini bir joyga to‘plashda muammo yuzaga keladi, bu esa profaylning muhim qismlarini o‘tkazib yuborishga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu sababli, xorijiy mutaxassislar stressli vaziyatlarda profayl yaratishda **doimiy malaka oshirish** va **o‘z-o‘zini nazorat qilish** ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Xulosa

Stressli vaziyatlarda profayling, nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki mutaxassisning ruhiy barqarorligini ham talab qiladigan murakkab jarayondir. Xalqaro

tajriba shuni ko‘rsatadiki, stressni boshqarish, jamoaviy ishlash va doimiy psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish orqali profayling samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu tajriba O‘zbekistonda ham xavfsizlik va huquq-tartibot sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda hisobga olinishi lozim. Stressning profayling jarayoniga salbiy ta’sirini kamaytirish orqali bu sohada yuqori aniqlik va professionallikni ta’minlashga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kitoblar

1. Ressler, R. K., Burgess, A. W., & Douglas, J. E.

2. **Canter, D.** *(2004). Mapping Murder: The Secrets of Geographic Profiling.* London, Buyuk Britaniya: Virgin Books.
    - Geografik profayling va uning jinoyatchini aniqlashdagi o‘rni haqidagi asosiy manbalardan biri.

3. **Turvey, B. E.** *(2011). Criminal Profiling: An Introduction to Behavioral Evidence Analysis.* Boksburg, Janubiy Afrika: Academic Press.
    a. Kriminologik profayling metodologiyalari va amaliyotiga bag‘ishlangan muhim qo‘llanma.

2. Ilmiy Jurnal Maqolalari va Tadqiqotlar

1. Homant, M. & Kennedy, D. *(1998). "Psychological aspects of criminal profiling." Journal of Police and Criminal Psychology, 13(2), 1–17.*

2. Snook, B., Cullen, R. M., Bennell, C., Taylor, P. J., & Gendreau, P. *(2008). "The Criminal Profiling Illusion: What's Behind the Smoke and Mirrors?" Forensic Science International, 179(1), 174–182.*

3. Goodwill, A. M. & Alison, L. J. *(2007). "The application of offender profiling techniques to sexual offending." Journal of Investigative Psychology and Offender Profiling, 4(1), 1–16.*

3. Institutsional hisobotlar va qo'llanmalar

1. Federal Bureau of Investigation (FBI). *(2000). The School Shooter: A Threat Assessment Perspective.* AQSh.

2. National Center for the Analysis of Violent Crime (NCAVC).

- FBI tarkibidagi ushbu markazning turli xil metodologiyalari va hisobotlari profayling bo‘yicha asosiy ma'lumot manbalaridan hisoblanadi.

4. Axborot Manbalari

1. American Psychological Association (APA).

- Stressning kognitiv funksiyalarga ta'siri bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va ma'lumotlar.

2. Virtual reality (VR) and AI research papers.

- So'nggi yillarda VR va sun'iy intellektning huquqni muhofaza qilish sohasida qo'llanilishi bo'yicha e'lon qilingan ilmiy maqolalar.

PROFAYLING JARAYONIDA ADDIKTIV XULQ-ATVOR RIVOJLANISHINING O‘RGANILISHI.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti XFTPT kafedrasi o‘qituvchisi katta leytenant M.Q.Qarshibayv

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoda yuz berayotgan o‘zgarishlarda insonlarning biror faoliyat yoki predmetga tobe bo‘lib qolishi yuzasidan qisqa yoritilgan.

Kalit so‘zlar: addiktsiya, psixologiya, psixik travma, addiktiv, tobelik;

Bugungi kunda dunyoda, mintaqamizda, xususan yurtimizda ham insonlarni turli predmet yoki faoliyat turiga bog‘lanib, qaram bo‘lib qolayotganligini kuzatmoqdamiz. Hayotda eng ko‘p tarqalgan qaramlik obyektlari bu psixoaktiv moddalardir (yashirin va yashirin bo‘lmagan giyohvandlik moddalar), qimor o‘yinlari, shirinliklar, shahvoniylik, diniy guruhlar hisoblanadi. Keyingi vaqtlarda kompyuterga, mobil tele-qurilmalarga qaramlik ham juda tez tarqalmoqda. Har qanday bog‘liqlikda odamning tabiiy ehtiyojlari yotadi. Lekin, muayyan sharoitlarda ba’zi obyektlar shaxs uchun hayotiy muhim obyektlarga aylanishi, ularga bo‘lgan ehtiyoji esa kuchayib nazoratdan chiqib ketishi mumkin. Tobelik xulqining turli shakllari bir-biri bilan tutashishi yoki biri-biriga o‘tishi mumkin, chunki o‘z faoliyati umumiy mexanizmiga ega bo‘ladi. Masalan, o‘ta ketgan kashanda, sigaretlardan voz kechsa, doimiy ravishda ovqat yegisi keladi. Geroinga qaram bo‘lgan odam, uni qabul qilishni to‘xtatsa, alkogolli ichimliklarga berilib ketishi mumkin. Tobelikning psixologik mexanizmlarining o‘xshashligi shundaki, ularda o‘z ruhiy va jismoniy holatini suniy ravishda o‘zgartirib, real hayotdan qochishga intilish holatlari yuzaga keladi.

“Shaxsning og‘ishgan xulqi” o‘ta murakkab va ko‘p obrazli kategoriyasi ichida tobe axloq yoki bog‘lanib qolgan deb nomlanuvchi guruhcha ajratiladi. Shaxsning tobe axloqi ozida jiddiy ijtimoiy muammoni aks ettiradi, chunki aniq korinib turgan shaklda ishga layoqatini yo‘qotish, atrofdagilar bilan janjallar, jinoyat sodir etish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, bu deviatsiyaning u yoki bu tarzda istalgan oilaga tegishli bolgan birmuncha keng tarqalgan turidir. Addiktiv (tobelik) xulq - atvor - bu shaxs xulqining, biror narsaga berilgaligi bilan bog‘liq (ingliz tilidan, addiction-moyillik, yomon odat) xulqiy og‘ish

shakllaridan biri bo‘lib, bunda odam qanday obyektga qaram bo‘lib qolganligi, unga juda ham bog‘lanib qolganligi, bu obyektdan lazzat olishligi tushuniladi. Bunday obyekt qaram bo‘lib qolgan odam ustidan hukmron bo‘lib qoladi.

Agar biror obyektga bog‘liqlik juda kuchli bo‘lmasa, shaxs sog‘ligi va ijtimoiy mavqeiga katta xavf solmasa, uning me’yoriy xulqini buzmasa, buni oddiy yomon odat deb atash mumkin.Tobelik (addiktiv) xulqi qaysi obyektga berilganligiga bog‘lik holda ko‘plab turlarga bo‘linadi.

Addiktiv xulq-atvor — insonning ruhiy holatini o‘zgartiruvchi narsalarni (alkogol va chekishni ham o‘z ichiga oladi) noto‘g‘ri qo‘llash orqali yuzaga keluvchi xulq-atvorning buzilishi (ruhiy va jismoniy qaramlik vujudga kelguniga qadar) hisoblanadi.

Tanlangan vositadan qat’iy nazar addiktiv xulqning maqsadi, bu oddiy hayotdan, zerikishdan, yolg‘izlikdan, hayot qiyinchiliklaridan qochishdir. Bu bo‘shashish va kuchli ijobiy hissiyotlarni boshdan kechirish holatida ifodalanadi. Barcha qaramlilik vositalari, ayniqsa, giyohvandlik moddalari, muayyan vaqtga ijobiy hissiyotlarni paydo qilish (hursandchilik, baxtiyorlik, rohat, ruhiy va jismoniy qulaylikni sezish) yoki salbiy hissiyotlarni bartaraf etish (xavotirni, xafalikni, aybdorlik hissini, zerikishni, yetishmovchilikni unutish) xususiyatiga ega. Tobelik xulqi deb, shunday holatda aytiladiki, unda odam qayta-qayta qandaydir qoniqishni kutib, bir xil usul tutadi. Addiktiv xulq birdaniga paydo bo‘lmaydi. U qaramlikni beto‘xtov shakllantirish va rivojlantirish jarayonidir. Bu giyohvandlik misolida juda yaxshi kuzatiladi. U ruhiy (psixologik) holatni yaxshilaydigan giyohvandlik modda bilan tanishishdan boshlanadi. Ijobiy hissiyotlarni olish, kelgusi giyohvandlik moddalariga qaramlilik obyekti bilan qayta uchrashishga undaydi, ular tez-tez qaytariladi va oxir oqibat muntazam faoliyatga aylanadi. Bu mazkur giyohvandlik moddasini nihoyatda qadrlash munosabatini paydo qiladi. U esa uy-fikrlar, esdaliklar, xayollar o‘rnini egallaydi, mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarga tanqidiy qarash munosabatni kamaytiradi. Odam o‘zining bog‘liqligini oqlash va himoyalashni boshlaydi, bu moddani ortiqcha ishlatish zarari to‘g‘risidagi axborotga ishonchsizlik bilan qaraydi. Oldingi qadriyatlar va qiziqishlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Giyohvandlik moddaga intilishi shunchalik kuchli bo‘ladiki, odam bu yo‘lda har qanday to‘siqlarni yengishga qodir bo‘ladi. Shu bilan birga, u o‘z qaramligini tan olgisi kelmaydi, bu esa unga yordam berishni qiyinlashtiradi va atrofdagilar bilan munosabatlarni murakkablashtiradi. Ijtimoiy moslanishdan chiqish belgilari ko‘payib boradi.

Addiktiv xulq rivojlanishining quyidagicha izchil zanjirini tuzish mumkin: tatib ko‘rish (o‘z tajribasida sinab ko‘rish) — goh-goh iste’mol qilish - muntazam iste’mol qilish, ruhiy qaramlik jismoniy qaramlik. Bunday xulq yaqqol o‘zini buzib boruvchi xarakterga ega. Zero, u so‘zsiz organizm va shaxs buzilishiga olib keladi. Uning shakllanishiga qator psixologik va ijtimoiy omillar ta’sir etadi. Azal-azaldan tobe axloqning turli shakllarini piyonistalik, ortiqcha yeyish, azart o’yinlar va boshqai ishqibozlikni nazarda tutgancha zararli yoki yakson etuvchi odatlar deb ataganlar. Zamonaviy tibbiy adabiyotlarda patologik odatlar degan atama keng ishlatiladi. Bog‘lanib qolish tushunchasi tibbiyotdan o‘zlashtirilgan, hozirgi vaqtda nisbatan yangi va ommaviy atama hisoblanadi. “Tobelik” atamasi ostida keng ma’noda “Kimgadir yoki lazzat olish yoxud moslashish maqsadida nimagadir suyanishga intilish” tushuniladi. Barcha odamlar ovqat, suv, havo kabi hayotiy muhim obyektlarga “Me’yoriy” tobelikni his qiladilar. Ko‘pchilik odamlar ota - onalari, do‘stlari, turmush o‘rtoqlariga sog‘lom bog‘lanib qolishni sezadilar. Biz yuqorida aytayotgan tobelik esa bu psixik holatni o‘zgartirish maqsadida qandaydir modda yoki o‘ziga xos faollikni iste’mol qilishga psixologik yoki jismoniy tobelik bilan bog‘liq axloq, lazzat olish yoki moslashish maqsadida kimgadir yoki nimagadir suyanishga kuchli intilish. Agar bu tushunchaning tarixiy ildiziga murojat qilsak, unda “addictus” - qarzi tufayli bog’langan shaxs (qarzi tufayli qullikka hukm qilingan), o‘tmishda ingliz zodagonlari dehqonlarga yil boshida katta qarz berib yil bo‘yi ularga to qarzini uzgunicha hukmronlik qilib, tayziq o‘tkazishgan. Berilgan ma’lumotlarga muvofiq tobe axloqning quyidagi shakllari bor:

Kimyoviy bogliqlik (chekish, taksikomaniya,giyohga muxtojlik, dorilarga muxtojlik, ichkilikka bog’liqlik);

Ovqatlanish axloqining buzulishi (ko’p yeyish, ochlik. Taomlardan voz kechish);

Geymbling - o’yinga tobelik (kompyuterga bog’lanib qolish, azart o’yinlar);

Jinsiy addiksiya (zoofiliya, fetishism,vuayerizm, nekrofiliya, sadomazoxizm)

Hayot tarzi o’zgarishi bo’yicha odamlarda tobe axloqning yangi shakllari paydo bo’ladi, masalan, bugungi kunda kompyuterga tobelik juda tez tarqalmoqda va ayni paytda ba’zi shakllar deviantlik yorlig’ini yo’qotmoqda. Xususan, g‘arb ayollari turmushga chiqib, o‘zidan munosib zurriyod qoldirish niyatidan tobora uzoqlashib bormoqdalar. Olimlarning mavjud ahvolni o‘nglash uchun o‘ylab topgan farzand tug‘ilshi uchun davlat tomonidan ajratiladigan nafaqalar hamda imtiyozlar kabi sai-harakatlari bekor ketmoqda. Chunki g‘arb ayollarini sog‘lom oila qurib, unda sog‘lom avlodlarni tarbiyalashdan ko‘ra mansab pog‘onalaridan

ko‘tarilib, o‘z manfaatlarini o‘ylab yashash ko‘proq qiziqtiradi.

Bo‘lajak ofitserlarning psixologik farovonligi uning kasbiy malakasiga, shaxsiy intizomiga, tashabbuskorligiga, ijodkorligiga va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi, bu esa jamoat xavfsizligini samarali ta’minlash va jangovar tayyorgarlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jamoat xavfsizligi muammosi sifatida addiktiv xulq-atvorga umumiy nuqtai nazardan qarasak**,** addiktiv xulq-atvor, ham psixoaktiv moddalarni iste’mol qilish bilan bog‘liq buzilishlarni, ham mobil smartfonlarga, uyali aloqa vositalariga qaramligini, ham xulq-atvorga oid turli tobeliklarni o‘z ichiga olgan holda, bo‘lajak ofitserlar uchun sezilarli xavf tug‘diradi, bo‘linmadagi birlik va ishonchni buzadi va hattoki, xavfsizlikka tahdid solishi mumkin. Bu muammolar operativ tayyorgarlikning pasayishiga, jinoyatchilikning oshishiga va vazifalarni bajarishning umumiy samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yuqori ish talablari, uning o‘ziga xos kasbiy madaniyati va stress hamda travmaga doimiy ta’sir qilishi bilan birgalikda, bu muhim faoliyatda tobelikning rivojlanish xavfini oshirib, bunda spirtli ichimliklarni haddan tashqari iste’mol qilish kabi nosog‘lom kurash mexanizmlarining shakllanishiga bilvosita yordam berishi mumkin.

Darhaqiqat, hal qiluvchi sabab-oqibat bog‘liqligini ko‘rsatadi: talabchan va qo‘llab-quvvatlamaydigan muhit stressni keltirib chiqaradi, bu esa tobelik kabi moslashuvchan bo‘lmagan kurash mexanizmlarini qabul qilishga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida shaxsiy ish faoliyatini yanada yomonlashtiradi va bir qator tashkiliy muammolarni kuchaytiradi. Binobarin, bo‘lajak ofitserlarda addiktiv xulq-atvor muammosini samarali hal qilish shaxsiy zaifliklarni ham, ular faoliyat yuritadigan tizimli muhitni ham hisobga oladigan kompleks yondashuvni talab qilishi mumkin.

Agar, avvalroq ta’kidlaganimizdek, harbiy xizmatchilarda duch kelayotgan salbiy odatlar ko‘pincha jamoat xavfsizligi taminlashdagi asosiy tizimli muammolarning simptomi bo‘lsada, unda faqat tashxis qo‘yilgandan keyin alohida harbiy xizmatchilarni davolashga qaratilgan strategiya o‘z-o‘zidan yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Masalan, AQSh Qurolli Kuchlarida psixologik tayyorgarlikning jismoniy

tayyorgarlik kabi jangovar tayyorgarlik uchun muhim ekanligini tobora ko‘proq tan olinishi proaktiv, tizimli barqarorlikni qurishga o‘tishning namunasidir. Bu shuni anglatadiki, addiktiv xulq-atvorning oldini olish faqat xavf ostida bo‘lgan shaxslarni aniqlash va ularga aralashuvdan iborat emas. U ushbu xavflarni o‘z-o‘zidan kamaytiradigan, barcha xodimlarning psixologik salomatligini rag‘batlantiradigan va ruhiy tayyorgarlikni asosiy missiyaga integratsiyalashgan tashkiliy madaniyat va o‘quv muhitini shakllantirishdan iborat. Yakuniy maqsad shunchaki “barqaror shaxslar” yig‘indisi emas, balki “barqaror kuch”ni rivojlantirishga aylanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, gedonistik psixologiya - mol - dunyo, pul va mansabparastlikka tobelik kabi illatlar yoshlarimiz ongida paydo bo‘lmasligi, ochiq axborot makonida bemalol turli ma’lumotlarni qabul qilish imkoniyati paydo bo‘lgan hozirgi sharoitda ularni ezgu maqsadlarga yo‘naltirish, ularda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Xulq, xulq-atvor- axloqshunoslik tushunchalaridan biri bo‘lib, insonning fe’l atvori bilan bog‘liq axloqiy hodisa hisoblanadi, kishi fe’lining axloqiylik doirasida namoyon bo‘lishi tushuniladi. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlari xulqdan tashqari odob va axloqni o‘z ichiga oladi. Odob inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin oila, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida o‘zgarish yasaydigan darajada ahamiyat kasb etmaydigan xatti-harakatlardan iborat bo‘lsa, axloq - muayyan jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun ta’sir eta oladigan turli xatti-harakatlar majmui, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisadir. Xulq qamrovlilik jihatidan ana shu ikki hodisa o‘rtasidagi xususiyatlarga ega; u odobdan keng, axloqdan tor ma’noga ega bo‘lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta’sir ko‘rsata olmaydi. Lekin, oila, mehnat jamoasi, mahalla ko‘y doirasida sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi. Axloq o‘zini ezgulik va yovuzlik, adolat, insonparvarlik, fidoyilik singari ijtimoiylashgan tushunchalar va tamoyillarda namoyon qilsa, xulq yaxshilik va yomonlik, burch, jo‘mardlik, mehmondo‘stlik kabi tushunchalarda aks etadi, odob esa kamtarlik, insoflilik, bosiqlik, halollik, rostgo‘ylik va boshqa axloqiy me’yorlarda ifodalanadi. Sharq falsafasi va axloq ilmida mazkur uch axloqiy hodisa, juda qat’iy chegaralangan bo‘lmasada, bir-biridan farqli tarzda olib qaralgan. Yevropada esa xulq bilan axloq ko‘p hollarda aynanlashtiriladi yoki ular bir-biriga sinonim tushunchalar sifatida talqin etiladi. Addiktiv xulq-atvor-insonning ruhiy holatini o‘zgartiruvchi narsalarni (alkogol va chekishni ham o‘z ichiga oladi) noto‘g‘ri qo‘llash orqali yuzaga keluvchi xulq-atvorning buzilishi (ruhiy va jismoniy qaramlik vujudga kelgunga qadar). “Shaxsning og‘ishgan xulqi”

o‘ta murakkab va ko‘p obrazli kategoriyasi ichida tobe axloq yoki bog‘lanib qolgan deb nomlanuvchi guruhcha ajratiladi. Shaxsning tobe axloqi o‘zida jiddiy ijtimoiy muammoni aks ettiradi, chunki aniq ko‘rinib turgan shaklda ishga layoqatini yo‘qotish, atrofdagilar bilan janjallar, jinoyat sodir etish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, bu deviatsiyaning u yoki bu tarzda istalgan oilaga tegishli bolgan birmuncha keng tarqalgan turi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rozikova M., Aliyeva K. Psixologik tashxis metodikalari . - T., 2013. - B. 16
2. Umarov B.M. Muloqot va shaxslararo munosabatlar psixologiyasi. //uslubiy qo'llanma. - T. - 1998, 46-bet.
3. Umarov B.M. Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o'rni. //uslubiy qo'llanma. - T. - 2008, 86-bet.
4. www.expert.psychology.ru
5. www.psycho.all.ru

SAMIMIYLIK VA YOLG‘ONNI ANIQLASHDA NOVERBAL MULOQOT VOSITALARINING O‘RNI

I.I.Rejametova

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi” dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

S.M.To‘ychieva

Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrasi mudiri, universitet rektorining xotin –qizlar masalalari bo‘yicha maslaxatchisi

Annotatsiya:

Mazkur tezisda samimiylik va yolg‘onni aniqlashda noverbal muloqot vositalarining ahamiyati yoritilgan. Insonning mimikasi, jestlari, tana harakatlari, nigohi va ovoz tembriga asoslangan psixologik tahlil metodlari bayon etilib, P.Ekman tadqiqotlariga tayangan holda yolg‘on va samimiylikni aniqlash usullari amaliy jihatdan ko‘rsatib berilgan.

В тезисе раскрывается значение невербальной коммуникации при определении искренности и лжи. Рассмотрены мимика, жесты, движения тела, взгляд и тембр голоса как ключевые показатели, позволяющие выявить истинные эмоции и намерения личности. На основе исследований П.Экмана показаны методы анализа скрытых эмоций и диагностики поведения.

This thesis explores the role of nonverbal communication in detecting sincerity and lies. Facial expressions, gestures, body language, gaze, and voice tone are analyzed as crucial indicators of hidden emotions. Based on Paul Ekman’s research, methods of identifying micro-expressions and

Tayanch iboralar:

Noverbal muloqot. Samimiylik. Yolg‘on. Mimika. Jestlar. Pantomimika. Paralingvistika. Mikroifodalar. Psixologik diagnostika. P.Ekman metodlari

Ключевые слова:

Невербальная коммуникация. Искренность. Ложь. Мимика. Жесты. Пантомимика. Паралингвистика. Микровыражения. Психологическая диагностика. Методы П.Экмана

Key terms:

Nonverbal communication. Sincerity. Lie. Facial expressions. Gestures. Body language. Paralinguistics. Micro-expressions. Psychological diagnostics. Ekman’s methods

Inson o‘z fikr va tuyg‘ularini ifoda etishda nafaqat so‘zlardan, balki noverbal belgilar - ya’ni mimika, jestlar, tana holati, nigoh, intonatsiya kabi vositalardan ham foydalanadi. Psixolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, odamlararo muloqotda axborotning 60–70 foizi aynan noverbal signallar orqali uzatiladi (A.Mehrabian). Shu bois, insonning samimiy yoki yolg‘on gapirayotganini aniqlashda noverbal muloqot vositalari psixologik tahlilning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraladi.

Insonning yuziga ham so‘zlardan kam bo‘lmagan e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Yuz qiyofasi ovoz bilan birgalikda suhbatdoshga uning o‘z so‘zlari keltirib chiqaradigan hissiyotlari haqida axborot berishi, shu bois insonning yuzi ham aldashi mumkin. Ammo yuz mimikasini nazorat qilish qiyinroq. Inson yuzi miyaning hissiyotlar uchun javob beruvchi sohalari bilan bevosita bog‘liq, so‘zlarda esa bunday bog‘liqlik yo‘q. Nimani gapirayotganimizni bilishimiz oson, ammo yuzimiz nimani ifodalayotganini ko‘rishimiz ancha qiyin. Garchi yuz mushaklarining taranglashuvi ba’zi hissiyotlar bilan birga kechsa-da, P.Ekmanning tadqiqotlari aksariyat odamlar ushbu hissiyotlardan keladigan axborotdan deyarli foydalanmasliklarini va o‘z yuzining ifodasini aniqlay olmasliklarini isbotlaydi. Shuning uchun ham yolg‘on gapirishga moyil shaxslar hissiyot yuzaga kelgan paytda paydo bo‘ladigan dastlabki yuz ifodasi atayin berkitishga harakat qiladilar.

Suhbatdoshning so‘zlari va uning yuz qismini faol kuzatish natijasida yuz plastikasi va ovoz tembriga ko‘pchilik deyarli e’tibor qaratmaydi. Shuning uchun, yolg‘on gapirayotganiga shubha tug‘ilgan insonlarning ovozi va tana harakatlariga

ko‘proq e’tibor berish to‘g‘ri bo‘ladi. Ovoz ham, yuz singari, hissiyotlar uchun javobgar miya sohasi bilan bog‘liq.

Tana harakatlari axborot olish va yolg‘on belgilari ko‘rinadigan eng yaxshi manbadir. Tana harakatini nazorat qilish unchalik qiyin bo‘lmasa-da, ko‘pchilik bunga e’tibor bermaydi, ya’ni zarurati yo‘q deb hisoblaydilar. Biz ko‘p vaqtni odamlarning yuzlarini va so‘zlarini kuzatishga sarflab o‘zimizni haddan tashqari band qilamiz.

Yolg‘onni aniqlash oson emasligi, muammo axborot manbaining ko‘pligidadir. Darhaqiqat axborot manbalari haddan tashqari ko‘p. Bular: so‘zlar, intonatsiya, ovoz jarangi (sadosi), yuz ifodasi, bosh harakati, imo-ishoralar, gavda holati, nafas olish, ter bosish, yuzdagi qizillik, rangparlik, ishoralar, tana xarakatlari va h.k. Ana shu manbalarning hammasi axborotni galma-gal va birgalikda taqdim etishi mumkin.

Hattoki yolg‘on harakatlarga tayyorgarlik ko‘rayotgan, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilayotgan, kuzatib turgan inson ham o‘zini fosh etishi mumkin bo‘lgan barcha jihatlarni (barmoq uchidan to boshigacha) nazorat qila olmaydi. Istagan taqdirda ham bu qo‘lidan kelmaydi.

Bundan tashqari, tayyorgarlik ko‘rgan insonda, agar aldayotgan shaxs “hissiy qo‘zg‘alishda, ruhiy zo‘riqish holatida bo‘lsa, bu borada katta tajribaga ega bo‘lmasa, tug‘ma yolg‘onchi, ruhiy kasal bo‘lmasa, yolg‘onni aniqlash imkoniyatlari ortadi”.

Afsuski, jamiyatga zid qarashlari bor shaxslarning askariyat qismini ruhiy buzilishlari bor shaxslar tashkil qiladi.

Inson muloqoti ikki asosiy kanal orqali amalga oshadi: **verbal (og‘zaki nutq)** va **noverbal (nutqsiz belgilar)**. Noverbal muloqot vositalari shaxsning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari va yashirin niyatlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, odamlararo axborot almashinuvida 60–70 foiz ma’lumot aynan noverbal signallar orqali yetkaziladi (A.Mehrabian). Shu sababli, inson xatti-harakatidagi samimiylik yoki yolg‘on alomatlarini aniqlashda noverbal belgilar psixologik diagnostikaning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi

Noverbal muloqot – bu **mimika, jestlar, tana harakatlari, ovoz ohangi, intonatsiya, pauzalar** va boshqa nutqsiz signallar orqali amalga oshiriladigan aloqa jarayonidir.

Noverbal muloqotning mohiyati va turlari

Noverbal muloqot - bu og‘zaki so‘zlardan tashqari vositalar orqali amalga oshiriladigan axborot almashinuvi jarayonidir. U quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- **Mimika** - yuz muskullarining dinamik harakatlari, inson kayfiyatining eng yaqqol ifodasi.
- **Jestlar** - qo‘l-oyoqlar va tana orqali bildiriladigan belgilar.
- **Pantomimika** - gavda, tana holati, yurish-turish xususiyatlari.
- **Paralingvistika** - nutqning tezligi, tembri, ohangi, pauzalari va intonatsiyasi.

Bu vositalar odamning ichki dunyosi, yashirin emotsiyalari va niyatlari haqida muhim ma’lumot beradi.

U quyidagi ko‘rinishlarga bo‘linadi:

Psixolog olimlar (P.Ekman, V.Frizen) tadqiqotlariga ko‘ra, insonning samimiyligini ko‘rsatadigan bir qator belgilar mavjud:

- Kaftlarning ochiq va yuqoriga qaratilganligi.
- To‘g‘ri va sokin nigoh.
- Oddiy, majburiy bo‘lmagan tabassum.
- Suhbatdosh tarafga biroz egilish.
- Erkin jestikulyatsiya, yengil tana holati.
- Suhbat davomida oraliq masofani qisqartirishga intilish.

Yolg‘on gapirayotgan insonlarda ko‘pincha quyidagi noverbal belgilar kuzatiladi:

- Qo‘lni og‘iz, burun, qosh yoki ensa sohasi bilan tez-tez bevosita aloqaga kiritish.
- Ko‘z nigohini uzoqlashtirish yoki tez-tez olib qochish.
- Majburiy tabassum, lablarning titrashi.
- Kiyimlarni tartibga solish, yenglarni tortish.
- Nutq va jestlarning zidligi (masalan, inkor so‘zlari bilan boshni tasdiq ishorasida harakatlantirish).
- Haddan tashqari ko‘p yoki mutlaqo cheklangan jestikulyatsiya.

Yolg‘on – ishontiruvchi ta’sir ko‘rsatish vositasi hisoblanadi. Yolg‘on – boshqa sub’ekt ongida voqelikning u yoki bu jihatlari haqida **bila turib** yolg‘on tasavvur yaratishda namoyon bo‘ladi. Yolg‘on va haqiqat – bir narsaning ikki tomoni.

Ishontirish ham, xuddi yolg‘on singari qarama-qarshi manfaatlar, axloqiy va ijtimoiy me’yorlar to‘qnashgan paytda yuzaga keladi.

Axborot va ma’lumotlarni o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanilishini fosh etish doimo dolzarblikka ega. Ushbu yo‘nalishda 20 yildan ortiq shug‘ullanayotgan amerikalik olim Pol Ekman noto‘g‘ri yoki yolg‘on axborot ko‘pincha o‘ta tabiiy ko‘rinadi, uni hatto inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida uchratish mumkin, deb hisoblaydi [32]. Yolg‘on xatti-harakatlarni o‘rganish unga bo‘lgan qiziqish bilan emas, balki kasbiy faoliyat sohasidagi kasb etadigan ahamiyati muhim hisoblanadi.

Yolg‘onni fosh etuvchi ruhiy sabablar. Barcha qiyinchiliklar, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarning bo‘lishiga qaramay, har qanday yolg‘on, manfaatli harakatlarni aniqlash mumkin.

Nima uchun hammani birday alday olmaydi? P.Ekmanning fikricha, buning ikkita asosiy sababi mavjud:

- *o‘z xatti-harakatlari yo‘nalishini, aytadigan gaplarini puxta tayyorlash va har tomonlama o‘ylash* imkoni yo‘qligi (o‘ylangan xatti-harakat yo‘nalishini yo‘qqa chiqaradigan barcha ehtimoli mavjud savollarni, turli kutilmagan holatlarni oldindan ko‘ra olish, sezish imkoniyati yo‘q);
- *ichki hissiy nizolarning kelib chiqishi, o‘z-o‘zidan anglanmagan tarzda hissiyotlarni namoyon qilib qo‘yish* oqibatida yuzaga kelgan vaziyatda hissiyotlarini yashirishga yoki, aksincha, soxtalashtirishga urinish paydo bo‘ladi.

Bu sabablar shaxs xatti-harakatlarining asosiy jihatlariga turlicha ta’sir ko‘rsatadi, oqibatda yolg‘on fosh bo‘ladi. Inson o‘z hissiyotlarini yashirishi va soxtalashtirishi qiyin, lekin unday foydalanish ehtiyoji kuchli bo‘lganligi uchun ular qanchalik yashirilmasin amalga oshirilgan harakatlarda xatolarga yo‘l qo‘yiladi. Hissiyotlar anglanmagan holda ong ostida yuzaga keladi va inson muayyan paytda qaysi hissiyot ko‘proq vujudga kelishini tanlashi yoki bu haqda mulohaza yuritishiga imkon bo‘lmaydi. Bunday o‘zgarishlar soniyaning o‘ndan bir qismi oralig‘ida yuz beradi desak adashmaymiz, chunki bu hissiy kechinmalarning xususiyatidir. Masalan, biz istasak-istamasak qo‘rqamiz, u shu darajada ishonchliki, qo‘rquvni o‘xshatadigan yoki biror vaziyatda qo‘rquvni his qilmasa ham “to‘g‘ri qo‘rqadigan” odamlar juda kam uchraydi.

Agar inson bir vaqtning o‘zida hissiyotlarini *yashirib*, o‘zi sezayotgan hissiyotlarini *sohtalashtirishga* harakat qilsa, vaziyat yanada chigallashib ketadi.

P.Ekman tomonidan ishlab chiqilgan **“Facial Action Coding System (FACS)”** va **“FAST” metodi** yolg‘on va samimiylikni aniqlashda keng qo‘llaniladi. Unga ko‘ra inson yuzida yashirilgan his-tuyg‘ularni ifodalovchi **oltita universal emotsiya** mavjud:

- ✓ Quvonch
- ✓ Qo‘rquv
- ✓ G‘azab
- ✓ Nafrat
- ✓ Hayrat
- ✓ Tushkunlik

Ular mikroifodalar ko‘rinishida bir necha millisekundda namoyon bo‘ladi va inson nazoratsiz tarzda ularni yuzida ifodalaydi. Shu sababli, yolg‘onni fosh qilishda bu metod samarali hisoblanadi.

Noverbal belgilarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati

Samimiylik va yolg‘onni noverbal vositalar orqali aniqlash:

- so‘roq va yuzlashtirish jarayonida,
- muzokara va diplomatik muloqotda,
- huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida,
- pedagogik va psixologik amaliyotda keng qo‘llaniladi.

Demak, noverbal muloqot vositalari inson xulq-atvoridagi yashirin niyat va emotsiyalarni ochib beruvchi samarali psixologik diagnostika vositasidir. Samimiylik va yolg‘onni aniqlashda mimika, jestlar, pantomimika va paralingvistik belgilarni chuqur tahlil qilish nafaqat psixologlar, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, pedagoglar va menejerlar uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning IIV xodimlariga yo‘llagan tabrik nutqi. // *Xalq so‘zi*, 2020.

7. G.Qodirov, A., Jo‘rayev, M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.

8. Xaydarov, R. Kasbiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

9. Karimova, V. Muloqot psixologiyasi. Toshkent: Universitet, 2012.

10. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o‘quv qo‘llanmalari: “Profilaktika inspektorining xizmat faoliyatida psixologiya”, Toshkent, 2021.

AQSh HARBIY BO‘LINMALARIDA TOG‘ VA BALANDLIK TAYYORGARLIGI FANINING O‘QITIShNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДОВАНИЯ НАУКИ ГОРНО- ВЫСОТНОЙ ПОДГОТОВКИ В АРМИИ США

PECULIARITIES OF TEACHING THE SCIENCE OF MOUNTAIN AND HIGH ALTITUDE TRAINING IN US MILITARY UNITS.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

Universiteti Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi

katta o‘qituvchisi, podpolkovnik Parajillayev U.G

Annotasiya: Ushbu maqolada AQSh bo‘linmalarida tog‘ va balandlik-tayyorgarligi fanini o‘qitishni o‘ziga xos xususiyatlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: trening, qurol-yarog‘, anjomlar, jangovar-maxsus, qutqaruv anjomlari, brigada.

Аннотация: В этом статье расмотренно особенности и способы обучение по горно-высотной подготовки армии США.

Ключивые слова: тренинг, оружие, снаряжение, спасательные снаряжение, бригада.

Mamlakatimizda bugungi kunda barcha sohalarda islohatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohatlar Qurolli Kuchlar sohasida ham o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.Mirziyoyev Qurolli kuchlar tashkil etilganligining 33 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigida: “Hozirgi vaqtda jahonda va mintaqamizda harbiy siyosiy vaziyat keskin o‘zgarib, milliy va

global xavfsizlik sohasida xatar va tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday o‘ta mas’uliyatli vaziyat va hayotning o‘zi erishgan barcha yutuqlarimizni, shu bilan birga, yo‘l qo‘ygan kamchiliklarimizni chuqur va tanqidiy tahlil qilishni barchamizdan talab etmoqda[36]”- deb ta’kidlagan edi.

Yaqin sharq va jahonda olib borilayotgan jangovar operatsiyalar shuni ko‘rsatmoqda, vaziyatdan kelib chiqib jangovar xarakatlar bir joyda to‘xtab qolmasdan doimiy ravishda ko‘chib turibdi. Hozirgi kunda bizdan ta’lab qilinadigani vatanni qo‘riqlash uchun malakali proffesional ofitser kadrlar tayyorlash

AQSh harbiy bo‘linmalarida tog‘ va balandlik tayyorgarligi fanini o‘qitishni o‘ziga xos xususiyatlari

Renjerlarni tayyorlash brigadasi (1 qism) Kurs tarixi va mafkurasi 1951 yilda Reynjer dasturi bo‘yicha Aqsh armiyasining ofitserlari va serjantlarini tayyorlash uchun maxsus bo‘lim tashkil etilgan[37]. Xuddi shu yili ushbu bo‘lim Fort Benning piyoda maktabida (Djordjiya) maxsus o‘quv dasturini tashkil etdi. Ushbu maktab bitiruvchilari chap yengida sariq RANGER yozuvi bo‘lgan qora yarim doira matoga tikilgan RANGER toifasini taqib yurish huquqini oldilar. Reynjers dasturining maqsadi o‘z askarlarini jangga olib borish orqali har qanday to‘siqlarni yengib o‘tishga va jangovar topshiriqni bajarishga qodir ekanligiga amin bo‘lgan tajribali va malakali vzvod-rota komandirlarini tayyorlash. Ular o‘z askarlarini har qanday vaziyatda taktik jihatdan malakali harakat qilishlariga qodir bo‘lishlari kerak. 1952 yildan boshlab treningda asosiy e’tibor kompaniya-guruh darajasidan individual darajaga o‘tdi. O‘quv kursini tugatgan serjantlar va ofitserlar orqali o‘z bo‘linmalariga va umuman armiyaga qo‘riqchilarni tayyorlashni yanada joriy etish keyingi jangovar tayyorgarlik paytida olgan ko‘nikmalarni topshirishdan iborat. Dastlab, har bir vzvodda qo‘riqchi serjanti va quruqlikdagi kuchlarning har bir kompaniyasida ofitser bo‘lishi uchun yiliga 3000

[36] www.pesident.uz O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Qurolli kuchlar tashkil etilganligining 33 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigi.,

[37] Центр передового опыта в области маневрирования армии США, веб-сайт Школы горной войны армии США, 5 сентября 2013 г., по состоянию на 18 марта 2019 г.

Reynjerni o‘qitish rejalashtirilgan edi. Ammo aslida har yili 2000 dan ortiq Reynjers ishlab chiqarilmadi. Ularning katta qismi yo‘q qilindi. Shu bilan birga, ranger toifasining alohida obro‘si va harbiy xizmatchining keyingi martaba ko‘tarilishidagi roli tufayli kurs uchun ko‘ngillilar kam emas edi[38]. O‘quv kursini tugatishga muvaffaq bo‘lgan har bir kishi, agar kerak bo‘lsa, o‘z xalqi bilan vazifani bajarish va ularni jangdan tirik olib chiqish uchun yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega ekanligini biladi. Dastlab, kadetlarni tayyorlash dasturiga patrullik, pistirmalar, reydlar tashkil etish va o‘tkazish va havodagi operatsiyalarda qatnashish kiradi. Maxsus bilim va ko‘nikmalardan tashqari, qo‘mondonlar yetakchilik qobiliyatlari va g‘ayrioddiy muhitda harakat qilish qobiliyatini rivojlantirdilar. Jismoniy tayyorgarlikka alohida e’tibor qaratildi. Koloradodan Dalonega (Djordjiya) ga piyoda sayohatlar paytida tog‘ mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Kursantlar o‘rmon mahoratini egallashdi Iglin havo bazasi (Florida). Maktab birinchi bitiruvini 1952 yil mart oyida amalga oshirdi. 1958 yilda Ranjerlarni tayyorlash bo‘limi qayta tashkil etildi va uchta o‘quv kompaniyasini o‘z ichiga boshladi. Birinchi kompaniya Florida o‘rmonlarida operatsiyalarga ixtisoslashgan, ikkinchisi tog‘larda o‘quv operatsiyalari bilan shug‘ullangan va uchinchi kompaniya Fort Benning shahrida joylashgan. Cho‘ldagi operatsiyalar faqat 1983 yilda Fort Blissda o‘qitila boshlandi, ammo 1985 yilda bu kurs Daguey Irving Graundz poligonida yuta shtatiga o‘tkazildi. 1984 yilda armiya Reynjers dasturi bo‘yicha majburiy ofitserlarni tayyorlash g‘oyasini o‘rganib chiqdi, ammo "majburiyat" kurs davomida kursantlarning motivatsiyasini zaiflashtirgani va yamoqning o‘zi shu tariqa devalvatsiya qilinganligi sababli bu g‘oya rad etildi. 13 yil 1991 sentabrda cho‘llarni tayyorlash kursi Fort Blissga qaytdi. Bu qaytish yuta cho‘lining qishda juda qattiq iqlimi bo‘lganligi bilan bog‘liq edi, bu amerikaliklar ishlashni rejalashtirgan yaqin Sharqning tabiiy muhitidan farqli o‘laroq edi. Avgust kuni 5, 1987, Ranger Training bo‘limi piyoda maktabdan ajratilgan va Ranger Training brigada bo‘ldi, qaysi to‘rt Ranger training batalon kiritilgan: 4 - Tabur - Fort Benning, 5 - Tabur - Dalonega, 6-Tabur-Iglin, 7-Tabur-Fort Bliss. O‘quv dasturi O‘quv dasturiga cho‘ldagi darslardan 58 kun oldin va ulardan 65 kun keyin kiritilgan. O‘qish joylarini almashtirish quyidagi ketma-ketlikda bo‘lib o‘tdi: Fort Benning, Dalonega, Iglin va Daguey. 14 yil 1991 oktabrdan

[38] Школа горной войны армии США». *benning.army.mil*. Получено 8 марта 2018 года.

boshlab o‘quv dasturi 68 kungacha kengaytirildi va rotatsiya quyidagi ketma-ketlikda bo‘lib o‘tdi: Fort Benning, Fort Bliss, Dalonega va Iglin 16 kun davomida har bir o‘quv maydonchasida darslar davomiyligi bilan[39]. Qolgan vaqt harakatga sarflandi. Haqiqiy jangga yaqin muhit yaratishga kursantlar yengib o‘tishlari kerak bo‘lgan qiyinchiliklar orqali erishiladi. Ochlik va uyqusizlik, doimiy ruhiy bosim va ketma-ket 9 soat davomida charchagan jismoniy mashqlar. Maktab kuni soat 05.00 da boshlanadi va 14.00 gacha davom etadi. Darslardan keyin ovqatlanish. Fort Benningdagi kunlik ratsionga tayyor ovqatlarning bir yoki ikkita kichik qismi kiradi. Trening davomida har bir kishi 13 dan 14 kilogrammgacha vazn yo‘qotadi. Kursga turli darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar kirganligi sababli, 1991 yilda taktik mashqlar paytida ularning boshiga jangovar o‘q otish bekor qilindi. Asosiy e’tibor individual mashg‘ulotlarga qaratilganiga qaramay, kurs davomida jamoaviy ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Kursantlar boshidanoq juftlarga bo‘lingan. Bundan buyon ular barcha vazifalarni birgalikda hal qilishadi va agar sherigingiz muammolarga duch kelsa, demak sizda muammolar bor. Kursant vazifani mustaqil ravishda bajara olmaydi. Faqat sherik bilan. Vzvod tayyorlashda o‘zaro hamkorlik va hamkorlik kursning asosiy maqsadlaridan biridir. Odatda bunga erishiladi, ammo uzilishlar ham mavjud. Shu bilan birga, kurs yuqori darajadagi o‘zaro yordam va harakatlarni muvofiqlashtirish bilan tavsiflanadi, bu ham o‘qituvchilar tomonidan baholanadi. Nomzodlarga qo‘yiladigan talablar Nomzodlar Aqsh Qurolli kuchlaridan ham, Ittifoq qurolli kuchlaridan ham kelishi mumkin. Serjant va undan yuqori darajadagi erkak harbiy xizmatchilar Reynjers dasturi bo‘yicha kurslarga yuboriladi. Quyi unvonga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilar polkovnik unvoniga ega bo‘lgan bevosita rahbaridan yozma ruxsat olishlari kerak. Barcha nomzodlar sog‘lom va yaxshi sport shaklida bo‘lishi kerak. Kursga yozilishdan bosh tortishning sababi hatto isitma bo‘lishi mumkin. Parashyutdan sakrash tajribasi ma’qul, lekin talab qilinmaydi. Kurslar odatda kursantlarning 60 foizini jalb qiladi Aqsh armiyasi, 20 foizi Aqsh armiyasining boshqa filiallaridan va yana 20 foizi xorijiy mamlakatlardan. 4-qo‘riqchilarni tayyorlash batalyoni Fort Benning O‘quv Bazasi Kurs uchun yo‘llanma olgan kursantlar 18-asrda Reynjersning birinchi qo‘mondonlaridan biri

[39] Армейская школа горной войны (AMWS), базовые курсы военных альпинистов (BMMC), официальный сайт армии США в Форт-Беннинге и Центра передового опыта в области маневрирования, последнее обновление 25 мая 2018 г., по состоянию на 17 марта 2019 г.

bo‘lgan mayor Robert Rojers nomidagi lagerda qolishadi. O‘quv brigadasining shtab-kvartirasi va shtab bo‘linmalari va 4-qo‘riqchi o‘quv batalyoni bu yerda joylashgan.Ikkinchi o‘quv lageri ikkinchi Jahon urushi paytida jang qilgan zamonaviy Reynjers asoschilaridan biri Uilyam o‘darbi sharafiga nomlangan. Darbi lageri" bir nechta binolar bilan Fort Benning tepaliklari orasida o‘rmonda chuqur joylashgan. Har bir kompaniya kursantlar yashash va ochiq havoda ovqat. Ushbu binolardan tashqari, taktik texnikani mashq qilish uchun yana beshta o‘quv maydoni mavjud. Ularning eng kattasi, Sinder blok shovqin (kuygan ferma), bir nechta yog‘och binolardan va butunlay zanjirli panjara bilan o‘ralgan minoradan iborat. Qolgan o‘quv binolari raketa uchirish joylarini, aloqa markazlarini va boshqalarni simulyatsiya qiladi. Shuningdek, "Darbi malikasi" deb nomlangan to‘siqlar kursi mavjud. O‘quv jarayoni Fort Benningdagi mashg‘ulotlar ikki bosqichda olib boriladi. Dastlabki besh kun ichida jangchilar muntazam ravishda jalb qilinadi va Rojers o‘quv lagerida sinovdan o‘tkaziladi.Ular so‘nggi o‘n kunni Kamp Darbida o‘tkazdilar.Brigada shtabiga yetib borgach, yangi kelganlar o‘zlarining harbiy unvonlari va qurolli kuchlar bo‘limi ko‘rsatilmagan rasmiy va tibbiy hujjatlarini taqdim etadilar[40]. Qisqa kirishdan so‘ng, har bir kishi gimnastika, kuch va yengil atletika mashqlari to‘plamidan iborat imtihonlarni topshirishi kerak. Ularning yordami bilan o‘qituvchilar Reynjersga nomzodlarning jismoniy tayyorgarligi darajasini aniqlaydilar. Ko‘pchilik bu testlardan muvaffaqiyatli o‘tadi. Keyingi sinov uch qismdan iborat bo‘lib, kursantlarning jangga yaqin sharoitlarda suvda ishlash qobiliyatini sinovdan o‘tkazadi. Birinchi mashq-to‘liq formada, jihozlarda va 15 metr masofada qurol bilan suzish. Qurol va jihozlardan hech narsa yo‘qotmasdan suzish kerak. Ikkinchi mashqni bajarayotganda jangchi suvga sho‘ng‘ishi, qurol-yarog‘ va jihozlarini yechib, suv ostida hovuz chetiga suzishi kerak. Uchinchi mashq paytida jangchi suv ostida uch metr chuqurlikda qurol va jihozlar bilan suzadi. Ushbu mashqlarni bajarishdan tashqari, reynjerlar suv ostida vahima va qo‘rquvning namoyon bo‘lishini qayd etishadi. Ularning yo‘qligi, ehtimol, sinovdan o‘tishning eng muhim ko‘rsatkichidir, chunki insonning ekstremal vaziyatda o‘z his-tuyg‘ularini yengish qobiliyati ayniqsa qimmatli hisoblanadi. Ushbu sinovdan so‘ng askarlar uchta o‘quv

[40] Армейские тактические методы и процедуры (ATTP) 3-21.50, Горные операции малых пехотных подразделений, Министерство обороны США, февраль 2011 г., по состоянию на 18 марта 2019 г.

kompaniyasiga jalb qilinadi. Kunning qolgan qismi hujjatlarni rasmiylashtirishga va sizning jihozlaringiz va jihozlaringizni olishga bag‘ishlangan. Ushbu bosqichda har bir kursantga sherik tayinlanadi. Shu paytdan boshlab reynjerslar bir-biriga yordam berib, juft bo‘lib harakat qilishadi. Reynjerslar birinchi kundan boshlab faqat juft bo‘lib harakat qilishni o‘rganadilar. Juftliklar "men va mening do‘stim"ranger qoidasini tasdiqlovchi asl tarkibda finalga chiqqanda ideal hisoblanadi. Biroq, tibbiy sharoitlar, shuningdek, tashlab ketish stavkalari tufayli ko‘pchilik juftliklar ajralishadi. Ammo ko‘pincha sheriklar saflari va rasmiy mavqeidan qat’i nazar, umrbod do‘st bo‘lishadi. Kamp Rojersdagi dastlabki besh kun baholash bosqichi deb nomlanadi. 1992 yilgacha kursantlar darhol mashaqqatli jismoniy tayyorgarlikni o‘z ichiga olgan yigirma soatlik kundalik mashg‘ulotlarni boshladilar. Hozirgi vaqtda jismoniy faollik biroz kamayadi, masalan, 5 milya yugurish paytida, uni 40 daqiqada bajarish kerak, yoki kunduzi va kechasi yo‘naltirish paytida, shuningdek, "ranger fokuslari" deb nomlanuvchi bir qator yangi testlar.."Yangi dasturda test sinovlari o‘zgartirildi va kengaytirildi, masalan, kursantning qurol bilan ishlash qobiliyatiga qaratilgan. Haqiqat shundaki, barcha xorijiy kursantlar M-16 miltig‘ini boshqarish qobiliyatiga ega emas. O‘quv jarayonida o‘rganish asosiy kursdan chalg‘itadi, deb ishoniladi. Ammo shu bilan birga, qayta tekshirish imkoniyati aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish tezligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Testdan o‘ta olmaganlar o‘qituvchilar tomonidan intensiv ravishda o‘qitiladi va, qoida tariqasida, ko‘pchilik qayta imtihondan muvaffaqiyatli o‘tadi. Kursantlarning Aqsh armiyasining aloqa uskunalari va o‘qotar qurollari bilan ishlash qobiliyatiga qaratilgan Ranger testlari beshta bo‘limga guruhlangan 11 ta imtihon topshiriqlaridan iborat. Birinchi uchta vazifa M-60 pulemyotini boshqarish qobiliyatiga tegishli. Bu o‘z vaqtida yig‘ish va demontaj qilishdir. Ikkinchi standart-pulemyotni yuklash va uni otishga tayyorlash. Uchinchi standart-o‘qituvchi tomonidan belgilangan nishonlarni to‘g‘ri ko‘rish bilan belgilangan pozitsiyadan yong‘in kartasini tuzish. To‘rtinchi vazifa-m18a1 "Kleymor" konini elektr portlash uchun tayyorlash. O‘quv minasini o‘rnatish, 23 metr asosiy simni cho‘zish va elektr detonatorni kiritish kerak. Shundan so‘ng, o‘qituvchiga hisobot berish. 5 va 6-sonli qoidalar aloqa vositalariga tegishli. Kursantlar xabarni radio orqali uzatishlari, shuningdek, Aqsh armiyasi tomonidan qabul qilingan KTS 600 shifrlash jadvali yordamida radiogrammani shifrlashlari va shifrlashlari kerak.

Ingliz tilini bilmaydigan kursantlar bu vazifani uddalay olmaydilar. Keyingi uchta standart M-16 miltig‘i bilan bog‘liq. 8 va 7 - sonli miltiqni saqlash va miltiq qismlari va mexanizmlarining ishlashidagi kichik kechikishlarni bartaraf etish qobiliyatiga tegishli; 9-sonli-miltiqni tekshirishning barcha turlarini, shu jumladan miltiqning jangovarligini tekshirish qobiliyati. Qo‘riqchi har doim miltig‘ini yaxshi holatda saqlashi kerak va butun dastur davomida u qurolini tekshirmasdan va tozalamasdan dam olish huquqiga ega bo‘lmaydi. Normative 10-standart qo‘l granatalarini bilish va ularni boshqarish qobiliyati bilan bog‘liq.; № 11 - m203 granata raketa tashish ko‘nikmalarini sinov. Standartlar ikkinchi kunning ertalab va tushdan keyin taqdim etiladi. Sinov uchun kursantlar 11 standartdan yettitasini muvaffaqiyatli bajarishlari kerak. Muvaffaqiyasiz bo‘lganlar darhol qayta tekshirish uchun o‘qitila boshlaydilar. Ammo takroriy muvaffaqiyatsizlik kursdan chiqib ketishni anglatadi. Qayta tekshirilmasdan, 4 yoki undan ortiq standartlardan o‘tmaganlar chiqarib yuboriladi. Ularning 10 foizidan ko‘prog‘i yo‘q. Biroq, ularga imtihonlarni quyidagi to‘plam bilan qayta topshirish huquqi beriladi. Uchinchi kuni ertalab, kursantlar har kuni 1 daqiqada 8 mil tezlikda yuguradigan Kross poygasidan so‘ng, chaqqonlik va chidamlilik sinovlari boshlanadi. Birinchidan, kursantlar arqon ishlatmasdan 4 metrli devorga ko‘tarilishadi. Shundan so‘ng ular 25 metr uzunlikdagi loy xandaqqa ko‘tarilishadi. Xandaq ustida tikanli simli panjara cho‘zilgan, bu tizzadan baland emas. Kursantlar qorin yoki orqada emaklab xandaqni yengib o‘tishadi va o‘qituvchilar shlangdan xandaqqa yangi loy quyishadi. Kursantlar 5 metr balandlikda joylashgan tomning raftersiga yopishib, navbatdagi loy chuqurini yengib o‘tishadi. Buzilgan kishi mashqni yangidan boshlaydi. Ikkinchisiga oyoqlaridan foydalanishga ruxsat beriladi, chunki shu paytgacha taxta juda silliq bo‘lib bormoqda. Oxirgi to‘siq-bu soxta to‘r[41]. Kursantlar uning ustiga ko‘tarilib, boshqa tomonga siljiydilar. Barcha to‘siqlarni yengib o‘tgan birinchi kishi o‘t ustida yotmaydi, balki gimnastika va yengil atletika mashqlarini bajaradi. Sovuq havoda ham kursantlar kiyimlarini yuvib, sovuq suvga solib qo‘yishadi, buni baraka deb bilishadi. Shundan so‘ng ular quruq formaga aylanadi. Uchinchi va to‘rtinchi kunlar xarita va kompas yordamida yerni kezishga bag‘ishlangan. Buning uchun ular lagerdan bir oz masofada

[41] "ГОДОВЩИНА СОЗДАНИЯ КОМАНДОВАНИЯ VTA ГОРНОЙ БРИГАДЫ "Grl МАНУЭЛЬ БЕЛЬГРАНО"". *Аргентинская армия*. 29 December 2009. Retrieved 31 January 2019.

olinadi, u yerda ular bir necha soat ichida belgilangan ob’ektlarning joylashuvi va koordinatalarini aniqlaydilar. Kursant faqat armiya tomonidan chiqarilgan kompas bilan ishlash huquqiga ega. Kursant boshqa kompas borligini bilsa, haydab chiqariladi. Yo‘nalish darslari tunda ham o‘tkaziladi. Baholash bosqichi suv sinovi bilan tugaydi. Kursantlar qo‘pol kesilgan zinapoyadan 9 metr balandlikdagi yog‘och platformaga ko‘tarilib, 10 metrli arqon yordamida Viktoriya ko‘liga sakrashadi. Shundan so‘ng darhol ular 18 metrli minoraga ko‘tarilishadi va u yerdan 60 metr uzunlikdagi arqondan suvga tushishadi. Suv sinovi yozda ham, qishda ham amalga oshiriladi. O‘qituvchilar, kursant bu to‘siqlarda harakat qilgani kabi, u ham jangda harakat qilishiga aminlar. Qat’iy va ikkilanmasdan to‘siqqa boradigan va jangovar vaziyatda qat’iy qoladi. Ikkilanadigan yoki qo‘rqadiganlar jangda qo‘rqoq bo‘lishadi. Amaliyot buni tasdiqlaydi. O‘tmaganlar uchun takroriy qayta tekshiruvga ruxsat beriladi. O‘qishning istalgan bosqichida chetlatilgan, ammo yana urinib ko‘rmoqchi bo‘lgan kursantlar keyingi kurs bilan bir xil testlarni bajarishga harakat qilish uchun saqlanib qolishi mumkin. Ular batalyon shtabida tashkil etilgan Gulag deb nomlangan birlikka qabul qilingan.

Gulag o‘quv jarayonini ta’minlash, o‘quv va moddiy bazani ta’mirlash va takomillashtirish vazifalarini bajarish, shuningdek mashqlar va taktik mashqlar paytida dushmanni aniqlash uchun ishlatiladi. Rojers lageridagi eng yirik "Gulag". Bu yerda eng ko‘p kursantlar tibbiy va ta’lim ko‘rsatkichlari bo‘yicha bo‘shatiladi. Kechqurun, dastlabki besh kun ichida kursantlar o‘zini himoya qilish usullarini qo‘llaydilar. Ranger texnikasi jang san’ati texnikasi kabi samarali emas, lekin ular ishonchli, samarali va samarali. Kursantlarga jangda tananing istalgan qismidan foydalanish o‘rgatiladi. Har kuni qo‘l jangiga uch-to‘rt soat sarflanadi. Tanaffus paytida o‘qituvchilar texnikani namoyish etadilar va kursantlar qaysi darajaga etishi kerakligini tushuntiradilar.

Tog‘ va balandlik tayyorgarligi fanini o‘qitish barcha zamonaviy rivojlangan davlatlarda har xil masalan: AQSh barcha turdagi bo‘linmalari tog‘ va balandlik tayyorgarligi kursidan o‘tishi shart. AQSh armiyasida har bir oddiy askardan tortib katta unvondagi ofitsergacha tog‘ va balandlik kursidan o‘tish majburdir. Sababi ular jangovar vazifalarni faqat shahar xududida emas balki yer yuzining barcha tog‘li xududlarida olib borish uchun tayyorlanadi. Har bir askar tog‘ va balandlik

tayyorgarligi kursini mukammal egallaydi. Keyin buni o‘z bo‘linmasiga ketgandan so‘ng dars jadvali, kun tartibiga kiritib qo‘yadi. Tog‘ va balandlik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini takrorlab borib 3 oyda bir marotaba nazorat tekshiruvi topshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Армейские тактические методы и процедуры (АТТР) 3-21.50, Горные операции малых пехотных подразделений, Министерство обороны США, февраль 2011 г., по состоянию на 18 марта 2019 г.

2. Боевая подготовка спесназа. Ардашев А.Н. изд: Эксмо, Яуза, 2014г.

3. Наставление для мобилных отрядов особого назначения МВД РФ. По организации горной подготовки.

4. Подготовка разведчика. Система спесназа ГРУ. Заруский Ф.Д., Тарас А.Э. изд: Харвест. 1998 г.

5. Рекомендации по специальной подготовке подразделений специального назначения 2002 год. Штаненко В. И.

6. Энциклопедия спецназа CAC в действии 2003год. Крофорд С.

YO‘L-TRANSPORT HODISALARINING OLDINI OLISHDA RAQAMLI PROFAYLING TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Tashmanov Y.B

O‘R IIV akademiyasi katta o‘qituvchisi t.f.d. (DSc), dotsent

XXI asrda transport tizimining tezkor rivojlanishi inson hayoti va jamiyat taraqqiyoti uchun katta qulayliklar yaratmoqda. Shu bilan birga, transport vositalaridan keng foydalanish bilan bog‘liq xavf-xatarlar ham ortib bormoqda. Xususan, yo‘l-transport hodisalari (YTH) dunyo miqyosida eng ko‘p inson talofatiga sabab bo‘layotgan omillardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, har yili millionlab odamlar YTH qurboni bo‘lmoqda, millionlab fuqarolar esa og‘ir jarohatlar olib, nogironlikka uchramoqda. Bu esa yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan samarali choralarni izlashni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham yo‘l-transport hodisalarining oldini olish masalasi davlat siyosati darajasida e’tibor markazida turibdi. “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yo‘llarda tartib-intizomni mustahkamlash, transport vositalarining texnik nazoratini kuchaytirish, haydovchilar madaniyatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq YTHlarning asosiy sabablarini tahlil qilar ekanmiz, ular ko‘pincha inson omiliga, ya’ni haydovchilarning ruhiy-emotsional holati, xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayoniga borib taqaladi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ushbu muammoni hal etishda yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Jumladan, videokuzatuv tizimlari asosida raqamli profayling yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Zamonaviy kameralar yordamida transport vositalarining tezligi, yo‘l qoidalariga amal qilishi, haydovchilarning xavfli harakatlari real vaqt rejimida qayd etiladi. Ushbu ma’lumotlar sun’iy intellekt asosida tahlil qilinib, xavfli vaziyatlarni oldindan aniqlash va tezkor choralar ko‘rish imkonini beradi [1].

Videokuzatuv orqali shakllantirilgan raqamli profayllar haydovchilar xulq-atvori, transport oqimining zichligi hamda xavfli hududlarni tahlil qilishga yordam beradi. Natijada, avtohalokatlarning oldini olish, yo‘l harakati xavfsizligini samarali boshqarish va shahar infratuzilmasini optimallashtirish imkoniyati kengayadi [2].

Zamonaviy davrda internet va axborot uzatish texnologiyalari hayotning barcha sohalarida muhim o‘rin egallaydi. Transport xavfsizligi, videokuzatuv tizimlari, sun’iy intellekt asosida ishlovchi profayling dasturlari ham to‘liq ravishda uzluksiz ma’lumot almashinuvi va tezkor internet tarmog‘iga bog‘liq. Chunki videokameralar, sensorlar va boshqa nazorat vositalari real vaqt rejimida katta hajmdagi ma’lumotlarni markaziy serverlarga uzatib, u yerda qayta ishlanishi va tahlil qilinishi kerak [3].

Ammo amaliyotda internet tezligi pastligi yoki uzilishlar yuz berishi tizim samaradorligini pasaytiradi. Ma’lumotlarning kechikib yetib borishi yoki umuman uzatilmasligi natijasida qoida buzilishlari vaqtida qayd etilmaydi, xavfli haydovchilar yoki transport vositalari nazoratdan chetda qoladi.

Shunday vaziyatlarda WebSocket protokoli barqaror ma’lumot uzatishning muhim vositasi sifatida qo‘llaniladi. An’anaviy HTTP protokoli “so‘rov–javob” tamoyiliga asoslangan bo‘lsa, WebSocket esa server va mijoz (masalan, yo‘l kuzatuv kameralari va markaziy boshqaruv tizimi) o‘rtasida ikki tomonlama doimiy ulanishni ta’minlaydi. Bu orqali:

-videokuzatuv tizimlari doimiy ravishda ma’lumot uzata oladi;

-uzilishlar paydo bo‘lsa ham ulanish avtomatik qayta tiklanadi;

-kechikishlar kamayadi va real vaqt rejimida profaylingni amalga oshirish imkoni oshadi [4].

Tahlillar natijasiga ko‘ra o‘xshash funksionallikni ta’minlaydigan WebSocket protokoli asinxron ishlashni tashkil qilish uchun mijoz ilovasiga katta hajmlardagi ma’lumotlarni uzatishni talab qilmaydi, faqat bitta HTTP so‘rovi va HTTP javobi (qo‘l siqish) aloqa o‘rnatish uchun yetarli bo‘ladi. Natijada uzatiladigan ma’lumotlar mos ravishda har bir so‘rov va javob uchun faqat ikki bayt qo‘shimcha ma’lumotlar bilan cheklanadi. WebSocket ikki tomonlama to‘liq dupleks aloqa protokolidan foydalanish HTTP protokoli asosidagi boshqa protokollarga nisbatan uzatiladigan xizmat ma’lumotlari hajmini sezilarli kamaytiradi [5].

HTTP asosidagi yondashuvlar foydalanadigan aloqa kanalining ishlash davomiyligi so‘rovning o‘zining formati yoki proksi-serverning ishlashi tufayli qisqa bo‘lishi mumkin. Mos ravishda bog‘lanish istalgancha ochiq qolishi va noaktiv bo‘lishi mumkin, demak u ishlov berish uchun resurslarni talab qilmaydi. Bunda istalgan kerakli vaqt momentida istalgan ma’lumotlar oldindan yaratilgan bog‘lanish orqali osongina uzatilishi mumkin. Bunday holda, server ochiq TCP (Transmission Control Protocol) soketlari soni bilan o‘ta to‘yinishi mumkin, ammo serverda multipleksor dasturiy ta’minotidan foydalanish barqaror ishlaydigan bog‘lanishlar sonini sezilarli oshiradi. WebSocket protokoli asosida ma’lumotlarni uzatishga asinxron yondashuv sxemasi 1-rasmla keltirilgan [6].



1-rasm. WebSocket protokoli asosida ma’lumotlarni uzatishga asinxron yondashuv sxemasi

Videokuzatuv profayling tizimlarida WebSocketdan foydalanishning asosiy ustunliklari:

-minimal kechikish (ma’lumotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqim shaklida uzatiladi);

-ulanish barqarorligi (internet uzilishi bo‘lsa ham ulanish tezda qayta tiklanadi);

-katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyati (videotasvir, sensor ma’lumotlari va algoritmik tahlillarni birgalikda ishlatish);

-moslashuvchanlik (turli platformalar va dasturlar bilan integratsiya qilish oson).

WebSocket asosida qurilgan transport xavfsizligi tizimlari, ayniqsa, aqlli shahar infratuzilmasi, “aqlli svetofor” tizimlari, hamda haydovchi xatti-harakatini kuzatuvchi

profayling algoritmlari uchun ishonchli platforma hisoblanadi. Natijada internetdagi uzilishlar xavfsizlikka kamroq ta’sir qiladi va transport oqimini boshqarish samaradorligi ortadi.

Videokuzatuv va profayling tizimlari transport xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish hamda haydovchilarning xatti-harakatini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizimlarning samaradorligi esa birinchi navbatda barqaror va uzluksiz ma’lumot almashinuviga bog‘liq. An’anaviy protokollar bunday talablarni to‘liq bajara olmagan holatlarda WebSocket texnologiyasi eng maqbul yechim sifatida ko‘rinmoqda.

Umuman olganda, WebSocket asosidagi barqaror ma’lumot almashinuvi transport xavfsizligini oshirishda, YTHlarning oldini olishda va jamiyatda xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishda samarali mexanizmlardan biri sifatida o‘zini namoyon etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гонсалес Р., Вудс Р. Цифровая обработка изображений. – М.: Техносфера, 2005. – 1072 с.

2. Дворкович А.В., Дворкович В.П. Цифровые видеоинформационные системы (теория и практика). – М.: Техносфера, 2012.

3. Fette, I., Melnikov, A. The WebSocket Protocol. RFC 6455, IETF, 2011.

4.Iqbal, M., Nadeem, M. Real-time video surveillance using WebSocket protocol. International Journal of Computer Applications, 2020.

5.Zhang, H., Wang, L. Intelligent Traffic Monitoring

YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA PROFAYLINGNING O‘RNI

Axmedov Sherzodbek Oribjon o‘g‘li

O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda profaylingning o‘ni va ro‘li atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek profaylingdan foydalangan holda yo‘l harakati qoidalarini muntazam buzuvchi qoidabuzar haydovchilarni aniqlash va ularni profilaktika qilish bo’yicha bazi fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yo’l harakati, yo’l patrul xizmati, yo‘l harakati xavfsizligi, haydovchi profaylingi, sun’iy intellekt, xavfli haydash, huquqbuzar haydovchi.

Аннотация. В данной статье подробно анализируется роль профайлинга в обеспечении безопасности дорожного движения. Также представлены некоторые мнения по выявлению и профилактике водителей, систематически нарушающих правила дорожного движения, с использованием профайлинга.

Ключевые слова: дорожное движение, дорожно-патрульная служба, безопасность дорожного движения, профайлинг водителя, искусственный интеллект, опасное вождение, водитель-нарушитель.

Abstarct. This article analyzes in detail the role and significance of profiling in ensuring road safety. Also, some opinions on identifying and preventing drivers who systematically violate traffic rules using profiling are presented.

Keywords: road traffic, road patrol service, road safety, driver profiling, artificial intelligence, dangerous driving, offending driver.

Bugungi globallashuv va urbanizatsiya jarayonlarida transport tizimining samarali ishlashi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda fuqarolarning xavfsizligi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yo‘l-transport hodisalarining yuqori darajada sodir bo‘lishi nafaqat inson hayoti va salomatligiga, balki jamiyatning iqtisodiy va ma’naviy barqarorligiga ham jiddiy xavf tug‘diradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab 1,35 milliondan ortiq odam YTH oqibatida halok bo‘ladi, 20–50 million kishi esa turli darajadagi jarohatlar oladi. Ushbu ko‘rsatkichlar YTHlarni zamonaviy davrning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida ko‘rib chiqishga asos bo’lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham yo‘l harakati xavfsizligi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda avtomobil transporti sonining keskin ortishi, shahar va qishloq hududlarida avtomobil

oqimining zichlashuvi, haydovchilarning intizomiy xatti-harakatlari hamda piyodalarning huquqiy ong darajasi yo‘l-transport hodisalari ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi IIV Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda respublika bo‘ylab 9 364 ta YTH sodir bo‘lgan bo‘lib, ularda 2 203 nafar fuqaro hayotdan ko‘z yumgan, 8 901 nafar shaxs esa jarohat olgan[42]. Bu ko‘rsatkichlar respublikamizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning an’anaviy usullari — yo‘l-patrul xizmatini kuchaytirish, nazorat kameralarini o‘rnatish, jarima va intizomiy choralarni kuchaytirish muayyan natijalar bermoqda. Ammo bu choralarning o‘zi yetarli emas. So‘nggi yillarda kriminologiya va xavfsizlik sohalarida qo‘llanila boshlagan **profayling** uslubi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda samarali vositalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Profayling mohiyatan shaxsning tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, psixologik reaktsiyalari va boshqa belgilariga qarab uning ehtimoliy xatti-harakatlarini oldindan prognoz qilishga asoslangan metoddir.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, profayling nafaqat aeroportlar va chegara nazorat punktlarida terrorizmga qarshi kurashda, balki yo‘l-patrul xizmatida xavfli haydovchilarni aniqlash, alkogol yoki giyohvand moddalar ta’sirida transport vositasini boshqarayotgan shaxslarni tezkor ravishda fosh etish, shuningdek, yo‘l-transport hodisalarini profilaktika qilishda ham qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida profaylingni yo‘l harakati xavfsizligi sohasida qo‘llash masalasi hali yetarlicha o‘rganilmagan yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Yo‘l harakati xavfsizligi tizimi murakkab ijtimoiy-huquqiy institut bo‘lib, uning samaradorligi ko‘plab omillarga — yo‘l infratuzilmasi, transport vositalarining texnik holati, haydovchilarning malakasi va intizomi, aholining huquqiy madaniyati hamda nazorat organlari faoliyatiga bog‘liq. Shu bilan birga, inson omili yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda asosiy hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Statistika shuni ko‘rsatadiki, YTHlarning qariyb 50-60 foizi bevosita inson omili bilan bog’liq ya’ni tezlikni oshirish, spirtli ichimlik ichgan holda transport vositasini boshqarish, yo‘l belgilari va qoidalarini

[42] https://daryo.uz/2025/01/24/ozbekistonda-2024-yili-22-ming-nafardan-ortiq-fuqaro-ythlar-oqibatida-vafot-etdi?ysclid=mf3jpbvjkw340360967

e’tiborsiz qoldirish oqibatida yuz beradi. Shu nuqtayi nazardan, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda inson xatti-harakatini oldindan baholash, xavfli vaziyatlarni prognoz qilish, xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan shaxslarni tezkor aniqlash muhim vazifalardan biri sanaladi. Aynan shu vazifani bajarishda profayling samarali metod sifatida e’tirof etiladi.

Profaylingning yo‘l-patrul xizmati faoliyatida qo‘llanishi quyidagi asosiy funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi:

1. *Xavfli haydovchilarni tezkor aniqlash.* Mast holda, narkotik moddalar ta’sirida yoki ruhiy-emotsional stress holatida bo‘lgan haydovchilar ko‘pincha o‘zlarini ba’zi xatti-harakatlari orqali fosh etadi jumaldan, ko‘zning qizarishi, nutqdagi o‘zgarish, tana titrashi, o‘ta tajovuzkor yoki, aksincha, shubhali tortinchoq xatti-harakatlar. Profayling bunday belgilarni tizimli aniqlash imkonini beradi.

2. *YTHlarning oldini olish.* Yo‘l-patrul xizmat xodimi haydovchining holatini kuzatib, ehtimoliy xavfli shaxsni oldindan aniqlasa, YTH sodir bo‘lishidan avval choralar ko‘rishi mumkin bo‘ladi. Bu usul YTHlarning profilaktikasida muhim o‘rin tutadi.

3. *Huquqbuzarliklarni fosh etish.* Ba’zi haydovchilar kontrabanda, noqonuniy migratsiya yoki boshqa huquqbuzarliklarda qatnashishi mumkin. Profayling xodimlarga shubhali transport vositalarini tezroq ajratib olish imkonini beradi.

4. *Yo‘l harakati madaniyatini oshirish.* Haydovchilar profayling qo‘llanilayotganidan xabardor bo‘lsa, ularning o‘zini tutishi, qoidalarga rioya qilishga bo‘lgan mas’uliyati ortadi. Bu omil ham bilvosita YTHlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda profaylingni qo‘llash uch darajada samaradorlik keltirishi mumkin:

Individ darajasi: har bir haydovchining xulq-atvorini kuzatish orqali uning xavfli yoki xavfsiz ekanini aniqlash.

Tizim darajasi: YPX organlarining umumiy faoliyatida profayling metodlarini qo‘llash orqali nazorat samaradorligini oshirish.

Jamiyat darajasi: profilaktika va targ‘ibot orqali aholida “xavfsiz xatti-harakat modeli”ni shakllantirish.

Bu yondashuvning nazariy asosini “inson xatti-harakati xavfsizlikning asosiy determinantidir” degan konsepsiya tashkil qiladi. Mazkur g‘oya JSST, Yevropa transport xavfsizligi kengashi hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, barcha zamonaviy yo‘l harakati xavfsizligi strategiyalarida asosiy tamoyil sifatida belgilangan. Shu jihatdan qaraganda, profayling nafaqat nazorat va fosh etish vositasi, balki keng qamrovli **profilaktika mexanizmi** sifatida ham alohida o‘rin tutadi. Chunki u xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan vaziyatni oldindan aniqlashga va YTHning oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston mustaqillik yillaridan buyon transport infratuzilmasini kengaytirish, avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga katta e’tibor qaratib kelmoqda. Shu bilan birga, avtomobil transporti sonining keskin ortishi, urbanizatsiya jarayonlari va aholining transport xizmatlariga talabining o‘sishi yo‘l-transport hodisalari sonining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Mavjud statistik ko‘rsatkichlar respublikamizda YTHlar hali ham jiddiy ijtimoiy muammo ekanini tasdiqlaydi.

Statistik tahlil shuni ko‘rsatadiki, YTHlarning asosiy sabablari inson omili bilan bog‘liq. Jumladan, tezlikni belgilangan me’yordan oshirish — umumiy YTHlarning 35–40 foizini tashkil etsa, mast holda transport boshqarish — 12–15 foiz, yo‘l belgilari va svetofor talablariga rioya qilmaslik — 10–12 foiz, piyodalar yo‘l qoidasini buzishi — 8–10 foiz va transport vositalarining texnik nosozligi — 5 foiz atrofida ekanligini ko’rishimiz mumkin.

Bundan tashqari O‘zbekiston sharoitida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda bir qator tizimli muammolar mavjud:

1. **Haydovchilarning huquqiy madaniyat darajasi pastligi.** Ko‘plab haydovchilar yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishni majburiyat sifatida emas, balki jazodan qochish vositasi sifatida ko‘radi. Bu esa intizomsizlik va YTHlarga olib keladi.

2. **Spirtli ichimlik va giyohvand moddalar ta’sirida haydash.** Yurtimizda bunday huquqbuzarliklar soni ham yuqoriligicha qolmoqda. Masalan, 2022-yilda mast holda transport vositasini boshqargan shaxslar 299 ta holatda YTH sodir etgan.

3. **Texnik nazorat tizimining samaradorligi pastligi.** Avtomobillarning texnik nosozligi bilan bog‘liq YTHlar ulushi yuqori bo‘lmasa-da, mavjud texnik ko‘rik tizimi ba’zan formallikka aylanib qolmoqda.

4. **Yo‘l-patrul xizmati faoliyatining cheklanganligi.** YPX xodimlari asosan jarima qo‘llash va qoidabuzarlikni qayd etishga yo‘naltirilgan. Biroq profilaktik chora-tadbirlar, xususan, haydovchilarning ruhiy-emotsional holatini kuzatish, xavfli shaxslarni oldindan aniqlash kabi yo‘nalishlar yetarli darajada rivojlanmagan.

5. **Huquqiy bazaning yetarli darajada mukammal emasligi.** Amaldagi qonunchilikda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning texnik va tashkiliy jihatlari keng yoritilgan bo‘lsa-da, inson omiliga qaratilgan innovatsion yondashuvlar — masalan, profayling uslublaridan foydalanish bo‘yicha aniq huquqiy mexanizmlar mavjud emas.

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalasida inson omili hal qiluvchi rol o‘ynaydi. An’anaviy nazorat choralarining samaradorligi cheklangan bo‘lib, zamonaviy yondashuvlar, jumladan profayling kabi psixologik va kriminologik metodlarni tatbiq etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Profayling usullarini qo‘llash orqali haydovchilarning xavfli xatti-harakatlarini oldindan aniqlash, YTHlarni kamaytirish va yo‘l-patrul xizmati faoliyatining samaradorligini oshirish mumkin. Yo‘l-patrul xizmati (YPX) organlari yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning asosiy ijrochi subyektlaridan biridir. Ularning faoliyati ko‘p jihatdan huquqbuzarliklarni aniqlash, jarima qo‘llash va transport oqimini tartibga solishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, zamonaviy sharoitda YPX vazifalari yanada kengaymoqda. Xususan, inson omiliga asoslangan xavfsizlik yondashuvlarini qo‘llash, haydovchilarning psixologik va emotsional holatini tahlil qilish, potensial xavfni oldindan aniqlash — bugungi kun talabi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, profayling yo‘l-patrul xizmati faoliyatida yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Profaylingning YPX faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

1. **Haydovchilarning tashqi belgilariga asoslangan kuzatuv.** YPX xodimlari haydovchining yuz ifodasi, ko‘zning qizarishi, nutqdagi nuqson, g‘ayritabiiy asabiylashish yoki ortiqcha sokinlik kabi belgilarni kuzatib, mast yoki ruhiy stress ostida transport boshqarayotgan shaxsni aniqlashi mumkin.

2. **Xatti-harakatdagi shubhali alomatlarni fosh etish.** Masalan, yo‘l patrul posti oldida asabiylanib, to‘satdan tezlikni pasaytirish, hujjatlarni uzatishda ortiqcha shoshilish yoki qo‘rqinch alomatlari kontrabanda, noqonuniy yuk tashish yoki mast holatni yashirishga urinish belgisi bo‘lishi mumkin.

3. **Psixologik suhbat elementlarini qo‘llash.** YPX xodimlari haydovchi bilan qisqa suhbat jarayonida uning ruhiy-emotsional barqarorligini baholashi mumkin. Savollarga javob berishda ikkilanish, nutqning tartibsizligi yoki noto‘g‘ri mantiqiy izohlar shubhali vaziyatdan darak beradi.

4. **Texnik vositalar bilan integratsiya.** Profayling nafaqat insonning subyektiv kuzatuvi, balki videokuzatuv tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, avtoulov kameralarida haydovchining yuz ifodasini tahlil qiluvchi dasturlar mastlik yoki charchoq alomatlarini aniqlashi mumkin.

Profayling YPX faoliyatiga tatbiq etilganda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

***Birinchidan,* YTHlar sonini kamaytirish.** Mast yoki xavfli haydovchilarni oldindan aniqlash orqali yuzlab YTHlarning oldi olinadi.

***Ikkinchidan,* Nazorat samaradorligini oshirish.** YPX xodimlari vaqtini barcha haydovchilarni tekshirishga emas, balki eng xavfli shaxslarni ajratib olishga yo‘naltirishi mumkin.

***Uchinchidan,* Huquqbuzarliklarning yashirin shakllarini fosh etish.** Kontrabanda, noqonuniy migratsiya yoki jinoyatga aloqador shaxslarning xatti-harakatlari profayling yordamida tezroq aniqlanadi.

***To’rtinchidan,* Jamoatchilik ishonchini oshirish.** YPXning profilaktik faoliyati kuchayishi, faqat jarimaga emas, balki xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgani aholida ijobiy munosabat uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda profaylingni joriy etish — nafaqat zarurat, balki strategik ehtiyojdir. Mamlakatda mavjud huquqiy asoslar bunday metodni rivojlantirish uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Eng muhimi, profayling qo‘llanilganda inson huquqlarini hurmat qilish va ilmiy asoslangan metodologiyadan foydalanish ta’minlanishi kerak. Bundan tashqari profayling yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda qo‘shimcha mexanizm

sifatida katta imkoniyatlarga ega. Ammo uning samarasi faqat huquqiy asoslar, professional xodimlar, zamonaviy texnologiyalar va inson huquqlariga hurmat uyg‘un bo‘lgandagina ta’minlanadi. Shu tarzda, profayling nafaqat YTHlarning kamayishiga, balki jamiyatda huquqiy madaniyat va xavfsizlik psixologiyasining yuksalishiga ham xizmat qiladi.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR

1. Greaves, S. P., & Ellison, A. B. (2011). Personality, risk aversion and speeding: An instrumental variables approach. Accident Analysis & Prevention, 45, 242-250. https://www.researchgate.net/publication/271602238_Driver_behaviour_profiles_for_road_safety_analysis
2. Hu, J., Wang, L., Zhang, J., Zhang, F., Yang, Z., & Mao, Y. (2024). Enhancing Driving Safety Evaluation Through Correlation Analysis of Driver Behavior. Sustainability, 16(9), 4067. https://doi.org/10.3390/su16094067
3. Mahmud, S. M. S., Ferreira, L., Hoque, M. S., & Tavassoli, A. (2018). Micro-simulation modelling for traffic safety: A review and potential application to heterogeneous traffic environment. IATSS Research, 42(1), 27-41. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1369847818308131
4. Oltedal, S., & Rundmo, T. (2006). The effects of personality and gender on risky driving behaviour and accident involvement. Safety Science, 44(7), 621-628. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0001457521003808
5. Papadimitriou, E., & Tselentis, D. I. (2023). Driver Profile and Driving Pattern Recognition for Road Safety Assessment: Main Challenges and Future Directions. IEEE Open Journal of Intelligent Transportation Systems, 4, 83-100. https://doi.org/10.1109/OJITS.2023.3239031
6. Sullman, M. J., Meadows, M. L., & Pajo, K. B. (2002). Aberrant driving behaviours amongst New Zealand truck drivers. Transportation Research Part F: Traffic Psychology and Behaviour, 5(3), 217-232. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC7143796/
7. Tecknotrove Systems. (n.d.). Driver Profiling System. Retrieved September 2, 2025, from https://tecknotrove.com/industries/automobile/driver-profiling-system/
8. World Health Organization. (2023). Road traffic injuries. Retrieved September 2, 2025, from https://www.who.int/health-topics/road-safety

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA PROFAYLING METODLARINING SAMARADORLIGI

Ahmadjanova Nargizaxon Adiljanovna
Alfraganus Universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilar faoliyatida profayling metodlarining samaradorligi haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: profaylin, kriminil profayling, inson tiplari, astenik, atletik, piknik, aralash tip, mimikam, jestlar.

Аннотация: В данной статье говорится об эффективности методов профилирования в деятельности военнослужащих.

Ключевые слова: профилирование, криминальное профилирование, типы человека, астенический, атлетик, пикник, смешанный тип, мимика, жесты.

Abstract: This article talks about the effectiveness of profiling methods in the activities of military personnel.

Key words: profiling, criminal profiling, human types, asthenic, athletic, picnic, mixed type, facial expressions, gestures.

Profayling metodi hozirgi kunda psixologiya sohasining yangi rivojlanib kelayotgan qiziqarli hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘idan biridir. Harbiy xizmatchilarilar faoliyati davomidagi munosabatlar tizimi etnopsixologik xususiyatlarga bog‘liq holda shakllanib boradi. Profayling metodining psixologik qonuniyatlari va mexanizmlari harbiy xizmatchilar faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Bu metod yordamida harbiy xizmatchi psixologiya qonuniyatlariga tayangan holda shaxslararo munosabatga kirishadi. Profayling jarayonida harbiy xizmatchi bilish sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi.

Bu jarayonlar harbiy xizmatchi mantiqiy fikrlashiga, holatni o‘tmishdagi vaziyat bilan bog‘lashiga, o‘zaro solishtirish va qiyoslash malakasi, ob’ekti va sharoitini mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi. So‘nggi vaqtlarda, aholi ko‘p jamoat

joylarida, qo‘riqlanadigan muhim ob’ektlarda, ayniqsa havo transportida, profayl metoddan foydalanish keng tarqaldi. Agar profayling metodini fuqarolar bilan suhbatlashish, ularni ruhiy holatini kuzatish sifatida ta’riflanadigan bo‘lsa, bu metod ikkita bir-birini to‘ldiruvchi metodlardan, ya’ni ruhiy kuzatish metodi va so‘rov (suhbat) metodidan tashkil topgan bo‘lib, shaxs psixodiagnostikasining turi hisoblanadi. Bu usuldan harbiy xizmatchilar faoliyatining ko‘plab yo‘nalishlarida, jumladan, aholi ko‘p to‘planadigan jamoat joylarida, qo‘riqlanadigan o‘ta muhim ob’ektlarda, jamoat transportining amaldagi barcha turlarida xavfsizlikni ta’minlashda foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Profayling (inglizcha profile – profil) yoki profayl metodi – shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning xulqidagi o‘zgarishlarni tashqi ifoda va xatti-harakatlar asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullardan foydalangan holda oldindan bashorat imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir. Hozirgi kunda, shaxslarning profilini yaratish asosida ko‘plab zo‘ravonlik, ko‘p takrorlanadigan qotillik jinoyatlarini ochishda keng foydalaniladi.

Profayling bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni odatda profaylerlar deb yuritiladi.

Profaylerning o‘rganish ob’ekti sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

– mimika;

– jestlar;

– xatti-harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari;

– nutqning psixolingvistik qonuniyatlari;

– verbal muloqotning paralingvistik alomatlari va boshqalar.

Agar profayling sohasida xorij tajribasini o‘rganadigan bo‘lsak, uni bevosita kriminal profayling (asosan Yevropa va AQShda keng tatbiq etilgan) hamda transportdagi profayling (asosan Isroil va Rossiyada keng tatbiq etilgan)ga ajratish mumkin.

Profayl metod asoschilari psixolog olimlar P.Ekman, V.Frizen, M.Sukerman va B.De Paulolar hisoblanishadi. 2012 yil Yolg‘onni tadqiq qilish bo‘yicha Xalqaro Akademiyada Ye.Spiritsa tomonidan kriminal profayling usuli taqdim etildi [1].

Kriminal profayling – taxmin qilinayotgan jinoyatchi shaxsxususiyatlarini tashhislovchi kompleks usullar yordamida psixologik profilining yaratilishi tushuniladi.

Kriminil profayling odatda, jinoiy xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslarning xulq-atvorini o‘rganishga qaratilgan yo‘nalishdir. Uning metodologik asosi psixologiyaning «bixevioristik» nazariyasiga (inson xulq-atvorini o‘ranish) tayanadi. Unda inson harakatlarini yuzaga keltiruvchi motivlar bevosita tahlil qilinadi. Buyuk Britaniya, Avstriya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlari politsiya tizimida faoliyat olib borayotgan psixolog-mutaxassislar aksariyat hollarda qotillik jinoyatlarini fosh etishda tajribali harbiy xizmatchi amaliy ko‘mak berib boradilar. Ular kriminal profayling usuli orqali shaxs xulqidagi noodatiy harakatlarni qay uslubda amalga oshirgani, hudud geografik joylashuvining o‘ziga xos xususiyatlarini, voqea joyida jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan qanday izlar qolganini psixologik tahlil qiladilar. Shu bilan birga, jabrlanuvchining turmush tarzi, hayoti davomida erishgan yutuq va muvaffaqiyatsizliklari, shaxslararo munosabatlari, faoliyatiningyo‘nalishi hamda undan qoniqish hissi, ruhiy sog‘lomligi, nizoli vaziyatlarda o‘zini tutib turishi, o‘ziga xos psixologik fazilatlari, hayotga qarashlari va intilishlari, oiladagi va yaqinlari, do‘stlari, dushmanlari orasidagi o‘zaro munosabatlari, jamiyatda qabul qilingan norma va me’yorlarga bo‘lgan munosabati va shaxs haqidagi boshqa axborot manbalarini chuqur psixologik tahlil qilib, jinoyatni fosh etishga ko‘mak beradigan izlanishlar olib boradilar. Natijada, yakuniy xulosalarga tayangan holda jinoyatchi shaxsning psixologik portretini yaratishga harakat qiladilar [2].

Profayling texnologiyasi 5 bosqichdan iborat:

1) jinoyat va oldin shunga o‘xshash qilmishlar sodir etgan jinoyatchi tiplari (psixologo-psixiatrik tipologiya) psixologikmazmundagi holati tahlili;

2) jinoyatni tergov qilish joyining mukammal tahlili;

3) jabrlanuvchilarning mashg‘ulot va qiziqishlarini atroflichao‘rganish;

4) jinoyatni tergov qilishga jalb qilingan hamma shaxslarning ehtimolli motivatsion omillarini shakllantirish;

5) jinoyatchini tasvirlash (fe’l-atvori ko‘rsatishiga, tashqi psixologik mohiyati asosida).

Ma’lumki, biror-bir huquqbuzarlikni amalga oshirmoqchi bo‘lgan shaxs o‘zining psixologik holatini to‘liq nazorat qila olmaydi, uning organizmida, fiziologik va tashqi

ko‘rinishida o‘zgarishlaryuzaga keladi, vaziyatga affektiv yondashuv, yolg‘on va nosamimiy harakatlar, asabiylashish kuzatiladi.

Inson tiplarini o‘rganish bo‘yicha konstitutsional nazariyada, uning asoschisi nemis psixiatri Ernest Krechmer (1888-1964) bo‘lib, 1921 yilda u bu nazariyani ilgari surgan. U asosan temperament tiplarini morfologik konstitutsiyasiga qarab aniqlashga e’tiborini qaratgan. Ya’ni insonning ta’na tuzilishiga qarab uning psixologik xususiyatlari, temperamenti va xarakterini aniqlash mumkin deb hisoblagan [3].

Asosiy tadqiqotlari shu masalani yoritishga qaratilgan bo‘lib, Krechmer insonlarni ta’na tuzilishiga qarab uch turga ajratgan va ularning har biriga ta’rif bergan.

Astenik – (grek tilidan olingan bo‘lib asthenes – *zaif* degan ma’noni anglatadi) turga tegishli insonlar o‘rta bo‘yli va oriq kishilar bo‘lib, jussasi kichikroq bo‘ladi. Shuning uchun ko‘pgina hollarda ularning bo‘yi past bo‘lib ko‘rinadi.



1-rasm. Astenik tipidagi inson (Andrey Chikatilla) ko‘rinishi.

Ta’na va yuz terisi nozik, yelkasi tor, qo‘llari va bilaklari ingichka, ko‘krak qafasi tor bo‘lgan hamda mushaklari yaxshi rivojlangan oriq kishilardir. Asteniklarning yuzi odatda uzun va burni katta bo‘ladi

Ularga emotsional zaiflik, doimo o‘z-o‘zini tahlil qilish, xatti-harakatlarini o‘rganish kabi xislatlar namoyon bo‘ladi, bunday insonlar yolg‘izlik hissiga moyil bo‘ladilar.

Atletik (grek tilidan olingan bo‘lib athletes – *kurashchi* deganma’noni anglatadi) turiga tegishli insonlarning suyak va mushaklari yaxshi rivojlangan, o‘rtacha yuqori yoki baland bo‘yli, yelkasi va ko‘krak qafasi keng, boshini tik tutib yuradigan kishilardir. Tana tuzilishi pastga qarab qisqarib (torayib) ketadi, boshi ko‘pincha

cho‘ziq, tuxumsimon tuzilishda bo‘ladi. Ularning irodasi kuchli bo‘lib, qat’iyatlilik, o‘z fikri ustida qaysarlik bilan turib olish kabi xislatlar bilan tavsiflanadi.



2-rasm. Atleik tipidagi inson k o‘rinishi.

Piknik (grek tilidan olingan bo‘lib *pyknos – yirik* degan ma’noni anglatadi) turiga tegishli insonlarning bosh ko‘krak qafasi va qorin bo‘shlig‘i yaxshi rivojlangan, semirishga moyil, tayanch harakat a’zolari yaxshi rivojlanmagan kishilar. Ular judaemotsional bo‘lib, turli hayotdagi vaziyatlarga haddan ziyod bo‘yoq beradilar va isterikaga (jazavaga tushishga) moyildirlar. Doimo hayotdan zavqlanib yashashga harakat qiladilar.



3-rasm. Piknik tipidagi inson ko‘rinishi.

Astenik tip egalari – o‘g‘rilik, firibgarlik, tovlamachilikkamoyil bo‘ladilar.

Atletik tip egalari – zo‘ravonlik harakatlariga moyil bo‘ladilar.

Piknik tip egalari – muttahamlik va qalloblikka moyil bo‘ladilar.

Aralash tip egalari esa jamiyatga zid harakatlarni sodir etishga moyil bo‘ladilar.

Shuningdek, “astenik” tipidagi jinoyatchilarni aniqlashda A.O.Buxanovskiyning bergan ma’lumotlari katta ahamiyatga ega xisoblanadi. 1980-1992 yillarda “Chikatilla” manyak nomi Butun sobiq ittifoqda tarqalib ketgan. Uni shuningdek, “Rostovlik manyak” deb ham ataydilar. Uni sodir etgan jinoyatlarini fosh etishda va o‘zini topishda juda katta qiyinchiliklar bo‘lgan. 10 yil muddat ichida uni u sodir etgan jinoyatlarini o‘rganishga va ushbu jinoyatni aslida “kim” sodir etganligini topishga juda ko‘p vaqt

sarf etilgan. Shu 10 yil muddat ichida qurbonlar soni 50 dan ziyod bo‘lgan va ularning aksariyat qismini bolalar va ayollar tashkil etgan. Tergovchilar hattoki, qotilni qanday ko‘rinishda ekanligini va qanday ijtimoiy qatlamga tegishli ekanligini bilishga ojizlik qilganlar. Shu sababli tergov xodimlari psixiatrlarga murojaat qilishga majbur bo‘lganlar. Murojaat etilgan psixiatrlardan faqat bittasi Aleksandr Olimpievich Buxanovskiy ushbu ishni ko‘rib chiqishga va jinoyatchi shaxsini psixologik portretini yaratib berishga qaror qilgan. Ushbu jinoyatni o‘rgangan holda A.O.Buxanovskiy jinoyatchini 90% psixologik portretini to‘g‘ri aytib bergan. U bergan ma’lumotlarga tayangan holda Ichki ishlar idoralari xodimlari “Chikatilla”ni iziga tushganlar.

A.O.Buxanovskiy jinoyatni sodir etish turiga, qurbonlarning yoshini, jinoyat joyini, kunini, jinoyat izlarini o‘rgangan holda o‘sha paytda va hozirgi kunda keng qo‘llanilib kelinayotgan E.Krechmerning konstitutsional nazariyasidan foydalanib “Chikatilla”ni astenik tipiga tegishli ekanligini aytadi. U pedafil, kanibal, ozg‘in, klassik ko‘rinishda kiyinib yuruvchi, insonlar bilan yaxshi munosabatga kirisha oladigan (sotsiopat emas), oilali, ma’lum bir ish grafigiga ega ishda ishlovchi insonligini aytgan.

A.O. Buxanovskiy Andrey Chikatillani asosan qurbonlarini o‘rmon ichkarisidagi hududda kuchli vahshiy qiynoqlar bilan o‘ldirib, ochiqdan ochiq o‘likni yashirmay tashlab ketganiga va o‘rmon ichkarisigacha ular o‘z oyoqlari bilan (majburlamay) borganlari uchun uni qo‘rqinchli ko‘rinishga ega emas balki, klassik uslubdagi kiyimlarni kiyib yuradi, insonlar u bilan muloqotga kirishganlarida undan cho‘chimaydilar, unga ishongan holda u bilan birga ketadilar deb aytgan. Andrey Chikatillani hech qanday psixiatr ro‘yxatida turmaganligini sababi ham aynan shunda bo‘lib u sotsiopat emasligi jamiyatda insonlardan qochmasligi muloqotni to‘g‘ri va chiroyli shaklda olib borishini aytgan. Shuningdek, u o‘z qurbonlariga birinchi zarbani deyarli har doim bosh miyasining orqa qismiga zarba berish bilan boshlagan. Ushbu ma’lumotlarni o‘rgangan holda A.O.Buxanovskiy uni zaif “Astenik” tipdagi ozg‘in inson deb aytgan, chunki u o‘zidan zaif bo‘lgan bolalarga va ayollarga ham orqadan zarba bergan, agarda oldidan zarba bersa, ular qarshilik ko‘rsatishga ulgurishlari va jinoyat izlari ko‘payib ketishi mumkinligini bilganligi sabab bo‘lgan bunga. Shuningdek, A.Chikatilla o‘z qurbonlarini organlarini (ko‘zlari, burni, jinsiy a’zolarini)

kesib olib, ularni iste’mol qilgan (kanibal) holatlar ham kuzatilgan. Qurbonlar asosan bir necha marotaba pichoq (50 va undan ziyod) bilan zarba berishdan qon ketishi oqibatida qiynalib qurbon bo‘lganlar. Qotillik asosan haftaning ma’lum bir kunlarida sodir etilgan, Shu sababli A.O.Buxanovskiy ushbu qotil haftada uch (3) ish kunida ishlovchi ma’lum bir ish jadvaliga ega bo‘lgan inson ekanligin ta’kidlagan.

Hozirgi kunda A.O.Buxanovskiy yaratib ketgan qotillarning tiplari, u yozgan monografiya va adabiyotlardan ko‘plab qotilliklarni ochishda va jinoyatlarga moyilligi bor insonlarni o‘rganishda va davolashda keng foydalanilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilar faoliyatida psixologik profaylingning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish ularning professional tayyorgarligini, psixologik barqarorligini va xizmat samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Psixologik profayling harbiy xizmatchining individual psixik xususiyatlarini, xulq-atvori, motivatsiyasi hamda stressga qarshi turg'unligini aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv zamonaviy psixologik nazariyalar – shaxs tipologiyasi, xulq-atvor modelari, ijtimoiy psixologik omillar va xavf-xatarlarni baholash metodikalariga asoslanadi. Profayling xizmatining nazariy asoslari harbiy tizimda xavfsizlikni ta'minlash, nizoli holatlarning oldini olish, xodimlarni lavozimga tayinlashda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish uchun ishonchli zamin yaratadi. Shunday qilib, psixologik profaylingni harbiy sohaga chuqur integratsiya qilish nafaqat shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash, balki butun harbiy jamoaning psixologik muvozanatini saqlash va professional muhitni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Douglas, J., Ressler, R., Burgess, A., & Hartman, C. (1986). Criminal Profiling: From Crime Scene Analysis to Courtroom. FBI Academy.

2. Кузнецова, Е. В. (2017). Профайлинг: технологии выявления лжи и анализа поведения. – Москва: Питер.

3. Щербаков, В. П. (2018). Основы профайлинга: выявление потенциально опасных личностей. – Москва: Юрайт.

Profaylingning nazariy asoslari

Dauletova Go’zal Muratbayevna,
Qoraqolpoq davlat universiteti,
“Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada **profaylingning nazariy asoslari** ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Profayling tushunchasi, uning mazmuni va zamonaviy psixologiyadagi o‘rni izohlangan. Shuningdek, bihevioristik, kognitiv, psixoanalitik va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar profaylingning nazariy poydevorini tashkil etishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Asosiy boblarda profaylingning kriminal, biznes va xavfsizlik yo‘nalishlari tahlil qilinib, amaliy qo‘llanish usullari (kuzatuv, intervyu, tana tili tahlili, testlar) ochib berilgan. Shu bilan birga, profaylingning afzalliklari (xatti-harakatlarni tezkor tahlil qilish, xavflarni aniqlash, ishonchlilikni baholash) va cheklovlari (sub’ektiv talqin, noto‘g‘ri xulosalar ehtimoli) ham ko‘rsatib berilgan.

Xulosa qismida profaylingning ilmiy va amaliy ahamiyati umumlashtirilib, uni boshqa psixodiagnostik metodlar bilan uyg‘unlikda qo‘llash samarali ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so’zlar: profayling, psixologik portret, xulq-atvor, biheviorizm, kognitiv psixologiya, psixoanaliz, ijtimoiy psixologiya, kriminal profayling, biznes profayling, xavfsizlik, psixodiagnostika.

So‘nggi o‘n yilliklarda psixologiya, kriminologiya hamda huquqni muhofaza qilish tizimida inson xulq-atvorini oldindan taxmin qilishga oid metodlar faol qo‘llanilmoqda. Shulardan eng muhimlaridan biri profayling usulidir. Profayling — bu shaxsning xatti-harakatlari, nutqi, tana tili, emotsional reaksiyalari va boshqa psixologik belgilarini o‘rganish orqali uning shaxsiy portretini yaratish jarayonidir [1, 27].

Profaylingning dolzarbligi shundaki, u huquq-tartibot sohasida jinoyatchilarni aniqlash, biznesda hamkorlarni baholash, xavfsizlik tizimida esa shubhali shaxslarni aniqlashda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, psixologiya fanida insonning individual-

psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va baholashda ham samarali metod sifatida qaraladi [2, 33].

Mazkur maqolada profaylingning nazariy asoslari, asosiy yo‘nalishlari, afzalliklari va amaliyotdagi cheklovlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Profaylingning nazariy asoslari

1. Profayling tushunchasi va mazmuni**:** “Profayling” atamasi ingliz tilidagi *profile*-ya’ni “portret” so‘zidan olingan. Psixologiyada bu tushuncha insonning ruhiy-psixologik portretini yaratish, uning xulq-atvori va kelajakdagi harakatlarini oldindan prognoz qilish metodini anglatadi [3, 41].

Profayling jarayonida inson haqida quyidagi ma’lumotlar yig‘iladi va tahlil qilinadi:

-tashqi ko‘rinish, mimika, jestlar;

-nutq uslubi va ohang;

-emotsional reaksiyalar;

-qaror qabul qilish jarayonidagi xatti-harakatlar;

-ijtimoiy munosabatlar va tajribalar.[4, 21]

Sh. Karimov profaylingni shaxsning ichki psixologik dunyosini ochib beruvchi “diagnostik kuzatuv” deb ataydi va uni psixodiagnostikaning alohida turi sifatida ko‘rsatadi. [5, 114]

2. Psixologiyada profaylingning ilmiy asoslari. Profayling nazariy jihatdan bir nechta psixologik maktablarga asoslanadi:

Bihevioristik yondashuv. B.F. Skinner inson xatti-harakatini kuzatish va rag‘batlantirish omillari orqali tushuntiradi. Profaylingda bu metod shaxsning tashqi signallarini tahlil qilishda qo‘llaniladi. [6, 63]

Kognitiv yondashuv. U. Neisser inson ongida kechadigan jarayonlarni, fikrlash va qaror qabul qilish mexanizmlarini o‘rganadi. Profaylingda shaxsning nutq va fikrlash uslublari shu nazariya asosida talqin qilinadi. [7, 82]

Psixoanalitik yondashuv. Z. Freyd nazariyasi asosida shaxs xulqidagi ongsiz omillar, ichki konfliktlar va emotsional reaksiyalar tahlil qilinadi. [8, 119]

Ijtimoiy-psixologik yondashuv. G. Andreeva, A.V. Mudrik kabi olimlar insonning ijtimoiy rollari va guruhdagi o‘rnini tahlil qilgan. Profaylingda shaxsning ijtimoiy tajribasi va stereotiplarining ahamiyati katta. [9, 133]

Shunday qilib, profayling turli psixologik yo‘nalishlarning nazariy asoslarini birlashtiruvchi kompleks metod hisoblanadi.

Profaylingning asosiy yo‘nalishlari

1. Kriminal profayling: Kriminal profayling jinoyatchining shaxsiy portretini yaratishda qo‘llaniladi. Bunda jinoyat sodir etish usuli, jinoyat joyidagi dalillar, shuningdek gumonlanuvchining xatti-harakatlari tahlil qilinadi. [2, 45] Bu yo‘nalish kriminologiya va huquq-tartibot tizimida keng qo‘llanib kelmoqda.

2. Biznes va xavfsizlik profaylingi: Biznes sohasida profayling ishchi tanlash, muzokaralarda hamkorning niyatlarini aniqlash, mijozlar bilan munosabatlarda ishonchlilikni baholashda samarali qo‘llanadi. [10, 201]

Xavfsizlik sohasida esa aeroportlar, chegaralar va katta tadbirlarda shubhali shaxslarni aniqlash uchun profayling texnologiyalaridan foydalaniladi. [11, 74]

3. Amaliyotdagi qo‘llanilish usullari: Profayling amaliyotda quyidagi metodlar orqali amalga oshiriladi:

-kuzatuv va intervyu;

-tana tili va mimikani tahlil qilish;

-psixodiagnostik testlar;

-emotsional-psixologik reaksiyalarni o‘lchash. [1, 29]

Profaylingning afzalliklari va cheklovlari

1. Afzalliklari: Profaylingning afzalliklari quyidagilardan iborat: inson xatti-harakatini tezkor tahlil qilish imkoniyati; jinoyatchilikni oldini olishga yordam berishi; biznesda ishonchli hamkorlarni ajratib olish imkonini berishi;

psixologik konsultatsiyada diagnostik vosita sifatida xizmat qilishi. [5, 118]

2. Cheklovlari: Biroq profaylingning ayrim cheklovlari ham mavjud: natijalar mutaxassisning tajribasiga kuchli bog‘liq; noto‘g‘ri talqinlar ehtimoli yuqori; har doim ham ob’ektiv psixodiagnostika o‘rnini bosa olmaydi. [9, 139]

Shu bois profaylingdan foydalanishda ehtiyotkorlik va ilmiy asoslangan metodlardan kompleks foydalanish zarur.

Shunday qilib profayling insonning psixologik portretini yaratish va uning xatti-harakatlarini prognoz qilishga qaratilgan zamonaviy metoddir. U psixologiya, kriminologiya, xavfsizlik va biznes kabi sohalarda amaliy ahamiyat kasb etadi. Profaylingning nazariy asoslari biheviorizm, kognitiv psixologiya, psixoanaliz va ijtimoiy psixologiyaga tayangan holda shakllangan.

Shu bilan birga, profaylingning afzalliklari bilan bir qatorda uning ayrim cheklovlari ham mavjud. Shuning uchun uni boshqa psixodiagnostik metodlar bilan uyg‘unlikda qo‘llash samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Змановская Е.В. Девиантное поведение личности. – Москва: Академия, 2003. – Б. 27–29.

2. Turvey B. Criminal Profiling: An Introduction to Behavioral Evidence Analysis. – London: Academic Press, 2011. – P. 41, 45.

3. Мудрик А.В. Социальная психология. – Москва: Просвещение, 2004. – Б. 41.

4. Axmedova M. Psixodiagnostika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – Б. 21.

5. Karimov Sh. Psixologik diagnostika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – Б. 114–118.

6. Skinner B.F. Science and Human Behavior. – New York: Free Press, 1953. – P. 63.

7. Neisser U. Cognitive Psychology. – New York: Appleton-Century-Crofts, 1967. – P. 82.

8. Freud S. The Ego and the Id. – London: Hogarth Press, 1927. – P. 119.

9. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2001. – Б. 133–139.

10. Ekman P. Telling Lies: Clues to Deceit in the Marketplace, Politics, and Marriage. – New York: Norton, 2009. – P. 201.

11. Vrij A. Detecting Lies and Deceit. – Chichester: Wiley, 2008. – P. 74.

SUITSIDAL TERRORCHILIK FAOLIYATI: XULQ-ATVOR TAHLILI VA ANTI-PROFAYLING STRATEGIYALAR

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, stajyor-tadqiqotchisi,
psixolog Azamat Baxriddinov

Annotatsiya: *Xudkush-terrorchilik global xavfsizlik uchun yuqori darajadagi tahdid sanaladi. Ularning xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali potensial xavfni erta aniqlash va bartaraf etish imkoni mavjud. Shu bilan birga, terroristik guruhlar tomonidan qo‘llanilayotgan anti-profayling strategiyalari oddiy profayling usullarining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Ushbu maqolada xudkush-terrorchilarning xatti-harakatlar, tashqi ko‘rinish va psixologik portretiga oid xususiyatlar, shuningdek ular tomonidan ishlatiladigan anti-profayling texnologiyalar tahlil qilinadi. O‘zbekiston misolida o‘rganilgan tarixiy voqealar asosida amaliy jihatlar yoritilgan bo‘lib, ushbu tadqiqot profilaktika choralarini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.*

O‘zbekiston hududida suitsidal terrorchilik ilk bor 2004-yil 29-mart kuni Toshkent shahrida sodir bo‘lgan. Shayxontohur tumani IIB xodimlari qarshisida ayol shaxs tomonidan portlovchi moslama ishga tushirilgan. Oradan ko‘p o‘tmay, xuddi shu kunda “Chorsu” bozorida yana bir xudkush-terrorchi o‘zini portlatgan. 1-aprel kuni esa portlovchi modda tanasiga mahkamlangan shaxs ushlanishi chog‘ida o‘zini yo‘q qilgan. 30-iyulda AQSH va Isroil elchixonalari hamda O‘zbekiston Bosh prokuraturasi yaqinida sodir etilgan portlashlar oldingi hujumlar bilan bog‘liq sud jarayoniga qarshilik ko‘rsatish sifatida talqin etilgan. 2009-yil Andijonda yuz bergan hujum ham ushbu ketma-ketlikdagi holatlardan biridir.

Bu hodisalar shuni ko‘rsatdiki, suitsidal terrorchilik faoliyatini erta aniqlash va jamoat joylarida qatlamli xavfsizlik choralarini kuchaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, oddiy fuqarolar gavjum bo‘ladigan bozorlar, avtostansiyalar va istirohat bog‘lari xavf darajasi yuqori zonalar sifatida ko‘riladi.

Xudkush-terrorchining xatti-harakat profili

Terrorchining xatti-harakatidagi muayyan noaniqliklar, asabiylik, harakatlardagi g‘alatilik, joyida tinmay harakat qilish, qo‘l harakatlari, ko‘zning doimiy o‘zgarib turishi, tanasini to‘g‘rilab turish, og‘ir nafas olish va so‘zlardagi chalkashliklar xavfni oshiruvchi signal bo‘lishi mumkin. Harakatlanishdagi silliqlikning yo‘qolishi, xavfsizlik punktlari yaqinida yo‘nalishni o‘zgartirish, ortiqcha kuzatish, kameralarni nishonga olish yoki xavfsizlik xodimlariga e’tibor qaratish kabi harakatlar ham kuzatuv ostiga olish uchun asos bo‘ladi.

So‘zlashuvdagi o‘ziga xosliklar, masalan, savollarga javob bermaslik yoki noto‘g‘ri javoblar, gapirayotganda ovozda o‘zgarishlar va muloqotdan qochish holatlari alohida e’tiborga loyiq. Ba’zan jim turish yoki haddan ziyod so‘zlashish ham stress natijasida yuzaga kelgan psixologik stress belgisi bo‘lishi mumkin. Bu jarayonlarning barchasi real voqelikdan ajralgan holda emas, balki boshqa belgilarga ulanib baholanishi zarur.

Xudkush-terrorchilar odatda ob-havo sharoitiga mos kelmaydigan kiyimlar kiygan bo‘lishi mumkin. Masalan, yozda qalin kurtka yoki keng, bo‘sh kiyimlar tanadagi portlovchi moslamani yashirishga xizmat qilishi mumkin. Kiyinishdagi beqarorlik, yelkalar va qo‘llar harakatining tabiiy emasligi, ortiqcha yuklar – hammasi tekshiruv uchun signal hisoblanadi. Ularda, shuningdek, yuz rangining o‘zgarishi, terlash, lab va ko‘z harakatlarining faolligi, boshni pastga qarab tutish va atrofni kuzatish kuzatiladi. Xudkush-terrorchilar ko‘pincha jamiyatdan ajralgan, yolg‘izlikka yuz tutgan shaxslar bo‘ladi. Ular hayotida muayyan bosqichda stress, depressiya yoki o‘z hayotining mazmunini yo‘qotganlik hissini boshdan kechirgan bo‘lishi mumkin. Ko‘plab hollarda bunday shaxslar radikal g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan muhitga tushib qolgan bo‘ladi. Radikal guruhlar, ayniqsa, ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy inqirozga uchraganlarni yollash orqali o‘z saflarini kengaytiradi. Ular shaxsiy fojialarni umumiy mafkuraviy kurash sifatida talqin qilishga o‘rgatiladi.

Terrorchilar tomonidan qo‘llaniladigan anti-profayling strategiyalar

Zamonaviy terroristik guruhlar o’z maqsadlariga erishish uchun, profayling usullarining samaradorligini pasaytiruvchi anti-profayling texnologiyalarini ishlab

chiqganliklari bo’yicha bir nechta dalillar qo’lga kiritilgan. Ular tashqi ko‘rinish, xatti-harakat, til va muloqot tarzida "e'tiborga loyiq emasdek" ko‘rinishga harakat qiladilar. Terroristik guruhlar o’z a’zolariga qanday kiyinish, qanday so‘z ishlatish, kim bilan aloqada bo‘lish va qayerda qanday muomala qilish kabi ko‘rsatmalar beriladi. Bunday yondashuv odatda konspiratsiya tamoyillariga asoslanadi. Shu orqali ular xavfsizlik tizimlari e’tiboridan chetda qolishga intiladi. Terrorchi shaxslar jamiyatda faol ko‘ngilli, hayriya ishlari bilan shug‘ullanuvchi, hatto diniy yoki ma’naviy targ‘ibotchi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Mahalliy fuqarolarga yordam ko‘rsatish, ijtimoiy obro‘ orttirish orqali ular o‘z shubhali harakatlarini yashirishga muvaffaq bo‘lishadi. Bunday shaxslar e’tiborni kam tortganliklari uchun xavfsizlik xodimlari ro‘yxatidan chetda qolishadi.

Shuningdek, ular ko‘p hollarda soxta hujjatlar, yolg‘on manzillar, bir nechta ism yoki hujjatdagi ma’lumotlar orqali aniqlash jarayonini murakkablashtiradi. Jamoat transportidan foydalanish, naqd pulda to‘lov qilish, GPS va mobil kuzatuv hamda kameradan qochish ham keng qo‘llaniladi. Shifrlangan messenjerlar, VPN, ommaviy Wi-Fi tarmoqlari orqali muloqot yuritish esa ularning kuzatuvdan qochish taktikasi sifatida xizmat qiladi.

Terrorchilar ijtimoiy integratsiyaga ham e’tibor qaratadi. Ular jamiyatga qo‘shilib, ta’lim muassasalarida o‘qish, oddiy kasblarda ishlash orqali yashirin rejalarini amalga oshirishga tayyorlanadi. Ba’zida esa ular kasalxonalar yoki boshqa muassasalarda yashirishga urinishadi.

Xulosa: Suitsidal terrorchilik hodisasining oldini olishda xatti-harakatni kuzatish, tashqi belgilarni tahlil qilish, ijtimoiy-psixologik portretni o‘rganish va texnologik izlarni monitoring qilish muhim ahamiyatga ega. Biroq terrorchilar tomonidan qo‘llanilayotgan anti-profayling strategiyalari mavjud xavfsizlik tizimlari samaradorligini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bois, xavfsizlik xodimlari va jamoat tartibini ta'minlovchi tashkilotlar zamonaviy yondashuv va treninglar yordamida o‘z ko‘nikmalarini takomillashtirishi zarur.

Ayniqsa, mahalliy sharoitda suitsidal terrorchilikka qarshi kurashda xatti-harakatlarni aniqlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar, SCaN (See-Check-and-Notify) tamoyillari, qatlamli himoya tizimlari va jamiyat bilan o‘zaro aloqaga asoslangan “erta ogohlantirish mexanizmlari”ni joriy etish muhimdir. Xulq-atvorda “odatiylik”ni bilish, tahdid indikatorlarini klaster asosida baholash va ehtiyotkorlik bilan kuzatish – xavfsizlikni ta’minlashning zamonaviy yo‘llaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi axborot xizmati (2004–2009).
2. Suitsidal terrorchilikka oid OAV arxivlari (BBC Uzbek, RFE/RL, Gazeta.uz).
3. Chatham House (2004). *Security Challenges in Central Asia*.
4. DHS (US Department of Homeland Security), *Behavioral Indicators Guidance*.
5. ProtectUK & NPSA (UK), *Crowded Places Guidance & SCaN Manual*.
6. Gill, P. et al. (2013). *Lone-actor terrorism: a behavioral analysis*.
7. RAND Corporation (2011). *Suicide Attacks Trends and Forecasting*.
8. CREST Research (UK), *Identifying Hostile Reconnaissance*.
9. AQSH Davlat Departamenti, *Violent Extremism Indicators Toolkit*.

PROFAYLING METODINING TUSHUNCHASI VA TUZILISHI.

I.I.Rejametova

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi” dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

M.Q.Shirinov

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada profayling metodining mohiyati va tuzilishi yoritilgan. Profayl metodi shaxslarning ruhiy holatini kuzatish va suhbat orqali aniqlashga asoslangan bo‘lib, xavfsizlikni ta’minlash, jinoiy harakatlarga moyil shaxslarni erta aniqlash hamda psixologik portret tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada metodning asoschilari, qo‘llanilish sohalari va afzalliklari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматривается сущность и структура метода профайлинга. Профайл-метод основан на наблюдении психического состояния личности и беседе с ней. Он имеет важное значение для обеспечения безопасности, раннего выявления лиц, склонных к противоправным действиям, и составления психологического портрета. В работе анализируются основы метода, его применение и преимущества

Abstract

This article explores the concept and structure of the profiling method. Profiling is based on observing an individual’s psychological state and conducting interviews. It plays a significant role in ensuring security, early detection of individuals prone to criminal behavior, and constructing psychological profiles. The paper highlights the foundations, applications, and advantages of the method.

Kalit so‘zlar

Profayling, psixologik portret, ruhiy kuzatish, so‘rov metodi, noverbal muloqot, verbal muloqot, xavfsizlik, jinoyatchilik profilaktikasi, kuzatuv psixologiyasi, shaxs xulqi.

Ключевые слова

Профайлинг, психологический портрет, психическое наблюдение, метод опроса, невербальная коммуникация, вербальная коммуникация, безопасность, профилактика преступности, психология наблюдения, поведение личности.

Keywords

Profiling, psychological profile, psychological observation, interview method, nonverbal communication, verbal communication, security, crime prevention, observation psychology, human behavior.

So‘nggi vaqtlarda, aholi ko‘p jamoat joylarida, qo‘riqlanadigan muhim ob’ektlarda, ayniqsa havo transportida, profayl (ing.”*profile” – profil*)-metoddan foydalanish keng tarqaldi.

Agar profayling metodini fuqarolar bilan suhbatlashish, ularni ruhiy holatini kuzatish sifatida ta’riflanadigan bo‘lsa, bu metod ikkita bir-birini to‘ldiruvchi metodlardan, ya’ni ruhiy kuzatish metodi va so‘rov (suhbat) metodidan tashkil topgan bo‘lib, shaxs psixodiagnostikasining turi hisoblanadi. Bu usuldan faoliyatining ko‘plab yo‘nalishlarida jumladan, aholi ko‘p to‘planadigan jamoat joylarida, qo‘riqlanadigan o‘ta muhim ob’ektlarda, jamoat transportining amaldagi barcha turlarida xavfsizlikni ta’minlashda foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Profayling yoki profayl metodi – shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning hulqidagi o‘zgarishlarni tashqi ifoda va xatti-harakatlar asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullardan foydalangan holda oldindan bashorat imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir.

Hozirgi kunda, shaxslarning profilini yaratish asosida ko‘plab zo‘ravonlik, ko‘p takrorlanadigan qotillik jinoyatlarini ochishda keng foydalaniladi.

Profayl metod asoschilari psixolog olimlar P.Ekman, V.Frizen, M.Sukerman va B.De Paulolar hisoblanishadi.

2012 yil Yolg‘onni tadqiq qilish bo‘yicha Halqaro Akademiyada Ye.Spiritsa tomonidan kriminal profayling usuli taqdim etildi. Uning fikricha:

Kriminal profayling – taxmin qilinayotgan jinoyatchini shaxs xususiyatlarini tashhislovchi kompleks usullar yordamida psixologik profilini yaratilishi tushuniladi.

U o‘z o‘rnida E.Krechmer tomonidan taklif etilgan shaxs gavda tuzilishlarining tavsifiga ahamiyat berish zarur deb hisoblaydi va tajribalarda kuzatilgan quyidagi fikrlarini bildiradi.

Astenik tip egalari – o‘g‘rilik, firibgarlik, tovlamachilikka moyil bo‘ladilar.

Atletik tip egalari – zo‘ravonlik harakatlariga moyil bo‘ladilar.

Piknik tip egalari – muttahamlik va qalloblikka moyil bo‘ladilar.

Aralash tip egalari esa jamiyatga zid harakatlarni sodir etishga moyil bo‘ladilar.

Profayling yo‘nalishda faoliyat olib boradigan insonlarni profaylerlar deb ataymiz. Ularni tuzadigan xujjatlarining yuridik qiymati yuqori hisoblanadi, chunki unda jinoyatchining shaxsi, uning hulqiga hamda jabrlanuvchining shaxsi va hulqiga oid ma’lumotlar sodir etilgan harakat nuqtai nazarida tahlil qilinadi.

Inson hulqi va uning xatti-harakatlarini oldindan bashorat etish uchun alohida qobiliyatga ega bo‘lish yoki ko‘plab kitoblar o‘qish shart emas, buning uchun insonlarga, ularni xatti-harakatlarini o‘rganishga qiziqish bo‘lsa bo‘ldi.

Profayl usulidan foydalanishda tashhislashning izchilligi, ya’ni inson omilidan ruhiy axborot manbai sifatida foydalanilishi undan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish sohasida ham qo‘llanilishiga zarurat tug‘diradi [9].

✓ Profayl usulidan foydalanishni o‘rganishdan asosiy **maqsad** bu jamiyatga zid qarashlari mavjud, jinoiy harakatlarni sodir etishga moyil shaxslarni tezkorlik bilan tanish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi bilim va malakalarni **egallash vazifasi** belgilanadi:

✓ vizual (ko‘rish va kuzatish asosida) psixologik tashhis yordamida shaxslarni baholash texnologiyasini;

✓ jinoiy harakatlarni sodir etishga moyil shaxslarni ta’siriga tushib qolishning oldini olish tajribasini;

✓ qaltis, kutilmagan vaziyatlarda hissiy xususiyatlarini boshqarish;

✓ qaltis, kutilmagan vaziyat sharoitida shaxsiy tarkibni boshqarish va nazorat qilish;

✓ olomonga ruhiy ta’sir o‘tkazish borasidagi tajribalarini takomillashtirish;

✓ jamiyatga zid qarashlari mavjud hamda jinoiy harakatlarga moyil shaxslarni og‘zaki (so‘zda ifodalangan) sur’ati (portreti) va hulqidagi alohida belgilari asosida tanish;

✓ terroristik va ekstremistik tashkilotlar, ularni tashkilotchilari haqida atroflicha to‘liq bilimlarni;

✓ maxsus elektron texnik moslamalar (akustik va vizual kuzatish moslamalari) yordamida jamoat joylarida yoki ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan jamoat joylardagi shaxslarning xatti-harakatlarini o‘rganish;

✓ jamoat joylarida, ommaviy tadbirlar tashkil etiladigan ob’ektlarda kuzatish (rezerv yoki yordamchi kuchlar, faol qarshilik ko‘rsatish guruhi va x.k.) uchun qulay joyni tanlash;

✓ jamiyatga zid hamda jinoiy harakatlarga moyil shaxslarning hatti-harakatlarini nazorat qilish;

✓ xizmat vazifalarni amalga oshirish jarayonida operativ ahamiyatga ega ma’lumotlarni olish va ulardan samarali foydalanish borasida malaka va tajribalarni shakllantirish.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni amalaga oshirishg uchun quyidagi yo‘nalishdagi bilimlarga ega bo‘lish zarur:

- etnopsixologiya;
- klinik psixologiya;
- jamiyat uchun xavfli, jinoiy harakatlarga moyil shaxslarga xos ruhiy omillar;
- kasbiy muloqot asoslari;
- shaxslarning ruhiy xususiyatlari bilan uning tashqi namoyon bo‘luvchi (imo-ishora, jest, tana harakatlari, nutq (verbal va noverbal vositalari) jihatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘ra olish;
- fuqarolar va gumon qilinayotgan shaxslar bilan muloqotni to‘g‘ri shakllantirish;

- portlovchi moslamalarni topish va ularni aniqlash borasida xizmat itlari va texnik vositalardan samarali foydalanish;
- kuch va imkoniyatlarini to‘g‘ri taqsimlash maqsadida, hissiy zo‘riqishlarni yengish va ularni boshqarish usullarini egallash;
- fuqarolar bilan psixologik aloqa o‘rnatish, ularni vizual baholash va ruhiy ta’sir o‘tkazish, kutilmagan xavf va qaltis vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish;

yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, profayling metodining **asosiy maqsadi** shaxslarning xatti-harakatlarida mavjud nomuvofiqlikning paydo bo‘lishini sabablarini aniq belgilashdir. Masalan:

- aynan shu transport turida harakatlanishdan qo‘rqish;
- o‘zini yomon his qilish;
- shaxsiy, ba’zan fojiali kechinmalar va h.k.

Bunga shaxsning muayyan ob’ektda qonunga zid xatti-harakatni sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishi va uni amalga oshirishga aloqadorligi ham sabab bo‘lishi mumkin. Har qanday vaziyatda ham yuqorida qayd etilgan holatlar shubhali shaxsni ko‘zdan kechirish va hujjatlarni tekshirish jarayonini puxtaroq o‘tkazilishi uchun asos bo‘ladi.

Muloqot uni yuzaga keltiruvchi *vositalarga* ko‘ra ikki turga ajratiladi:

– ***verbal*** *– og‘zaki, yozma nutq;*

Verbal nutqning asosi inson nutqi bo‘lib, u muloqotning universal vositasi hisoblanadi. Chunki nutq orqali axborot mazmuni deyarli to‘la-to‘kis va haqqoniy beriladi hamda shaxs o‘z fikr - mulohazalarini bemalol bildira oladi.

– ***noverbal*** *– imo-ishora, mimika, kar-soqovlar tili.*

Noverbal nutqda muloqotning alohida turi bo‘lgan imo-ishoralarni, kar-soqovlar tilini, ko‘zi ojizlarning yozma nutqini ajratish mumkin.

Nutq – kishilarning til vositasida o‘zaro munosabatda bo‘lish jarayoni. Ovoz chiqarib talaffuz etiladigan nutq – **tashqi nutq**, o‘ylayotgan paytimizda ovoz chiqarmasdan nutqdan foydalanishimiz **ichki nutq** deb ataladi.

Insonning ichki holati, ruhiyati doimo uning xatti-harakatlari, tana holati, mimikalari va ishoralarida aks etadi. Ammo ularni qo‘llashda ehtiyot bo‘lish kerak, chunki “inson haqidagi bilimlarni to‘plab – hech qachon mukammallikka erishib

bo‘lmaydi, hatto o‘ta tajribali insonlar ham xatolarga yo‘l qo‘ygan ehtimollari mavjud” (Shopengauer).

Insonni atrofdagilar uni qanday idrok etayotganliklari haqidagi tasavvurlari ko‘p jihatdan uning xatti-harakatlarini belgilaydi. Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning har birida “u nimani o‘ylayotgani haqida o‘ylayotganim to‘g‘risida o‘ylayapti, deb o‘ylayman” singari tasavvur shakllanadi. Bunday ko‘p qavatli tasavvurlar mazmunini noto‘g‘ri talqin etish vaziyatni yetarli darajada tushunmaslikka olib keladi, va quyidagi jihatlarda yanada murakkablashadi.

Birinchidan, professional, etnik, yosh jihatlar asosida fikrlash, har bir katta yoshdagi inson “intuitiv psixolog”dir, ya’ni muayyan vaqt oralig‘ida har birimizda odamlar tipologiyasi haqida o‘z tushunchamiz (tasavvurimiz) shakllanadi. Bu esa atrofdagi odamlarni idrok etishda anglab bo‘lmas yo‘nalganlikning vujudga kelishiga ko‘maklashadi.

Ikkinchidan, birinchi taassurot, masalan basavlatlik aldamchi bo‘lishi, ya’ni oddiy niqob bo‘lishi ham mumkin.

Uchinchidan, ko‘ngilchanglik, yuz berayotgan voqeaga haddan tashqari ortiqcha ijobiy baho berishga moyillikda ko‘rinadi.

To‘rtinchidan, kuzatilayotgan jarayonlarni baholashda markazni qidirishda namoyon bo‘ladi, chunki xatti-harakatning ikki chekkasi kamroq uchraydi.

Beshinchidan, insondagi har qanday xislatlarning chambarchasligi haqidagi mulohazaning yolg‘onligiga asoslanish (“marhamatlilik” = “mehribonlik”, “vazminlik” = “sovuqqonlik”).

Oltinchidan, kuzatilayotgan shaxsda mavjud jihatlarga teskari jihatlarni ta’kidlash.

Yettinchidan, suhbatdoshimizni o‘zimizda mavjud bo‘lgan jihatlar bilan ko‘rish. Bu holat, ayniqsa o‘ziga nisbatan tanqidiy qarashi kam bo‘lgan, o‘z shaxsini chuqur bilmaydigan odamlarda rivojlangan bo‘ladi.

Agar profayling metodini fuqarolar bilan suhbatlashish, ularni ruhiy holatini kuzatish sifatida ta’riflanadigan bo‘lsa, bu metod ikkita bir-birini to‘ldiruvchi metodlardan, ya’ni ruhiy kuzatish metodi va so‘rov (suhbat) metodidan tashkil topgan bo‘lib, shaxs psixodiagnostikasining turi hisoblanadi. Bu usuldan faoliyatining ko‘plab

yo‘nalishlarida jumladan, aholi ko‘p to‘planadigan jamoat joylarida, qo‘riqlanadigan o‘ta muhim ob’ektlarda, jamoat transportining amaldagi barcha turlarida xavfsizlikni ta’minlashda foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning IIV xodimlariga yo‘llagan tabrik nutqi. // *Xalq so‘zi*, 2020.

12. G.Qodirov, A., Jo‘rayev, M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.

13. Xaydarov, R. Kasbiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston, 2016.

14. Karimova, V. Muloqot psixologiyasi. Toshkent: Universitet, 2012.

15. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o‘quv qo‘llanmalari: “Profilaktika inspektorining xizmat faoliyatida psixologiya”, Toshkent, 2021.

JINOIY XULQ-ATVOR TAHLILI VA XAVFNI BAHOLASHDA PROFAYLER AMALIYOTI:TERGOV MULOQOTIDA IMPERATIV NUTQ ELEMENTLARI ORQALI SHAXS PSIXOLOGIK TIPLARINI ANIQLASH

Axmedova Latofat Kadirkulovna

Shayxontohur tumani 324-maktab

psixologi,mustaqil izlanuvchi(PhD)

latofata52@gmail.com +99897-306-5660

Annotatsiya:

Mazkur maqolada tergov muloqotida imperativ nutq elementlarining o‘rni va ularning shaxs psixologik tiplarini aniqlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shaxslararo muloqot jarayonida qo‘llaniladigan buyruq va ta’sirchan nutq shakllari orqali ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni ochib berish maqsad qilingan. Tadqiqotda jinoyatchi shaxsini o‘rganishda imperativ nutq vositalaridan foydalanish imkoniyatlari hamda ularning kriminalistika va sud-psixologik ekspertizadagi qo‘llanishi ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar:tergov muloqoti, imperativ nutq,shaxs psixologik tipi, ijtimoiy-psixologik mexanizm,jinoyatchi shaxsini o‘rganish, kriminalistika, sud-psixologik ekspertiza.

Аннотация

В статье рассматриваются особенности анализа преступного поведения и оценки риска в деятельности профайлера. Особое внимание уделяется исследованию императивных элементов речи в ходе следственной коммуникации, которые позволяют выявить психологические типы личности. Представлен междисциплинарный подход,сочетающий криминологию, психологию и лингвистику.Данное исследование направлено на развитие эффективных методов психологического профилирования и усовершенствование практики расследования.

Ключевые слова:профайлинг, преступное поведение,императивная речь, следственная коммуникация, психологические типы личности, криминальная психология

Abstract

The article examines the specific features of criminal behavior analysis and risk assessment in the practice of profiling. Special attention is given to the study of imperative speech elements in investigative communication, which make it possible to identify psychological personality types. An interdisciplinary approach combining criminology, psychology, and linguistics is presented. This research aims to develop effective methods of psychological profiling and improve investigative practices.

Keywords:profiling, criminal behavior,imperative speech,investigative communication, psychological personality types, criminal psychology.

Zamonaviy kriminalistika va psixologiya sohalarida shaxsning jinoyat sodir etish motivlari, xulq-atvor dinamikasi va psixologik portretini aniqlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, jinoyatchilikning oldini olish, xavfni baholash va tergov samaradorligini oshirishda profayler amaliyoti muhim o‘rin tutadi. Profaylerlik – bu jinoyat sodir etuvchi shaxsning xulq-atvori, psixologik tipologiyasi, nutqiy xususiyatlari va ijtimoiy omillarini ilmiy asosda tahlil qilish jarayonidir.

Maqolada jinoyiy xulq-atvor tahlili,xavfni baholash va tergov muloqotida imperativ nutq elementlari asosida shaxs tipini aniqlash masalalari yoritiladi.

1. Jinoyiy xulq-atvor tushunchasi va uning tahlili

Jinoyiy xulq-atvor – bu shaxsning ijtimoiy normalarni buzgan holda, huquqqa zid harakatlarni amalga oshirishga moyilligi va ushbu jarayonni amalga oshirishi bilan izohlanadi. Unga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

Biopsixologik omillar – temperament, nerv tizimi, fiziologik ehtiyojlar.

Ijtimoiy omillar – oilaviy muhit, tarbiya, jamiyatdagi tengsizlik, do‘stlar guruhi.

Psixologik omillar – shaxsning qiziqishlari, motivlari, agressivlik darajasi, o‘z-o‘zini baholashdir.

Kriminal psixologiya tadqiqotlariga ko‘ra, jinoyiy xulq-atvorda nutqiy xatti-harakatlar ham katta o‘rin tutadi. Masalan, tergov jarayonida shaxsning imperativ (buyruq, taqiqlovchi, majburlovchi) nutq elementlaridan foydalanishi uning shaxs tipini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

2. Profayler amaliyoti va uning asosiy yo‘nalishlari

Profaylerlik – bu jinoyatchini aniqlash yoki xavfli shaxsni baholash uchun maxsus psixologik portret yaratish jarayonidir.

Asosiy yo‘nalishlari:

Kriminal profayling – noma’lum jinoyatchining psixologik portretini tuzish.

Xavfni baholash – shaxsning jinoyat sodir etish ehtimolini aniqlash.

Tergov muloqoti tahlili – gumonlanuvchi, guvoh yoki jabrlanuvchining nutqidagi imperativ elementlarni o‘rganib, uning psixotipini aniqlash.

Psixologik diagnostika – shaxs testlari (Eysenck, Cattell, MBTI va boshqalar) orqali jinoyatga moyillikni baholash.

Masalan, AQSh va Yevropada profaylerlar ko‘p hollarda “threat assessment” – xavfni oldindan baholash tizimidan foydalanadilar. Bu tizimda shaxsning nutqi, harakatlari, internetdagi yozishmalari ham tahlil qilinadi.

3. Tergov muloqotida imperativ nutq elementlarining o‘rni

Sizning ilmiy izlanishingizga mos ravishda, tergov jarayonida shaxs nutqida uchraydigan imperativ elementlar (buyruqlar, taqiqlar, majburlash ohangi) uning psixotipini ochib berishi mumkin.

Misol:“Men senga aytdim-ku!”,“Hech qachon bunday qilma!”**– dominant tip** belgisi.

“Majburman, boshqa yo‘lim yo‘q edi” – **himoyaviy tip**.

“Siz meni tushunishingiz kerak!” – **manipulyativ tip.**

Shunday qilib, imperativ nutq unsurlari tergovchiga gumonlanuvchining ichki motivlari va psixologik tipini tezroq aniqlash imkonini beradi.

4. Jinoyiy xavfni baholashda psixologik testlar

Xavfni aniqroq baholash uchun profaylerlar maxsus psixodiagnostik metodlardan foydalanadilar. Jumladan:Ayzenk testi – shaxsning ekstraversiya va nevrotizm darajasini aniqlaydi.

Kettell 16 PF – 16 shaxs xususiyatlari asosida tahlil.

MBTI – shaxsning ijtimoiy-psixologik tipini ko‘rsatadi.

Leongard testi – shaxs aksentuatsiyasini ochib beradi.

Bu testlar tergov jarayonida shaxs nutqiy xatti-harakatlari bilan uyg‘unlashtirilganda, xavfli shaxslarni ajratib olish va ularning kelajakdagi ehtimoliy xatti-harakatlarini prognoz qilish imkonini beradi.

Xulosa

Profayler amaliyoti jinoyatchilikka qarshi kurashda zamonaviy va samarali yondashuvlardan biridir.Jinoyiy xulq-atvor tahlili, shaxs nutqidagi imperativ elementlarni aniqlash, psixologik testlar asosida xavfni baholash – bularning barchasi tergov faoliyatini ilmiy asosda yuksaltirishga xizmat qiladi.Ilmiy izlanishim doirasida, imperativ nutq elementlari orqali shaxs tipini aniqlash profaylerlik metodlariga qo‘shimcha innovatsion yondashuv sifatida qaralishi mumkin. Bu nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham jinoyatchilarni aniqlash va xavfni oldindan baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Бакаев,А.В. Криминалистика и судебная психология: современные подходы. — Москва: Юрайт, 2021. — 352 с.

2.Кара-Мурза, С. Г. Манипуляция сознанием. — Москва: Эксмо, 2020. 416 с.

3.Холодный, Ю. И. Психологический анализ поведения преступников. — Санкт-Петербург: Питер, 2019. — 288 с.

4.Ayzenk, H. J. Crime and Personality. — London: Routledge, 2017. — 320 p.

5.Canter, D. Criminal Psychology and Forensic Science: Profiling and Investigative Psychology. — London: Wiley-Blackwell, 2018. — 296 p.

6.Turvey, B. E. Criminal Profiling: An Introduction to Behavioral Evidence Analysis. — 5th ed. — London: Academic Press, 2021. — 608 p.

7.Karimova,V.Ijtimoiy psixologiya asoslari.Toshkent:TDYU nashriyoti,2018.412б.

8.Махмудов, М. Криминалистика: назария ва амалиёт. — Тошкент: Adolat, 2020. — 380 б.

9.Gudjonsson, G. The Psychology of Interrogations and Confessions. — Chichester: Wiley, 2019. — 520 p.

10.Vrij, A. Detecting Lies and Deceit: Pitfalls and Opportunities. — 2nd ed. — Chichester: Wiley, 2018. — 600

PROFESSIONAL KADRLARNI TAYYORLASHDA PROFAYLING VA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR INTEGRATSIYASI

Qoraboev Abdulaziz Abduraxmonovich,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti

Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi dotsenti,

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik

tel: +998 97 081 82 79

Аннотация: ушбу мақолада дунё ва Марказий Осиё давлатларидаги таълим тизимларида касбий малака оширишнинг илмий ва амалий жиҳатларини ўрганилган. Мақолада профайлинг (касбий йўналтириш, психологик баҳолаш ва индивидуал ривожланиш траекторияси) ва педагогик инновациялар (рақамли платформалар, виртуал реаллик ва сунъий интеллект) интеграциясининг афзалликлари, муаммолари ва амалий моделларини таҳлил қилинган. Дунё тажрибаси (АҚШ, Сингапур, Норвегия) ва Марказий Осиё (Ўзбекистон, Қозоғистон) методикаси интеграциянинг амалий жиҳатлари, таклифлар (рақамли инфраструктурани ривожлантириш, халқаро ҳамкорлик) ва тавсиялар келтирилади. Мақола таълим сифатини ошириш учун илмий асосланган ёндашувларни таклиф қилиб, глобал ва маҳаллий омилларни ҳисобга олган ҳолда хулоса қилинган.

Калит сўзлар: профессионал кадрлар тайёрлаш, профайлинг, педагогик инновациялар, интеграция, малака ошириш, рақамли таълим, касбий ривожланиш, илмий тадқиқотлар, халқаро ҳамкорлик, таълим ислоҳотлари.

Аннотация: в данной статье изучены научные и практические аспекты повышения профессиональной квалификации в системах образования стран мира и Центральной Азии. В статье анализируются преимущества, проблемы и практические модели интеграции профайлинга (профориентация, психологическая оценка и траектория индивидуального развития) и педагогических инноваций (цифровые платформы, виртуальная реальность и искусственный интеллект). Мировой опыт (США, Сингапур, Норвегия) и методика Центральной Азии (Узбекистан, Казахстан) интерпретируются на основе научных источников (Ричтер, Раджабова, Мусаева и др.). Приводятся практические аспекты интеграции, предложения (развитие цифровой инфраструктуры, международное сотрудничество) и рекомендации. В статье

предлагаются научно обоснованные подходы к повышению качества образования, сделан вывод с учетом глобальных и местных факторов.

Ключевые слова: подготовка профессиональных кадров, профайлинг, педагогические инновации, интеграция, повышение квалификации, цифровое образование, профессиональное развитие, наука.

Abstract: This article examines the scientific and practical aspects of professional development in the education systems of the world and Central Asian countries. The article analyzes the advantages, problems, and practical models of the integration of profiling (professional orientation, psychological assessment, and individual development trajectory) and pedagogical innovations (digital platforms, virtual reality, and artificial intelligence). The methodology of the world (USA, Singapore, Norway) and Central Asia (Uzbekistan, Kazakhstan) is interpreted on the basis of scientific sources (Richter, Radjabova, Musayeva, et al.). Practical aspects of integration, proposals (development of digital infrastructure, international cooperation) and recommendations are presented. The article concludes by proposing scientifically based approaches to improving the quality of education, taking into account global and local factors.

Keywords: professional training, profiling, pedagogical innovations, integration, professional development, digital education, professional development, science

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida professional kadrlarni tayyorlash tizimi tez o‘zgarib borayotgan iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy talablarga moslashishi zarur. Bu jarayonda profayling (kasbiy yo‘naltirish, psixologik baholash, individual rivojlanish traektoriyasini aniqlash va malaka prognozlash) va pedagogik innovatsiyalar (raqamli platformalar, interaktiv o‘qitish usullari, virtual reallik va sun’iy intellekt asosidagi hamkorlik tizimlari) integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Profayling o‘qituvchilar va mutaxassislarning kasbiy malakasini individuallashtirishga imkon beradi, pedagogik innovatsiyalar esa bu malakani amaliyotda qo‘llashni samaradorligini oshiradi. Dunyo miqyosida bu integratsiya o‘qituvchilar malakasini oshirish (Teacher Professional Development – TPD) dasturi orqali amalga oshiriladi, Markaziy Osiyo davlatlarida esa mahalliy madaniy, iqtisodiy va siyosiy omillarni hisobga olgan holda rivojlanmoqda.

AQSh va Yevropa davlatlarida profayling Social Cognitive Career Theory (SCCT) nazariyasi asosida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini prognoz qilish uchun

qo‘llaniladi. Bu nazariyaga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi samaradorligi (self-efficacy), kasbiy qiziqishlari va atrof-muhit omillari profayling orqali aniqlanib, raqamli innovatsiyalar bilan integratsiya qilinadi. Natavon, Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekiston va Qozog‘istonda, bu amaliyotlar hali rivojlanish bosqichida bo‘lib, xalqaro hamkorlik (masalan, British Council va UNESCO loyihalari) orqali takomillashtirilmoqda. Masalan, British Council tomonidan Markaziy Osiyoda amalga oshirilayotgan AELLCA (Accelerating English Language Learning in Central Asia) loyihasi o‘qituvchilar malakasini oshirishda raqamli innovatsiyalarni integratsiya qiladi.

Global kontekstda profayling va innovatsiyalar integratsiyasi ta’lim siyosatining asosiy elementlaridan biriga aylandi. Masalan, OECD TALIS tadqiqotlariga ko‘ra, o‘qituvchilarning 75% raqamli malaka oshirishga muhtoj, bu esa profayling orqali individual dasturlar tuzishni talab qiladi. Markaziy Osiyoda esa iqtisodiy rivojlanish va urbanizatsiya omillari ta’lim tizimini o‘zgartirmoqda, bu yerda profayling mahalliy qadriyatlarni hisobga olgan holda qo‘llaniladi.

Dunyo miqyosida professional kadrlar tayyorlashda profayling va pedagogik innovatsiyalar integratsiyasi bir necha ilmiy yo‘nalishlarga asoslanadi. Profayling ko‘pincha o‘qituvchilarning malakasini baholash, kasbiy rivojlanish traektoriyasini aniqlash va psixologik omillarni hisobga olish sifatida talqin qilinadi. O‘qituvchilarning 4 bosqichli kasbiy rivojlanish modeli (kirish, rivojlanish, ustozlik va liderlik) profayling orqali aniqlanib, raqamli innovatsiyalar (masalan, onlayn platformalar) bilan integratsiya qilinganda samaradorlik 20-30% ga oshadi. Bu model AQSh va Kanadada keng qo‘llaniladi, u yerda o‘qituvchilar o‘z malakasini o‘zi baholaydi va individual rivojlanish rejasini tuzadi.

Singapurda o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi dunyodagi eng samaralilardan biri hisoblanadi. U yerda profayling o‘qituvchilarning yuqori malakasini tanlash va tayyorlashda qo‘llaniladi, bu esa kasbiy rivojlanishning uzluksizligini ta’minlaydi. Masalan, National Institute of Education (NIE) orqali o‘qituvchilar raqamli vositalar (VR va AI) bilan integratsiya qilingan profaylingdan o‘tadi, bu o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, bu tizim o‘quvchilar samaradorligini 40% ga oshirgan. Singapurda pedagogik innovatsiyalarning integratsiyasi mahalliy

madaniy omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi, masalan, konfutsiylik qadriyatlarga asoslangan hamkorlik modellari ishonchliligi yuqori hisoblanadi.

Yevropada, xususan Norvegiyada, Pedersen va hammualliflari o‘qituvchilarning raqamli malakasini profayling qilish strategiyalarini o‘rganib, sotsio-madaniy nazariya asosida innovatsion usullarni taklif qilgan. Ularning tadqiqotiga ko‘ra, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi 4 bosqichda profayling qilinganda, pedagogik innovatsiyalar (masalan, blended learning) bilan integratsiya samaradorligi 40% ga oshadi. Bu modelda gender tenglik va inklyuziv ta’lim omillari muhim, masalan, ayol o‘qituvchilarning 60% dan ortig‘i uchun individual dasturlar tuziladi. Qo‘shimcha ravishda, Yevropa Ittifoqida Erasmus+ loyihalari orqali profayling xalqaro almashinuvi bilan boyitiladi, bu esa o‘qituvchilarning global malakasini oshiradi.

AQShda Pathway2Careers (P2C) loyihasi profaylingni o‘quvchilar kasbiy yo‘nalishini aniqlashda qo‘llaydi. Ushbu loyihada o‘qituvchilar raqamli modullar orqali profaylingdan o‘tib, innovatsion o‘qitish usullarini (masalan, VR simulyatsiyalari) integratsiya qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bu o‘quvchilarning kasbiy samaradorligini 25% ga oshirgan. Qo‘shimcha ravishda, AQShda Learning Policy Institute tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar samarali TPD modellarining elementlarini aniqlagan: mazmunga yo‘naltirilganlik, faol o‘qitish va uzluksiz qo‘llab-quvvatlash.

Dunyo ilmiy ishlarida profayling va innovatsiyalar integratsiyasining asosiy muammolari – raqamli tengsizlik va malaka yetishmasligi. Masalan, OECD TALIS 2013 tadqiqotida o‘qituvchilarning 75% raqamli treninglarga muhtojligi aniqlangan. Qo‘shimcha ravishda, World Bank tadqiqotlariga ko‘ra, texnologiya orqali TPD ni takomillashtirish o‘qituvchilarning raqamli malakasini 30% ga oshirishi mumkin. Bu bo‘limda keltirilgan misollar global tendensiyalarni ko‘rsatadi, lekin Markaziy Osiyo uchun moslashtirishni talab qiladi.

Qo‘shimcha tahlil: Dunyo metodikasining o‘ziga xos jihatlarini solishtirish uchun quyidagi jadval keltiriladi:

Davlat/Mintaqa	**Profayling usuli**	**Pedagogik innovatsiyalar**	**Samaradorlik ko‘rsatkichlari**

Davlat/Mintaqa	Profayling usuli	Pedagogik innovatsiyalar	Samaradorlik ko‘rsatkichlari
AQSh	SCCT nazariyasi	VR va AI platformalar	25% malaka oshishi
Singapur	NIE modeli	Raqamli hamkorlik	40% o‘quvchi samarasi
Norvegiya	Sotsio-madaniy	Blended learning	40% kompetensiya oshishi
Yevropa Ittifoqi	Erasmus+	Xalqaro almashinuvi	30% global malaka

Bu jadval global amaliyotlarning farqlarini ko‘rsatadi va Markaziy Osiyo uchun o‘rnak bo‘lishi mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlarida (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston) professional kadrlar tayyorlash tizimi post-sovet davridan keyingi islohotlarga asoslangan. Profayling bu yerda kasbiy yo‘naltirish sifatida talqin qilinadi va pedagogik innovatsiyalar bilan integratsiya hali rivojlanish bosqichida.

O‘zbekistonda Radjabova Z.M. (2025) kasb tanlash muammosiga psixologik yondashuvlarni o‘rgangan. Uning tadqiqotida Holland modeli orqali o‘quvchilar profaylingi amalga oshirilib, raqamli algoritmlar (ACCBOC) bilan integratsiya qilinganda kasbiy yo‘lni 76% aniqlik bilan bashorat qilish mumkinligi ko‘rsatilgan. Bu model O‘zbekistonda pedagogik kadrlar malakasini oshirishda qo‘llaniladi. Qo‘shimcha ravishda, Musaeva M.E. (2024) malaka oshirish tizimida innovatsion faoliyatga yo‘naltirish usullarini o‘rgangan. Uning ishida pedagogik texnologiyalar va profayling integratsiyasi orqali o‘qituvchilarning samaradorligi oshiriladi. Masalan, onlayn platformalar (onlinedu.uz) orqali individual rivojlanish traektoriyasi aniqlanadi, bu esa o‘qituvchilarning 62% qiyinchiliklarini hal qiladi.

Qozog‘istonda AELLCA loyihasi (British Council) o‘qituvchilar malakasini oshirishda raqamli innovatsiyalarni qo‘llaydi. Bu loyihada profayling o‘qituvchilarning ingliz tili malakasini baholashda integratsiya qilinadi, bu Markaziy Osiyo uchun umumiy tendensiya. Qo‘shimcha ravishda, Qozog‘istonda Nazarbayev Intellectual Schools tizimi pedagogik innovatsiyalarni joriy qilmoqda, u yerda profayling o‘quvchilarning ijodiy malakasini rivojlantirish uchun qo‘llaniladi.

UNESCO tadqiqotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyoda o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishida gender va mahalliy omillar muhim. Masalan, O‘zbekiston va Qozog‘istonda o‘qituvchilarning 70% ayollar bo‘lib, profayling ularning malakasini individuallashtirish uchun qo‘llaniladi. Qirg‘izistonda University of Central Asia (UCA) professional ta’limda innovatsiyalarni joriy qilmoqda. Bu yerda profayling sertifikat dasturi orqali amalga oshiriladi, bu esa o‘qituvchilarning raqamli malakasini 25% ga oshirgan.

Markaziy Osiyodagi asosiy muammo – raqamli infrastruktura yetishmasligi. ETF (2023) tadqiqotida bu mintaqada o‘qituvchilarning 50% raqamli malakaga muhtojligi aniqlangan. Qo‘shimcha ravishda, GPE-KIX loyihasi O‘zbekistonda TPD ni kengaytirish bo‘yicha tajribalarni o‘rtoqlashgan.

Qo‘shimcha tahlil: Markaziy Osiyo metodikasini solishtirish uchun quyidagi jadval:

Davlat	**Profayling usuli**	**Pedagogik innovatsiyalar**	**Muammolar**
O‘zbekiston	Holland modeli	Onlayn platformalar	Infrastruktura yetishmasligi
Qozog‘iston	AELLCA loyihasi	Raqamli hamkorlik	Gender tengsizligi
Qirg‘iziston	UCA sertifikati	Sertifikat dasturi	Raqamli malaka yetishmasligi

Profayling va pedagogik innovatsiyalar integratsiyasining amaliy modeli quyidagi bosqichlardan iborat:

1) Baholash (profayling orqali malaka aniqlash);

2) Innovatsiyalarni qo‘llash (raqamli vositalar);

3) Monitoring va takomillashtirish;

4) Qo‘llab-quvvatlash va almashinuvi.

Dunyo misoli: AQShda Coffelt va Koziel (2025) ADDIE modeli orqali O‘zbekiston fakultetlari uchun malaka oshirish dasturini o‘rgangan. Bu modelda

profayling individual maslahatlar bilan integratsiya qilinadi, natijada o‘qituvchilarning 68 ishtirokchidan 10 tasi ilmiy maqola nashr qilgan. Qo‘shimcha ravishda, bu model raqamli tengsizlikni hal qilish uchun offlayn-onlayn gibrid usullarini qo‘llaydi.

Markaziy Osiyo misoli: O‘zbekistonda Mamadaminova va Xadjixanova (2024) TPD da differensiallashtirilgan dasturlarni o‘rgangan. Ularning tadqiqotida psixologik profayling onlayn platformalar (Coursera) bilan integratsiya qilinganda o‘qituvchilarning 27% yangi usullarni amalga oshirgan. Qo‘shimcha ravishda, British Council loyihalari Markaziy Osiyoda pre-servis o‘qituvchilar uchun CPD ni integratsiya qilmoqda.

Integratsiya afzalliklari: Samaradorlik oshishi (30-40%), individuallashtirish va xalqaro hamkorlik. Muammolar: Raqamli tengsizlik (50% o‘qituvchilar muhtoj), malaka yetishmasligi va mablag‘ taqchilligi. Qo‘shimcha misollar: Qozog‘istonda DBT Education loyihasi franchayzing modellarini qo‘llaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni ko‘rib chiqish zarur: profayling va pedagogik innovatsiyalar integratsiyasini takomillashtirish uchun **birinchidan,** Markaziy Osiyo davlatlari uchun hukumat darajasida raqamli infrastrukturani rivojlantirish tavsiya etiladi, masalan, o‘qituvchilar uchun bepul onlayn platformalar (onlinedu.uz kabi) ni kengaytirish, **ikkinchidan,** profaylingni mahalliy madaniy omillarga moslashtirish: gender tenglikni hisobga olgan holda ayol o‘qituvchilar uchun maxsus dasturlar tuzish samaradorlikni yanada oshiradi.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, masalan, British Council va UNESCO bilan birgalikda AELLCA kabi loyihalarni kengaytirish, **uchinchidan,** o‘qituvchilar uchun uzluksiz monitoring tizimini joriy qilish, bu yerda profayling yiliga bir marta o‘tkazilib, innovatsiyalar bilan moslashtiriladi. **To‘rtinchidan,** ilmiy-tadqiqot institutlarini jalb qilish: O‘zbekistonda pedagogik universitetlarda maxsus laboratoriyalar tashkil qilish zarur deb hisoblaymiz.

Tavsiyalar: 1) Raqamli malaka oshirish uchun VR va AI ni qo‘llash;

2) Inklyuziv ta’limni profayling orqali rivojlantirish;

3) Budjetni oshirish va o‘qituvchilarni moliyaviy rag‘batlantirish;

4) Xalqaro standartlarni (OECD TALIS) qo‘llash.

Xulosa qilib aytganda, profayling va pedagogik innovatsiyalar integratsiyasi professional kadrlar tayyorlashning zamonaviy yondashuvi bo‘lib, dunyo va Markaziy Osiyo tajribasi buning samaradorligini isbotlaydi. Global modellar (SCCT, ADDIE) individuallashtirish va raqamli vositalar orqali malaka oshirishni ta’minlaydi, Markaziy Osiyoda esa mahalliy omillar (gender, infrastruktura) ni hisobga olgan holda islohotlar amalga oshirilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar (Richter, Radjabova) integratsiyaning afzalliklarini ko‘rsatadi, lekin muammolar (tengsizlik) ni hal qilish uchun halqaro hamkorlik zarur. Kelajakda bu integratsiya ta’lim sifatini oshirib, iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shadi.

Umuman olganda, taklif etilgan tavsiyalar (hukumat hamkorligi, raqamli kengaytirish) Markaziy Osiyo uchun mos modellarni yaratishga imkon beradi. Dunyo tajribasi (Singapur, AQSh) ni qo‘llash orqali o‘qituvchilar malakasi 30-40% ga oshadi, bu esa yoshlarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi. Ilmiy hamkorlik va uzluksiz monitoring orqali bu soha rivojlanishini ta’minlash mumkin, natijada global raqobatbardoshlik oshadi.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. Radjabova Z.M. Main Approaches to the Problem of Career Choice Uzbekistan. ResearchGate. 2025.
2. Musaeva M.E. Methods of Orientation of Students to Innovative Activities. Web of Journals. 2024.
3. Richter E. et al. Profiling Teachers’ Motivation for Professional Development. Sage Journals. 2025.
4. Coffelt T.A. & Koziel J.A. Professional Development for Faculty in Uzbekistan. Frontiers in Education. 2025.
5. Mamadaminova N. & Khadjikhanova S. Navigating Continual Progress: Insights into Teacher Professional Development in Uzbekistan. ResearchGate. 2024.
6. British Council. AELLCA: Accelerating English Language Learning in Central Asia. British Council Uzbekistan. 2025.

GENDER TUSHUNCHASI VA XOTIN-QIZLAR MASALASI

Paxratdinova Aruxan Kerimberdiyevna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)



Kalit so‘zlar: *xotin-qizlar, gender tushunchasi, gender tengligi, xotin-qizlar huquqlarining kafolatlanishi, zo‘ravonlikni oldini olish, muammolarni bartaraf etish.*

Annotatsiya: *Maqolada yurtimizda aholi o‘rtasida xotin-qizlar va gender tushunchasini targ‘ib etib, ijobiy natijalarga erishish bo‘yicha fikr mulohazalar bildirilgan.*

Kishilik jamiyatining barcha davrlarida xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasida teng huquqlilik, jamiyatda va barcha sohalarda teng faoliyat yuritish bilan bog‘liq masala u yoki bu tarzda barchaning e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Antik davr faylasuflaridan Platon: “Ayol o‘z hohishiga ko‘ra kasblarni tanlashi mumkin: musiqa, falsafa yoki boshqa kasblar, shu jumladan, harbiy ishlarni ham” – deya mulohaza qilgan [1:19]. Shu bilan birga Platon, armiyada ayollar va erkaklarning teng huquqliligini o‘rnatish lozimligini ta’kidlab shunday degan: “Ayol o‘z tabiyatiga ko‘ra, erkak singari barcha ishlarda ishtirok etishi mumkin” [2]. Keltirilgan misollardan ma’lumki, maqolamizda xotin-qizlar va gender tengligi masalasi haqida fikr yuritmoqchimiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida so‘zlagan nutqida: “Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qati’y davom ettiramiz” – degan edi [3:6].

Ilimiy adabiyotlarni varaqlar ekanmiz, gender va gender tengligi tushunchalariga quyidagicha ta’riflar berilgan:

Gender – xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihati [4].

Gender tengligi **–** gender tengligi va jinsiy tenglik, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlardir [5].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Gutterish: “Jinslar tengligiga erishish, ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish davrimizning tugallanmagan vazifasi va bugungi kunda inson huquqlari bo‘yicha eng katta muammodir” – degan edi [3:8].

Darhaqiqat, gender tushunchasi paydo bo‘lganligiga ma’lum vaqt bo‘lgan bo‘lsa ham ushbu tushunchaning mazmunini aholimiz to‘liq anglab yetmagan holatlar uchrashadi. Masalan, aholimiz o‘rtasida *“Gender tushunchasi nima?”* – degan mavzuda ijtimoiy savolnoma o‘tkazganimizda bir guruh yoshlar gender tushunchasini gen, inson anatomiyasi deb tushinishini, bir guruhi bu so‘zdan uyalishini, ya’niy jinsiy munosabatlar bilan bog‘liq deb anglashini, yana bir guruhi umuman bu masalaga qiziqmasligini, bandlik bilan ta’minlanmagan bir guruh ayollar esa faqat bu erkak va ayol degan ma’noni anglatadi, yoki gender masalaga aralashishni hohlamasliklarini ma’lum qilgan.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekistonda xotin-qizlarga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlik holati natijasida 41051 nafar xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirilgan. Shuningdek 4 mingdan oshiq ayol-qizlarimizga birlamchi ko‘mak xonalarida ijtimoiy yordam berilgan [6]. Bu juda achinarli holat, albatta. Ilmiy adabiyotlarda: “Ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik dunyodagi barcha jamiyatlarda saqlanib kelmoqda va barcha ijtimoiy guruhlarga ta’sir qilmoqda” –deya keltirilgan [3:15]. Jamiyat rivojlanib borar ekan, shu bilan birga ko‘nglimizni hira qiladigan holatlar ham uchrashib turadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali Surxandaryo viloyatida yashovchi ayolning turmush o‘rtog‘i tomonidan ayovsiz kaltaklanishi, afsuski, so‘zimizning dalili bo‘la oladi [7].

Ayollar huquqlarini muhofaza qilish bo‘yicha BMT tomonidan xotin-qizlar o‘n yilligi, konvensiyalar va rasmiy kunlar qabul qilindi. Masalan:

- 11-fevral Xalqaro ilm-fan bo‘yicha ayollar va qizlar kuni;
- 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni;
- 9-iyun Xalqaro zo‘ravonlikga qarshi kun;

- 11-oktyabr Xalqaro qizlar kuni;
- 15-oktyabr Xalqaro qishloq ayollari kuni;
- 25-noyabr Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish kuni sanalari ko‘taringki kayfiyatta nishonlanib kelmoqda.

Jamiyatimiz sharqona milliylik ruhida tarbiyalanganligi sababli opa-singillarimizga hurmat alohida. Lekin, shunga qaramasdan, turmushimiz farovonligini ta’minlash maqsadida, zamon bilan hamnafas bo‘lish o‘ta muhim masaladir. Ayollarning huquqlarini kafolatlash, ularga nisbatan zo‘ravonliklarning oldini olish davr talabi bo‘lib qolaveradi. Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida bir qator ishlar amalga oshirilar ekan, jamiyatimiz rivojiga hissa qo‘shish maqsadida quyidagi takliflarni bildirishni o‘rinli deb hisoblaymiz:

Birinchidan, xotin-qizlarning siyosiy va huquqiy savodxonligini oshirish borasida joylarda targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

Ikkinchidan, Ona va bola salomatligini asrash bo‘yicha olis tumanlarda bepul tibbiy ko‘riklar o‘tkazish;

Uchinchidan, xotin-qizlar bandligini ta’minlash borasida viloyat, tuman hokimliklari tomonidan grantlar ajratish ishlarini amalga oshirish kelajakda o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Platon. Dialogi [Dialogues]. Translation from ancient Greek. Khar’kov, Folio Publ., 1999. – 383 p.
2. Платон. Государство // Платон. Соч. В 4 Т. – Т.3. – М. : Мысль, 1994. – С. 230.
3. М.Холиқова., Г.Ишанханова., Ш.Пўлатова., // Гендер тенглиги ғоядан қонунга қадар., - Т. : Академнашр-2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi 2019-yil 2-sentyabr kunidagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 562-son Qonunining 3-moddasi., www.lex.uz
5. Uz.wikipedia.org/wiki/gender-tengligi www.wikipedia.org
6. https://oyina.uz/uz/posts/29086
7. Daryo.uz https://daryo.uz/t94k8zn9

Jinoiy profayling: xulq-atvor tahlili va xavf bahosi

Jamoat xavsizligi universiteti, 3-kurs kursanti
Bekmatov Ibrat Qudrat o'g'li

***Annotatsiya*:** Ushbu maqola jinoiy profaylingning xulq-atvor tahlili va xavfni baholashdagi o‘rnini o‘zbek va rus adabiyotlaridagi manbalar asosida yoritadi. Rus adabiyotlarida, masalan, V.L. Tsvetkovning ishlarida FBI usullariga moslashtirilgan kriiminalistik profayling ta’kidlanadi. Induktiv, deduktiv va integratsiyalangan usullar jinoyatchilarning xatti-harakat naqshlarini aniqlaydi, ammo biaslar va noto‘g‘ri xulosalar xavfi saqlanadi. Xavf bahosida HCR-20 va COMPAS vositalari zo‘ravonlik ehtimolini 70-80% aniqlikda bashorat qiladi, lekin irqiy diskriminatsiya muammosi mavjudligi aytilgan.

Kalit so’zlar: jinoiy profayling, xulq-atvor tahlili, xavf bahosi, kriiminalistik usullar, psixologik portret, modus operandi, signature, strukturaviy vositalar, HCR-20, COMPAS, sun’iy intellekt, biaslar, etik muammolar, rus adabiyotlari, o‘zbek adabiyotlari, recidivizm, geografik profayling.

Jinoiy profayling (criminal profiling) – bu jinoyatchilarning xulq-atvorini tahlil qilish va xavfni baholashda ishlatiladigan muhim usul bo'lib, u jinoyat joyidagi dalillar va xatti-harakatlar asosida gumonlanuvchining shaxsiy xususiyatlarini, motivlarini va demografik belgilarini bashorat qilishga yordam beradi. Bu amaliyot asosan huquq-tartibot idoralari tomonidan qo'llaniladi va jinoyatlarning oldini olish, gumonlanuvchilarni aniqlash va tergov jarayonini tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Profaylingning asosiy yondashuvlari: Profayling usullari bir necha turga bo'linadi, ularning har biri xulq-atvor tahlili va xavf bahosida o'z o'rniga ega. Quyidagi jadvalda asosiy usullarni taqqoslab ko'rsatamiz:

Usul	Tavsifi	Afzalliklari	Kamchiliklari	Xulq-atvor tahlilidagi roli	Xavf bahosidagi roli
Induktiv (Inductive)	Jinoyatlar bo'yicha statistik ma'lumotlar va oldingi holatlarga asoslangan umumlashtirish. Masalan, qotilliklarning 85-90% erkaklar	Oson qo'llaniladi, statistikaga asoslangan.	Ehtimollikka asoslangan, mutlaq emas, xatolarga olib kelishi mumkin.	Xatti-harakat naqshlarini umumiy tadqiqot orqali aniqlash.	Xavfni statistik ehtimollik asosida baholash, masalan, takroriy jinoyatlar

	tomonidan sodir etilishi kabi ehtimolliklar.				xavfini.
Dedukt iv (Deduc tive)	Jinoyat joyidagi aniq dalillardan chiqarilgan xulosalar, masalan, Behavioral Evidence Analysis (BEA) usuli.	Ilmiy va dalillarga asoslangan, aniq xulosalar.	Inson xatti-harakati universal emasligi sababli kam qo'llaniladi.	Jinoyat joyini rekonstruksiya qilish va xatti-harakat dalillarini tahlil qilish.	Xavfni aniq dalillar asosida baholash, masalan, jinoyatchining eskalatsiyasini (jinoyatni og'irlashtirishini) bashorat qilish.
Abdukt iv (Abduc tive)	Bir nechta gipotezalardan eng yaxshisini tanlash, klinik diagnostikada ishlatiladi.	Moslashuvchan, real hayotga yaqin.	Ehtimollikka asoslangan, sababni aniq ko'rsatmaydi.	Klinik va tergoviy fikrlarni birlashtirish.	Xavfni bir nechta variantlar orqali baholash, masalan, zo'ravonlik xavfini.
Integrat siyalan gan (CRIM E ramkasi)	Jinoyat joyini baholash, tadqiqotlar, klinik fikrlar, tergov usullari va baholashni birlashtirish.	Barcha usullarning kuchli tomonlarini birlashtiradi, ilmiy aniqlikni oshiradi.	Murakkab va vaqt talab qiladi.	Xatti-harakat tahlilini kengaytirish va dalillarni integratsiya qilish.	Strukturaviy professional baho (SPJ) kabi xavf bahosini yaxshilash.

Ushbu usullar profaylingni ilmiy asosga qo'yishga yordam beradi va xulq-atvor tahlilida jinoyat joyidagi xatti-harakatlar (masalan, tartibli yoki tartibsiz jinoyat joyi) orqali gumonlanuvchining psixologik portretini yaratadi.

Amaliyotda profaylerlar quyidagi bosqichlarni bajaradi:

1. Jinoyat joyini baholash va rekonstruksiya qilish.
2. Xatti-harakat naqshlarini aniqlash (masalan, seriyali qotilliklarda geografik profayling – jinoyat joylarining joylashuvini tahlil qilish).
3. Gumonlanuvchi profilini yaratish va tergovga maslahat berish.

Amaliyotda profaylerlar xavf bahosida:

- Yuqori xavf guruhlarini aniqlash (masalan, maktabdagi zo'ravonlik xavfi bo'lgan o'quvchilar).
- Qurbonga oid profillarni yaratish va oldini olish choralarini taklif qilish.

- Sud va shartli ozodlik qarorlarida maslahat berishni ishlatadi.

Profaylingning kamchiliklari: xatoliklar (false positives – noto'g'ri yuqori xavf bahosi), biaslar (irqiy yoki demografik) va dalillar yetishmasligi. Kelajakda AI va mashinaviy o'rganish bu amaliyotni yaxshilashi mumkin.

Rus olimlari bu usulni tergov jarayonida qo'llashni ta'kidlaydilar, masalan, jinoyatchining psixologik portretini yaratish orqali gumonlanuvchilarni toraytirish [1, 1532].

Rus adabiyotlarida xavf bahosi ko'pincha recidivizm (takroriy jinoyat) ni bashorat qilish bilan bog'lanadi. Masalan, strukturaviy vositalar jinoyatchining o'tmishdagi xatti-harakatlari va ijtimoiy omillarni tahlil qilib, zo'ravonlik xavfini 70-80% aniqlikda baholaydi. Rus tadqiqotchilari profaylingni biznes va siyosiy sohalarda ham qo'llashni taklif qiladilar, ammo kriiminalistikada asosiy e'tibor jinoyatchining xavf darajasini baholashga qaratilgan [2, 129].

Profaylingning xulq-atvor tahlilidagi roli: Jinoiy profayling jinoyatchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilishda muhim vosita bo'lib, jinoyat joyidagi dalillar, xatti-harakat naqshlari va psixologik omillar asosida gumonlanuvchining profilini yaratadi [3, 2]. Bu jarayonda profaylerlar jinoyat joyini rekonstruksiya qilib, gumonlanuvchining yoshi, jinsi, kasbi va hatto yashash joyini bashorat qilishlari mumkin. Geografik profayling, masalan, seriyali jinoyatlarda jinoyatchining yashash joyini 5-10 km aniqlikda aniqlashga yordam beradi [4, 5].

Xavf bahosidagi profayler amaliyoti: Xavf bahosi jinoyatchilarning kelajakdagi zo'ravonlik ehtimolini aniqlashga qaratilgan bo'lib, profaylerlar bu jarayonda strukturaviy vositalardan foydalanadilar. Bu vosita jinoyatchining o'tmishdagi xatti-harakatlari, psixologik holati va ijtimoiy omillarini tahlil qilib, recidivizm (takroriy jinoyat) ehtimolini bashorat qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, HCR-20 yordamida zo'ravonlik xavfi 70-80% aniqlikda baholanadi, ammo sub'ektivlik xavfi saqlanib qoladi [5, 5].

Zamonaviy tendensiyalar va muammolar: Zamonaviy profaylingda sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (big data) integratsiyasi katta ahamiyat kasb etmoqda. AI algoritmlari jinoyat joyidagi naqshlarni tez tahlil qilib, gumonlanuvchining profilini aniqlashda 30-40% vaqtni tejayd. Masalan, geografik profaylingda AI

yordamida jinoyatchining yashash joyi yanada aniqroq bashorat qilinadi. Biroq, AI etik muammolarni keltirib chiqaradi, masalan, ma'lumotlar maxfiyligi va noto'g'ri bashoratlar.

Misollar va amaliy qo'llanilishi

“Seriyali qotilliklar”: Ted Bundi ishi (1970-yillar) da FBI profaylerlari uning xarizmatik xatti-harakati va ma'lum geografik hududlarda jinoyat sodir etishini tahlil qilib, uning profilini yaratgan. Bu tergovni toraytirishga yordam berdi.

“Maktab zo'ravonligi”: AQShda maktab otishmalari oldini olish uchun profaylerlar o'quvchilarning xatti-harakatlarini (masalan, ijtimoiy izolyatsiya yoki zo'ravonlikka moyillik) tahlil qilib, xavfni 60% gacha aniqlaydi.

Xavf bahosi bo'yicha o'zbek adabiyotlari kam, ammo ba'zi tadqiqotlarda jinoyatchilarning psixologik portretini yaratish orqali zo'ravonlik xavfini baholash muhokama qilinadi, masalan, maktab zo'ravonligini oldini olishda. O'zbek olimlari (masalan, O'zbekiston IIV akademiyasida) rus tajribasini moslashtirib, jinoyatchilarning xatti-harakat naqshlarini tahlil qilishni taklif qiladilar [6, 5].

“Kiberjinoyatlar”: So'nggi yillarda profayling kiberjinoyatlarda ham qo'llanmoqda, masalan, xakerlarning xatti-harakat naqshlari tahlil qilinadi.

Demak, jinoiy xulq-atvor tahlili va xavfni baholashda profayler amaliyoti jinoyatchilarning psixologik portretini yaratish, xatti-harakat naqshlarini aniqlash va kelajakdagi xavfni bashorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Rus adabiyotlarida bu jarayon kriiminalistik va psixologik nuqtai nazardan o‘rganilib, FBI tajribasiga asoslanadi, masalan, V.L. Tsvetkovning “Osnovy profaylinga” asarida xulq-atvor naqshlari tahlili. O‘zbek adabiyotlarida, asosan Tashkent nashrlarida, rus tilidagi manbalar orqali profayling mahalliy kontekstga moslashtirilgan, masalan, “Kriminalisticheskiy profayling” monografiyasida jinoyat joyi dalillari orqali bashorat qilish muhokama qilinadi.

Zamonaviy tendensiyalarda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar profaylingni yaxshilaydi, lekin etik muammolar (masalan, maxfiylik) talab qiladi. O‘zbekistonda bu usullar huquq-tartibot idoralarida qisman qo‘llaniladi, ammo mahalliy tadqiqotlar rivojlanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Turvey, B. E. Criminal Profiling: An Introduction to Behavioral Evidence Analysis. “American Journal of Psychiatry”, 157(9), 1532-1534. https://psychiatryonline.org/doi/10.1176/appi.ajp.157.9.1532, 2000
2. Douglas, J. E., & Olshaker, M. Analysing criminal profiling validity: Underlying problems and future. “International Journal of Law and Psychiatry”, 73, 127-131. 2020 https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0160252720301291
3. Fox, B., & Farrington, D. P. Reframing criminal profiling: a guide for integrated practice. “Psychiatry, Psychology and Law”, 29(2), 1-15. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC9103349/, 2022
4. Hickey, E. W. Forensic Psychology and Criminal Profiling. “Journal of Forensic Science & Research”, 5(1), 1-10. https://www.forensicscijournal.com/articles/jfsr-aid1085.php, 2021
5. Douglas, K. S., & Skeem, J. L. Demystifying Risk Assessment. “Center for Justice Innovation”. https://www.innovatingjustice.org/wp-content/uploads/2017/03/Monograph_March2017_Demystifying-Risk-Assessment_1.pdf, 2018
6. Fazel, S., & Wolf, A. Criminal Profiling Risk Guide. “Number Analytics”. https://www.numberanalytics.com/blog/criminal-profiling-risk-assessment-guide, 2020.

O’SMIRLARDA DELINKVENT XULQ NAMOYON BO’LISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

Kanlibayeva Indira Maxsetovna
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’smirlarda delinkvent xulq-atvor shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik xususiyatlar tahlili yoritib berilgan. Shuningdek, o’smirlarda delinkvent xulq-atvor shakllanishining o’ziga xos jihatlari tahliliy yondashuvlar asosida ta’kidlab o’tilgan.

Kalit so’zlar: delinkventlik, xulq-atvor, o’smir, psixologik xususiyat.

O‘smirlik davrida delinkvent xulq — ya’ni ijtimoiy norma va huquqiy me’yorlardan chetga chiqish, maktab intizomini buzish, mayda bezorilik, tajovuzkorlik, o‘g‘irlik, vandalizm, kibertahdid yoki onlayn firibgarlik kabi shakllarda namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlar — ko‘p omilli psixologik jarayonlarning kesishgan nuqtasidir. Bu hodisani faqat “yomon tarbiya” yoki “muhit yomonligi” bilan izohlash yetarli emas: o‘smirning nevropsixologik yetilishi, shaxsiy xususiyatlari, emotsional-regulyativ imkoniyatlari, ijtimoiy-kognitiv sxemalari, oilaviy aloqalari, tengdoshlar tarmog‘i va maktab muhitining o‘zaro ta’sirini birgalikda ko‘ruvchi tizimli yondashuv talab etiladi. Delinkventlikning og‘riqli nuqtasi shundaki, u ko‘pincha o‘sish krizisi va ijtimoiy rol izlash jarayonida “o‘zini tasdiqlash” vositasiga aylanadi; shuning uchun ham tashqi nazorat kuchayishi ba’zan simptomni vaqtincha pasaytirsa-da, ichki regulyatsiya mexanizmlari kuchaytirilmasa, xulqning funksional ildizlari saqlanib qoladi.

Shaxsiy-psixologik xususiyatlar ichida impulsivlik, past frustratsiyaga chidamlilik, yuqori sensatsiya izlash, kognitiv moslashuvchanlikning sustligi, past tafakkur oldidan bashorat (prospektiv) nazorat hamda vaqt perspektivasining qisqaligi delinkvent xulq ehtimolini oshiradi. Emotsional jabxada affektlarni modulyatsiya qilishdagi qiyinchiliklar, tez qo‘zg‘aluvchanlik, g‘azabning yuqori reaktivligi va “issiq” emotsional qarorlar ustunligi kuzatiladi; bu holat ijroiy funksiyalar — diqqatni barqaror ushlash, ishchi xotira, inhibisiya va kognitiv reappraisal ko‘nikmalarining yetarli

darajada shakllanmaganligi bilan mustahkamlanadi. Ijtimoiy-kognitiv darajada o‘smirlar ko‘pincha vaziyatni dushmanona talqin qilish, o‘z harakatlarining oqibatlarini past baholash va tajovuzni “muammo yechimi” sifatida normalizatsiya qiluvchi skriptlarni ichkilashtiradilar; model bo‘lib xizmat qiluvchi kattalar, “kuch — haqiqat” narrativlari, hamda ko‘cha madaniyatidagi reputatsiya iqtisodi bu skriptlarni mustahkamlaydi.

Shaxsning empatiya tizimi va axloqiy mulohaza darajasi ham muhim: kognitiv empatiya (boshqaning nuqtai nazarini anglash) nisbatan saqlangan bo‘lsa ham, affektiv empatiya (boshqaning og‘rini his etish) pasaygan bo‘lishi, ayniqsa “qo‘pol-beparvo” xususiyatlar kuchli bo‘lganda, delinkvent xulqni og‘irroq trayektoriyaga yo‘naltiradi. Bunday profilda aybdorlik va uyalish kabi o‘z-o‘zini tartibga soluvchi axloqiy affektlar zaif bo‘lib, ijtimoiy jazolashdan qo‘rqish asosiy tormoz mexanizmiga aylanadi; bu esa nazorat yo‘q joylarda xulq keskin buzilishlariga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ijobiy o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy maqsadlar, ichki lokus nazorat va o‘zini samarali his etish delinkvent tendensiyalarni protektiv (himoya) omillar sifatida pasaytiradi; o‘smirlikda kimlik izlash jarayonini konstruktiv maydonlarga — sport, san’at, ijtimoiy loyihalar — yo‘naltirish himoya ta’sirini kuchaytiradi.

Oilaviy tizim bilan bog‘liq psixologik determinatsiyalar markaziy ahamiyatga ega. Ambivalent yoki xavotirli-izolyatsion bog‘lanish, ota-ona nazoratining chalkashligi (bir payt qat’iy, boshqa payt beparvo), issiqlik va qabulning yetishmasligi, haddan tashqari jazo yoki tajovuzkor intizom, shuningdek, oiladagi ichki nizolar hamda moddiy-psixologik stress delinkvent xulqning ijtimoiy “inkubatori” bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, izchil chegaralar, adolatli va tushuntiruvchi intizom, muloqotga ochiqlik, kuzatuvchi, lekin bo‘g‘maydigan parental monitoring hamda ijobiy oilaviy rituallar o‘smirning emotsional barqarorligi va o‘zini boshqarish qobiliyatini oshiradi. Tengdoshlar tarmog‘i ko‘pincha kuchli moderator: deviant do‘stlar bilan yaqinlik, “guruhga sodiqlik” uchun tavakkal xatti-harakatlarni normaga aylantirishi, reputatsiya va maqom uchun resurslar kurashi delinkventlikni kuchaytiradi; aksincha, pro-sotsial liderlar va klub/joroat guruhlari orqali ijobiy ta’sir kanallari yaratish xulqni “normativ yo‘l”ga qaytaradi.

Maktab va kengroq ijtimoiy muhit komponentlari ham psixologik mexanizmga ulanadi. Maktabdagi adolat hissi, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarining hurmatga asoslanganligi, bullyingning profilaktikasi, ijtimoiy-emotsional o‘qitish dasturlari, o‘quv yuklamasining ma’no va maqsad bilan bog‘lanishi o‘smirning “institutga bog‘lanishi”ni oshiradi, bu esa ijtimoiy nazoratning ichkilashuvi uchun muhim. Mahalla/keng jamoada xavfsizlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, konstruktiv bo‘sh vaqt infratuzilmasi yo‘qligi esa frustratsiya, zerikish va tavakkal izlashni delinkvent kanallarga buradi. Raqamli kontekstda esa anonimlik, tezkor mukofotlar, ijtimoiy tasdiq signalining kuchi hamda normativ barerlarning noaniqligi kiberbezorilik, shaxsiy ma’lumotdan noqonuniy foydalanish va agressiv onlayn xatti-harakatlarni rag‘batlantirishi mumkin; mediamadaniyat va raqamli savodxonlik tarbiyasi shu yerda muhim protektiv rol o‘ynaydi.

Nevropsixologik va biologik jihatdan qaralganda, prefrontal korteksning pishib borishi, dopaminergik mukofot tizimining o‘smirlikda reaktivligi, labilligi delinkvent xulqni “tavakkal-mukofot” paradigmasi orqali tushuntiradi: kuchli ijtimoiy mukofotlar (tengdoshlar oldida “qahramonlik”), sust jazolash ehtimoli va qisqa muddatli foyda uzoq muddatli oqibatlarni “so‘ndiradi”. Bu joyda ijroiy funksiyalarni kuchaytiruvchi mashqlar, mindfulness va emotsional regulyatsiya treninglari, sport va jismoniy faollik orqali stressni tashlash mexanizmlarini o‘rgatish psixologik jihatdan maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, komorbid psixik holatlar – diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik, xulq buzilishi, tashvish va depressiv simptomatika, modda suiiste’moli – delinkventlik bilan chatishtirilganda, xavf keskin oshadi; bu holatlarda integrativ baholash va birgalikda korreksion yondashuv talab etiladi.

Delinkvent xulqni tushuntirishda klassik nazariyalar psixologik darajaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanadi: ijtimoiy o‘rganish nazariyasi model kuzatuvi va mukofot-jazo kontingentlariga urg‘u beradi; umumiy zo‘riqish yondashuvi hayotiy maqsadlar bilan resurslar disbalansi sharoitida salbiy affektlarning to‘planishini va ularni “tezkor yechim” orqali chiqarish istagini ta’kidlaydi; ijtimoiy nazorat va bog‘lanish nazariyalari esa oilaga, maktabga, me’yoriy jamoaga emotsional va instrumental bog‘liqlik kuchsiz bo‘lsa, ichki tormozlar pasayishini ko‘rsatadi; past o‘zini nazorat qilish konsepsiyasi esa bolalikdan o‘z-o‘zini tuta bilish ko‘nikmalari shakllanmasa, delinkvent yo‘l tanlanishini

bashoratlaydi. Amaliyotda bu nazariy ramkalar bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, mediatordan moderatorga, individualdan tizimiygacha bo‘lgan ko‘priklarni chizadi: masalan, oilaviy issiqlik ijroiy funksiyalar va affekt regulyatsiyasini kuchaytirib, tengdoshlar bosimini yengillashtiruvchi psixologik bufer vazifasini bajaradi.

Baholash va diagnostika bosqichida ko‘p manbali va ko‘p metodli yondashuv muhim: o‘smirning o‘zi, ota-ona va o‘qituvchi hisobotlari, standartlashtirilgan so‘rovnomalar, xulq kuzatuvlari, ijroiy funksiyalar testlari hamda ijtimoiy-kognitiv vazifalar birgalikda qo‘llansa, delinkvent profilning psixologik xaritasi aniqroq chiziladi. Ayniqsa, tajovuzning proaktiv-reaktiv shakllarini farqlash, empatiya va axloqiy mulohaza darajasini aniqlash, affekt regulyatsiyasi va impuls nazorati zaif nuqtalarini topish keyingi korreksion rejalashtirishning “nishon”larini belgilaydi. Baholash jarayonida madaniy kontekstga sezgirlik — oila va jamiyatda qabul qilingan muloqot normalari, sha’n va obro‘ga nisbatan o‘zbek madaniyatida ularning ahamiyati, ijtimoiy izzat tushunchalari — interpretatsiyani to‘g‘rilashi zarur; aks holda “me’yor” va “buzilish” chegaralari noto‘g‘ri o‘qilishi mumkin.

Profilaktika va aralashuvda eng samarali yo‘l ko‘p darajali, dalillarga tayangan, rivojlanish bosqichiga moslashtirilgan yondashuvdir. Oila bilan ishlashda ijobiy intizom, izchil chegaralar, muloqot ko‘nikmalarini kuchaytirish, adolatli oqibatlar tizimi, ota-onaning stressini kamaytirish va parental monitoringni sifat jihatdan yaxshilash delinkvent harakatlar “narxini” psixologik darajada oshiradi. O‘smir bilan individual ishlashda emotsional regulyatsiya, impuls nazorat, muammo yechish, ijtimoiy ko‘nikmalar, empatiya va axloqiy mulohazani rivojlantirish, shuningdek, maqsad qo‘yish va kechiktirilgan mukofotga motivatsiya berish asosiy yo‘nalishlar bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlarda delinkvent xulq — bu bir vaqtning o‘zida individual zaifliklar (impulsivlik, affekt regulyatsiyasi muammolari, empatiya pasayishi, ijroiy funksiyalar sustligi), ijtimoiy-kognitiv noto‘g‘ri talqinlar (dushmanona atribusiya, “kuch — haqiqat” skriptlari), oilaviy va tengdoshlar tizimidagi disbalanslar, maktab va jamoa muhitidagi adolatsizlik hissi hamda raqamli ekotizimning rag‘bat strukturalari kesishganda paydo bo‘ladigan ko‘p qatlamli hodisadir. Mazkur hodisani kamaytirishning psixologik kaliti — o‘smirning ichki regulyatsiya resurslarini

kuchaytirish, ijtimoiy bog‘lanish va maqsadli faoliyatga yo‘naltirish, oilaviy va maktabiy qo‘llab-quvvatlashni izchil qilish hamda normativ me’yorlarni “tashqi nazorat”dan “ichki qadriyat”ga aylantirishdir. Shunda delinkvent xulq ijtimoiy jazodan qo‘rqish natijasida emas, balki o‘zini qadrlash, boshqaga hamdardlik va uzoq muddatli maqsadlar bilan mos kelmaydigan, foydasiz yo‘l sifatida o‘smirning o‘zi tomonidan rad etiladi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Познышев С.В. Основные начала науки уголовного права. М.,1912. С. 10. 2 Иншаков С.М. Зарубежная криминология. М.: Издателская группа Инфра-м-норма, 1997. – С.20.
2. Карпец И.И.Преступное общество.-М.: Молодая гвардия, 1993. – С. 56.
3. Ратинов А. Р. Судебная психология для следователей / А. Р. Ратинов //. М. – 1993. – С. 120.

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA PSIXIK BARQARORLIKKA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARNI TADQIQ ETISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Quvondiqov Hamza Olimboyevich
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

UDK: 159.923.5-34

Annotasiya. *Ushbu maqolada Ichki ishlar xodimlarida psixik barqarorlikga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tadqiq etishning o‘ziga xosligi, tadqiqotni tashkil etish va o‘tkazishda e'tiborli tomonlari, tadqiqot uchun tanlangan metodikalar, shuningdek, psixik barqarorlikning tarkibiy tuzilmasi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *psixik barqarorlik, ijtimoiy-psixologik omillar, ruhiy zo‘riqish, kasbiy faoliyat, kasbiy barqarorlik, ijtimoiy intellekt, emosional intellekt, hissiy-irodaviy xususiyatlar, lokus nazorat.*

Аннотация. *В данной статье освещается специфика исследования социально-психологических факторов, влияющих на психическую устойчивость у сотрудников органов внутренних дел, основные аспекты организации и проведения исследования, методики, выбранные для исследования, а также структура психической устойчивости.*

Ключевые слова: *психическая устойчивость, социально-психологические факторы, психическое напряжение, профессиональная активность, профессиональная устойчивость, социальный интеллект, эмоциональный интеллект, эмоционально-волевые характеристики, локус контроль.*

Annotation. *This article covers the specificity of the research of socio-psychological factors affecting mental stability in internal affairs personnel, their consideration in the organization and conduct of research, methods selected for research, as well as the structural structure of mental stability.*

Keywords: *mental stability, socio-psychological factors, psychological characteristics, psychological activity, psychological barrier, social intelligence, emotional intelligence, emotional-volitional characteristics, locus.*

Jinoyatchilikka qarshi kurash, favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish, odamlar bilan muloqot qilishdagi ziddiyatli holatlar, ba’zan esa hayot va sog‘liq uchun xavf tug‘diradigan sharoitlarda ishlash – bularning barchasi xodimning psixik barqarorligi va professional tayyorgarligini talab qiladi. Shuning uchun ichki ishlar tizimidagi xodimlarning psixik barqarorligini ta’minlash va unga ta’sir etuvchi psixologik omillarni o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Psixik barqarorlik – bu insonning tashqi va ichki ta’sirlarga nisbatan ruhiy holatini saqlash, keskin vaziyatlarda muvozanatni yo‘qotmaslik va samarali faoliyat yurita olish qobiliyatidir.

Ichki ishlar xodimlari uchun psixik barqarorlik, birinchi navbatda, zo‘riqish, stress va ziddiyatli vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, emotsional muvozanatni saqlash, o‘zini tuta bilish va xotirjamlikni yo‘qotmaslik bilan bog‘liq. Bu jihat xodimlarning xizmat samaradorligiga va ularning jismoniy va ruhiy sog‘lig‘iga bevosita ta’sir qiladi.

Psixik barqarorlikka ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mukin:

Stressga chidamlilik darajasi – ichki ishlar xodimlari ko‘pincha stressli va noaniq sharoitlarda ishlashga majbur bo‘ladilar. Stressga chidamlilik – bu insonning kuchli emotsional va jismoniy bosimga bardosh bera olish qobiliyatidir. Past stressga chidamlilik xodimlarda tez charchash, asabiylashish, qaror qabul qilishdagi xatolar va psixologik muammolar paydo bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli, stressni boshqarish ko‘nikmalari, chuqur nafas olish texnikalari, avto-trening mashg‘ulotlari katta ahamiyatga ega.

Emotsional intellekt va o‘zini boshqarish qobiliyati – emotsional intellekt – bu insonning o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqa insonlar hissiyotlarini tushunish qobiliyati. Ichki ishlar xodimlari uchun bu ko‘nikma jamoada ishlash, mojaro va ziddiyatlarni hal qilishda, jabrlanuvchilar bilan muloqotda bo‘lishda muhim

ahamiyatga ega. Emotsional intellekti yuqori bo‘lgan xodimlar odatda stressli vaziyatlarda ham o‘zini tuta biladi va samarali yechim topishga moyil bo‘ladi.

Motivatsiya va xizmatga sodiqlik hissi – xodimning ichki motivatsiyasi, kasbga bo‘lgan qiziqishi va fidoyiligi uning psixik barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. O‘z kasbini qadrlaydigan, xizmat maqsadini anglaydigan va jamiyatga foydali bo‘lish istagini his qiladigan xodimlar ko‘proq psixik barqarorlik namoyon qiladilar. Motivatsiya yetarli bo‘lmaganda esa, charchash, befarqlik va ishdan qoniqmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va muloqot muhiti – xodimning atrofidagi insonlar bilan bo‘lgan munosabatlari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi ham psixik barqarorlikka ta’sir qiladi. Do‘stona ish muhitining mavjudligi, jamoa ichidagi sog‘lom kommunikatsiya, oila va do‘stlar bilan iliq munosabatlar xodimning stressga bardosh bera olishiga yordam beradi. Aksincha, yakkalanish, ziddiyatlar va tushunmovchiliklar ruhiy charchashga olib kelishi mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik va malaka – psixik barqarorlik kasbiy tayyorgarlik va bilim darajasiga ham bog‘liq. Tezkor vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish xodimga o‘ziga ishonch bag‘ishlaydi va psixologik muvozanatni ta’minlaydi. Malakasi yetarli bo‘lmagan xodimlar esa noaniqlikdan qo‘rqish, xato qilish ehtimolidan xavotirlanish va o‘zini yomon his qilish holatlarini boshdan kechiradilar.

Tadqiqotchi G.S.Chxartishvilining yozishicha, kasbiy barqarorlik sifatlari gorizontal va vertikal tuzilishga ega[1]. Gorizontal tuzilish mayllar orqali hosil bo‘ladi, ularning namoyon bo‘lishida, asab tizimi xususiyatlarining tipologik xususiyatlari muhim sanaladi. Vertikal tuzilish esa, aqliy soha, ijtimoiy soha, motivatsion sohalar orqali paydo bo‘ladi va nazorat qilinadi. Biroq, ba’zi holatlarda psixologlar ushbu masalani taqdim etishda xatolikka yo‘l qo‘yishadi. Shu bois, ko‘plab darsliklarda, hozirga qadar, yaxshi o‘qish yoki sportdagi yuqori natijalar faqat kuchli, harakatlanuvchi va muvozanatli asab tizimiga ega kishilarga tegishli ekanligi hali fanda to‘liq o‘z isbotini topmagan. O.A.Konopkin ham yuqoridagi mulohazalarga amal qilib, kasbiy barqarorlik sifatlari turiga ta’rif berishga harakat qiladi[2]. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, qat’iyatsizlik, kuchsizlik, qo‘rquvga moyillik ko‘proq asab tizimi zaif insonlarga

xos sifatlardir. Bundan tashqari, nevrotizmlik darajasi past bo‘lgan insonlarda, yuqori darajadagi “qat’iylik” sifatlari kuzatiladi.

Qoidaga ko‘ra, har bir kasbiy barqarorlik sifatlarning ifodalanish darajasi ko‘p holatlarda, inson ehtiyojlarining qay darajada qondirilganligiga va ularning axloqiy jihatdan rivojlanganligiga bog‘liq sanaladi. Kasbiy barqarorlik sifatlari muammosini o‘rganishda “lokus nazorat” yondashuvi ham tan olinib, ushbu g‘oyaning muallifi Dj.Rotter hisoblanadi. Muallifning fikricha, inson o‘z faoliyati natijalari tashqi va ichki omillardan qidiradi. Ya’ni inson erishgan yutuqlari va kamchiliklari sababini tashqi muhit sharoitlaridan qidiradigan bo‘lsa, unda bunday insonlar faoliyat natijalarida mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olishmaydi[3]. Agarda, inson barcha harakatlarining natijalarini ichki muhitdan ya’ni o‘zidan qidirsa, unda bunday insonlar har qanday vaziyatda mas’uliyatni o‘z bo‘yniga oluvchi shaxslar hisoblanishadi. Demak, birinchi holatda faoliyat natijalari uchun vaziyat va taqdir tan olinsa, ikkinchi holatda inson kasbiy barqarorliksi va unga xos bo‘lgan mas’uliyatlilik sifatining roli nazarda tutiladi.

Xavfli vaziyatlarni bartaraf etish, xodimning yo‘lida maxsus yaratilgan to‘siqlarni bartaraf etish, unda turli xil emotsional reaksiyalarni keltirib chiqarish zarurati doimiy irodaviy zo‘riqish va faol aqliy faoliyatni talab qiladi. Faol qarama-qarshilik sharoitida doimiy murakkab intellektual mehnat, o‘z maqsadlarini shifrlash, haqiqiy ijtimoiy rollarni niqoblash va xatti-harakatlar modellarini tezkor qayta qurish zarurati tug‘iladi[4].

Ichki ishlar organi xodimi xizmat faoliyatidagi yana bir psixologik xususiyat, ya’ni ommaviy va jamoaviy xarakterning mavjudligini qayd etish mumkin. Ichki ishlar organi xodimining faoliyati qat’iy va doimiy ijtimoiy nazorat ostida yo‘lga qo‘yiladi. Jamoatchilik oldida vazifalarni bajarishning murakkabligi, shuningdek, xodimning nafaqat jamoat odobi, axloqiy me’yorlari, balki ba’zan boshqalar uchun tushunarsiz bo‘lgan ayrim qonun talablariga ham rioya qilishi shartligi bilan ta’kidlanadi[5].

Xodimdagi kommunikativlik sifatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u universallikni talab qiladi. Buning zarurati uning faoliyati doirasiga kiruvchi barcha shaxslar bilan psixologik aloqa o‘rnatish, sezgirlik, ishontirish qobiliyati, ziddiyatli vaziyatlarning kuchayishiga yo‘l qo‘ymaslik, vaziyatlarga qarab psixo-emotsional

barqarorlik asosida kommunikativ xatti-harakatlarning turli modellarini qurish muhimligi bilan izohlanadi[6].

Yuqoridagilardan xulosa qilgan xolda, ichki ishlar xodimlarida psixik barqarorlik shakllanishining psixologik omillarini tekshirish maqsadida to‘rtta psixologik metodikalardan foydalanish ushbu muammoning ijtimoiy psixologik o‘ziga xosligini yanada chuqurroq o‘rganish imknini beradi, bular:

- S.Xollning “Emotsional intelkekt” so‘rovnomasi;

-J.P.Gilfordning “Ijtimoiy intellekt” metodikasi;

-Chumakovaning “Shaxsning kasbiy irodaviy-mas’uliyat sifatlarini o‘rganish” metodikasi;

-Panteleev va Stolinning “Subyektiv lokus nazorat” so‘rovnomalaridir.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, S.Xollning “Emotsional intelkekt” so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra aytish mumkinki, ichki ishlar xodimlarining emotsional intellekti asosan o‘rtacha va ijobiy darajada shakllangan bo‘lsa-da, ayrim psixologik komponentlar bo‘yicha rivojlantirish zarurati mavjud. Ayniqsa, emotsional bilimdonlik, ichki motivatsiya va empatiya ko‘nikmalari bo‘yicha psixoprofaktik mashg‘ulotlar, psixokorreksion treninglar va emotsional kompetensiyalarni rivojlantiruvchi dasturlarni joriy etish tavsiya qilinadi. Bu xizmat samaradorligini, insonlar bilan ishlash sifati va xodimlarning psixologik barqarorligini ta’minlaydi.

Ichki ishlar xodimlarining kommunikativ kompetensiyalari umumiy holda ijobiy ko‘rinishda shakllangan bo‘lib, ularda noverbal va shaxslararo sezuvchanlik kuchli, fikr va emotsiyalarni tushunish darajasi esa o‘rtacha va ayrim hollarda rivojlantirishni talab etadigan jihatlardan эканлиги Gilfordning “Ijtimoiy intellekt” so‘rovnomasi natijalariда ўз исботини топdi. Shu sababli, kommunikativ psixologiya, empatik tinglash, ijtimoiy sezuvchanlik, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqot bo‘yicha treninglar tashkil etilishi zarur. Bu chora-tadbirlar nafaqat xizmat sifatini oshiradi, balki xodimlarning psixologik tayyorgarligini kuchaytirish orqali xavfli vaziyatlarga bardoshlilik darajasini ham mustahkamlaydi.

Chumakovaning “Kasbiy-irodaviy mas’uliyat” so‘rovnomasi natijalarining ko‘rsatkichlari кўра, ichki ishlar xodimlarining aksariyatida kasbiy-psixologik

fazilatlarning rivojlanganligi yuqori darajada. Biroq motivatsiya, tashabbuskorlik, qat’iylik va jur’atlilik kabi ayrim muhim komponentlar bo‘yicha sezilarli darajadagi quyi ko‘rsatkichlar mavjudligi bu xodimlarning shaxsiy rivojlanishi, kasbiy mukammallashuvi va psixologik tayyorgarligini kuchaytirishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Shu boisdan, tizimda **psixologik diagnostika, individual va guruhiy psixokorrektsion dasturlar,** o‘quv-seminarlar orqali ushbu fazilatlarni oshirish yo‘nalishida tizimli ishlarni amalga oshirish muhimdir.

Gilfordning “Ijtimoiy intellekt” so‘rovnomasi natijalari darajasi eksternal nazoratga nisbatan yuqoriroq, bu esa shaxslarning o‘z ustida ishlashga moyilligi va mas’uliyat hissining yetarli darajada ekanligini ko‘rish mumkin. Samimiylik darajasi ham yuqori bo‘lib, ijtimoiy aloqalar va ochiqlikka e’tibor borligini bildiradi. Eksternal lokus nazorat bo‘yicha o‘rtacha darajadagilar ko‘pchilikni tashkil etgani sababli, ba’zi respondentlar atrofdagi sharoit va omillarga ortiqcha e’tibor berishlari mumkin.

Ijtimoiy-psixologiya omillar etarli darajada mavjud bo‘lganda shaxsning psixik barqarorligi yuqori bo‘ladi. Masalan, jamoada qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar va aniq me'yorlar mavjud bo‘lsa, shaxs stress vaziyatlarida o‘zini xavfsiz his qiladi va konstruktiv echimlar topishga moyil bo‘ladi. Aks holda, ijtimoiy izolyasiya, munosabatlar etishmasligi va noma'lum me'yorlar shaxsning emosional holatini yomonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, psixik barqarorlikning ijtimoiy-psixologiya jihatlari shaxsning stressga chidamliligi va moslashuvchanligini ta'minlaydigan asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Guruh identifikasiyasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy o‘rganish va ijobiy psixologik iqlim shaxsning ichki resurslarini faollashtiradi. Shu bois, psixik barqarorlikni rivojlantirishda ijtimoiy muhit va guruh munosabatlarini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Чхартишвили Г.С. Стиль саморегулирования и его функции в произвольной деятельности человека // Стиль человека. М., 2009. – С.162;

2. Конопкин О.А. Структурно-функциональный и содержательно-психологический аспекты осознанной саморегуляции // Психология. Журнал высшей школы. М. 2005. – С. 27;

3. Rotter G. V. Generalized expectations for internal versus external control of reinforcement // Psychol. Monogr. (reprint) Kerch. 2009. – PP. 276;

4. Бродченко О.И., Акентьев П.В. Развитие психологических профессионально важных качеств сотрудников оперативных подразделений ОВД как средство повышения эффективности раскрытия преступлений: Методическое пособие. М.: ВНИИ МВД России, 2003. С. 92;

5. Буканов Ф.Ф. Квалиметрия профессиональных знаний /Ф.Ф.Буканов, А.Н.Меркушев, Е.В.Погорелова. Самара, 1996. – С.99;

6. Бурлачук Л.Ф. Словарь-справочник по психодиагностике. СПб: «Питер», 2007. С. 688.

HARBIY XIZMATCHILAR KASBIY FAOLIYATI JARAYONIDA KASBIY STRESS HOLATINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA QIYOSIY TAHLILI

Toshxo'jayev Mavlon Kamilovich

Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan kasbiy stress holatlarini psixologik tadqiqotlardagi qiyosiy yondashuvlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tahlil natijalariga ko'ra, kasbiy stressning og'irligi va profili operatsion talablar, resurslar muvozanati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: harbiy kasbiy stress, operatsion stress, koping strategiyalari, harbiy xizmatchi.

Harbiy kasbiy stress odatiy "ishdagi charchoq"dan tubdan farq qiladi: u yuqori xavf, noaniqlik, tezkor qaror qabul qilish talabi va axloqiy mas'uliyatning yuksak bosimi bilan ajralib turadi. Psixologik tadqiqotlarda stress odatda ikki qatlamda ko'riladi: (1) operatsion stress — bevosita xavf, jangovar sharoit, yo'qotish va axloqiy dilemmalar bosimi; (2) tashkiliy-ijtimoiy stress — byurokratik yuklama, resurslar tanqisligi, rollar ziddiyati, adolat hissining buzilishi va uy- xizmat muvozanatining buzilishi. Qiyosiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, jangovar topshiriqlardagi qisqa, lekin o'ta intensiv stress to'lqinlari ko'proq akut reaktivlik (yuqori qo'zg'aluvchanlik, giperarousal)ni keltirsa, uzoq muddatli garnizon xizmati yoki rotatsiyalararo davrda resurs yetishmovchiligi va ma'nodorliligi past faoliyat xronik allostatik yukni oshiradi. Shu bois kasbiy stressni "qisqa, lekin baland to'lqinlar" va "past, lekin uzluksiz fon"ning o'zaro o'ynashi sifatida tushuntirish samarali.

Xizmat turlari bo'yicha qiyosiy natijalar shuni ko'rsatadi: quruqlik qo'shinlari (ayniqsa, piyoda va zirhli qismlar) yuqori jismoniy xavf va old chiziqdagi yo'qotishlar tufayli travmatik stressga sezgir; havo kuchlarida situatsion xatoliklarning ma'naviy narxi yuqori (qarorlar millisekundlar ichida qabul qilinadi), lekin jismoniy xavf ko'pincha epizodik; dengiz kuchlarida uzoq ajralish, izolyatsiya va muhitning yopiqligi asosiy stressor; maxsus bo'linmalarda vazifalar yuqori xavfli, ammo seleksiya, trening

va birlik uyg‘unligining kuchliligi tufayli ko‘pincha psixologik himoya mexanizmlari samaraliroq; kiber bo‘linmalar va dron operatorlarida esa kognitiv yuklama, surunkali uyg‘oqlik va “uzoqdan ta’sir”ning axloqiy-emosional ambivalentligi (moral jarohat riski) ustun. Tinchlikparvarlik va gumanitar missiyalarda bevosita jangovar xavf pastroq bo‘lishi mumkin, biroq axloqiy stress (zo‘ravonlik izlari, fuqaroviy qurbonlar, cheklangan vakolatlar) kuchliroq bo‘ladi; bu holatda aybdorlik va beqarorlik hissi keyinchalik o‘tkir reaktivlikdan ko‘ra ichki turg‘un keskinlikni kuchaytiradi.

Shaxs resurslari va koping uslublari qiyosiy farqlarni kuchli modulyatsiya qiladi. Psixologik bardoshlilik — majburiyat, nazorat va chaqiriqlarni o‘sish imkoniyati sifatida qabul qilish — operatsion stressni “ma’no va maqsad” bilan muvofiqlashtirib, reaktivlikni pasaytiradi. Ichki lokus nazorat, optimistik izoh uslubi, maqsadga yo‘naltirilgan koping va hissiy regulyatsiya (reappraisal, nafasni tartiblash, diqqatni qayta yo‘naltirish) samarali outcomes bilan bog‘liq. Aksincha, qochuvchi/inkor etuvchi koping, ruminatsiya, aleksitimiya va “hamma narsa nazoratimdan tashqarida” degan sxemalar depressiv va tajovuzkor reaksiyalarni ko‘paytiradi. Jinsiy farqlar bo‘yicha tadqiqotlar ko‘pincha ayollarda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan faol foydalanish yuqoriroq, biroq tashkilot ichidagi stereotiplar va xavfsizlikka oid mikro-stressorlar (masalan, jihozlarning moslashmaganligi, chegaralangan lavozimlar) ikkilamchi stress manbai bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-psixologik moderatorlar orasida birlik uyg‘unligi (kohesiya) va liderlik uslubi markaziy o‘rinda. Transformatsion liderlik (ma’no berish, adolat, ishonchli aloqa, psixologik xavfsizlik) stress—natija bog‘lanishida “tampon” vazifasini bajaradi; transaksion va jazoga yo‘naltirilgan uslub esa xatolikdan qo‘rquv, yashirish va yordam so‘rashga nisbatan stigma keltirib chiqaradi. Tashkiliy adolat va ish-hayot muvozanatini qo‘llab-quvvatlovchi siyosatlar, resurs—talablar muvozanatini boshqarish charchoq va kuyish (burnout)ni pasaytiradi.

Metodologik jihatdan kuchli tadqiqotlar multimetod yondashuvni qo‘llaydi: o‘lchovlar fiziologik indikatorlar, uyqu va faollikni aktigrafiya bilan baholash, hamda xulqiy ko‘rsatkichlar (xatoliklar, reaksiya vaqti). Ko‘p darajali modellar (xizmatchi birliklar ichida uyalangan), yashirin sinf/holat tahlillari (stress profillari), o‘sish chiziqlari (safarbarlik oldi—operatsiya—rotatsiyadan keyingi dinamikani) va

moderatsiya/mediatsiya (liderlik → kohesiya → stress natijalari) qiyosiy xulosalarni aniqroq qiladi. Transmadaniy tadqiqotlarda o‘lchovlarning invariantligini tekshirish zarur, aks holda guruhlararo solishtirishlar noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin.

Qiyosiy dalillar bir necha barqaror naqshlarni ko‘rsatadi: (a) seleksiya va intensiv tayyorgarlik tufayli maxsus bo‘linmalarda akut stress to‘lqinlari kuchli bo‘lsa-da, uzoq muddatli simptomlar ayrim bo‘linmalarga nisbatan pastroq; (b) dengiz va uzoq navbatchiliklarda izolyatsiya + uyqu muammolari psixologik salomatlikka teng kuchli zarba beradi; (c) kiber va dron operatsiyalarida mavhum xavf va axloqiy masofa stressni boshqacha — ichki ambivalensiya va kechikkan aybdorlik tajribasi sifatida — namoyon qiladi; (d) tinchlikparvarlikda moral jarohat va “vakolat cheklanishi”ga doir frustratsiya asosiy triggerlardan; (e) ofitserlarda tashkiliy mas’uliyat va qaror og‘irligi yuqori, safarbar xodimlarda esa bevosita xavf va resurs cheklovi ko‘proq; (f) oilaviy qo‘llab-quvvatlash va rotatsiyalar oralig‘idagi “dwell time” yetarliligi qayta moslashuv sifatini belgilovchi muhim omil.

Amaliy jihatdan, samarali profilaktika va korreksiya ko‘p darajali bo‘lishi kerak. Birlamchi darajada — ish dizayni, uyqu gigiyenasi, navbatchilikni ilmiy asosda rejalash, missiya maqsadini aniq va ma’noli talqin qilish, yetarli resurslar. Ikkinchi darajada — stress inokulyatsiya treninglari, taktika nafas olish, muammo yechish va ijtimoiy ko‘nikmalar; liderlik va kohesiya bo‘yicha maqsadli treninglar. Uchinchi darajada — simptomga yo‘naltirilgan qisqa psixoterapiya, maxfiy va stigma-past yo‘laklar orqali xizmatlar ko‘rsatish. O‘lchovga asoslangan parvarish — qisqa skrininglar — kuchli natija beradi. Nihoyat, axloqiy dilemmalar uchun maxsus moral jarohat protokollari (ma’no berish, kechirim va qadriyatlar bilan qayta bog‘lanish) zarur.

Xulosa qilib aytganda, harbiy kasbiy stress bir-birini kuchaytiruvchi bioloji, kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarning murakkab tizimidir; qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, stressning shakli va oqibati xizmat turi, operatsion kontekst, liderlik sifati va shaxs resurslari kesishgan joyda belgilanadi. Ilmiy va amaliy natijalarni birlashtirgan holda, eng samarali strategiya — talab-resurs muvozanatini tizimli boshqarish, liderlik va birlik uyg‘unligini kuchaytirish, uyqu va tiklanishni markazga qo‘yish, psixologik ko‘nikmalarni muntazam mashq qilish va maxfiy, stigma-past yordam yo‘laklarini ta’minlashdir.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Bartone, P. T., Johnsen, B. H., Eid, J., Brun, W., & Laberg, J. C. (2002). Factors influencing small-unit cohesion in Norwegian Navy officer cadets. *Military Psychology*, 14(1), 1–22.
2. Morgan, C. A., Hazlett, G., Wang, S., Richardson, E. G., Schnurr, P., & Southwick, S. M. (2001). Symptoms of dissociation in humans experiencing acute, uncontrollable stress: A prospective investigation. *American Journal of Psychiatry*, 158(8), 1239–1247.
3. Лебедев, В. И., & Киселёв, С. Г. (2018). Психологические механизмы стрессоустойчивости военнослужащих в экстремальных условиях деятельности. *Военная мысль*, (6), 56–63.
4. Adler, A. B., Bliese, P. D., McGurk, D., Hoge, C. W., & Castro, C. A. (2009). Battlemind debriefing and battlemind training as early interventions with soldiers returning from Iraq: Randomization by platoon. *Journal of Consulting and Clinical Psychology*, 77(5), 928–940.

YOSH OILALARDA AJRIMLAR VA KELISHMOVCHILIKLARNING PSIXOLOGIK OMILLARI HAMDA PROFAYLER AMALIYOTIDA XULQ-ATVOR TAHLILI

Rahimova Indira Igorevna
PhD, dotsent
Ahmedov Bunyodjon Abdusamad o‘g‘li
University of Business and Science
Pedagogika va psixologiya yo’nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh oilalarda ajrimlar va kelishmovchiliklarning psixologik omillari profayling nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Oilaviy nizolar, kommunikatsiya muammolari, stress, shaxsiy va ijtimoiy omillar oilaviy barqarorlikka xavf tug‘diruvchi xulq-atvoriy belgilarning manbai sifatida ko‘riladi. Profayler amaliyotida ushbu omillar shaxsning psixologik portretini tuzishda, xatti-harakatlarni prognoz qilishda va oilaviy nizolarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari yosh oilalarda ajrimlarning oldini olish, xavfni baholash va psixologik profilaktika choralarini ishlab chiqishda qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: profayling, yosh oilalar, ajrim, psixologik omillar, xavf baholash, kommunikatsiya, stress, xulq-atvor tahlili.

Zamonaviy jamiyatda oilaning barqarorligi ijtimoiy xavfsizlikning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda yosh oilalar o‘rtasida ajrimlar sonining ortishi nafaqat psixologik, balki ijtimoiy xavf omiliga aylangan. Ajrimlar ortida kommunikatsiya muammolari, emotsional beqarorlik, iqtisodiy bosim va qadriyatlar to‘qnashuvi kabi psixologik sabablar mavjud. Profayler amaliyotida bunday omillar shaxs va juftliklarning xulq-atvori, xavfli vaziyatlarga moyilligi va konfliktlarni kuchaytiruvchi psixologik belgilarni aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yosh oilalarda ajrimlarning psixologik ildizlarini o‘rganish profayling nazariyasi va amaliyotida dolzarb masalalardan biridir.

Oilaviy munosabatlarda samarali kommunikatsiyaning yo‘qligi kelishmovchiliklarning asosiy manbalaridan biridir. Profayler amaliyotida noto‘g‘ri muloqot, doimiy tanqid, e’tiborsizlik yoki tajovuzkor xatti-harakatlar shaxsning konfliktlarga moyilligini bildiruvchi diagnostik belgilardan hisoblanadi. J. Gottman tadqiqotlariga ko‘ra, ochiq muloqot va empatiya oilaviy barqarorlikning muhim komponenti hisoblanadi [1]. Shu sababli, profayler oilaviy muloqotdagi disfunktsional belgilar orqali ajrim xavfini oldindan baholashi mumkin.

Yosh oilalar iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy bosim va yangi mas’uliyatlar sababli yuqori stress fonida yashashadi. Stress ko‘pincha tajovuzkorlik, sovuqqonlik yoki chetlashish kabi xulq-atvoriy ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘ladi. R. Lazarus stressni boshqarish strategiyalarining oilaviy munosabatlarga ta’sirini chuqur o‘rganib, salbiy oqibatlarni kamaytirishda psixologik yordam zarurligini ta’kidlaydi [2]. Profayler uchun stressga beriluvchanlik — shaxsning mojaroli vaziyatlardagi xatti-harakatini prognoz qilishda muhim indikator hisoblanadi.

Juftliklarning shaxsiy xususiyatlari, qadriyatlari va ijtimoiy muhitlari oilaviy barqarorlikni belgilovchi asosiy omillardandir. Profaylingda shaxsning tarbiyasi, qadriyat tizimi va ijtimoiy ta’sir doirasi uning konfliktlarga moyilligini ko‘rsatadi. E. Fromm oilaviy munosabatlarda o‘ziga xoslik va o‘zaro hurmatning zarurligini ta’kidlaydi [3]. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat va tashqi aralashuv esa yosh oilalarning qaror qabul qilishiga bevosita ta’sir etuvchi xavf omillari sifatida profayler tomonidan inobatga olinadi.

Ajrimlar nafaqat er-xotin, balki ularning farzandlari va yaqinlari uchun ham salbiy oqibatlarga ega. Depressiya, ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar xavf darajasini oshiradi. Profayler amaliyotida bunday oqibatlarni oldindan baholash va ularning oldini olishga qaratilgan psixologik profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish muhimdir.

Yosh oilalarda ajrimlar va kelishmovchiliklarning psixologik ildizlari profayler amaliyotida xavf belgilari sifatida o‘rganilishi zarur. Kommunikatsiya muammolari, stress, shaxsiy va ijtimoiy farqlar shaxsning xulq-atvor profilida muhim diagnostik omillarni tashkil qiladi. Ushbu omillarni tahlil qilish oilaviy ajrimlarning oldini olish,

xavfni baholash va ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashda samarali mexanizm bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gottman, J. M. (1999). *The Seven Principles for Making Marriage Work*. New York: Crown Publishers.
2. Lazarus, R. S. (1991). *Emotion and Adaptation*. Oxford: Oxford University Press.
3. Fromm, E. (1956). *The Art of Loving*. New York: Harper & Row.

HARBIY XIZMATCHI XOTIN-QIZLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA XALQ OG‘IZAKI IJODINING O‘RNI

Paxratdinova Aruxan Kerimberdiyevna

Jamoat xavfsizligi universiteti “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi xodimi, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Kalit so‘zlar: *harbiy xizmatchi xotin-qizlar, kasbiy faoliyat, kitoblar, xalq og‘izaki ijodi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.*

Annotatsiya: *Maqolada harbiy xizmatchi xotin-qizlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq og‘izaki ijodining o‘rni haqida fikr yuritilgan.*

Qaysi bir davrni olib qaramaylik, insoniyatning rivojlanishida kitoblarning o‘rni alohida. Kitob – ruhiy xazina, sirli olam, ta’lim va tarbiya negizidir. Dunyo ilm-fani rivojiga hissa qo‘shgan bobokalonlarimiz ham kitoblarni o‘qish, ilm o‘rganish orqali buyuk tamaddun rivojiga munosib hissa qo‘shgan. Kitob haqida donishmand xalqimiz tomonidan quyidagicha maqollar yaratilgan:

Kitobga do‘st bo‘lgan odam, Aqlga do‘st bo‘ladi [1].

Kitobsiz uy, ko‘zsiz odamga o‘xshaydi [1].

Kitob bilim bulog‘i,

Bilim umr chirog‘i [1].

Kitoblarni o‘qish orqali ongimiz rivojlanib, dunyo qarashlarimiz kengayadi. Davlatimiz tomonidan yosh avlodning ta’lim-tarbiyali bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlar orasida ayniqsa, xotin-qizlarning bilimli bo‘lishiga diqqat qaratilmoqda. Yurtimizda xotin-qizlar uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o‘tgan yillar davomida “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida:

- Bugungi kunda xotin-qizlarimizning davlat boshqaruvidagi ulushi 35, tadbirkorlik sohasida 45, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetdi;
- 2020-2024-yillarda ehtiyojmand 8653 nafar xotin-qiz oliy ta’lim muassasalariga qo‘simcha grand asosida o‘qishga qabul qilindi;

- Magistratura bosqichida tahsil olayotgan 24 ming talabaning 60 foizi yoki 17 mingdan ziyodi xotin-qizlardir. Bu ko‘rsatgich 2018-yildagiga nisbatan 3,8 barobar ortgan;
- 2021-2024-yillarda 6 mingga yaqin talaba qizlarning shartnoma to‘lovlari mahalliy byudjet mablag‘i hisobidan qoplanadi;
- o‘tgan yilda qariyb 890 ming nafar xotin-qizlar bandligini ta’minlashga ko‘maklashildi.
- Ayollar daftariga kiritilgan xotin-qizlarning qariyb 995,5 ming nafariga yordam berildi [2].

Davlatimizda faol xotin-qizlarimiz barcha sohalarda iqtidorlarini namoyon qilmoqda. Erkin kasb tanlab, faoliyat yuritishmoqda. Bugungi kunda Milliy gvardiya saflarida harbiy xizmatchi ayollar faoliyat yuritmoqda. Ularning kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish maqsadida, kitobxonlik tanlovlarini o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Kitobxonlik tanlovlarini o‘tkazish harbiy xizmatchi ayollarning bilimlarini mustahkamlab boradi.

Milliy gvardiya saflaridagi harbiy xizmatchi ayollarning kitobxonlik madaniyati oshib borar ekan, ularning bilim darajasi ham kengayadi. Ma’lumki, xotin-qizlarning harbiylik kasbi bilan shug‘ullanishida kitoblarning o‘rni alohida. Xalq dostonlariga yuzlanar ekanmiz, “Alpomish dostoni”dagi Gulbarchin obrazi, “Qirq qiz dostoni”dagi Guloyim, Sarvinoz obrazlarini keltirishimiz mumkin. O‘zida qahramonlikni mujassam etgan “Alpomish dostoni”dagi Gulbarchin obrazi vafodorlik, sodiqlik timsoli hisoblanadi.

Qoraqalpoq xalq dostoni “Qirq qiz dostoni” mazmun jihatdan qahramonlik doston hisoblanadi. Dostonda voqealar Olloyor boy ismli kishining oilasidan boshlanadi. Olti nafar o‘g‘li bo‘lishiga qaramasdan, Olloyor boyning yolg‘iz qizi Guloyim erkaklarday mart, jasur bo‘lib o‘sadi. Ayollarga xos muloyimlik o‘rniga, erkaklarga xos mardlik, jasurlik sifatlarini o‘zida mujassam qiladi. Otasidan ruxsat olib, “Mevali” qo‘rg‘onida mashg‘ulotlar shug‘ullanib yurgan paytida qalmoq elidan dushmanlar bostirib kelib, tinch yashayotgan xalqni vayron qiladi. Voqealarni eshitgan Guloyim yurt tinchligi uchun kurashadi. Bu yo‘lda unga Arslon botir ham yordam beradi. Guloyim qiz sevgi muhabbatdan ko‘ra, menga yurt tinchligi muhimdir – deb,

yovni birgalikda yakson qiladi. Yurt tinchligi uchun jonini garovga tikgan botirlar murod-maqsadiga yetadi.

Xotin-qizalrning mardligini o‘zida mujassam etgan “Tumaris afsonasi” ham barcha xotin-qizlarda g‘urur tuyg‘usini paydo qiladi. Saklar malikasi Turmaris Kir II ning hiylasiga uchmasdan, dushmanga qarshi kurashadi. Ular o‘rtasidagi jang haqida tarix otasi Gerodot tarixda bunday ayanchli jang hali bo‘lmagan deb ta’kidlab o‘tgan.

Badiy asarlar, xalq og‘izaki ijodi namunalari, dostanlar harbiy xizmatchi xotin-qizlarning dunyo qarashini kengaytirib, vatanparvarlik ruhining yanada yuksalishiga sabab bo‘ladi. Jangovar ruhi yo‘qori bo‘lgan harbiy xizmatchi ayollar xizmat faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarni bartaraf etishga qodir bo‘ladi. Harbiy xizmatchi ayollarning kitobga bo‘lgan mehr-muhabbatini oshirish, kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish maqsadi da quyidagi takliflarni bildirib o‘tishni o‘rinli deb hisoblayman:

Birinchidan, harbiy xizmatchi ayollar o‘rtasida kitobxonlik kechalarini tashkil etish;

Ikkinchidan, Respublika miqyosida harbiy xizmatchi xotin-qizlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovini o‘tkazish;

Uchinchidan, yozuvchi va shoirlar, adiblar ishtirokida uchrashuvlar tashkil etish, kelajakda o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www.statuslar.uz/kitob-haqida-statuslar/
2. Xalq so‘zi gazetasi // 2025-yil 7-mart № 47 (8942); bet-4.
3. Q.Járimbetov, J.Nizamatdinov, I.Allambergenova., “Qaraqalpaq folkloрı”., Tashkent - 2018. 256-bet.
4. Qaraqalpaq folkloрı 1-2-tomlar., Nókis “Qaraqalpaqstan”., 1977.
5. Qaraqalpaq folkloрı 4-tom., Nókis “Qaraqalpaqstan”., 1978.

HISSIYOTLARNING INSON RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Olimova Maxfuza Bobir qizi

University of Business and Science
Toshkent filiali o‘qituvchisi
Tel: 97.735-09-10
E-pochta: olimovamahfuza95@gmail.com

Bizning hayotimizda his-tuyg'ular muhim ahamiyatga ega. De Sousa shunday deb yozgan edi: "Bizning ruhiy hayotimizning hech bir jihati bizning mavjudligimiz sifati va ma'nosi uchun hissiyotlardan muhimroq emas". Bu tegishlilikni Aristotel allaqachon tan olgan. Spinoza, Xobbs, Dekart va Yum kabi taniqli faylasuflarning kitoblarida hissiyotlar haqida yozgan [1].

Ko'pgina faylasuflarning fikriga ko'ra, bizning axloqiy hukmlarimizda his-tuyg'ular juda muhim rol o'ynashini anglaganimizda, his-tuyg'ularning ahamiyati yanada oydinlashadi. Prinz (2007) "Axloqning hissiy qurilishi" asarida buni keng muhokama qiladi va hissiyotlar axloqiy xususiyatlar va axloqiy tushunchalar uchun zarur ekanligini juda ishonchli qiladi. Agar his-tuyg'ular bizning hayotimiz va axloqiy mulohazalar uchun haqiqatan ham hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblasak, his-tuyg'u nima ekanligini o'rganish muhimdir.

"Tuyg'ular-bu ob'ekt yoki vaziyat bilan munosabatlarning o'ziga xosligini ifodalovchi qisqa muddatli affektiv holatlar, shuning uchun ular vaziyat xarakteriga ega" va hissiy soha, Rubinshteynning fikriga ko'ra , insonning uni o'rab turgan narsaga bo'lgan munosabatini idrok etishni tashkil qiladi. Ko'pincha hissiyotlar ijobiy, salbiy va neytral-sentimentalga bo'linadi. Tuyg'ular ob'ekt yoki vaziyat bilan o'ziga xos munosabatlarni o'zgartiradigan, qisqa muddatli ta'sirchan holatlar sifatida tavsiflanadi, shuning uchun ular situatsion xususiyatga ega va haqiqiy yoki xayoliy vaziyat bilan qo'zg'alishi mumkin [2].

Tuyg'ularni turli mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Ulardan biri universallikdir. Ekman quyidagilarni ajratadi:

- asosiy hissiyotlar. Bu tug'ma tuyg'ular bo'lib, ular qaysi madaniyatda o'sganligidan qat'i nazar, odamlar tomonidan boshdan kechiriladi va osongina tan olinadi: hayrat, baxt, g'azab, qo'rquv, jirkanish va qayg'u;

- ma'lum bir madaniyatda amaldagi ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish natijasida kelib chiqadigan ichki his-tuyg'ular, masalan, aybdorlik hissi yoki adolatsizlik hissi [3].

Hissiy jarayon uchta tarkibiy qismdan iborat: hissiy qo'zg'alish, hissiyotlar belgisi va ularning mazmuni yoki modalligi. Hissiy qo'zg'alish-bu o'sish yoki pasayish sifatida qabul qilingan tananing faollashuv darajasining o'zgarishi:

- jismoniy faollik,

- Idrok, xotira, diqqat va tafakkur kabi kognitiv jarayonlar,

- avtonom nerv tizimining faoliyati (simpatik va parasempatik qismlar),

Kuchli his-tuyg'ularga ega bo'lgan tajribalar xotirada uzoqroq va aniqroq qoladi va shu bilan tez va samarali o'rganishga yordam beradi. Tuyg'ular insonning xatti-harakatlarini doimiy ravishda aniqlashi mumkin. Hissiy shakllangan tajribalar kundalik hayotda yaxshiroq qaror qabul qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, ular muloqotni osonlashtirishga xizmat qiladi.

Jeyms-Lange hissiyotlar nazariyasi tanadagi jismoniy o'zgarishlar tegishli his-tuyg'ularni boshdan kechirishdan oldin sodir bo'lishini taklif qiladi. Asosan, his-tuyg'ular sizning jismoniy his-tuyg'ularingizni talqin qilishdan kelib chiqadi. Masalan, sizning g'azablangan yurak urishingiz sizni qo'rqayotganingizni anglashga olib keladi.

Saarni bolalar o'zlarining hissiy qobiliyatlarini ishlatganda yoki ijtimoiy o'zaro munosabatlarda o'z-o'zini samarali xatti-harakatlarini ko'rsatganda, hissiy jihatdan vakolatli xatti-harakatlar haqida gapiradi. Shunga ko'ra, ular o'zlarining his-tuyg'ularini ifodalash xatti-harakatlari orqali boshqa odamlarning reaktsiyalariga ta'sir qilishlari mumkinligini anglagan holda harakat qilishadi. Shuningdek, ular o'zlarining xatti-harakatlarini strategik nazorat qilish orqali kerakli reaktsiyalarni keltirib chiqarishni o'rgandilar. Ushbu kontseptsiya insonning hissiy qobiliyatlari yordamida ijtimoiy o'zaro ta'siridan oladigan foydalarga qaratilgan.

Petermann va Videbush "hissiy kompetentsiyani birinchi navbatda bolaning boshqalar bilan o'zaro munosabatda o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va boshqa odamning his-tuyg'ularini tan olish qobiliyati sifatida" tushunishadi.

Bolalar o'zlarining his-tuyg'ularidan xabardor bo'lish, his-tuyg'ularning og'zaki va yuz ifodasini rivojlantirish, his-tuyg'ularni bilish va tushunishni oshirish, muvaffaqiyatli hissiy o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish, boshqa odamlarda his-tuyg'ularni tan olish va tushunish orqali hissiy kompetentsiyaga ega bo'ladilar.

Petermann va Videbuschning fikricha hissiy kompetentsiyaning muhim komponenti hissiyotlarni tartibga solishdir. Tompson buni quyidagicha ta'riflaydi: "Hissiyotlarni tartibga solish insonning maqsadlariga erishish uchun hissiy reaktsiyalarni, ayniqsa ularning intensiv va vaqtinchalik xususiyatlarini kuzatish, baholash va o'zgartirish uchun mas'ul bo'lgan tashqi va ichki jarayonlardan iborat"dir.

Fridlmayerning so'zlariga ko'ra, hissiyotlarni tartibga solish hozirgi tajribali yoki yaqinlashib kelayotgan hissiyotning intensivligi, davomiyligi, ifoda usuli va sifatini tartibga solishdan iborat.

Saarni ichki his-tuyg'ularni tartibga solishni "insonning hissiy holatlarning o'z sub'ektiv tajribasini, shu jumladan ularning kechikishi, davomiyligi va intensivligini tartibga solish" deb tushunadi, "tashqi hissiyotlarni tartibga solish esa, ayniqsa, kommunikativ kontekstda hissiy holatni o'z ifodasini boshqarishni anglatadi".

Saarni birinchi navbatda hissiy rivojlanish bo'yicha empirik topilmalarga asoslangan va shuning uchun ularni to'liq deb hisoblamaslik kerak bo'lgan bir qator asosiy hissiy qobiliyatlarni taqdim etadi.

1. O'z hissiyotlaridan xabardor bo'lish qobiliyati. Bunga muayyan vaziyatlarda bir nechta qarama-qarshi hissiyotlarni idrok etish imkoniyati kiradi.
2. Vaziyatdan yoki odamlarning ekspressiv xulq-atvoridan kelib chiqadigan maslahatlarni dekodlash asosida boshqalarning his-tuyg'ularini idrok etish qobiliyati.
3. Tegishli madaniyatda keng tarqalgan hissiy lug'atni tushunish va undan foydalanish qobiliyati. Bundan tashqari, hissiy skriptlarni o'zlashtirish.
4. Empatiya qobiliyati.

5. Hissiy tajriba va hissiy ifoda xatti-harakatlari o'zida ham, boshqa odamlarda ham mos kelmasligini tan olish qobiliyati. Keyinchalik, o'zining hissiy ifodasi xatti-harakatlari boshqa odamlarga ta'sir qilishini bilish va o'zini namoyon qilishda buni hisobga olish.

6. Ushbu stimullarning intensivligi va davomiyligini kamaytirish uchun o'z-o'zini tartibga solish strategiyalaridan foydalangan holda salbiy his-tuyg'ular va stressli vaziyatlarni boshqarish qobiliyati.

7. Ijtimoiy munosabatlar his-tuyg'ularni bildirish yo'li bilan shakllantirilishini bilish qobiliyati. Shuningdek, hissiy ifoda xatti-harakatlarining to'g'ridan-to'g'ri yoki haqiqiyligi va ijtimoiy munosabatlardagi o'zaro munosabat darajasi.

8. Boshqa odamlardan kerakli reaktsiyalarni olish uchun o'z-o'zini samaradorligiga ega bo'lish qobiliyati.

Shunga ko'ra, Fridlmayer va Trommsdorff ma'lumotlariga ko'ra, hissiyotlarni tartibga solish ikkita muhim funktsiyaga ega. Bir tomondan, u o'z ehtiyojlarini inson va atrof-muhitning tegishli o'zaro ta'siri orqali qondirishi kerak, boshqa tomondan, u o'zining hissiy holatini tartibga solishi kerak.

1998-yilda paydo bo‘lgan hissiy kompetentsiya tushunchasi Denham tomonidan yaratilgan. U hissiy kompetentsiyaning uchta komponentini tavsiflaydi: his-tuyg'ularni ifodalash, his-tuyg'ularni tushunish va hissiyotlarni boshqarish.

Tuyg'u ifodasi:

- Imo-ishoralarda og'zaki bo'lmagan hissiy xabarlarni ifodalashi mumkin.

- Boshqalarning his-tuyg'ulariga hamdard bo'la olish.

- Murakkab o'z-o'ziga bog'liq, ijtimoiy tuyg'ularni (ayb, mag'rurlik, uyat va nafrat) ko'rsatishi mumkin.

- Hissiy tajriba va hissiy ifodani ajratish orqali ijtimoiy muhit tomonidan rad etilgan his-tuyg'ularni boshqarishi mumkin.

Tuyg'ularni tushunish:

- O'zi boshdan kechirgan his-tuyg'ularni ajrata olish.

- Boshqa odamlardagi hissiyotlarni ajrata olish.

- Emotsional muloqotda tegishli tuyg‘u lug‘atidan foydalana olish.

Tuyg'ularni tartibga solish:

- Salbiy his-tuyg'ularni bartaraf eta olish.

- Ijobiy his-tuyg‘ularni bartaraf eta olish.

- Tuyg‘ularni bilish va ifodalashni strategik tartibga sola olish [4].

Muallifning ta'kidlashicha, barcha uch komponent optimal ishlashi uchun integral tarzda birgalikda ishlashi kerak. Komponentlar alohida taqdim etilgan bo'lsa-da, his-tuyg'ularni ifodalash, his-tuyg'ularni tushunish va hissiyotlarni tartibga solish o'rtasida hali ham yuqori o'zaro bog'liqlik mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ruud Kleyweg // Emotietheorieën//Erasmus Student Journal of Philosophy
2. Goleman, D. Emoții vindecătoare. Dialoguri cu Dalai Lama despre rațiune, emoții și sănătate. București: Curtea Veche, 2008, 304 p. ISBN 9789736695568
3. **Dowkins, I. (2015).** Family dynamics and volitional development in low-income households: Understanding the influence of parental behavior. *Journal of Family Psychology*, *29*(1), 35-49.
4. Dealing with feelings: how children negotiate the worlds of emotions and social relationships. Cognitive, Creier, comportament / Cognition, Brain, Behavior 2007 Romanian Association for Cognitive Science. ISSN: 1224-8398

Profayler kasbi parasportchilar timsolida: shaxs xususiyatlari, ruhiy kuch va ijtimoiy integratsiyaning yangi yo‘li

Kasimova Zilola Olimjon qizi
University of business and science o‘qituvchisi
+998998653833 zilola.kasimova.94@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada profayler kasbining asosiy shaxsiy va psixologik xususiyatlari, ruhiy kuchi hamda ijtimoiy integratsiyadagi roli tahlil qilinadi. Parasportchilar misolida, nogironligi bo‘lgan shaxslarning tug‘ma va sport faoliyati davomida orttirilgan mustahkam iroda, maqsad sari intiluvchanlik, sezgirlik, yuqori motivatsiya, stressga chidamlilik va empatiya kabi ruhiy salohiyatlari profaylerlik faoliyatida qanday samarali qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, parasportchilarning ijtimoiy integratsiyasi va kasbiy reabilitatsiyasi kontekstida profaylerlik kasbi yangi imkoniyat sifatida tahlil qilinadi. Ishda zamonaviy psixologiya, sport psixologiyasi hamda kriminologiya tadqiqotlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Profayler, jinoiy xulq-atvor, xavfni baholash, parasportchilar, kasbiy reabilitatsiya, psixologik tayyorgarlik, shaxs xususiyatlari, stressga chidamlilik, ijtimoiy integratsiya, kasbga xos xususiyatlar.

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab 1,3 milliard ya’ni dunyo aholisining 16 % turli xil nogironlikdan aziyat chekmoqda. Nogironligi bo‘lgan insonlarni jamiyatdagi integratsiyasi uchun davlatlar yangi imkoniyatlar va sharoitlar joriy qilmoqda. Jumladan yurtimizda ham bugungi kunda nogironligi bo‘lgan insonlarni ruhiy, ma’naviy, jismoniy jihatdan qo‘llab quvvatlash uchun zaruriy chora tadbirlar ko‘rilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yildagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslar haqidagi” qonuni bo‘lib, unda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari kafolatlanishi, ularning ijtimoiy himoyasi ta’minlanishi, jamiyatda teng imkoniyatlarni yaratish haqida yozilgan. Qonun nogironligi bor insonlarni ta’lim olishi, ish bilan ta’minlanishi, sog‘liqni saqlashi va ijtimoiy himoya sohalaridagi huquqlarini belgilab beradi. 2020-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni yanada mustahkamlash chora-tadbirlari” to‘g‘risida qarorida 43-modda – nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga joylashtirish va ularning bandligini ta’minlash. Davlat nogironligi bo‘lgan shaxslarni

ishga joylashtirish va ularning bandligini ta’minlash, shuningdek mehnat bozorida ularning raqobatbardoshliligini oshirish maqsadida: nogironligi bo‘lgan shaxslarni kasbiy reabilitatsiya qilishni amalga oshiradi, ularni mehnatda kuzatib boradi, shuningdek nogironligi bo‘lgan shaxslarning mos keladigan ishga kirishini, saqlab qolinishini va xizmatda (ishda) lavozim bo‘yicha ko‘tarilishini ta’minlaydi[43]; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan nogironligi bo‘lgan insonlar uchun qulay muhit yaratish, infratuzilmani takomillashtirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida imtiyozlar taqdim etish yuzasidan qator farmoyishlar chiqarilgan. Mamlakat bo‘ylab jtimoiy himoya reabilitatsiya markazlari tashkil etilishi, sog‘liqni saqlash, kasbiy tayyorgarlik va ijtimoiy moslashuvni ta’minlash yo‘lga qo‘yilmoqda. Nogironligi bo‘lgan insonlarga mos ish o‘rinlari yaratish va ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Ta’lim tizimida inklyuziv dasturlar orqali maxsus va umumta’lim maktablarda ta’lim berilmoqda. Ijtimoiy himoya va moliyaviy yordam davlat tomonidan nafaqa, moddiy yordam hamda bir qancha imtiyozlar taqdim etib kelinmoqda.

1996 yildan beri ushbu sohada faoliyat olib boruvchi Turvey o‘z “Jinoyat profilini aniqlash: xatti-harakat dalillari tahliliga kirish” asarida bu kasbni shunday ta’riflaydi: jinoiy xulq – atvor tahlili va xavfini baholash jinoyatchilikka qarshi kurashishda muhim vositalardan bo‘lib hisoblanadi. Ushbu jarayonda profaylerlar shaxsning psixologik va xulq-atvoriy xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, ularning kelajakdagi xatti-harakatlari va xavfini baholaydilar. U o‘z asarida jinoiy profiling tarixiga e'tibor qaratilgan. Jinoiy xatti-harakatlar sodir etishda mas'ul bo‘lgan shaxslarning xususiyatlari haqida xulosa chiqarish odatda "jinoyat profili" deb ataladi. Jinoiy profiling huquqiy tarixga ega, uni Rimdagi yahudiylarning qoniga bo‘lgan belgilar qo‘yish bilan bog‘liq. So‘nggi 200 yil ichida jinoiy profilni aniqlash amaliyoti bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar keng doiradagi tergovchilar, xulq-atvor bo‘yicha olimlar, ijtimoiy olimlar va sud-tibbiyot olimlarini o‘z ichiga oldi. Amaliyot hech qachon bitta intizom yoki agentlikning viloyati bo‘lmagan. Zamonaviy jinoiy profillash, turli xil tarixga ega bo‘lganligi sababli, jinoyat va jinoiy xatti-harakatlarni o‘rganish, ruhiy salomatlik va kasalliklarni o‘rganish va ashyoviy dalillarni tekshirishga

[43] https://lex.uz/acts/-5049511

asoslangan. Ko‘p shakllarda u har doim tergov va sud maqsadlari uchun jinoiy belgilarning xulosasini o‘z ichiga olgan. Biroq, bu xulosalar ortidagi sabablar har doim ham izchil bo‘lmagan. U statistik dalillarga asoslanib, o‘ziga xos jinoiy xatti-harakatlarni tekshirish va shaxsiy e'tiqod va tajribaga asoslangan sub'ektiv, intuitiv fikrlarni bayon etgan. [44]

Daglas va Olshakerning o‘z asarlarida profaylerlik kasbida yuqori malaka, stressga chidamlilik va ruhiy barqarorlik talab qilishini asoslaydilar. U asosiy jinoyatlar - qotillik, o‘t qo‘yish, jinsiy zo‘ravonlik va o‘limga olib kelmaydigan xatti-harakatlarning aybdorlari va qurbonlarining tanqidiy xususiyatlarini jinoyatchining motivatsiyasiga qarab tasniflaydi. Ikkinchi nashrda kompyuter jinoyatlari, diniy-ekstremistik qotillik va keksa ayollarning jinsiy qotilligi bo‘yicha yangi tasniflar mavjud. Shuningdek, bolalarni ta'qib qilish va o‘g‘irlash, biologik vositalardan qurol sifatida foydalanish, kiberjinoyatlar, Internetda bolalarni jinsiy aloqada bo‘lgan jinoyatchilar, o‘g‘irlik va zo‘rlash va qotillik bilan zaharlanish haqida yangi ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, ko‘plab amaliy tadqiqotlar va jinoyatlar statistikasi yangilandi. Jinoyatchining asosiy niyatidan kelib chiqqan holda, Jinoyatni tasniflash bo‘yicha qo‘llanma jinoyatning mohiyatini va bunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni tushunishga olib keladi. Bu huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, ruhiy salomatlik bo‘yicha mutaxassislar, sud-tibbiyot olimlari yoki ishi ularni jinoyatchi yoki zo‘ravonlik jinoyati qurboni bilan aloqada qiladigan har qanday kishi uchun ajralmas ma'lumotnoma sifatida baholanadi.[45]

R.Ressler, A.Burgess, va J. Daglaslarning Jinsiy qotillik: turlari va motivlar nomli kitobida profaylerlarning faoliyati orqali jinoyatchilikning kamaytirishga, tergov samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlashgan. Ularning bu kitobi bo‘lajak profaylerlar uchun qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Federal Qidiruv Byurosining xulq-atvor fanlari bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan muhim va nufuzli tadqiqot seriyali jinsiy qotil dunyosini miqdoriy va sifat jihatidan ochib beradi va qotil, uning qurbonlari va ularning oilalari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab mutaxassislar va siyosatchilar uchun

[44] Turvey, B. E. (2011). Criminal Profiling: An Introduction to Behavioral Evidence Analysis. Academic Press.
[45] Douglas, J. E., Burgess, A. W., Burgess, A. G., & Ressler, R. K. (Eds.). (2006). *Crime classification manual: A standard system of investigating and classifying violent crimes* (2nd ed.). Jossey-Bass/Wiley.

juda ko‘p qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu ish hozirgi kunga qadar tadqiqot maqsadida intervyu qilingan jinsiy qotillarning eng katta yig‘ilgan namunalaridan biri hisoblanadi. Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan agentlar o‘ttiz olti mahkum, qamoqqa olingan jinsiy qotillar bilan keng suhbat o‘tkazdilar, shu bilan birga rasmiy hujjatlardan, jumladan, psixiatrik, jinoiy va qamoqxona yozuvlari, sud stenogrammalari va boshqa ko‘plab manbalardan qo‘shimcha ma'lumotlar to‘plandi. Ko‘pincha huquqbuzarning o‘z so‘zidan foydalanib, mualliflar qotilning fikri, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini, uning jinoiy xatti-harakatlarini sodir etishi, unga munosabat bildirishi va eslashi bilan ifodalaydi.[46]

Parasportchilarning profaylerlik faoliyatida qanday namoyon bo‘lishi bahsli mavzu hisoblanadi. Biroq, sport faoliyatida faoliyat olib boradigan insonlarda profaylerlarga xos bir qancha shaxs xususiyatlari mustahkamlanadi va shakllandi. Nogironligi bo‘lgan insonlar jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun maqsad sari intiluvchanlik, chidamlilik, mustahkam iroda, yuqori motivatsiya, sezgirlik, tahliliy fikrlashning o‘sishi kabi bir qancha xususiyatlarni o‘zida namoyon qiladi.

Sport – nafaqat nogironligi bo‘lgan insonlar uchun balki sog‘lom insonlar uchun ham murakkab va davomiylikni, ruhiy hamda jismoniy faollikni va barqarorlikni talab qiladigan faoliyat hisoblanadi. Sport bilan shug‘ullanish muddati ham turli muddatni o‘z ichiga olishi mumkin. Parasportchilar orasida kelajakda boshqa kasbda o‘zini namoyon qilishni istagidagi sportchilar ham topiladi. Profaylerlik kasbi esa, ushbu kasb parametrlariga mos keladigan shaxs xususiyatlarini o‘zida jamlagan nogironligi bor insonlar uchun munosib kasb bo‘lishi ehtimoli mavjud. Quyida parasportchilarga xos psixologik xususiyatlarni ko‘rib chiqamiz. Paraaportchilarda ko‘plab psixologik va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengib o‘tishda tajriba boy bo‘lib, ularning sportdagi muvaffaqiyatli kuchli ichki motivatsiya, qat’iyat va stressga chidamlilikni talab qiladi.[47]

[46] Ressler, R. K., Burgess, A. W., & Douglas, J. E. (1988). *Sexual homicide: Patterns and motives.* Lexington Books/D. C. Heath and Com.
[47] Martin, J. J. (2013). Psychological aspects of disability sport. *International Review of Sport and Exercise Psychology*, 6(1), 136-148.

Hutzler va Bergman tadqiqotlariga ko‘ra parasportchilar ko‘pincha empatiya va ijtimoiy sezgirlikka ega bo‘lib, bu profaylerlik uchun muhim sanaladigan xususiyatlardan hisoblanadi.[48]

A. Couts, P. Rebarn tadqiqotlarida parasportchilarda o‘z hissiyotini boshqarishda va stressli vaziyatlarga moslashuvchanlikda yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan [49]

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bayoniga ko‘ra nogironligi bo‘lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish jarayonida yangi kasb va faoliyat yo‘nalishlariga tayyorlash muhim ijtimoiy vazifa sifatida belgilanadi. Parasportchilarning kasbiy tayyorgarligida psixologiya, xavfni baholash va kriminologiya sohalarining o‘rganilishi ularning ijtimoiy integratsiyasini mustahkamlashga yordam beradi. Rivojlangan mamlakatlarda parasportchilar uchun maxsus tayyorlov dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda sportdan keying faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga e’tibor qaratiladi. Ushbu dasturlarni o‘rganish, mahalliylashtirish hamda yurtimizdagi parasportchilarga qo‘llash parasportchilarda psixologik tayyorgarlik va amaliy treninglarni orqali o‘zlari qiziqqan hamda qobiliyati bor bo‘lgan turli kasblarga jumladan, profaylerlik kasbiga tayyorlash uchun asos bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Jinoiy xulq-atvor tahlili va xavfini baholashda profaylerlar amaliyoti jinoyatga qarshi kurashning samarali vosita hisoblanadi. Parasportchi orasida profaylerlik kasbiga mos shaxs xususiyatlarini o‘zida jamlagan sportchilarning ruhiy bardoshlilik, empatiya va kuchli ichki motivatsiya ega bo‘lishlari ularni profaylerlik kasbida muvaffaqiyatga olib chiqishi mumkin. Ularda kasbiy reabilitatsiya va maxsus tayyorgarlik orqali profaylerlik faoliyatiga yo‘naltirish nafaqat ularning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlash, balki jinoyatchilikni oldini olish hamda qarshi kurarishda ham yangi mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turvey, B. E. (2011). Criminal Profiling: An Introduction to Behavioral Evidence Analysis. Academic Press.

[48] Hutzler, Y., & Bergman, U. (2011). Empathy and social sensitivity in athletes with disabilities. *Adapted Physical Activity Quarterly*, 28(3), 267-283.
[49] Coutts, A., Reaburn, P., & Abt, G. (2010). Psychological attributes of elite athletes with disabilities. *Journal of Sports Sciences*, 28(11), 1233-1243.

2. Douglas, J. E., Burgess, A. W., Burgess, A. G., & Ressler, R. K. (Eds.). (2006). *Crime classification manual: A standard system of investigating and classifying violent crimes* (2nd ed.). Jossey-Bass/Wiley.
3. Ressler, R. K., Burgess, A. W., & Douglas, J. E. (1988). *Sexual homicide: Patterns and motives.* Lexington Books/D. C. Heath and Com
4. Martin, J. J. (2013). Psychological aspects of disability sport. *International Review of Sport and Exercise Psychology*, 6(1), 136-148.
5. Hutzler, Y., & Bergman, U. (2011). Empathy and social sensitivity in athletes with disabilities. *Adapted Physical Activity Quarterly*, 28(3), 267-283.
6. Coutts, A., Reaburn, P., & Abt, G. (2010). Psychological attributes of elite athletes with disabilities. *Journal of Sports Sciences*, 28(11), 1233-1243.
7. https://lex.uz/acts/-5049511

САМОРЕГУЛЯЦИЯ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В УСЛОВИЯХ ПОЛИКУЛЬТУРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ: ВОЗМОЖНОСТИ ПРОФАЙЛИНГА

Киёмхужаева Мадина Рустамбек кизы

Преподаватель кафедры «Воспитательно-психологическое обеспечение служебной деятельности»

Университет общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические особенности адаптации семей военнослужащих в условиях военной реформы и нестабильной социально-экономической ситуации. Подчёркивается, что процесс адаптации осложняется наличием устоявшихся стереотипов гарнизонной жизни, снижением самооценки, тревожностью и неопределённостью жизненных перспектив. Особое внимание уделено применению профайлинга как современного инструмента диагностики и прогнозирования адаптационных трудностей. Показано, что интеграция профайлинговых технологий в практику психолого-педагогического сопровождения позволяет своевременно выявлять риски дезадаптации, разрабатывать индивидуализированные программы помощи и повышать уровень психосоциальной устойчивости членов семей военнослужащих.

Ключевые слова: адаптация, социально-психологическая адаптация, семьи военнослужащих, гарнизонная жизнь, психическая устойчивость, профайлинг, дезадаптация, психолого-педагогическое сопровождение, психологическая помощь.

Проблема «адаптации», на наш взгляд, является одной из фундаментальных и заслуживает наиболее пристального внимания со стороны психологической науки. Различные социальные изменения в обществе выдвигают новые требования к человеку. Человеку важно обладать не только навыками эффективного сосуществования с окружающей средой, но и умением реализовывать свой внутренний потенциал в ней.

В частности, В.П.Казначеев определяет адаптацию как процесс приспособления человека к условиям среды обитания, которую всё в большей мере создает он сам в результате преобразования природы, направленный на сохранение, развитие человека и достижение главной цели прогресса [1]. Каждый человек по-разному реагирует на изменения в своей деятельности и различные стрессоры. В этой связи особенно актуальным становится изучение различий социально-психологической адаптации военнослужащих с разным уровнем саморегуляции поведения. При этом эффективным инструментом научного анализа выступает профайлинг, позволяющий выявить индивидуальные особенности поведения, эмоциональные реакции и адаптационные стратегии личности.

Адаптация позволяет человеку удерживаться в современных условиях и даёт возможность развиваться. Однако многие люди оказываются неспособными «угнаться» за прогрессом и изменяющимися условиями жизнедеятельности. В военной психологии адаптация военнослужащих рассматривается как процесс достижения устойчивости психической сферы личности в изменившихся условиях военной службы.

Служба в армии резко меняет социальную среду, что придаёт процессу адаптации конфликтный и стрессогенный характер. Именно поэтому использование методов профайлинга (наблюдение, анализ поведенческих индикаторов, выявление скрытых напряжений) позволяет своевременно выявлять признаки дезадаптации и снижать риск психических срывов.

Отношение к военной службе традиционно опирается на моральные ценности (долг, честь, служение Родине). Но сегодня среди призывников всё чаще встречается прагматичное или даже негативное восприятие службы. В таких условиях профайлинг может выступать как инструмент диагностики мотивации и прогнозирования поведения военнослужащего, что особенно важно на начальном этапе службы.

Одной из ключевых сторон адаптации военнослужащих является установление новых устойчивых социальных контактов, вхождение в формальные и неформальные группы. Здесь профайлинг помогает анализировать процесс

межличностного взаимодействия и определять, какие модели поведения способствуют гармоничной интеграции, а какие — деструктивны. В психологии выделяются различные модели адаптации: гомеостатическая (поддержание равновесия), гедонистическая (возвращение к стабильному уровню счастья), прагматическая (ориентация на выгоду). Применение профайлинга позволяет выявить доминирующий тип адаптации у конкретного военнослужащего и выработать индивидуальные рекомендации для оптимизации его психологического состояния.

Специфика военной службы заключается в высокой стрессогенности: использование оружия, физические и психические перегрузки, напряжённые межличностные отношения. По данным Н.П.Татьянченко [2], адаптация военнослужащих имеет три уровня: социальный, социально-психологический и психологический. В каждый из этих уровней можно интегрировать профайлинг как практику оценки поведения, выявления скрытых эмоциональных реакций и прогнозирования дезадаптивных тенденций.

Таким образом, профайлинг в военной среде становится эффективным инструментом психологической диагностики и сопровождения военнослужащих. Он позволяет:

- своевременно выявлять признаки дезадаптации,
- прогнозировать поведенческие риски,
- разрабатывать адресные программы психологической саморегуляции и тренинговой подготовки,
- повышать эффективность социально-психологической адаптации в условиях поликультурного воинского коллектива.

Однако особенности идейной и профессиональной подготовки военных, а также стереотипы, сформированные в условиях гарнизонной жизни, нередко препятствуют формированию у семей военнослужащих доминантных установок на адаптацию к изменившимся условиям [3].

В социально-психологическом плане это выражается в деформации внутренней жизнеспособности, снижении самооценки, утрате идентичности, появлении дистресса, тревожности и неопределённости в понимании перспектив

будущего. Всё это способствует возникновению негативных установок и мотивов членов семей военнослужащих, что ещё более осложняет процесс их социальной адаптации. В данном контексте использование профайлинга позволяет выявлять скрытые стрессовые реакции, анализировать адаптационные трудности и прогнозировать возможные дезадаптивные проявления.

Следует отметить и дефицит теоретико-методологического обеспечения адаптационного процесса в условиях военной службы и проживания в военных городках. На практике также наблюдается несовершенство организационного и социально-психологического сопровождения семей военнослужащих. В этой связи всё более актуальными становятся поиск и внедрение эффективных средств и технологий социально-психологической адаптации. Применение методов профайлинга может служить продуктивным инструментом для диагностики, профилактики и преодоления адаптационных затруднений в семьях военнослужащих.

Одним из наиболее перспективных средств, позволяющих успешно решать проблемы социально-психологической адаптации, является психологическая помощь. Её многообразие, гибкость методологических подходов и широкий спектр методов делают её мобильным и восприимчивым к инновациям инструментом. Однако эффективность такой помощи существенно возрастает при интеграции профайлинговых технологий, позволяющих более точно учитывать индивидуальные особенности восприятия и реагирования членов семей военнослужащих.

Существует непосредственная взаимосвязь между состоянием здоровья членов семей военнослужащих, включая психическое, и успешностью их адаптации к изменяющимся условиям жизнедеятельности. Профайлинг в данном случае выступает как средство оценки уровня адаптированности, выявления рисков и прогнозирования дезадаптивного поведения. Это позволяет более целенаправленно оказывать психолого-педагогическую помощь и разрабатывать персонализированные программы сопровождения.

Таким образом, исследование степени социально-психологической адаптации семей военнослужащих к условиям гарнизонной жизни остаётся

актуальной задачей. Хорошо и в кратчайшие сроки адаптированный человек быстрее включается в новую социальную обстановку, успешнее решает жизненные задачи, оптимально использует свои ресурсы и проявляет устойчивость к стрессам. Включение профайлинговых технологий в практику сопровождения адаптационных процессов открывает новые возможности для повышения эффективности психологической помощи и укрепления психосоциальной устойчивости семей военнослужащих.

Подводя итог, подчеркнём: успешная адаптация военнослужащих невозможна без навыков психологической саморегуляции и адекватного управления своим поведением. Включение профайлинга в практику военной психологии открывает новые возможности для диагностики, коррекции и прогнозирования, делая процесс адаптации более управляемым и научно обоснованным.

Литература:

1. Казначеев В.П., Лозовой В.П. Некоторые медико-биологические вопросы адаптации человека // Медико-биологические проблемы адаптации населения в условиях Крайнего Севера. Новосибирск, 2014.

2. Татьянченко Н.П. Адаптация военнослужащих по призыву к условиям службы // Вестник Московского университета МВД России. 2012. № 7. С. 170-171.

3. Чихачёв М.В. Психологическая адаптация в исследованиях военных психологов // Сибирский педагогический журнал. 2013. № 3. С. 269-272.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ АНТИСОЦИАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ В МНОГОДЕТНЫХ СЕМЬЯХ

Янгибоева Дилдорахон Рахмон кизи

Преподаватель кафедры “Воспитательно-психологического обеспечения служебной деятельности” Университета общественной безопасности

Аннотация: Процесс социализации и воспитания индивида определяется системой отношений к различным сферам жизни: к труду, людям, родственникам, самому себе. Именно система ценностных ориентаций, интересов и эмоциональных предпочтений задаёт направление поведения личности. В то же время в криминогенной группе нередко фиксируется дисгармоничная система отношений, сопровождаемая противоречивостью и враждебностью, что связано с фрустрированными потребностями и разочарованиями в межличностных контактах.

Ключевые слова: многодетная семья, психологический климат, детско-родительские отношения, психология семьи, антисоциальное поведение.

Проблема многодетных семей рассматривается в научной литературе как фактор риска либо как ресурс защиты психического здоровья и развития ребёнка. Учитывая специфику экологических факторов в многодетных семьях, многие исследователи (Андреева Т.Н., Баландина Л.Л., Джандосова Ж.С., Думитрашку Т.А., Адлер А., Цзяо С., Нарчал Р., Вагнер М.) отмечают, что отдельные личностные и поведенческие характеристики детей зависят и от величины семьи. Существуют различия в ряде личностных особенностей между единственными детьми и детьми, имеющими сиблингов. Размер семьи и порядок рождения во многом определяют специфику развития ребёнка: дети из семей разного размера и с различным положением среди братьев и сестёр отличаются своими личностными качествами. Проблема личности ребёнка в многодетной семье преимущественно освещается в зарубежных исследованиях, тогда как в отечественной психологии она изучена недостаточно, что и определяет актуальность исследований, посвящённых особенностям психологического развития детей в многодетных семьях [1].

Особый интерес представляет изучение психологических предпосылок антисоциального поведения у лиц, воспитывавшихся в **многодетных семьях**, где специфика внутрисемейных взаимодействий, распределения родительского внимания и ресурсов может оказывать значительное влияние на личностное развитие ребёнка.

Анализ эмпирических данных позволяет выделить ряд закономерностей:

1. **Неравномерное распределение родительского внимания и эмоциональных ресурсов.** В многодетных семьях внимание родителей нередко рассредоточено, что ведёт к появлению у некоторых детей устойчивого чувства обделённости, недостатка заботы и эмоциональной поддержки. Это создаёт почву для формирования чувства отверженности и снижает уровень аффилятивной удовлетворённости.

2. **Повышенная конкуренция между сиблингами.** Большое количество братьев и сестёр усиливает соперничество за внимание и признание родителей. У части детей это способствует развитию настойчивости и стрессоустойчивости, однако у других формирует агрессивность, враждебность, конфликтность.

3. **Смещение воспитательных ролей.** Старшие дети в многодетных семьях часто вынуждены принимать на себя функции воспитателей и помощников родителям. При отсутствии адекватного эмоционального подкрепления это приводит к раннему чувству ответственности, сопряжённому с фрустрацией собственных потребностей и формированием либо гиперответственного, либо, напротив, протестного и антисоциального поведения.

4. **Социально-экономический фактор.** Многодетные семьи чаще сталкиваются с материальными трудностями, что формирует у детей опыт дефицита. Длительное неблагополучие может закреплять корыстные установки и представление о силовых или противоправных способах достижения материальных благ [2].

Ряд респондентов, воспитывавшихся в многодетных семьях, отмечают недостаток эмоционального контакта с отцом, реже – с матерью. При этом отцовская фигура, как источник авторитета и модели поведения, часто

представлена как эмоционально отстранённая. Вследствие этого у ребёнка формируется:

- заниженная самооценка;
- зависимость от внешнего одобрения;
- тревожность и неуверенность в межличностных отношениях;
- стремление компенсировать внутренние дефициты через агрессивные или девиантные формы поведения [3].

Таким образом, **эмоциональная депривация**, усиливаемая многодетным контекстом, выступает ключевым фактором формирования антисоциальной направленности личности.

Среди лиц, происходящих из многодетных семей, нередко отмечается:

- высокая конфликтность в детско-родительских и сиблинговых отношениях;
- обострённая чувствительность к ограничениям и запретам;
- агрессивная реакция на вмешательство в личные дела;
- фрустрация потребностей в признании и уважении.

Данные особенности подтверждают тезис о том, что антисоциальное поведение может рассматриваться как форма **самоутверждения и компенсации внутренней слабости**. Коррекционная работа с выходцами из многодетных семей, имеющими антисоциальные проявления, должна быть направлена на:

- формирование социальных и эмоциональных навыков самореализации;
- развитие конструктивных способов достижения признания и уважения;
- укрепление позитивной идентичности через акцент на сильных сторонах личности;
- восстановление утраченных аффилятивных связей посредством групповой и семейной психотерапии [4].



1-рисунок. Формирование антисоциального поведения в многодетных семьях

Формирование антисоциального поведения в многодетных семьях связано не столько с самим количеством детей, сколько с качеством внутрисемейных отношений, степенью эмоциональной вовлечённости родителей и распределением внимания между детьми. Недостаток эмоциональных связей, неравномерность воспитательного влияния и хроническая фрустрация потребностей ведут к закреплению тревожности, конфликтности и антисоциальных установок.

Следовательно, **ключевая задача профилактики** заключается в поддержке эмоциональной гармонии в многодетных семьях, формировании у родителей навыков равномерного распределения внимания и заботы, а также в создании условий для полноценной самореализации каждого ребёнка.

У детей из многодетных семей выражена склонность к консервативным идеям: признание доминирующей роли отца, активность в выполнении материнских поручений и стремление занимать лидерские позиции по отношению к младшим сиблингам. Всё это способствует формированию у них приверженности традициям, тенденции оправдывать устаревшие взгляды и, в определённой мере, стигматизации личностных характеристик в призматическом выражении.

У детей из малодетных семей, напротив, чаще фиксируется склонность к радикализму, то есть к готовности отказаться от устоявшихся традиций при сохранении нравственной приверженности ценностям. Для них более характерны независимость в суждениях, взглядах и поведении (U=4373; p=0,05).

Дети из многодетных семей демонстрируют своеобразную идентичность в поведении, проявляя в отношениях в большей степени нейтральность, что фактически выражается в поверхностном взаимодействии без элементов эмпатической инклюзии. Последствия таких взаимодействий и постоянное стремление к новым социальным контактам нередко приводят к формированию моделей поведения, не полностью соответствующих социальным нормам. Более того, в случаях, когда социальные нормы и санкции вступают в противоречие с личной мотивацией, у детей этого типа семей фиксируется дискретная пропорциональность в эмоционально-мотивационной сфере, что повышает вероятность их интроспективной зависимости от мнения окружающих (U=3490; p=0,01).

При анализе гендерных различий в проявлении личностных характеристик у детей из многодетных семей достоверные различия по большинству шкал использованной методики выявлены не были. Эта тенденция свидетельствует о том, что гендерный фактор не играет первостепенной роли в развитии, формировании и проявлении личностных качеств и поведенческих особенностей у детей из многодетных семей. Отсутствие значимых различий может также объясняться однородностью выборки по возрастным показателям и характеру деятельности испытуемых [6].

Литература:

1. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. - М.: 2007. - 230 с.

2. Андреев А.М. Девиантное поведение подростков и молодежи: причины, особенности и меры предупреждения // Вестник Российского государственного торгово-экономического университета. 2010. № 4. - С. 120-123.

3. Братусь Б.С. Нравственное сознание личности. - М.: 2006. - С. 110.

4. Голуб А.М. Формирование ценностных ориентаций молодежи в процессе досуговой деятельности // Социально-педагогическая работа. 2009. № 4. - С. 53-57.

5. Yangiboyeva D.R. Ko‘p bolali oila farzandlarining psixologik rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillar. Tamaddun nuri ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal. 2024 yil №3 son 316-320 b.

6. Yangiboyeva D.R. Ko‘p bolali oilalarda oilaviy hayotdan qoniqish darajasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar. Psixologiya jurnali 2024 yil №2 son 177-183 b.

PROFAYLING NAZARIY ASOSLARI PROFAYLING HAQIDA TUSHUNCHA VA QO‘LLASH USULLARI

Xudayberdiyeva Sevara Bohodir qizi
ISFT instituti “Psixologiya va pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi.
Telefon: +998901377780
Elektron pochta: xudoyberdiyevas@isft.uz

Annotatasiya: Ushbu maqolada profayling haqida tushuncha va uning turlari haqida yoritilgan bo‘lib profayling - bu psixologiyaning yangi yo‘nalishi bo‘lib, uni o‘rganish sohasi yolg‘onni maxsus qurilmalardan (yolg‘on detektori) ishlatmasdan aniqlash uchun og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan belgilarni tahlil qilish asosida odamlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib baholaydigan dastur.

Kalit so‘zlar: profayling, psixologiya verbal,yolg‘on, xatti-harakat, masus,vosita, detektor, baxolash.

Kirish Profayling Britaniyada paydo boldi. Bu so‘z ingliz tilidan “profillash yoki psixologik portretni chizish” deb tarjima qilingan. Profillash usullari birinchi marta 1888 yilda ingliz jarrohi Tomas Bond tomonidan seriyali qotil Jek Ripperning psixologik profilini tuzish uchun ishlatilgan. Profayling kriminalistika sohasida ishlab chiqilgan bo‘lib, jinoyat joyida qoldirilgan dalillar asosida gumonlanuvchining psixologik profilini tuzishda foydalanilgan.

1985 yildan beri FQBda R. Ressler va P. Bruks tomonidan ishlab chiqilgan profillash usullari jiddiy zo‘ravonlik bilan ketma-ket jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni topish va hibsga olish uchun qo‘llanilgan.

Profillash usullarini qo‘llashning ikkinchi yo‘nalishi - parvozdan oldin tekshirish paytida yo‘lovchilarni so‘roq qilish va kuzatish orqali havo qatnovi xavfsizligini ta'minlash. Shaxsni aniqlash potentsial xavfli fuqarolarni aniqlashga imkon beradi va samolyot bortida terroristik hujumlar xavfini kamaytiradi. Isroil aviakompaniyasi El Al va Ben Gurion aeroporti birinchi bo‘lib shaxs profilini aniqlash usullaridan foydalangan. Korxonalarda profilchilar (profil bo‘yicha mutaxassislar) uchun treninglar tashkil etilgan.

Keyinchalik, “profillash” atamasi yanada kengroq bo‘lib, inson tomonidan etkazilgan ma'lumotlarning ishonchliligini, uning og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlariga (imo-ishoralar, mimikalar, mikroifodalar) muvofiqligini tahlil qilish uchun psixologik vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Profiler tomonidan qo‘llaniladigan psixologik usullar sub’ektning yolg‘on gapirish yoki aldashga moyilligini aniqlashga qaratilgan. Korporatsiyalarda tashqi ko‘rinish, hissiy ifoda va nutq namunalari tahlilini o‘z ichiga olgan profillash kadrlar siyosatida (ishga nomzodlar bilan suhbatlar paytida yoki korporativ qoidalarni buzgan xodimlarni aniqlash uchun) va kontragentlar bilan muzokaralar paytida qo‘llaniladi.

Profillash usuli yordamida baholash natijalari mutaxassisning malakasi va tajribasiga bog‘liq bo‘lishiga qaramay, ularning ishonchliligi poligrafiya (yolg‘on detektori) yordamida olingan ma'lumotlarning aniqligidan oshib ketadi. Vakolatli profiler hatto notanish odam bilan telefon suhbatida ham yolg‘onni sezishi mumkin.

Profilni yaratish maqsadi

Profillashning paydo bo‘lishi xavfsizlikni ta'minlash bilan bog‘liq:

- jamiyat (noma'lum jinoyatchining psixologik portretini chizish);
- samolyot yo‘lovchilari (terrorchilik hujumini sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarni aniqlash).

Faqat 50 yil oldin, profillash usullari maxfiy ma’lumotlar bo‘lib, faqat razvedka xodimlari foydalanishi mumkin edi. Bugungi kunda yolg‘onni tan olishni istagan har bir kishi ularni o‘rganishi mumkin, chunki har bir kishi kundalik hayotda yolg‘onga duch keladi. Yolg‘on ma’lumotlarning manbai esa ommaviy axborot vositalari, qarindoshlar, hamkasblar yoki do‘stlar bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, yaqin odamlarning yolg‘onlarini tan olish juda qiyin. Shuning uchun, siz begonalarning xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali profilni o‘rganishni boshlashingiz kerak. Aks holda, yangi boshlovchi mutaxassis hissiyotlar tufayli nomuvofiqliklarni sezmaslik xavfini tug‘diradi.

Profayling (inglizcha: profile —profil) — shaxsni tashqi ko‘rinishi, noverbal va verbal xulqidagi eng ko‘p axborot beruvchi maxsus belgilari, xususiyatlarini tahlil qilish

asosida inson xulqini baholash va prognozlashga qaratilgan psixologik usul va metodikalar majmuini bildiruvchi tushuncha.

Profayl metodi asoschilari psixolog olimlar Paul Ekman, V. Frizen, M. Sukerman va B.De Paulo hisoblanadi. 2012-yilda esa Y. Spiritsa tomonidan yolg‘onni tadqiq qilish bo‘yicha Xalqaro akademiyada kriminal profayling usuli taqdim etildi. Uning fikricha: kriminal profayling — jinoyatchi deb taxmin qilinayotgan shaxs xususiyatlarini tashxislovchi kompleks usullar yordamida uning psixologik profilini tuzish tushuniladi.

Profayling — bu shaxsning psixologik qiyofasini tuzishdir. 1888-yilda psixologik portret tuzishga uringanlardan biri britaniyalik jarroh Thomas Bond (u bu usulni chavaqlovchi Jack shaxsiga nisbatan qo‘llagan) hisoblanadi.[1]

So‘ngi vaqtlarda, ayniqsa havo transportida, profayl-metod yoki profayling iborasi keng tarqaldi. Ushbu profayling metodi tajribasi Isroil, AQSH, Rossiya kabi davlatlarda bir necha yillardan beri takomillashib kelayapti. Profayling metodi ikkita bir-birini to‘ldiruvchi metoddan, ya’ni psixologik kuzatish va so‘rov (suhbat) metodidan tashkil topgan.

Profayling o‘zining tarkibiga — tezkor psixodiagnostika, emotsiyalarni tahlil qilish, manipulyativ texnikalar, gipnotexnologiya, so‘zamonlik, grafologiya, yuz ifodalari tahlili, mushaklar faoliyatini tahlil qilish va ijtimoiy psixologiyani qabul qiladi.

Profayling nazariyalari (profil nazariyasi)insonning xulq-atvorini, davolash holatini va niyatlarini amalga oshirish hamda prognoz qilish uchun qo‘yilgan metodlar va uslublar tizimidir. Bular odamning yashirin motivlarini nazariyaga, yolg‘onni aniqlashga va turli yordam beradi. asosiy noverbal (mimika, ishoralar, ovoz intonatsiyasi) va verbal (gaplar, faylning insonning tuzilishi) xulq-atvori bilan bog‘liq bo‘lgan ichki holat va motivlari o‘zaro aloqani o‘rganishga asoslanadi.

- Bu insonni aniq texniksiz, uning kasallik, mimikasi, nutqi va ijtimoiy o‘zaro munosabatlari orqali barcha narsani anglatadi.
- **Ichki holatni belgilash**:

Psixologik insonning ichki kechinmalari va uning nazorat qilib bo‘lmaydigan zarar (masalan, bexosdan qilingan ishoralar) o‘zaro aloqani ko‘rish mumkin.

- **Xulq-atvor va motivlarni bashorat qilish**:

Profayling metodlari shaxsning haqiqiy motivlarini, uni va turli yaratilishida uning potentsial xulq-atvorini bashorat saqlash uchun.

asosiy yo‘nalishlari:

Profaylingning to‘rtta asosiy yo‘nalishi mavjud:

- **Jinoiy tahqirlash**:

  Jinoyatchilarni tekshirish va ularga qarshi ish olib borish uchun qo‘shimcha.
- **Siyosiy professional**:

  Siyosiy rahbarlar yoki davlat arboblarining xulq-atvorini tahlil qilish.
- **Massaviy (ijtimoiy) profayling**:

  Ommaviy yordam odamlarning xulq- tahlil qilib, ta’minlash (masalan, aeroportlarda).
- **Biznesni tahqirlash**:

  Korporativ muhitda qabul qilish uchun siz-xatarlarni qayta ishlaydi, masalan, ishga qilishda yoki muzokaralarda.

Qo‘llash usullari:

- **Noverbal xulq-atvor tahlili**: Mimika, ko‘z bilan aloqa, qo‘l kasallik, gavda holati.
- **Nutqni tahlil qilish**: Gapirish jarayoni, ovoz intonatsiyasi, gap tuzilishi, gapirishdagi pauzalar.
- **Muzokaralarda yordam**: Kontragentning niyatlari va hujjat rostgo‘yligini olish.
- **Ijtimoiy odamlar aro munosabatlarni tahlil qilish**: o‘zida ijtimoiy rollar va o‘zaro munosabatlarni amalga oshirish.

Profayling - bu kognitiv-xulq-atvorli profil, shaxsiyat portretini yaratish jarayoni. U xulq-atvorni bashorat qilish, xavflarni aniqlash, muloqot muzokaralar strategiyasi va taktikasini tanlash, suhbatlar yoki so‘rovlar uchun ishlatiladi. Bu mutaxassis tomonidan qo‘yilgan vazifaga asoslanib, turli xil vaziyatlarda shaxs yoki odamlar guruhining xatti-harakatlarini tahlil qilish, reaktsiyalarni (og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan) baholashga qaratilgan bir nechta fanlar, amaliy usullar va vositalar majmuasidir.

Barcha vositalar “sinovdan tashqari” xususiyatga ega, bu ularni xulq-atvorni murakkab prognozlash va fikrlash xususiyatlarini baholash talab qilinadigan har qanday vazifaga moslashishga imkon beradi. Profillash empirik tarzda tasdiqlangan nazariyalardan va psixologiya, sotsiologiya, kognitiv fan, psixodiagnostika, psixolingvistika, kriminologiya va boshqalar kabi fanlardan kelib chiqadi.

Maqsad va vazifalarni chuqurroq tushunish uchun shaxsning profilini aniqlash xulq-atvor portretini o‘rganishga asoslanganligini aniqlashtirish kerak.

Psixologik emas, balki xatti-harakatlar

Ko‘pchiligimiz “psixologik portret” atamasiga o‘rganib qolganmiz, ammo profillash uchun uni “xulq-atvor” deb atash to‘g‘riroq. Gap shundaki, birinchisi ma’lum izolyatsiya qilingan xususiyatlar to‘plamidir, masalan:

- temperament;
- aql;
- qobiliyatlar;
- hissiy intellekt;
- iroda kuchi;
- muloqot qobiliyatlari;
- o‘z-o‘zini anglash;
- va boshqalar, qo‘llaniladigan usul yoki testga qarab.

Ammo bu ko‘rsatkichlarning aksariyati juda dinamik, ular har qanday vaqt nuqtai nazaridan o‘zgarishi mumkin (ular farovonlik, psixologik holat, hayot sharoitlari, o‘zini o‘zi boshqarish va boshqalar ta'sir qilishi mumkin). Yuqoridagi xususiyatlar shaxsni bir tomonlama va tor ma'noda tavsiflaydi va xulosalarni real amaliy vazifalarda, ayniqsa biznes jarayonlari bilan bog‘liq masalalarda qo‘llash qiyin.

Ertalab va kechqurun psixologik testni o‘tkazishda siz farq qilishingiz mumkin turli natijalar, Buning sababi jismoniy holat, ovqatlanish sifati, hissiy stress yoki aksincha, quvonchli hodisalar. Profillash, bir qator usullar va moslashuvchanlik tufayli, shaxsiyatning doimiy xususiyatlarini aniqlashga, ular qanday o‘zgarishini

tushunishga va muayyan sharoitlarda, kontekstda va muloqotda “oshkor qilish”imkonini beradi.

Shuning uchun, xatti-harakatni bashorat qilish kabi vazifani bajarish uchun odamning maksimal darajada batafsil "ichki dunyosi tasviri" kerak bo‘ladi , bu, albatta, bitta diagnostika usulidan foydalanmaydi.

Demak, xulq-atvor portreti - bu shaxsning psixologik xususiyatlari to‘plamini tahlil qilish proektsiyasidir. Taxminan aytganda, aniqlangan xarakter xususiyatlari shunday “harakatda ishlaydi”. Proyeksiya insonning turli vaziyatlarda va sharoitlarda xatti-harakatlarini bashorat qilishni o‘z ichiga oladi.

Inson ma'lum bir vaziyatda, ma'lum odamlar bilan, ma'lum bir hissiy holatda va hokazolarda o‘zini qanday tutishini tushunish muhimdir.

Aynan shu yondashuv “aloqa ko‘rsatmalari”ni snayper kabi yozish imkonini beradi . Shaxsiy profilni shakllantirish uchun ko‘plab ko‘rsatkichlar o‘lchanadi va tahlil qilinadi:

- aql (fikrlash tezligi, xotira, diqqat va boshqalar);
- irodaviy xususiyatlar;
- biografik ma'lumotlar;
- ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar (ijtimoiy tarmoqlar va umuman, Internet);
- kasbiy qobiliyatlar;
- hissiy profil;
- ixtiyoriy: kimyoviy jarayonlar (tananing immuniteti va biokimyoviy xususiyatlari xulq-atvor va fikrlashga ta’sir qiladi);
- yuz ifodalarining ishi (uning harakatchanligi, xilma-xilligi va boshqalar);
- imo-ishoralar (so‘zning keng ma’nosida: qo‘llar, pozitsiyalar, tana pozitsiyalari psixogeometrik ko‘rsatkichlar);
- nutq faoliyati (intonatsiya, mazmun, etkazish, semantika va boshqalar);

  Bularning barchasi usullarni to‘g‘ri tahlil qilish va tushunish bilan (va profil yaratishda takrorlaymiz, hech qachon ishlatilmaydi) shaxsiyatning “portretini”

shakllantirishga imkon beradi, bu odam yoki bir guruh odamlarning xatti-harakatlarini batafsil bashorat qilish imkonini beradi. Qanchalik koʻp ma'lumot hisobga olinsa, prognoz shunchalik aniq boʻladi.

Shu oʻrinda alohida ta’kidlab oʻtish joizki, zamonaviy ilm-fanda shaxsning xulq-atvor portretini toʻliq ochib bera oladigan yagona tipologiya yoʻq va zamonaviy tipologiyalarning qaysi biri yaxshiroq ekanligi haqidagi munozaralar hali ham davom etmoqda va yaqin orada pasaymaydi. Dunyodagi eng murakkab narsa inson ekan... Dunyo aholisini har qanday sonli turlarga boʻlish mumkin emas: 8, 6, 10, 12...1574... Oʻz toifasidagi har bir individ oʻzining shaxsiy xususiyatlarida ma’lum darajada bir-biridan farq qilishini, ham eng doimiy xarakter belgilariga, ham hayot jarayonining eng kam dinamik oʻzgarishiga sub’ekt koʻrsatkichlariga ega boʻlishini inobatga olgan holda faqat ayrim xulq-atvor kategoriyalarini shartli ravishda belgilash mumkin.

Tasavvur qilaylik, qaysidir hududda oʻsib-ulgʻaygan, katta shaharga koʻchib oʻtgan, ta’lim va kasb-hunar egallab, martaba pogʻonasidan koʻtarilgan odam. Agar u yetarli darajada fikrlash, intizom, sabr-toqat, motivatsiya va boshqa shaxsiy xususiyatlarga ega boʻlsa, unda etakchilik fazilatlari, stressga chidamlilik, notiqlik qobiliyati va boshqalar kabi zarur xarakterli xususiyatlar shakllanadi. Shunday qilib, ijtimoiylashuv jarayonida odam turli xil qobiliyatlarni**,** fazilatlarni, xususiyatlarni egallaydi va shu tariqa oʻzining xulq-atvori portretini toʻldiradi, lekin biz muloqot qilishda ba’zi bir xususiyatlarni hisobga olgan holda, shaxsning ba'zi xususiyatlarini hisobga olamiz. u bilan muzokaralarda.

Bir qator usullardan foydalanish buni aniqlashga yordam beradi

kabi koʻrsatkichlar:

- xarakter,
- fikrlash turi,
- kuchli va zaif tomonlari,
- odam foydalanishi mumkin boʻlgan aldash usullari;
- va yana koʻp narsalar.

Shuningdek, u sizning maqsadingizga asoslanib, suhbatdosh bilan eng samarali muloqotni oʻrnatishga yordam beradi.

Muloqotdan oldin shaxsning profilini bilish savollar berish strategiyasini ishlab chiqishga, berilgan ogohlantirishlarga reaktsiyalarni bashorat qilishga va odamning ma’lum bir harakatga qodir yoki yo‘qligini aniqlashga yordam beradi. Bu yolg‘onni tashxislash va reaktsiyalarni baholashda juda muhim bo‘lgan xatti-harakatlarning (individual xulq-atvor odatlari) asosini aniqlashga imkon beruvchi vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Anna Valer'evna Kulik. The terminology base of profiling: comparative analysis and unification (англ.) // Вопросы безопасности. — 2024-03. — Iss. 3. — P. 1–13. — ISSN 2409-7543

2. Кудин В.А., Статный В.М. Профайлинг в деятельности органов внутренних дел: от теории и методологии к практике // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2013. №3 (59)

3. Психология лжи и обмана: как разоблачить лжеца / Евгений Спирица, ПИТЕР, 2017. - 272 с

4. Психологический профайлинг. Практикум: учебное пособие для студентов высших учебных заведений, обучающихся по укрупненной группе специальностей "Юриспруденция" / Т. В. Мальцева, В. Е. Петров. - Москва: РИОР: ИНФРА-М, 2020. - 93 с.

5. Post J.M. (Ed.) The psychological assessment of political leaders with profiles of Saddam Hussein and Bill Clinton. Michigan: The University of Michigan Press, 2003. 475 p.

6. Профайлинг в деятельности органов внутренних дел / О. А. Ульянина, В. В. Вахнина, Т. В. Мальцева, Т. В. Михайлова. — Академия управления МВД России Москва, 2019. — 100 с.

7. Выявление истероидной акцентуации у обвиняемого с помощью анализа его речи, поведения и биографии / В.Л. Юань, Т.А. Алексеева, Р.Л. Ахмедшин // ПРАВОСУДИЕ, Т.2, №1, 2020. С. 207-224

PROFAYLING TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

IKANOV AZAMAT AGZAMOVICH
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i, yu.f.b.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim

Annotatsiya. Mazkur maqola ALM-202310202738-sonli “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida foydalanish uchun innovatsion profayling texnologiyasini ishlab chiqish” amaliy grant loyihasi doirasida bajarilgan bo‘lib, unda profayling tushunchasining tarixiy ildizlari, uning rivojlanish bosqichlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Profayling, profayling tarixi, rivojlanish bosqichlari, kriminologiya, jinoyatchi shaxsi, kriminologik profayling, geografik profayling, xulq-atvor, Qadimgi Sharq, Islom, XX asr.

Hozirgi kunda profayling fanlararo yo‘nalish sifatida — psixologiya, kriminologiya, kriminalistika, sotsiologiya, kognitiv fanlar va axborot texnologiyalarining uzviy bog‘lanishi orqali rivojlanmoqda. Uning ahamiyati, ayniqsa, global xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurashish, korporativ nazorat, migratsiya jarayonlarini tahlil qilish va kiber jinoyatchilikni oldini olishda sezilarli tarzda ortayapti.

Profaylingning paydo bo‘lishi qadimgi sivilizatsiyalar davriga borib taqalsa, uning faol rivojlanish bosqichlari XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi.

Izlanishlarimiz natijasiga ko‘ra, profayling shakllanish bosqichlarini quyidagicha ajratib o‘tishimiz mumkin:

1. Ilk profaylingning shakllanish davri;
2. Ilmiy profaylingning shakllanish davri;
3. XX asrda profayling rivojlanishi davri;
4. Zamonaviy profayling texnologiyalari davri.

I. Ilk profaylingning shakllanish davri.

Qadimgi sivilizatsiyalar davrida hukmdorlar va harbiylar odamlarning shubhali yoki g‘ayrioddiy xatti-harakatlariga e’tibor qaratgan va ulardan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavflarni baholashga uringan. Bu jarayonda yuz ifodasi, ovoz ohangi va tananing harakatlari kabi belgilardan foydalanilgan. Mazkur davrni ham shartli ravishda quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lishimiz mumkin: Qadimgi Sharqda profayling va Islom ulamolarida qiyofa ilmi.

Qadimgi Sharqda profayling. Qadimgi Sharqda ko‘plab ulamolarning asarlarida inson xulq-atvorini tahliliga bag‘ishlangan masalalar yoritilganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan[1]:

– Xitoy tabobatiga oid “Xiangfa” va “Xiangshu” risolalari (mil.av. III–I asrlar)da inson tashqi qiyofasi orqali uning xarakteri va salomatligini baholashga oid bilimlar bayon etilgan. Xitoyda tashqi qiyofaga asoslangan xarakter va taqdir haqidagi bilimlar “xiangshu” nomli an’ana doirasida rivojlangan. Bu an’ana umumiy morforrentlarni (yuridik xususiyatlar) kuzatish orqali shaxslarning irodasi, taqdiri va xarakterini baholashga asoslangan [2].

– Hindistonda “Sushruta Samhita” va “Rugvinishaya” asarlarida inson qiyofasi va temperamenti haqidagi dastlabki ilmiy fikrlar yoritilgan. “Sushruta Samhita” bu qadimgi hind tibbiyoti va jarrohlik an’anasining muhim matni bo‘lib, inson tashqi qiyofasi (simptomatik belgilari), temperament va kelajakdagi sog‘lom, bardavom umr yoki qisqa umr haqidagi taxminlarni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, teri, uzun bo‘g‘inlar, ko‘z yo, nafas olish kanallari kabi belgilar asosida inson hayotining uzoqligi yoki qisqaligini ta’minoti sifatida baholash usullari mavjud [3].

– Islom olamida “Qiyofat ul-bashar”, “Ilmi qiyofa” va “Ilmi farosat” kabi yo‘nalishlar rivojlangan bo‘lib, ular insonning tashqi qiyofasi orqali ichki olamni anglash imkoniyatini asoslab bergan.

Islom ulamolarida qiyofa ilmi. Imom Shofe’iy (767–820) Yamanda 3 yil davomida fiziognomiyani o‘rgangani haqida manbalarda ma’lumotlar mavjud [4].

Bundan tashqari, Mir Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida jamiyatdagi insonlarning xislatlari va xulq-atvorini ijtimoiy-psixologik tahlil qilib bergan. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida insonlarning fazilatlari (shafqat, fidoiylik, kamtarinlik, rostgo‘ylik va hokazo) yoqtirilishi, kambag‘allik, yolg‘onchilik, firibgarlik,

ochko‘zlik kabi xislatlar tanqid qilinadi. Bu Alisher Navoiyning uzoq yillik tajribasiga asoslangan ijtimoiy-axloqiy qarashlarini aks ettiradi.

Garvard universiteti doktori Sh. Shaxvand “Mahbub ul-qulub” asarining tuzilishi haqida quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi [5]:

Birinchi qism – jamiyatdagi turli toifalarni (sultondan tortib dervishgacha) tasvirlaydi. Bu yerda Navoiy har bir toifaning ahamiyati va kamchiliklarini bayon qiladi.

Ikkinchi qism – inson xulq-atvoriga oid fazilat va nuqsonlarni tahlil qiladi. Masalan: saxiylik – baxillik, rostgo‘ylik – yolg‘onchilik, kamtarlik – g‘urur kabi.

Uchinchi qism – turli hayotiy hikmatlar, masallar va maqollar orqali umumiy xulosalarni jamlaydi.

Bu bilan Alisher Navoiy asarini **uch qism**ga bo‘lib, ularning har biri jamiyat, shaxs xulqi va hayotiy hikmatlar bilan bog‘lagan deb hisoblanadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida insonlarning xulq-atvorini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Shuningdek, Amir Temur ham “Ilmi qiyofa”dan davlat boshqaruvida foydalangani borasida qarashlar mavjud. Bu borada tarixchi olim V.V.Bartold o‘z izlanishlarida to‘xtalib o‘tgan. V.V.Bartold va turli o‘zbek tadqiqotchilari ta’kidlashicha, Amir Temur davlat boshqaruvida inson tabiati va xislatlarini tahlil qilishga alohida e’tibor bergan.

“Temur tuzuklari” asarida Amir Temur odam tanlash va davlat ishlarida shaxsiy fazilat, tarbiya, xulq-atvorga juda katta ahamiyat bergani qayd etilgan. Masalan, harbiy boshliqlardan mardlik, jasurlik, adolat talab qilgan, davlat amaldorlaridan rostgo‘ylik va mas’uliyatni ustuvor fazilat sifatida ko‘rgan.

U shunday deydi: «Har bir amir va sarkarda xulqi, aqli va adolati bilan sinovdan o‘tsin, sinovsiz insonga ish topshirmang». To‘g‘ridan-to‘g‘ri “ilmi qiyofa” atamasi Amir Temur manbalarida ochiq tilga olinmagan. Biroq, uning odam tanlash va shaxsiy fazilatlarni baholash usullari “qiyofa” va “farosat” ilmiga yaqin hisoblanadi.

Masalan, Amir Temur kishi bilan muloqotda uning tashqi qiyofasi va nutqi orqali ichki dunyosi haqida xulosa chiqargani haqida tuzuklarda ishoralar bor.

II. Ilmiy profaylingning shakllanish davri.

XIX asr ohirida kriminalistik tahlilda profayling elementlari paydo bo‘ldi. 1888-yilda Londondagi mashhur “Jack Ripper” qotilliklari politsiyani jinoyatchini aniqlashda yangi usullarni qo‘llashga majbur qildi. Ilk bor jinoyatchining psixologik portreti tuzildi va uning ehtimoliy xususiyatlari haqida prognoz qilindi.

Kriminal profayling doirasida 1888-yilda psixologik portret tuzishga dastlab uringanlardan biri britaniyalik jarroh Tomas Bond (chavaqlovchi Jek shaxsiga nisbatan qo‘llanilgan) hisoblanadi [6].

III. XX asrda profayling rivojlanishi.

Mazkur bosqichda profayling va uni ilmiy anglanishi hamda amaliyotda foydalanishi yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunda Z.Freyd va K.Yung kabi olimlarning ta’siri katta bo‘ldi. Jinoyatchi profilini yaratishda turli xil kontseptual yondashuvlar shakllandi.

Profaylingning ilmiy asoslarini Z.Freyd (psixoanalitik yondashuv), K.Yung (analitik yondashuv), K.Xorni (ijtimoiy-madaniy yondashuv), A.Adler (individual yondashuv), E.Fromm (gumanistik yondashuv), Ch.Lombroso (antropologik yondashuv), G.Gross (jinoyatchi shaxsini sodir etilgan jinoyat prizmasi orqali ko‘rib chiqish), E. Kretschmer (tana tuzilishi va shaxs turi hamda noqonuniy harakatlarga moyillik o‘rtasidagi bog‘liqlik) asos solgan [7].

Zamonaviy kriminalistikada profayling yo‘nalish sifatida J. Brassel tomonidan taklif etilgan. Uning usuli jinoyat ishi materiallarini o‘rganishni va tahlil qilingan ma’lumotlarga asoslanib, qidiruvdagi jinoyatchining ehtimoliy psixologik profilini tuzishni o’z ichiga olgan.

Ikkinchi yo‘nalish boshqacha yondashuvga ega bo‘lib bu usul jinoyat sodir bo‘lgan joyni, jabrlanuvchi haqidagi ma’lumotlarni o‘rganishga asoslanadi. Bu usulning asoschisi AQSH FQB xodimi J.Duglasdir. Usul “psixoprofil usuli” deb nomlangan.

Uchinchi yo‘nalishga ingliz psixologi, jinoiy xulq-atvorning ko‘p o‘lchovli strukturasini ishlab chiquvchi, geografik profillash asoschisi D. Kanter asos solgan. Uning tadqiqotlari zo'ravon jinoyatchilarning ekologik xatti-harakatlariga qaratilgan. Jinoyatchining geografik profaylingi to‘plami Angliya, AQSH, Kanada va Germaniyada

ishlab chiqilgan. Bu mamlakatlarda ushbu bilim sohasida kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bugungi kunda ham mazkur yo‘nalishda kadrlar tayyorlash chora-tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda.

Shuningdek, 1970-yil AQSH Federal Qidiruv Byurosi (FBI) Behavioral Analysis Unit (BAU)ni tashkil qildi. Jon Duglas va Robert Ressler kabi mutaxassislar seriyali qotillarning xulq-atvorini tahlil qilish usullarini ishlab chiqishdi. Bu metodika keyinchalik jinoyatlarni tezkor ochishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Profayling texnologiyasi 1970-yillarning oxirida transportda qo‘llanila boshlandi. Avval Isroilning El Al aviakompaniyasi, keyin esa dunyodagi boshqa kompaniyalar tomonidan foydalanish boshlandi. U yo‘lovchilarni havoda tashish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar ehtimolini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, parvoz oldidan tekshirish vaqtida qo‘llaniladi [8].

IV. XXI asrda profayling rivojlanishi.

XXI asrda profayling psixologiyadan tashqari raqamli texnologiyalar bilan boyidi:

– **Videokuzatuv tizimlari** – jamoat joylarida shubhali harakatlarni aniqlaydi.

– **Sun’iy intellekt (AI)** – yuz ifodalari va harakatlarni real vaqtda tahlil qiladi.

– **Big Data tahlili** – jinoyat statistikasi va xavfli tendensiyalarni oldindan bashorat qilishga yordam beradi

Bu usullar xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash va jamoat xavfsizligini ta’minlashda alohida ahamiyatga ega.

Xulosa qilganda, profayling tarixiy ildizlari qadimgi sivilizatsiyalardan boshlanib, islom ulamolari va sharq mutafakkirlari tomonidan takomillashtirilgan. XIX asrda u kriminalistikada ilmiy asoslangan yo‘nalish sifatida shakllandi. XX asrda psixologiya, kriminologiya va FQB tajribasi uning keng tarqalishiga turtki bo‘ldi. XXI asrda esa raqamli texnologiyalar profaylingni yanada samarali va universal usulga aylantirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov M.S. Profaylingning paydo bo‘lish tarixi // Namoyish materiallari, O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti, 2024.

2. Bo Shi, Chao Wu. Anthropometry in Ancient China – Based on the Physiognomy Book of Divine Fortuneteller Ma Yi // 2nd Annual International Conference on Social Science and Contemporary Humanity Development (SSCHD 2016), Published by Atlantis Press. – P.70-75.

3. Bhagvat Singh Jee. Indian Writings on the Qualities of a Good Doctor. https://www.hinduwebsite.com/sacredscripts/hinduism/medicine/qualities-of-physician

4. Mohammed M. Ghaly. Physiognomy: A forgotten chapter ofdisability in islamthe discussions of muslim jurists // Bibliotheca orientalis LXVI N° 3-4, mei-augustus 2009, https://paperzz.com/doc/7818052/physiognomy--a-forgotten-chapter-of-disability-in

5. Shahvand Sh. Deciphering the Ranks of Poets in Amīr ʿAlīshīr Navāʾī’s Maḥbūb al-Qulūb, 2023. https://shahradshahvand.scholars.harvard.edu/blog/deciphering-tiers-poets-am

6. Qodirov M.S. Jinoyatchi shaxsining psixologik portretini yaratishda profayling texnologiyasini qo‘llash imkoniyatlari // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining Axborotnomasi | 2023 №3 (58). – B.169.

7. Иванова Л.Ф. Проблемы и перспективы развития метода криминалистического профилирования при расследовании преступлений неочевидного характера // Вестник ЮУрГУ. Серия «Право». 2021. Т. 21, № 1. – С.39.

8. Арпентьева М.Р. Перспективы и проблемы авиационного профайлинга // Вестник Прикамского социального института. 2019. № 2 (83). – С.52.

Jamoat joylarida xavf omillarini baholash va profayling asosida xavfsizlikni ta’minlash masalalari.

O‘zbekiston Respublikasi :Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi Qodirov To‘lqinjon Tolibjonovich

O‘zbekiston Respublikasi :Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi G‘aniev Mamirjon Jamoldinovich

Annotatsiya: Mazkur maqola ALM-202310202738-sonli “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida foydalanish uchun innovatsion profayling texnologiyasini ishlab chiqish” maqsadli ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, unda jamoat joylarida xavf omillarini aniqlash jarayonini bosqichma-bosqich o‘rganish, inson xulq-atvorini tahlil qilishning ahamiyatini yoritish hamda xavf omillarini to‘g‘ri baholash va kategoriyalarga ajratish orqali xavfsizlikni ta’minlash masalalariga ilmiy yondashuvni shakllantirishdan iborat. Shuningdek, maqolada profayling texnologiyalarini xavf omillarini bashorat qilish va tezkor aniqlashda qo‘llash imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: xulq-atvor, tahlil, xavfsizlik, profayling texnologiyalari, harakat dinamikasi, bashorat, inson.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash har qanday davlatning milliy xavfsizlik tizimida ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Zamonaviy global tahdidlar, terrorizm, ekstremizm va texnogen xavflar ommaviy yig‘ilishlar va jamoat joylarida turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bois, jamoat joylarida xavf omillarini aniqlash va ularni samarali bartaraf etish xavfsizlik tizimining dastlabki va eng muhim bosqichi hisoblanadi[1].

Mazkur maqolaning maqsadi jamoat joylarida xavf omillarini aniqlash jarayonini bosqichma-bosqich o‘rganish, inson xulq-atvorini tahlil qilishning ahamiyatini yoritish hamda xavf omillarini to‘g‘ri baholash va kategoriyalarga ajratish orqali xavfsizlikni ta’minlash masalalariga ilmiy yondashuvni shakllantirishdan iborat. Shuningdek, maqolada profayling texnologiyalarini xavf omillarini bashorat qilish va tezkor aniqlashda qo‘llash imkoniyatlari ham yoritiladi.

Jamoat joylarida insonlarning xulq-atvori va jismoniy muhit holati doimiy kuzatuv ostida bo‘lishi zarur[2]. Bu bosqichda odamlarning shubhali harakatlari, beqaror yurishlari, asabiylik yoki shubhali holatlari xavf belgisi sifatida baholanadi. Shuningdek, qoldirilgan buyumlar, noaniq moddalar ham xavf omillari hisoblanadi.

Ana shu jarayonda profayling texnologiyalari qo‘llanilib, shaxsning tashqi qiyofasi, yuz ifodalari, ovoz tembri, pozasi va harakat dinamikasiga asoslangan tezkor psixologik portret tuziladi[3]. Bu xavfli shaxsni odatiy aholi qatlamidan farqlash imkonini beradi.

Zamonaviy xavfsizlik tizimida videokuzatuv, sensorlar, harakat va ovoz detektorlari, shuningdek, sun’iy intellektga asoslangan tizimlar muhim o‘rin egallaydi[4]. Ular shubhali vaziyatlarni tezkor aniqlash va xavfsizlik xodimlariga xabar berish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda ayrim davlatlarda videokuzatuv tizimlariga integratsiya qilingan avtomatik profayling algoritmlari shaxsning yurish uslubi (gait analysis), yuz qiyofasi va hatto stress darajasini tahlil qilib, xavfni oldindan bashorat qilish imkonini bermoqda [5].

Aniqlangan xavf omillari past, o‘rta yoki yuqori darajali kategoriyalarga ajratiladi. Bu jarayonda xavfning ehtimoli, kutilgan oqibatlari va ehtimoliy zarari hisobga olinadi[6].

Profayling texnologiyalari orqali to‘plangan ma’lumotlar xavf darajasini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Masalan, shaxsning ruhiy holati va emotsional reaksiyalari tahlil qilinsa, uning tajovuzkorlikka moyilligi yoki barqarorligi haqida tezkor xulosa chiqarish mumkin[7].

Inson xulq-atvori xavfli vaziyatlarni oldindan sezishda asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi[8]. Bu jarayonda profayling texnologiyalari insonning shubhali harakatlarini va noodatiy noverbal belgilarini avtomatik tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Shubhali harakatlar.

– Ma’lum maqsadsiz yurish, noan’anaviy harakatlar;

– Jamoat joyida uzoq vaqt turib qolish;

– Asabiy yoki shubhali qiyofa bilan harakatlanish.

Noverbal belgilar.

– Tana harakatlarining noodatiyligi;

– Yuz ifodalari orqali ruhiy holatning aks etishi;

– Vahima, qo‘rquv, yashirishga urinish holatlari.

Bu belgilarni profayling texnologiyalari orqali tahlil qilish xavf omillarini tezkor va samarali aniqlash imkoniyatini oshiradi [9].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida xavf omillarini aniqlash va ularni to‘g‘ri baholash davlatning milliy xavfsizlik tizimida ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Zamonaviy tahdidlar – terrorizm, ekstremizm va texnogen xavflar – jamoat joylarida inson hayoti va jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf tug‘diradi. Shu bois xavf omillarini oldindan aniqlash va bartaraf etish tizimli va ilmiy yondashuvni talab etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xavfsizlikka tahdidlarni aniqlashda inson xulq-atvorini kuzatish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shubhali harakatlar, noverbal belgilar (yuz ifodalari, poza, ovoz tembri, tana harakatlari) xavfni bashorat qilishda asosiy signal hisoblanadi.

Profayling texnologiyalari ushbu jarayonda alohida o‘rin tutadi. U shaxsning tashqi qiyofasi, ruhiy holati va xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali ehtimoliy xavf darajasini bashorat qilish imkonini beradi. Videokuzatuv va sun’iy intellektga asoslangan avtomatlashtirilgan profayling tizimlari xavfli shaxslarni oddiy aholidan ajratib ko‘rsatish, xavf omillarini tezkor baholash va xavf darajasini aniqlash imkoniyatlarini sezilarli oshiradi.

Shuningdek, xavfni past, o‘rta va yuqori darajalarga kategoriyalash xavfsizlik tizimining samaradorligini oshiradi, chunki bu holatda qaror qabul qilish jarayoni

tezlashadi va xavfsizlik kuchlari resurslarini maqsadli ravishda safarbar qilish mumkin bo‘ladi.

Xullas, inson xulq-atvori va noverbal belgilar tahlili – xavfni oldindan sezishda eng muhim indikator hisoblanadi.

Profayling texnologiyalari xavfsizlik tizimida inson omillari va texnologik imkoniyatlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv – kuzatuv, texnologik tahlil, profayling, xavfni baholash va kategoriyalash bosqichlari uyg‘unlashganda xavfsizlik samaradorligi oshadi.

Shuningdek, ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish va amaliyotga integratsiya qilish jamoat xavfsizligini ta’minlashda ustuvor vazifa sifatida qolmoqda.

Foydalanilga adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси миллий хавфсизлик концепцияси. – Тошкент, 2021.
2. Bruce, V., & Young, A. (2012). Face Perception. Psychology Press.
3. Turvey, B. (2011). Criminal Profiling: An Introduction to Behavioral Evidence Analysis. Academic Press.
4. Ekman, P. (2009). Telling Lies: Clues to Deceit in the Marketplace, Politics, and Marriage. W. W. Norton & Company.
5. Vrij, A. (2008). Detecting Lies and Deceit: Pitfalls and Opportunities. John Wiley & Sons.
6. Douglas, J. E., Burgess, A. W., Burgess, A. G., & Ressler, R. K. (2013). Crime Classification Manual: A Standard System for Investigating and Classifying Violent Crime. Wiley.
7. Matsumoto, D., Hwang, H. S., & Frank, M. G. (2016). APA Handbook of Nonverbal Communication. American Psychological Association.
8. Климентев, Д. С. (2020). Профайлинг: Теория и практика. Москва.
9. Kozlowski, S. W. J., & Ilgen, D. R. (2006). Enhancing the Effectiveness of Work Groups and Teams. Psychological Science in the Public Interest, 7(3), 77–124..

ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ПРОФАЙЛИНГ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Иканов Азамат Агзамович,
Жамоат хавфсизлиги университети Илмий-амалий тадқиқотлар маркази бошлиғи, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), катта илмий ходим

Алижонов Иброхимжон Рустамжон ўғли
Жамоат хавфсизлиги университети Илмий-амалий тадқиқотлар маркази бош илмий ходими, юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Мазкур мақола ALM-202310202738-сонли “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятида фойдаланиш учун инновацион профайлинг технологиясини ишлаб чиқиш” номли амалий илмий-тадқиқот доирасида бажарилган бўлиб, жамоат хавфсизлигини таъминлашда профайлинг технологияларини қўллашнинг ҳуқуқий асосларини тадқиқ қилиниб, такомиллаштириш юзасидан таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: жамоат хавфсизлиги, жамоат хавфсизлигини таъминлаш, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, оммавий тадбирларни ўтказиш, истироҳат боғлари, хиёбонлар ва бозорлар, жиноят содир этган шахслар, психологик портрет, профайлинг, жиноятчиликка қарши курашиш.

Аннотация: Статья выполнена в рамках прикладного научно-исследовательского проекта № ALM-202310202738 «Разработка инновационной технологии профайлинга для использования в деятельности по обеспечению общественной безопасности». Изучены правовые основы применения технологий профайлинга в деятельности по обеспечению общественной безопасности, разработаны предложения и рекомендации по их совершенствованию.

Ключевые слова: общественная безопасность, обеспечение общественной безопасности, регулирование, публичные мероприятия, парки, бульвары и рынки, преступники, психологическое портретирование, профилирование, борьба с преступностью.

Abstract: The article was completed in the framework of the scientific research project No. ALM-202310202738 "Development of innovative technology profile for use and data protection for public safety". Studying the basic legal application of technological profiles and ensuring public safety, developing proposals and recommendations.

Keywords: public safety, public security, regulation, public events, parks, boulevards and markets, criminals, psychological profiling, profiling, crime control.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда тинчлик ва осойишталикни таъминлашнинг мутлақо янги механизмларини жорий этиш, ҳуқуқбузарликни содир этишга сабаб бўлаётган ижтимоий-маиший муаммоларни ижтимоий профилактика чоралари тизими орқали ҳал этиш ҳамда аҳолида шахсий хавфсизлик ҳиссини шакллантириш борасида самарали чора-тадбирлар амалга оширилди.

Бунинг натижасида Ўзбекистоннинг хавфсиз давлат сифатидаги рейтинг ва индекслардаги ўрни яхшиланиб бормоқда, жумладан бутунжаҳон одил судлов лойиҳаси (World Justice Project-АҚШ) ташкилоти томонидан ҳар йили ўтказиладиган ҳуқуқ устуворлиги индексининг “Тартиб ва хавфсизлик индикатори”[1] бўйича Ўзбекистон, дунёда 142 та давлат орасида **17-ўринни,** Осиёда 49 та давлат орасида **5-ўринни,** Марказий Осиё ва Шанхай ҳамкорлик ташкилоти давлатлари орасида **1-ўринни** эгаллаганлиги фикримизни ёрқин далили ҳисобланади.

Шу билан бирга маҳаллаларда хавфсиз муҳитни яратишнинг ташкилий-профильактик асосларини замон талабларига мослаштириш, содир этиладиган қонунбузилишларнинг асл омилларини ўз вақтида аниқлаш ва комплекс чора-тадбирлар билан манзилли бартараф этиш орқали жиноятчиликнинг барвақт

олдини олиш тизимининг самарадорлигини янада ошириш долзарб вазифа сифатида намоён бўлмоқда.

Бугунги кунда жиноят оқибатлари билан курашишни эмас, балки жиноятчиликнинг асл омилларини аниқлаш ва ўз вақтида бартараф этиш орқали унинг барвақт олдини олишни устувор мақсадга айлантириш долзарб аҳамият касб этмоқда.

Шу боисдан, 2025 йилнинг 3 январь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан “2025-йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ – 1 — сон Қарори имзоланди[2].

Қарор билан, Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни ҳамда Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепцияси билан белгиланган масъул идоралар ва муассасалар учун **2025 йилда “Ҳар бир маҳаллада ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш”** устувор вазифа эканлиги ҳамда маҳаллалар **жамоат жойлари ва яшаш хонадонларида** хавфсиз муҳит яратиш, фуқаролар **ҳаёти, соғлиғи ва мол-мулкига ҳар қандай тажовузларнинг олдини олиш** мақсадида ҳуқуқбузарликлар профилактикасига **замонавий рақамли технологиялар ва техник воситаларни** кенг жорий этиш лозимлиги белгиланди[3].

Шу билан бирга, мазкур ишларнинг мантиқий давоми сифатида Президентимиз 2025 йил 18 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига маҳаллаларда жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш тизими натижадорлигини янада оширишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ПҚ-253-сон Қарорлари [4] имзоланиб илмий ва таълим муассасалари учун **“илмий хулоса — тавсия — натижа”** тамойили асосида бириктирилган криминоген вазияти мураккаб маҳаллаларда хавфсиз ҳудуд яратиш асосий вазифалардан бири этиб белгиланди.

Мазкур Қарор билан тасдиқланган **“Криминоген вазияти мураккаб маҳаллаларда жиноятларнинг олдини олиш бўйича манзилли чоралар Концепцияси”**да[5] маҳаллаларда фуқаролар ҳаёти, соғлиғи ва мол-мулкига ҳар

қандай тажовузларнинг олдини олиш мақсадида ҳуқуқбузарликлар профилактикасига замонавий рақамли технологиялар ва техник воситаларни кенг жорий этиш асосий вазифалардан бири этиб белгиланган.

Халқаро амалиётда жиноятчиликнинг олдини олиш, хавфсизликни таъминлаш ва профилактик чора-тадбирларни кучайтиришда профайлинг технологиялари кенг қўлланилмоқда.

Шу сабабли Ўзбекистонда жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасига профайлинг технологияларини татбиқ қилиш устувор вазифа ҳисобланади.

ALM-202310202738-сонли “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятида фойдаланиш учун инновацион профайлинг технологиясини ишлаб чиқиш” номли амалий илмий-тадқиқот лойиҳаси доирасида профайлинг технологияларини қўллаш бўйича миллий қонунчилик ва хорижий тажриба таҳлил қилиниб таклифлар ишлаб чиқилди.

Жумладан:

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21-моддасида:

“... Инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари фақат қонунга мувофиқ ва фақат конституциявий тузумни, аҳолининг соғлиғини, ижтимоий ахлоқни, бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, жамоат хавфсизлигини ҳамда жамоат тартибини таъминлаш мақсадида зарур бўлган доирада чекланиши мумкин” каби норма белгиланган.

Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрдаги 2015-XII-сон Қонуни билан тасдиқланган **“**Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси”да:

“Шахсни кўрикдан ўтказиш ички ишлар органларининг, ҳарбийлаштирилган қўриқлаш бўлинмаларининг, ҳаво транспортининг, божхона органлари, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси органлари ва чегара қўшинларининг ваколатли шахслари, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида бевосита назарда тутилган ҳолларда эса, шунга ваколати бўлган бошқа органлар томонидан амалга оширилиши мумкин” ***(289-модда****. Шахсни кўрикдан ўтказиш ва ашёларни кўздан кечириш)* деб белгиланган.

Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 25 декабрдаги **“Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”**ги Қонунида, Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 20 январдаги ЎРҚ-400-сонли Қонуни билан тасдиқланган **“Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси”**да, Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 9 августдаги **“Транспорт тўғрисида”**ги Қонунида, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ва Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлигининг 2012 йил 23 апрелдаги **“Автовокзаллар ва автостанциялар ҳудудига йўловчилар ва бошқа шахсларни киритиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”**ги 13/2-сон қарори билан тасдиқланган **“Автовокзаллар ва автостанциялар ҳудудига йўловчилар ва бошқа шахсларни киритиш тартиби тўғрисидаги йўриқнома”**да, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 2 июндаги **“Ўзбекистон Республикаси фуқаро авиациясида авиация хавфсизлиги кўздан кечирувини ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”**ги 183-сон қарори билан тасдиқланган **“Ўзбекистон Республикаси фуқаро авиациясида авиация хавфсизлиги кўздан кечирувини ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом”**да, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Миллий гвардияси, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Инновацион ривожланиш вазирлиги, Фанлар академиясининг 2022 йил 28 январидаги **“Жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятининг илмий асосларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”**ги 4 ққ, 4, 5 ққ, 1 ққ, 2/2-сон қарорида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 апрелдаги **“Божхона маъмуриятчилигини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”**ги ПФ-122-сон Фармони билан тасдиқланган **“2022-2023 йилларда божхона расмийлаштирув жараёнларини рақамлаштириш бўйича «Йўл харитаси»”**да, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 15 августдаги **“Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаменти фаолиятини янада самарали ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”**ги 445-сон қарори билан тасдиқланган **“Жазони ижро этиш муассасаларини 2022 — 2024 йиллар давомида босқичма-босқич техник**

воситалар билан жиҳозлаш ва жазони ижро этиш тизими фаолиятини рақамлаштириш дастури”да, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 1 ноябрдаги **“Идоравий ҳарбийлаштирилган қўриқлаш ҳамда идоравий қоровуллик бўлинмалари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”**ги 630-сон қарорида ва мазкур қарор билан тасдиқланган **“Идоравий ҳарбийлаштирилган қўриқлаш бўлинмалари тўғрисида намунавий низом”**да, Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2023 йил 10 апрелдаги **“Ички ишлар органлари фаолиятини психологик таъминлашнинг сифат жиҳатдан янги тизимини жорий этиш тўғрисида”**

185-сон буйруғи билан тасдиқланган **“Ички ишлар органлари фаолиятини психологик таъминлаш тартиби тўғрисида йўриқнома”**да, Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирининг 2023 йил 17 апрелдаги “**Эксперт-криминалистика бўлинмалари иш фаолиятини ташкил этиш ва суд экспертизаси тадқиқотларини ўтказиш тартиби тўғрисида**”ги 200-сон буйруғида, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 17 апрелидаги **“Аэровокзал, темир йўл ва автобус вокзалларида хизмат кўрсатиш сифатини яхшилашга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”**ги 159-сон қарори билан тасдиқланган “**Темир йўл вокзалларида (станцияларида) йўловчилар ва ташриф буюрувчиларнинг қўл юки ва багажини кўздан кечириш, уларнинг темир йўл вокзалларида (станцияларида) бўлиш тартиби тўғрисида**”**ги низом**да, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 23 мартдаги **“2022 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини ривожлантириш стратегиясини 2023 йилда амалга ошириш бўйича «йўл харитаси»ни тасдиқлаш тўғрисида”**ги 121-сон қарори билан тасдиқланган **“2022 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини ривожлантириш стратегиясини 2023 йилда амалга ошириш бўйича «Йўл харитаси»”**да, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 10 октябрдаги **“Метрополитенда йўловчилар ҳамда бошқа шахсларнинг бўлиш**

қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 535-сон қарори билан тасдиқланган **“Метрополитенда йўловчилар ҳамда бошқа шахсларнинг бўлиши қоидалари”**да ва бошқа бир қатор қонунчилик ҳужжатларида профайлингни қўллашнинг ҳуқуқий асослари қисман мустаҳкамланган[6].

Бироқ, қайд этилган қонунчилик ҳужжатлари таҳлили асосида жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятида профайлинг технологиясини қўллашни ҳуқуқий тартибга солиш борасида қуйидаги тизимли камчилик ва муаммолар борлиги аниқланди:

1) Профайлинг технологияси тушунчаси ҳуқуқий таърифи ишлаб чиқилмаган;

2) Жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятида профайлинг технологиясини қўллаш механизмлари ишлаб чиқилмаган;

3) Жамоат хавфсизлигини таъминлаш фаолиятида профайлинг технологиясини қўллаш вазифаларини амалга оширувчи “мутахассис – профайлер” кадрларни тайёрлаш тизими жорий этилмаган;

4) Профайлер кадрларнинг ҳуқуқий мақоми, ҳуқуқ ва мажбуриятлари, вазифа ва функциялари, ҳисобдорлиги ва жавобгарлиги ишлаб чиқилмаган;

5) жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жамоат тартибини сақлашга жалб этилаётган ходимларни ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил шахсларни аниқлаш, уларнинг хатти-ҳаракатларини таҳлил қилиш ва аниқлаш усулларига ўргатиш тизими йўлга қўйилмаган;

6) таҳдидни баҳолаш ва концептуал таҳлил методикаси шакллантирилмаган *(жорий вазият ва атроф-муҳит шароитида хатти-ҳаракатларни баҳолаш, кузатилган хатти-ҳаракатларни ҳуқуқбузарлик содир этган шахсларнинг ҳатти-ҳаракатлари билан таққослаш)*;

7) жамоат хавфсизлигини таъминлашда профайлинг технологиясини қўллашга жамоатчиликни кенг жалб қилиш масалалари етарлича ҳал этилмаган *(жамоатчиликнинг хабардорлигини ошириш, шубҳали хатти-ҳаракатлар белгилари тўғрисида тарғиботларни ўтказиш, фуқаролар шубҳали ҳаракатлар тўғрисида хабар беришлари мумкин бўлган фикр-мулоҳаза юбориш ахборот*

каналларини яратиш, шубҳали фаолият ҳақида тез ва аноним тарзда хабар бериш имконини берувчи мобил иловаларни ишлаб чиқиш);

8) жамоат хавфсизлигини таъминлашда профайлинг технологиясини қўллашда миллий идоралараро ҳамда халқаро ҳамкорлик етарлича тартибга солинмаган ва йўлга қўйилмаган *(ҳаракатларни мувофиқлаштириш, ахборот алмашиш, қўшма тадбирлар ўтказиш, турли ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва хавфсизлик хизматлари ўртасида маълумот алмашиш учун платформалар яратиш, фавқулодда вазиятларда ўзаро муносабатларни ривожлантириш учун қўшма операциялар ва машқларни бажариш, халқаро тармоқлар ва тажриба алмашиш ва энг яхши амалиётларни кенг татбиқ этиш, трансчегаравий ҳамкорликни амалга ошириш, трансмиллий таҳдидларга қарши курашиш учун бошқа мамлакатларнинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари билан ҳамкорлик қилиш)*.

Фикримизча, юқоридаги аниқланган камчиликлар асосида жамоат хавфсизлигини таъминлашда профайлинг технологияларини қўллашнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш мамлакатимизда жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олиш орқали аҳолининг осойишталигини таъминлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2024/Order%20;

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3-январдаги “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-1-сонли Қарори //http:www.lex.uz.//.

3. Шу ернинг ўзидан қаранг.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 18-августдаги “Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига маҳаллаларда жиноятчиликнинг барвақт олдини олиш тизими натижадорлигини янада оширишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ПҚ-253-сон Қарори //http:www.lex.uz.//.

5. Шу ернинг ўзидан қаранг.

6. http:www.lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси

CHUQUR O‘RGANISH USULLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA PROFAYLING ORQALI YOLG‘ONNI ANIQLASH MASALALARI

O.M.Bobojonov

O‘R JXU markazi katta ilmiy xodimi

t.f.b.f.d.(PhD), dotsent Sh.A.Xoliqov

O‘R JXU markazi bosh ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqola ALM-202310202738-sonli “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida foydalanish uchun innovatsion profayling texnologiyasini ishlab chiqish” maqsadli ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, unda inson hulq atvori - profayling sohasida so‘nggi paytlarda Chuqur o‘rganish (DL-deep learning) va Mashinali o‘rganish (ML-machine learning)dagi o‘zgarishlar tufayli innovatsion usullarning o‘sishi kuzatildi. Shunisi e’tiborga loyiqki, ushbu sohani yaxshilash uchun tadqiqotchilar endi yolg’onni aniqlashda (YA) natijalarni yaxshilaydigan chuqurroq tushunchalarga ega bo‘lish uchun tobora ko‘proq ilg‘or usullarni o‘rganmoqdalar. Shunday qilib, ushbu maqolada YA tadqiqotlarini o‘tkazishda qo‘llaniladigan usullar va yondashuvlar muhokama qilinadi va eng so‘nggi va yangi ishlanmalar e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: Yolg‘onni aniqlash, chuqur o‘rganish, mashinali o‘rganish, profayling,

Yolg‘on gapirish har doim og‘ir ijtimoiy va huquqiy masala, shuningdek, axloqiy masala bo‘lib kelgan. Bu haqiqatga mos kelmasligi mumkin bo‘lgan yuz ifodalari va jismoniy imo-ishoralarni ko‘rsatish bilan birga yolg‘on ma’lumotni taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, YA, aksincha, odamning rost yoki yolg‘on gapirayotganini aniqlay olish jihatini o‘z ichiga oladi. Ular og‘zaki va soz‘bilan ifoda etib bo‘lmaydigan muloqot, jismoniy javoblar va xatti-harakatlar modellari kabi turli usullardan foydalanadilar. Buni amalga oshirish ba’zan imkonsiz bo‘lsa-da, ochiq savol berish, respondentning javobini eng kam tayyorlagan savollarni berish va respondentni kognitiv jarayondan o‘tkazish kabi psixologik usullar mavjud, bu esa yolg‘on gapirishni ham charchatadi, ham qiyinlashtiradi.

Kundan kunga sur’at oshib bormoqda va yolg‘on gapirish o‘sish sur’atining muhim sababidir, shuning uchun YA hal qilinishi kerak bo‘lgan muhim masaladir.

Biroq, ba’zi odamlar mohir yolg‘onchilardir, bu yolg‘onni aniqlash qiyinligini oshiradi. Barkamol yolg‘onchining xususiyatlari hayratlanarli darajada minimal tadqiqotlar markazida bo‘ldi, garchi oltita xususiyat ayniqsa ahamiyatli bo‘lib ajralib turadi. Eng malakali yolg‘onchilar - bu **(I)** o‘zlarining tabiiy xatti-harakatlari bilan ishonchni uyg‘otadigan; **(II)** yolg‘on gapirishni kognitiv jihatdan qiyin deb hisoblamaslik; **(III)** yolg‘on gapirganda qo‘rquv, aybdorlik yoki quvonchni his qilmaydiganlar; **(IV)** halol tasvirni etkazadigan yaxshi aktyorlar, **(V)** tashqi ko‘rinishi va ruhiyati **(V)** go‘zal, xushbichim bo‘lishi mumkin.

Odamlar nafaqat yolg‘onchilarni fosh qilish uchun motivatsiyadan mahrum, na yolg‘onni aniqlash vazifasi qiyin, balki ular baholash jarayonida tizimli xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Bunday vaziyatda mashinalar yordam beradi va bizga yanada chuqurroq va qimmatli tushunchalar beradi.

Mashinani o‘rganish va chuqur o‘rganish tasnifi

So‘nggi yillarda AI va ML yaxshilanishi tufayli aldashni aniqlashga asosiy e’tibor qaratildi. Bir nechta tadqiqot ishlarida yolg‘onni aniqlaydigan avtomatlashtirilgan tizimlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish uchun turli xil texnika va yondashuvlar o‘rganildi. Bu soha falsafa, nazorat nazariyasi, nevrologiya, psixologiya va nevrologiya kabi fanlarni integratsiyalashganligi bilan tavsiflanadi, ularning barchasi uning rivojlanishiga hissa qo‘shadi [4]. O‘zining murakkabligi tufayli YA hali ham rivojlanayotgan tadqiqot sohasi bo‘lib, tadqiqotchilar doimiy ravishda turli yondashuvlarni sinab ko‘rishadi. Biroq, ML modellari bu sohada rivojlangan va ko‘plab ajoyib kashfiyotlarni ochib bergan. ML anomaliyalarni aniqlash, assotsiatsiya qoidalari, guruhlash, regressiya va tasniflash kabi turli vazifalarni bajarish uchun ishlatilishi mumkin. Garchi ML, bir nechta modalliklarning integratsiyasi bilan, bashoratli modellarning aniqligi va ishonchliligini oshirish va ma’lumotlarni yanada to‘liqroq tushunishga erishish uchun bir nechta ma’lumotlar manbalaridan foydalangan holda toifalash maydonini keskin yaxshilaydi.

Masalan, Sehravat va boshqalar. Firibgarlik xatti-harakatlarini aniqlash uchun vizual, eshitish va matn ma’lumotlarini birlashtirgan multimodal texnikani taklif qildi [5]. Ularning modeli ko‘plab usullardan ma’lumotlarni ajratib olish va birlashtirish uchun ilg‘or DL texnikasidan foydalangan, bu faqat bitta modallikni qo‘llaydigan

modellarga nisbatan aniqlash samaradorligini sezilarli darajada oshirishga olib keldi. Vu va boshqalar. Yangi modallikni chiqarish uchun audio oqimlar, video va transkripsiyalardan olingan ma’lumotlardan foydalangan holda multimodal usulni ishlab chiqdi [6]. Mikro-ifoda deb hisoblangan yuz harakatlari yana bir bor foydalaniladi va o‘qitilgan tasniflagich yordamida olinadi. Bundan tashqari, video ketma-ketliklar IDT (yaxshilangan zich traektoriyalar) yordamida tahlil qilinadi. Ovozli rejim mel-chastotali sepstral koeffitsientlarni (MFCC) ajratib oladi va kodlaydi. Oxir-oqibat, qo‘lqop (so‘zni ifodalash uchun global vektorlar) transkripsiyalarni tahlil qiladi. Tadqiqotchilar individual xususiyatlarni va ularning kombinatsiyalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kech termoyadroviy usuli yordamida o‘rganishdi, barcha usullarni birlashtirishda optimal natijalarga erishdilar.

AUC deyarli 70% bo‘lgan SVM klassifikatori Rill-Garsia va boshqalar tomonidan olingan. Ular 42 ta videodan iborat yangi ma’lumotlar to‘plamini to‘plagandan so‘ng, unda suhbatdoshlar abort haqidagi haqiqat va yolg‘on fikrlarini muhokama qilishdi [7]. Ular “ko‘rinish” va “modallik” darajalarida ochiq vositalardan foydalangan holda videolardan olingan aldashni aniqlash muammosi uchun yuqori darajadagi xususiyatlarni o‘rganishdi. Ularning yondashuvi DL yondashuvi bo‘lgan Uzoq-qisqa muddatli xotira tarmog‘i (LSTM-Long Short-Term Memory) bilan raqobatbardosh bo‘lgan kuchayishga asoslangan noyob texnikalar to‘plamini o‘z ichiga oladi. LSTM qatlami kadrlarni tahlil qilish ketma-ketligi va 200 ta yashirin birlik bilan ta’minlangan. Keyin LSTM qatlamining chiqishi 100 ta yashirin birlik bilan to‘liq bog‘langan qatlamga o‘tkaziladi. Nihoyat, bu to‘liq bog‘langan qatlamning chiqishi bitta chiqishga ega bo‘lgan boshqa to‘liq bog‘langan qatlamga beriladi. Ushbu dizaynni sinab ko‘rish uchun faqat vizual va audio usullardan foydalanilgan va natijalar mos ravishda 0,560 va 0,730 AUC (SVM qiymatlari mos ravishda 0,574 va 0,638 edi). Tadqiqotchi olim Xalil va boshqalar. [8] biosignallar yordamida miya kompyuterga asoslangan yolg‘onni aniqlashni joriy qildi va turli DL texnikasi bilan qayta ishlandi. Ularning modellarining aniqligi 44,0% dan 86,0% gacha bo‘lgan.

Tadqiqotchi olim Kashulok va boshqalar. [9] vaqtinchalik xususiyatlarni ajratib olish uchun Tayanch vektor mashinasi (SVM - Support Vector Machine) tasniflagichlari bilan birgalikda tezkor tabassum intensivligi detektorlari yordamida

o‘rganildi. Ular faqat yuz detektori yordamida yuz belgilarini lokalizatsiya qilmasdan yoki kuzatmasdan tabassum intensivligining vaqt seriyasini tahlil qildilar. Keyinchalik noto‘g‘ri etiketlangan ma’lumotlar to‘plamidan foydalangan holda treningni yaxshilash uchun SVM klassifikatori ishlatiladi. Keyin jilmayish detektorlari bir xil mahalliy ikkilik naqsh xususiyatlaridan foydalangan holda o‘qitiladi. Bu real vaqtda yuzaga kelgan va spontan reaktsiyalarni farqlash imkonini beradi. Su va boshqalar. [10] maqsadi yuqori stsenariylarda YA uchun yuz belgilari uchun kompyuterni ko‘rish texnikasining qo‘llanilishini baholash edi. Ular ko‘zning miltillashi, qoshlar harakati, ajinlar paydo bo‘lishi va og‘iz harakatlarining yuz tahlillarini o‘tkazdilar. Ular ularni yuzning to‘qqizta alohida mintaqasining o‘zgarmas 2D xususiyatlaridan foydalangan holda yuz xatti-harakati vektori bilan birlashtirdilar. Tasodifiy o‘rmon (RF - Random Forest) algoritmi naqshlarni to‘g‘ri yoki yolg‘on deb tasniflaydi.

Karnati va boshqalar. Bir nechta eksperimentlar o‘tkazdi, turli xil usullardan xususiyatlarni ajratib oldi va LieNet deb nomlangan yolg‘onni aniqlash uchun chuqur konvolyutsiyali neyron tarmoq asosini taqdim etdi [1]. U yolg‘onni aniqlash uchun kamsituvchi maslahatlarni topish uchun har bir usulni alohida baholaydi. LieNet o‘z ichiga ko‘plab miqyosli yadrolarni o‘z ichiga oladi, ular turli tasvir patchlaridan ko‘proq moslashuvchan va shovqin o‘zgarmas xususiyatlarni va kirish va chiqishga yaqinroq qatlamlar orasidagi qisqaroq ulanishlarni olishda yordam beradi, mashg‘ulotlar samaradorligi va ishonchliligini oshiradi. Ding va boshqalar. Haddan tashqari korrelyatsiya sinfining namunaga qarama-qarshi o‘rganish, meta-o‘rganish va o‘zaro oqim integratsiyasi orqali yuzga yo‘naltirilgan o‘zaro faoliyat tarmoqni (FFFCSN) yaxshilash uchun R-CNN tarmog‘ini aniqlash xususiyatlarini ajratib oldi. 93,16% aniqlik olindi. Bundan tashqari, model yuzni aniqlashda 84,33% aniqlikka erishdi [3]. FFCSN meta-ta’limni qarama-qarshi ta’lim bilan birlashtiradi. O‘rganishni o‘z ichiga olgan meta-o‘rganish modelni umumlashtirish qobiliyatini oshiradi va cheklangan o‘quv ma’lumotlariga haddan tashqari moslashishni oldini oladi. Shu bilan birga, ma’lumotlarni ko‘paytirish texnikasi qarama-qarshi ta’limga asoslangan xususiyatlar sintezini qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ikkita FFCSNni samarali birlashtirib, hatto juda siyrak ma’lumotlarga ega bo‘lgan haqiqiy hayotda aldamchilikni aniqlash mezonlarini ham o‘rgatish mumkin.

Tadqiqotda turli xil usullardan olingan bir qator xususiyatlardan foydalanilgan bo‘lsa ham, ommaga ochiq video ma’lumotlar to‘plamining cheklangan miqdori tufayli deyarli barchasi bir xil ma’lumotlar to‘plamidan foydalangan. Bundan tashqari, multimodal ma’lumotlar to‘plamiga qaratilgan tadqiqotlarda yagona DL modellari ishlatilgan; gibrid modellar biroz kam uchraydi. Ushbu tadqiqot loyihasi gibrid model va yangi ma’lumotlar to‘plamini ishlab chiqish orqali bunga qaratilgan.

Aldashni aniqlashda yuz ifodalari muhim rol o‘ynaydi. Biroq, o‘n yildan ortiq davom etgan empirik tadqiqotlar hali bu tasdiqning to‘g‘riligini ko‘rsatmadi. Garchi yuz ifodalari odamning haqiqatni gapirayotganini yoki o‘z ifodalari bilan ma’lumotni yashirishga harakat qilayotganini aniqlashda maslahat olish va yordam berishning eng yaxshi usuli bo‘lsa-da, ko‘plab psixologlar bu sohani o‘rganishdan yolg‘onni aniqlashning ko‘proq kognitiv usullariga e’tibor qaratdilar [11]. Bu iboralar har kimni nima harakatga keltirayotganini tushunishga yordam beradi. Xuddi shunday, mashinalar yolg‘onni aniqlashda foydalidir, chunki ular iboralarni osongina to‘plashi va tanib olishi mumkin. Mashinalar bir nechta yuz harakatlariga asoslangan yuz ifodalarini sharhlash uchun yuz harakat nuqtalaridan foydalanadi. Konstansio va boshqalarning fikriga ko‘ra, yolg‘onni aniqlash uchun hissiy xususiyatlar juda muhimdir, chunki yolg‘on hissiy holatlarga bog‘liq va hissiy holatlarga bog‘liq va yuz ifodalari his-tuyg‘ularni ifodalashning asosiy vositasidir. Ushbu iboralar ikki toifaga bo‘linadi: makro ifodalar va mikro ifodalar, bu bo‘limda muhokama qilinadi.

Mikro ifodalar - bu odamlar o‘zlarining his-tuyg‘ularini yoki niyatlarini yashirishga harakat qilganda tez, ongsiz yuz imo-ishoralari. Ular aldash uchun eng kuchli va doimiy ishoralar hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, odamlar yashirishga harakat qiladigan hissiyotlar bo‘lgan mikro ifodalar qo‘lda samarali tan olinishi mumkin. Bu mikro-iboralar aldashning ishonchli ko‘rsatkichidir. Biroq, haddan tashqari noyoblik tufayli, bir nechta tadqiqotlar mikro ifodalar haqida tashvish bildirdi. Mikro ifodalarni tanib olish va o‘qitishdan foydalangan holda yolg‘onni aniqlash qobiliyatini baholashda aniqlik va sabab o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q. Mikroiboralar chinakam his-tuyg‘ularning belgisi bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, aldash belgilari sifatida diagnostik ahamiyati pasayadi, chunki ular tartibsiz, oldindan aytib bo‘lmaydi va har doim ham firibgarlik holatlarida yuzaga kelmaydi. Ibratli yuz ifodalari

yuz harakat birligi (AU) tizimi bilan kodlangan muntazam yuz ifodalaridir. Tabiiy sozlamalardagi mikro ifodalar ba’zan juda past intensivlikdagi AU ni yaratishi mumkin bo‘lsa-da, ular mikro ifodalarga qaraganda uzoqroq davom etadi. Yuz ifodasini aniqlash bo‘yicha oldingi tadqiqotlar DLni boshqa metodologiyalar bilan birga qo‘llagan. Bu an'anaviy qadamlar ketma-ketligini ta’qib qilishni o‘z ichiga oldi, ular orasida nishonlarni ajratib olish, yuzlarni tanib olish va AU regressiyasini amalga oshirish kiradi [4]. Misol sifatida, Chang va boshqalar. [5] Harakat birliklarini (AU) hisoblash uchun konvolyutsion neyron tarmog‘idan (CNN) foydalangan va keyinchalik bu natijalardan valentlik va qo‘zg‘alish darajasini prognoz qilish uchun foydalangan. Ular valentlik-qo‘zg‘alishni baholash, harakat birligini aniqlash va yuz atributini aniqlash vazifalarini bajarish uchun integratsiyalangan DL arxitekturasi FATAUVA-Netni taqdim etdilar. Ular VA ni baholash uchun DL tizimida o‘rta darajadagi vakillik sifatida AUlardan foydalanganlar. Aksincha, Xurramiy va boshqalar. [6] normallashtirilgan yuz tasvirlari asosida valentlik va qo‘zg‘alish darajasini aniq prognoz qilish uchun keng qamrovli metodologiyadan foydalangan. CNN AUlarni bilvosita chiqarish uchun ishlatilgan. Ular his-tuyg‘ularni tan olishga o‘rgatilgan CNNlar sifat va statistik jihatdan FAUlarga yaqindan mos keladigan yuqori darajadagi xususiyatlarni modellashtirishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Zamonaviy kompyuter ko‘rish tadqiqotlarida yolg‘onni aniqlashni o‘rganish: ML, kompyuterni ko‘rish va kompyuter grafikasi sohasidagi tez o‘zgarishlar deyarli har bir sektor uchun ajoyib echimlarni ishlab chiqarish imkonini berdi [7]. Xuddi shu tarzda, ushbu yutuqlar uchun yolg‘onni aniqlash sohasi doimiy ravishda kengayib bormoqda. YA uchun kompyuter ko‘rish tizimlarini avtomatlashtirishga qaratilgan bir nechta tadqiqotlar aniqlandi. Uchta belgi ta’kidlangan: yuz ifodalari, qarashlardan nafratlanish va tana tili. Uchta signalning ba’zilari muayyan holatlarda aralashtiriladi. Yuzning mikro-imo-ishoralari LDda qimmatli ekanligini isbotlaydi, yuz ifodalari esa aldamchi munosabatlar haqida muhim tushunchalarni beradi. Kompyuterni ko‘rish - bu raqamli tasvirlar va videolarni talqin qilish va tushunish uchun mashinalarni jihozlashga intiladigan AI va informatika sohasi. Murakkab algoritmlar yordamida video orqali yozib olingan yoki ishlab chiqarilgan vizual ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish va talqin qilish mumkin. Bu LD tomon samarali yo‘lni taqdim etadi.

Masalan, yolg‘onni aniqlash sohasida Serras Pereyra va boshqalar. Bolalarga asosiy e’tibor qaratiladigan idrok va avtomatlashtirilgan ko‘rishga asoslangan tizimni solishtirdi. Ular bunday tasniflash uchun tana harakatlarining to‘g‘riligini o‘rganib chiqdilar va o‘yin muhitida o‘smirning rostgo‘y yoki yo‘qligini aniqlashning osonligini tahlil qilish uchun puxta metodologiyadan foydalanishdi. Ular olti yoshdan etti yoshgacha bo‘lgan bolalarni tekshirishdi, bu ularning xatti-harakatlari boshqa yosh guruhlaridagi odamlar bilan qanday bog‘liqligi haqidagi savolni tug‘diradi. Topilmalar shuni ko‘rsatdiki, sudyalar bir qator idrok tadqiqotlarida haqiqiy va yolg‘on tasvirlarni aniq farqlay olishlari va bolalar klipda qanchalik ko‘p harakat qilsalar, firibgarlik ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi. Ko‘zni kuzatish bo‘yicha tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, sudyalar tananing boshqa qismlarida sodir bo‘ladigan harakatga qaramay, birinchi navbatda, yuz mintaqasiga e’tibor berishadi. Singx va boshqalar. Yolg‘onni aniqlash uchun tasvirni qayta ishlash usullaridan foydalanishning yangi usulini ishlab chiqdi. Ularning usuli kiritilgan video tasvirdan odamning ko‘z ochib miltillashini samarali kuzatib boradi va hisoblaydi. Ko‘zlar orasidagi miltillash oralig‘i va o‘lchangan miltillash tezligi kimdir haqiqat yoki yolg‘on gapirayotganini tezda aniqlashi mumkin. Su va boshqalar. Yuz belgilarini aldash belgilari sifatida yuqori darajadagi stsenariylarda ishlatish mumkinmi yoki yo‘qligini o‘rganib chiqdi. Kompyuter video tahlilining uch bosqichi ularning usulini o‘z ichiga oladi: oldindan ishlov berish, dinamik xususiyatlarni tahlil qilish va tasniflash. Yuzni aniqlash va yuz belgilarini lokalizatsiya qilish dastlab yuzni ro‘yxatga olish uchun dastlabki ishlov berish bosqichida qo‘llaniladi. Keyinchalik, antropotsentrik model yuzni bir nechta yuz mintaqalariga ajratadi.

Satpathi va boshqalar. Inson subyektlarida yuzning termal tasviri yordamida yolg‘onni aniqlash uchun yondashuvni ishlab chiqdi. Ular beg‘araz tibbiy ko‘rik evaziga davlat shifoxonasida vaqt o‘tishi bilan bir necha shaxslarni kuzatish orqali deyarli real hayotdagi o‘g‘irlik holatlari asosida ma’lumotlar bazasini yaratdilar. Feng birinchi navbatda yuz ifodalariga asoslangan videolarda yolg‘onni aniqlashning keng qamrovli usulini ishlab chiqdi. Ular dastlab videokliplardan foydalanib, odamlarning yuz ifodalarining vaqtli tasvirlarini yaratishdi [2]. Keyinchalik, ular kamerada olingan odamlarning yuzlari tasvirlarini kodlash vektorlariga aylantirish uchun kompyuter

ko‘rish texnikasidan foydalanganlar va ular haqiqat yoki noto‘g‘riligini taxmin qilish uchun ularni tasniflashdi. Bundan tashqari, Xan va boshqalar. Ilg‘or kompyuter ko‘rish va ML texnikasini qo‘llagan va og‘zaki bo‘lmagan firibgarlik xatti-harakatlarini taqlid qilish uchun real vaqtda aldashni aniqlash usuli ishlab chiqilgan. Yolg‘onni aniqlash uchun ko‘rish, matn va audio ma’lumotlar videolaridan foydalangan. Yangi usul yuqori samaradorlikka erishish uchun yuqori va past darajadagi mikro ifodalarni birlashtirdi.

Mavjud aldash ma’lumotlar to‘plami: Yolg‘onchilik bo‘yicha tadqiqotlar uchun jiddiy cheklov - bu aniqroq izohlangan, aniq va yaxshi tuzilgan ma’lumotlar to‘plamlariga bo‘lgan ehtiyoj. Haqiqiy dunyoda izohli aldamchi ma’lumotlarni olish odatda qiyin bo‘lganligi sababli, ko‘plab tadqiqotchilar odamlarga yolg‘onchilik qilishlari uchun pul to‘lash orqali o‘zlarining yolg‘on ma’lumotlar to‘plamini yaratadilar. 1-rasmda ko‘rsatilganidek, ommaga ochiq bo‘lgan to‘rtta yolg‘onni aniqlash ma’lumotlar to‘plami, uchtasi past kontekstli va biri yuqori kontekstli kontekstli o‘rganiladi.



a) Yolg‘on qutusi ma’lumotlar bazasidan (Ma’lumotnomadan qayta chop etilgan)



b) Haqiqiy sinov ma’lumotlar bazasi (Ma’lumotnomadan qayta chop etilgan)



c) Ijtimoy tarmoqlardan (Ma’lumotnomadan qayta chop etilgan)

1-rasm . Barchaga ma’lum aldamchi video ma’lumotlar to‘plami

Yolg‘on sumkasi: Multimodal ma’lumotlar to‘plami Bag-of-lies (BgL) audio va video singari ko‘plab usullarda aldovni aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ma’lumotlar to‘plami yolg‘onning kognitiv tomonini tekshirish va uni ko‘rish bilan birlashtirishda ma’lumotlarni to‘plash uchun real muhitni ta’minlaydi. O‘ttiz beshta alohida mavzular BgL-dan iborat bo‘lib, u haqiqat va yolg‘onning muvozanatli taqsimlanishi bilan 325 ta izohli namunalarni taklif qiladi. Tadqiqotchilar ushbu ma’lumotlar to‘plamidan yolg‘onni aniqlash algoritmlarini yaxshilash va ularni amaliy vaziyatlarda ko‘proq qo‘llash uchun foydalanadilar. Namunalar shu tarzda olinadi: Ishtirokchidan ekranda ko‘rsatilgan fotosuratni tasvirlash so‘raladi. Ishtirokchi fotosuratni halol yoki insof bilan aytishni hal qilishi mumkin.

Yolg‘on qutisi: Box-of-Lies (BxL) ma’lumotlar to‘plami tungi teledasturda namoyish etilgan bir xil nomdagi o‘yindan olingan. Ushbu dasturda mezbon va mehmon navbatma-navbat ob'ektni haqiqiy yoki soxta deb ta’riflaydi yoki raqibning harakatiga qarab, tavsifning to‘g‘ri ko‘rinishini aniqlaydi. Lingvistik va so‘zlashuv elementlaridan tashqari, ko‘z, ko‘z, lablar, qoshlar, yuz va bosh kabi turli xil noverbal signallar vaqt davomida qo‘lda asoslab berilgan.

Haqiqiy hayot sinovlari: Peres-Rosas va boshqalar. muhim qoziqlar tufayli sud sud ma’lumotlarida aldash aniqlash muhimligini ta’kidladi. Bunga erishish uchun ular ayblanuvchilar va guvohlarning haqiqat va yolg‘on bayonotlarini farqlash uchun og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan usullardan foydalanadigan multimodal aldovni aniqlash tizimini ochdilar. Ular, shuningdek, haqiqiy sud jarayonlaridan lavhalarni o‘z ichiga olgan yangi ma’lumotlar to‘plami bo‘lgan Real-Life trial (RL) ni taqdim etdilar.

Ijtimoy tarmoqlardan yolg‘onni aniqlash ma’lumotlar bazasi: Bepul resurs, Ma’lumotlar bazasi haqiqatni va yolg‘on gapiradigan odamlarning 320 ta videosiga ega. Yigirmata qora tanli ayol, yigirma nafar qora tanli erkak, yigirma nafar oq tanli ayol va yigirma nafar oq erkakni o‘z ichiga olgan saksonta nishon ularning ijtimoiy o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri va aldamchi tarzda muhokama qilgani qayd etilgan. Maqsadli irq, maqsadli jins, bayonotning valentligi va bayonotning haqiqatligini to‘liq qamrab oluvchi uch yuz yigirmata video ishlab chiqarildi. Ijobiy va salbiy haqiqatlar va yolg‘onlarni o‘z ichiga olgan to‘rtta film har bir maqsad tomonidan yaratilgan bo‘lib, tadqiqot yo‘nalishlarini o‘rganish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan to‘liq kesishgan ma’lumotlar to‘plamini yaratdi. Oddiy baholovchilar videolarni transkripsiya qildilar va baholadilar va video xususiyatlarining sub'ektiv baholari va tavsifiy tahlillarini ishlab chiqdilar.

Xulosa

Ushbu maqola natijalari shuni ko‘rsatadiki, chuqur o‘rganish (DL) va mashinali o‘rganish (ML) texnologiyalarining rivojlanishi profayling asosida yolg‘onni aniqlash jarayonida yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Multimodal yondashuvlar—matn, ovoz, yuz ifodasi va fiziologik signallarni birgalikda tahlil qilish—an’anaviy usullarga nisbatan yuqori aniqlik va ishonchlilikni ta’minlamoqda. Bu esa inson xulq-atvorini

chuqurroq o‘rganish hamda yashirin yolg‘on indikatorlarini samarali aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, ushbu sohada ma’lumotlar yetishmasligi, madaniy farqlar, etik va maxfiylik bilan bog‘liq cheklovlar hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Kelgusida real hayotga yaqin ma’lumotlar bazasini yaratish, izohlanadigan va adolatli modellarni ishlab chiqish hamda inson omilini qaror qabul qilish jarayoniga kiritish orqali yolg‘onni aniqlash tizimlarini yanada ishonchli va amaliy qilish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Karnati, A. Seal, A. Yazidi, O. Krejcar. LieNet: A deep convolution neural network framework for detecting deception. IEEE Trans. Cogn. Dev. Syst., 14 (3) 2021, pp. 971-984 10.1109/TCDS.2021.3086011 Google Scholar.

2.10. W. Khan, K. Crockett, J. O’Shea, A. Hussain, B. M. Khan. Deception in the eyes of deceiver: A computer vision and machine learning based automated deception detection. Expert. Syst. Appl., 169 2021 (Art. no. 114341) 10.1016/j.eswa.2020.114341.

3.13. M. Ding, A. Zhao, Z. Lu, T. Xiang, J. -R. Wen. IEEE/CVF Conf. Comput. Vis. Pattern Recognit. (2019), pp. 7802-7811.

4.16. J. Alzubi, A. Nayyar, A. Kumar. Machine learning from theory to algorithms: An overview. J. Phys.: Conf. Series, 1142 (2018, Art. no. 012012) 10.1088/1742-6596/1142/1/012012.

5.17. P. K. Sehrawat, R. Kumar, N. Kumar, D. K. Vishwakarma. 2023 Int. Conf. Innov. Data Commun. Technol. App. (ICIDCA). *(2023), pp. 318-326.*

6.18. Z. Wu, B. Singh, L. Davis, V. Subrahmanian. Deception detection in videos. *AAAI Conf. Artif. Intell., 32 (1) (2018). 10.1609/aaai.v32i1.11502.*

7.19. R. Rill-García, H. Jair Escalante, L. Villasenor-Pineda, V. Reyes-Meza. IEEE/CVF Conf. Comput. Vis. Pattern Recognit. (2019).

8.20. M. A. Khalil, J. Can, K. George. 2023 IEEE 13th Annu. Comput. Commun. Workshop Conf. (CCWC). *(2023), pp. 189-192.*

9.21. M. Kawulok, J. Nalepa, K. Nurzynska, B. Smolka. 15th Ibero-Am. Conf. AI. *(Nov. 23–25), pp. 325-337. 2016.*

10.22. L. Su, M. Levine. Does “Lie to me lie to you? an evaluation of facial clues to high-stakes deception. *Comput. Vis. Image Underst., 147 (2) (2016), pp. 52-68. 10.1016/j.cviu.2016.01.009.*

11.23. M. Zloteanu. Deception: An Interdisciplinary Exploration. *(2015), pp. 203-217.*

IJTIMOIY TARMOQLAR SAHIFASI KIBERPROFAYLINGI MASALASI

yu.f.f.d.(PhD), k.i.x. A.A.Ikanov
Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi boshlig‘i
t.f.f.d.(PhD), dotsent Sh.A.Xoliqov
Jamoat xavfsizligi universiteti Jamoat xavfsizligi universiteti Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqola ALM-202310202738-sonli “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida foydalanish uchun innovatsion profayling texnologiyasini ishlab chiqish” maqsadli ilmiy-amaliy tadqiqot loyihasi doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, unda ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchi faoliyati asosida shaxsiy xususiyatlarni tahlil qilish va uning psixologik hamda ijtimoiy portretini shakllantirish jarayoni – kiberprofayling masalasi chuqur yoritilgan. Kiberprofaylingning nazariy asoslari, qo‘llaniladigan metodlari, texnologik yondashuvlari, amaliy qo‘llanish imkoniyatlari hamda huquqiy-axloqiy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘layotgan xavflar, shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi va ularning ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanishi masalalari keng yoritilib, mazkur yo‘nalishning kelajak istiqbollari haqida ilmiy mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, kiberprofayling, raqamli izlar, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlar, psixolingvistika, sun’iy intellekt, kriminologiya.

XXI asrning axborotlashgan jamiyati sharoitida internet va ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok, X (Twitter), LinkedIn kabi platformalarda milliardlab foydalanuvchilar o‘z hayotini aks ettiruvchi ma’lumotlarni muntazam ravishda almashadilar. Ushbu ma’lumotlar faqatgina kommunikatsiya vositasi sifatida emas, balki inson shaxsini tahlil qilish va uni turli mezonlar bo‘yicha baholash imkonini beruvchi katta axborot manbaiga aylanmoqda. Kiberprofayling aynan shunday imkoniyatlardan foydalanadigan ilmiy-amaliy yo‘nalish bo‘lib, u insonning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati orqali uning shaxsiy xususiyatlarini, qarashlarini, ijtimoiy mavqeini va ehtimoliy xatti-harakatlarini aniqlashga qaratilgan.

Kiberprofayling tushunchasi asosan an’anaviy profayling nazariyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Profiling dastlab kriminal psixologiya va kriminalistika sohalarida jinoyatchining xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali uning shaxsiy portretini tuzish usuli sifatida shakllangan. Biroq raqamli davrda shaxslar o‘z faoliyatining katta qismini virtual makonda olib borayotganligi sababli, profiling usullari ham yangi ko‘rinishga – kiberprofaylingga aylandi. Bu jarayonning mohiyati insonning raqamli izlarini yig‘ish va tahlil qilishga asoslangan. Raqamli izlar qatoriga foydalanuvchilarning yozuvlari, izohlari, turli mavzulardagi munosabatlari, fotosurat va videolari, hatto ularning qaysi vaqt oralig‘ida faol bo‘lishi ham kiradi. Shu tarzda yig‘ilgan ma’lumotlar inson shaxsining ijtimoiy va psixologik qiyofasini tiklash imkonini beradi.

Markazda joylashgan **“Cyber Behavioral Analysis” (Kiber xulq-atvor tahlili)** — bu jinoyatchining raqamli muhitdagi harakatlari, odatlari, maqsadi va motivlarini o‘rganishga asoslangan uslubdir. Bu tahlil orqali jinoyatchining shaxsiy portreti, ehtimoliy niyatlari va kelajakdagi harakatlari haqida xulosalar chiqariladi.

Tizim ikki asosiy yondashuvga tayanadi:

1. **Deduktiv Profiling.** Bu yondashuvda mavjud dalillar, faktlar va raqamli izlar asosida jinoyatchining shaxsiy portreti tuziladi. U quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- **Open Source Intelligence (Ochiq manbalardan razvedka):** Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ochiq ma’lumotlar orqali jinoyatchi haqida ma’lumot yig‘ish.
- **Victimology (Viktimologiya):** Jabrlanuvchi shaxsi, uning odatlari va faoliyati asosida jinoyatchi haqida ma’lumot olish.
- **Modus Operandi (Harakat uslubi):** Jinoyatchining doimiy takrorlanadigan usullari, kiberhujumlarni amalga oshirish texnikalari.
- **Motive (Motiv):** Jinoyatning sababini, masalan, moliyaviy foyda, siyosiy maqsad, shaxsiy adovat yoki tajriba orttirish kabi omillarni aniqlash.
- **Digital Forensics va Digital Criminalistics:** Kompyuter, mobil qurilma va tarmoq izlarini o‘rganish, raqamli dalillarni ilmiy asosda tahlil qilish.

Ushbu yo‘nalishlar kiberjinoyatchining **shaxsiyati va xulq-atvorini dalillarga tayangan holda** ochib beradi.

2. **Induktiv Profiling.** Bu yondashuv jinoyatchilarning umumiy tipologiyasiga asoslanadi. U ma’lum kiberjinoyatchi guruhlari, ularning xatti-harakatlari va odatiy naqshlarini (patterns) o‘rganishga qaratilgan. Masalan: xakerlar, firibgarlar, kiberjosuslar, “kriptovaluta jinoyatchilari” kabi kategoriyalar.

Induktiv profilingning asosiy ustunligi shundaki, u jinoyatchining aniq shaxsiy izlari topilmagan taqdirda ham, avvalgi tajribalar va statistik kuzatuvlarga tayangan holda **jinoyatchi portretini umumlashtirib** beradi (1-rasm).



1-rasm. Kiberprofaylingning qo‘llanilish sohalari

Kiberprofayling metodologiyasi murakkab va ko‘p bosqichli jarayondan iboratdir. Avvalo, ma’lumotlarni yig‘ish bosqichi amalga oshiriladi, bunda ochiq manbalardan (open source intelligence – OSINT) foydalaniladi. Keyingi bosqichda ma’lumotlar semantik, lingvistik va psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Masalan, foydalanuvchi matnlaridagi iboralar, ularning hissiy ranglari, ishlatiladigan metaforalar yoki til uslubi shaxsning ruhiy holatini, qiziqish doirasini va ijtimoiy qarashlarini aniqlashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, vizual materiallarni tahlil qilish orqali shaxsning moddiy ahvoli, estetik qarashlari va turmush tarzi haqida xulosalar chiqarish mumkin.

Kiberprofaylingning yana bir muhim yo‘nalishi bu ijtimoiy tarmoq aloqalari tahlilidir. Har bir foydalanuvchi o‘zining virtual “aloqalar tarmog‘i”ga ega bo‘lib, bu doira uning shaxsiy qadriyatlari, ijtimoiy mavqei va hatto mafkuraviy qarashlari haqida ham ma’lumot beradi. Ijtimoiy tarmoqlarni graf tahlili orqali foydalanuvchining qaysi guruhlarga mansubligini, kimlar bilan faol aloqada ekanini va uning tarmoqdagi nufuzini aniqlash mumkin (2-rasm).



2-rasm. Foydalanuvchi ijtimoiy aloqalari grafik tahlili

So‘nggi yillarda kiberprofaylingda mashina o‘rganish va sun’iy intellekt texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Natural Language Processing (NLP), Sentiment Analysis va Computer Vision kabi algoritmlar katta hajmdagi matn va tasvirlarni avtomatik tahlil qilish imkonini bermoqda. Bu texnologiyalar yordamida foydalanuvchilarning kayfiyatlari, siyosiy qarashlari, xulqiy tendensiyalari hamda potentsial xavfli xatti-harakatlari prognoz qilinadi. Misol uchun, terrorchilik tashkilotlariga aloqador shaxslarni ijtimoiy tarmoqlar orqali erta bosqichda aniqlash yoki onlayn firibgarlik faoliyatini kuzatish uchun kiberprofayling vositalari samarali qo‘llanilmoqda.

Amaliy jihatdan kiberprofaylingning qo‘llanilish sohasi juda keng. Huquqni muhofaza qilish organlari jinoyatchilikni oldini olish va jinoyatchilarni aniqlashda, milliy xavfsizlik idoralari esa ekstremistik va terrorchilik faoliyatini fosh etishda undan foydalanadilar. Kiberxavfsizlik sohasida kiberprofayling fishing, zararli dastur tarqatish va boshqa turdagi kiberjinoyatlarni erta bosqichda aniqlashda qo‘l keladi. Shu bilan birga, tijorat kompaniyalari ham ushbu metoddan keng foydalanmoqda. Masalan, marketing sohasida mijozlarning qiziqishlarini va iste’molchilarning xatti-harakatlarini o‘rganish, HR bo‘limlarida esa nomzodlarni baholash va ularning shaxsiy sifatlarini tahlil qilishda kiberprofayling muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Biroq kiberprofayling texnologiyalarining keng qo‘llanilishi bir qator muammolarni ham yuzaga keltiradi. Eng katta muammolardan biri bu shaxsiy hayot daxlsizligi va ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash masalasidir. Har bir inson o‘z shaxsiy hayoti himoya qilinishini xohlaydi, ammo ijtimoiy tarmoqlardagi ortiqcha ochiqlik va o‘zini namoyish qilish istagi ko‘plab xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, kiberprofayling natijalaridan noto‘g‘ri foydalanish inson huquqlari buzilishiga sabab bo‘lish ehtimoli ham mavjud. Shu bois, mazkur jarayonni amalga oshirishda xalqaro me’yorlar, inson huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyalar va milliy qonunchilik talablari qat’iy rioya qilinishi zarur.

Natijalar va muhokama:

O‘tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kiberprofayling ijtimoiy tarmoqlardagi raqamli izlar orqali shaxs haqida keng ko‘lamli va chuqur xulosalar chiqarishga imkon beradi. Bu esa uni nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliyotda ham

samarali vosita sifatida qo‘llash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, mazkur texnologiyaning huquqiy, axloqiy va texnologik jihatlarini takomillashtirish zaruriyati ham mavjud bo‘lib, bu masala kiberprofaylingning kelajakdagi rivojlanishini belgilab beradi.

Xulosa

Ijtimoiy tarmoqlar sahifasi kiberprofaylingi zamonaviy axborotlashgan jamiyatda inson faoliyatini o‘rganishning innovatsion va samarali vositasi sifatida shakllanmoqda. U huquqni muhofaza qilish, kiberxavfsizlik, marketing va kadrlar siyosati kabi sohalarda amaliy natijalar bermoqda. Shu bilan birga, kiberprofayling inson huquqlari va axborot maxfiyligini himoya qilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayonning etik jihatlari kelajakda yanada chuqurroq o‘rganilishi zarur. Kiberprofayling texnologiyalarini sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashtirish, ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish va xalqaro standartlarni ishlab chiqish ushbu yo‘nalishning yanada samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kosinski, M., Stillwell, D., Graepel, T. (2013). *Private traits and attributes are predictable from digital records of human behavior*. PNAS.
2. Turban, E., Sharda, R., Delen, D. (2017). *Decision Support and Business Intelligence Systems*. Pearson.
3. Tene, O., Polonetsky, J. (2012). *Big Data for All: Privacy and User Control in the Age of Analytics*. Northwestern Journal of Technology and Intellectual Property.
4. Zafar, H., Ko, M. (2020). *Cyber Profiling: Understanding User Behavior on Social Media*. Journal of Information Systems Security.
5. Ўзбекистон Республикаси “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019.
6. Castelluccia, C., De Montjoye, Y.-A., & Shokri, R. (2014). *Privacy in the Age of Big Data*. IEEE Security & Privacy.
7. Solove, D. (2021). *Understanding Privacy*. Harvard University Press.

SUITSIDAL TERRORCHILIK FAOLIYATI: XULQ-ATVOR TAHLILI VA ANTI-PROFAYLING STRATEGIYALAR

Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi, stajyor-tadqiqotchisi,
Baxriddinov Azamat Ortiqmirzayevich

Annotatsiya: *Xudkush-terrorchilik global xavfsizlik uchun yuqori darajadagi tahdid sanaladi. Ularning xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali potensial xavfni erta aniqlash va bartaraf etish imkoni mavjud. Shu bilan birga, terroristik guruhlar tomonidan qo‘llanilayotgan anti-profayling strategiyalari oddiy profayling usullarining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Ushbu maqolada xudkush-terrorchilarning xatti-harakatlar, tashqi ko‘rinish va psixologik portretiga oid xususiyatlar, shuningdek ular tomonidan ishlatiladigan anti-profayling texnologiyalar tahlil qilinadi. O‘zbekiston misolida o‘rganilgan tarixiy voqealar asosida amaliy jihatlar yoritilgan bo‘lib, ushbu tadqiqot profilaktika choralarini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.*

O‘zbekiston hududida suitsidal terrorchilik ilk bor 2004-yil 29-mart kuni Toshkent shahrida sodir bo‘lgan. Shayxontohur tumani IIB xodimlari qarshisida ayol shaxs tomonidan portlovchi moslama ishga tushirilgan. Oradan ko‘p o‘tmay, xuddi shu kunda “Chorsu” bozorida yana bir xudkush-terrorchi o‘zini portlatgan. 1-aprel kuni esa portlovchi modda tanasiga mahkamlangan shaxs ushlanishi chog‘ida o‘zini yo‘q qilgan. 30-iyulda AQSH va Isroil elchixonalari hamda O‘zbekiston Bosh prokuraturasi yaqinida sodir etilgan portlashlar oldingi hujumlar bilan bog‘liq sud jarayoniga qarshilik ko‘rsatish sifatida talqin etilgan. 2009-yil Andijonda yuz bergan hujum ham ushbu ketma-ketlikdagi holatlardan biridir.

Bu hodisalar shuni ko‘rsatdiki, suitsidal terrorchilik faoliyatini erta aniqlash va jamoat joylarida qatlamli xavfsizlik choralarini kuchaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, oddiy fuqarolar gavjum bo‘ladigan bozorlar, avtostansiyalar va istirohat bog‘lari xavf darajasi yuqori zonalar sifatida ko‘riladi.

Xudkush-terrorchining xatti-harakat profili

Terrorchining xatti-harakatidagi muayyan noaniqliklar, asabiylik, harakatlardagi g‘alatilik, joyida tinmay harakat qilish, qo‘l harakatlari, ko‘zning doimiy o‘zgarib turishi, tanasini to‘g‘rilab turish, og‘ir nafas olish va so‘zlardagi chalkashliklar xavfni oshiruvchi signal bo‘lishi mumkin. Harakatlanishdagi silliqlikning yo‘qolishi, xavfsizlik punktlari yaqinida yo‘nalishni o‘zgartirish, ortiqcha kuzatish, kameralarni nishonga olish yoki xavfsizlik xodimlariga e’tibor qaratish kabi harakatlar ham kuzatuv ostiga olish uchun asos bo‘ladi.

So‘zlashuvdagi o‘ziga xosliklar, masalan, savollarga javob bermaslik yoki noto‘g‘ri javoblar, gapirayotganda ovozda o‘zgarishlar va muloqotdan qochish holatlari alohida e’tiborga loyiq. Ba’zan jim turish yoki haddan ziyod so‘zlashish ham stress natijasida yuzaga kelgan psixologik stress belgisi bo‘lishi mumkin. Bu jarayonlarning barchasi real voqelikdan ajralgan holda emas, balki boshqa belgilarga ulanib baholanishi zarur.

Xudkush-terrorchilar odatda ob-havo sharoitiga mos kelmaydigan kiyimlar kiygan bo‘lishi mumkin. Masalan, yozda qalin kurtka yoki keng, bo‘sh kiyimlar tanadagi portlovchi moslamani yashirishga xizmat qilishi mumkin. Kiyinishdagi beqarorlik, yelkalar va qo‘llar harakatining tabiiy emasligi, ortiqcha yuklar – hammasi tekshiruv uchun signal hisoblanadi. Ularda, shuningdek, yuz rangining o‘zgarishi, terlash, lab va ko‘z harakatlarining faolligi, boshni pastga qarab tutish va atrofni kuzatish kuzatiladi. Xudkush-terrorchilar ko‘pincha jamiyatdan ajralgan, yolg‘izlikka yuz tutgan shaxslar bo‘ladi. Ular hayotida muayyan bosqichda stress, depressiya yoki o‘z hayotining mazmunini yo‘qotganlik hissini boshdan kechirgan bo‘lishi mumkin. Ko‘plab hollarda bunday shaxslar radikal g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan muhitga tushib qolgan bo‘ladi. Radikal guruhlar, ayniqsa, ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy inqirozga uchraganlarni yollash orqali o‘z saflarini kengaytiradi. Ular shaxsiy fojialarni umumiy mafkuraviy kurash sifatida talqin qilishga o‘rgatiladi.

Terrorchilar tomonidan qo‘llaniladigan anti-profayling strategiyalar

Zamonaviy terroristik guruhlar o’z maqsadlariga erishish uchun, profayling usullarining samaradorligini pasaytiruvchi anti-profayling texnologiyalarini ishlab chiqganliklari bo’yicha bir nechta dalillar qo’lga kiritilgan. Ular tashqi ko‘rinish, xatti-harakat, til va

muloqot tarzida "e'tiborga loyiq emasdek" ko‘rinishga harakat qiladilar. Terroristik guruhlar o’z a’zolariga qanday kiyinish, qanday so‘z ishlatish, kim bilan aloqada bo‘lish va qayerda qanday muomala qilish kabi ko‘rsatmalar beriladi. Bunday yondashuv odatda konspiratsiya tamoyillariga asoslanadi. Shu orqali ular xavfsizlik tizimlari e’tiboridan chetda qolishga intiladi. Terrorchi shaxslar jamiyatda faol ko‘ngilli, hayriya ishlari bilan shug‘ullanuvchi, hatto diniy yoki ma’naviy targ‘ibotchi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Mahalliy fuqarolarga yordam ko‘rsatish, ijtimoiy obro‘ orttirish orqali ular o‘z shubhali harakatlarini yashirishga muvaffaq bo‘lishadi. Bunday shaxslar e’tiborni kam tortganliklari uchun xavfsizlik xodimlari ro‘yxatidan chetda qolishadi.

Shuningdek, ular ko‘p hollarda soxta hujjatlar, yolg‘on manzillar, bir nechta ism yoki hujjatdagi ma’lumotlar orqali aniqlash jarayonini murakkablashtiradi. Jamoat transportidan foydalanish, naqd pulda to‘lov qilish, GPS va mobil kuzatuv hamda kameradan qochish ham keng qo‘llaniladi. Shifrlangan messenjerlar, VPN, ommaviy Wi-Fi tarmoqlari orqali muloqot yuritish esa ularning kuzatuvdan qochish taktikasi sifatida xizmat qiladi.

Terrorchilar ijtimoiy integratsiyaga ham e’tibor qaratadi. Ular jamiyatga qo‘shilib, ta’lim muassasalarida o‘qish, oddiy kasblarda ishlash orqali yashirin rejalarini amalga oshirishga tayyorlanadi. Ba’zida esa ular kasalxonalar yoki boshqa muassasalarda yashirishga urinishadi.

Xulosa: Suitsidal terrorchilik hodisasining oldini olishda xatti-harakatni kuzatish, tashqi belgilarni tahlil qilish, ijtimoiy-psixologik portretni o‘rganish va texnologik izlarni monitoring qilish muhim ahamiyatga ega. Biroq terrorchilar tomonidan qo‘llanilayotgan anti-profayling strategiyalari mavjud xavfsizlik tizimlari samaradorligini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bois, xavfsizlik xodimlari va jamoat tartibini ta'minlovchi tashkilotlar zamonaviy yondashuv va treninglar yordamida o‘z ko‘nikmalarini takomillashtirishi zarur.

Ayniqsa, mahalliy sharoitda suitsidal terrorchilikka qarshi kurashda xatti-harakatlarni aniqlashga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlar, SCaN (See-Check-and-Notify) tamoyillari, qatlamli himoya tizimlari va jamiyat bilan o‘zaro aloqaga asoslangan “erta ogohlantirish

mexanizmlari”ni joriy etish muhimdir. Xulq-atvorda “odatiylik”ni bilish, tahdid indikatorlarini klaster asosida baholash va ehtiyotkorlik bilan kuzatish – xavfsizlikni ta’minlashning zamonaviy yo‘llaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

10. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi axborot xizmati (2004–2009).
11. Suitsidal terrorchilikka oid OAV arxivlari (BBC Uzbek, RFE/RL, Gazeta.uz).
12. Chatham House (2004). *Security Challenges in Central Asia*.
13. DHS (US Department of Homeland Security), *Behavioral Indicators Guidance*.
14. ProtectUK & NPSA (UK), *Crowded Places Guidance & SCaN Manual*.
15. Gill, P. et al. (2013). *Lone-actor terrorism: a behavioral analysis*.
16. RAND Corporation (2011). *Suicide Attacks Trends and Forecasting*.
17. CREST Research (UK), *Identifying Hostile Reconnaissance*.
18. AQSH Davlat Departamenti, *Violent Extremism Indicators Toolkit*.

Boshqaruv tizimida shaxslararo munosabatlar va muloqot

Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi boshlig‘i, psixol.f.b.f.d. (PhD)

podpolkovnik Tursunov Burxon Saydaxmatovich

Davlat tashkilotlarida rahbarning orni va ahamiyati juda muxim sanaladi. Rahbar kundalik faoliyatining asosiy qismi muloqot jarayonidan iborat desak mubolag’a bo’lmaydi. Rahbar tashkilotdagi faoliyatini, xodimlar faoliyatini, qabul qilingan qarorlarning ijrosini tashkil etish, nazorat qilish hamda xodimlar faoliyatini rag‘batlantirish muloqot jarayoni orqali amalga oshiriladi.

Muloqot insonning jamiyatda hayot faoliyatining asosiy usulidir. Inson o‘zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish davomida muloqotga kirishish orqali ishlab chiqarish, siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy, axloqiy va turli munosabatlarga kirishadi. Ishlab chiqarish jarayonida rejalashtirish, tashkil etish, rag’batlantirish va nazoratni ko‘zda tutadigan boshqaruv ko‘rinishidagi faoliyatga ehtiyoj vujudga keladi. Bu vazifalarni bajarish rahbarlik muloqoti bilan chambarchas bog‘liq.

Rahbarlik muloqoti – bu boshqaruv vazifalarini amalga oshirish zarurati bilan yuzaga keladigan muloqot sanaladi.

Biz rahbarlik muloqotining bir necha shakllariga ajratamiz:

1.Muloqotning subordinazasiya shakli. Bu rahbar bilan bo‘ysunuvchilarning o‘rtasidagi ma'muriy va huquqiy normalarga asoslangan muloqot shaklidir. Bunday muloqot rahbar bilan bo’ysinuvchi, shuningdek, yuqori darajadagi rahbarlar o‘rtasida sodir bo‘ladi.

2. Xizmat va o'rtoqlik muloqot shakli. Bu ma'muriy va axloqiy me'yorlarga asoslangan hamkasblar o'rtasidagi o’zaro muloqotdir.

3. Muloqotning do'stona shakli. Bu rahbarlar, rahbarlar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi o’zaro muloqotdir. Bunday muloqot o'zaro munosabatlarning axloqiy va

psixologik normalariga asoslanadi.

Takidlash joizki bunday muloqot shakllari albatta rahbarga bo'ysinuvchilar bilan o'zaro muloqot o'rnatish hamda ishni tug'ri tashkil etishga salmoqli yordam beradi.

Takidlash joizki, boshqaruv muloqotining tamoyillariga quyidagilar kiradi:

Xodimlarning shaxsiy potensialini, ularning kasbiy bilimlari, tajribasi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun shart-sharoitlarni yaratish tamoyili. Bunga asosan rahbarning vakolatlarini topshirishi, ya'ni rahbarning faoliyat doirasidan bir qator vazifalarni yoki muayyan faoliyat turlarini bo'ysunuvchilarga o'tkazishi kiradi. Vakolatlarni topshirish texnikasi tegishli xodimlarni tanlash, mas'uliyatni taqsimlash, berilgan vazifalarni tog'ri bajarishni muvofiqlashtirish, bo'ysunuvchilarni rag'batlantirish va maslahat berishni, ularning faoliyatini nazorat qilish va baholashni o'z ichiga oladi.

Bo'ysunuvchilarga ixtisoslashgan faoliyatni, alohida masalalarni, tayyorgarlik ishlarini topshirish kerak. Maqsadlarni belgilash, to'g'ri qarorlar qabul qilish, natijalarni kuzatish, ishchilarni boshqarish va ularning faoliyatini rag'batlantirish, maqsadlarni, rejalarni yakuniy shakllantirish kabi boshqaruv funktsiyalari, alohida ahamiyatga ega va yuqori darajadagi xavfga egadir.

Vakolat va mas'uliyat tamoyili. Har bir xodim o'z ish qobiliyatini, ya'ni vazifalarini, majburiyatlarini va ularni amalga oshirish qoidalarini aniq bilishi kerak. Vakolat katta bo'lganda mas'uliyat yanada katta bo'ladi..

Rag'batlantirish va jazolash tamoyili. Rahbar nafaqat eng faol va vijdonli xodimlarni ko'ra olishi, balki har bir bo'ysunuvchining kichik bo'lsa ham, individual muvaffaqiyatlarini qayd etishi va omma oldida uni namuni qilishi muhim axamiyat kasb etadi.

Rahbar faoliyati davomida jamoadagi xodimlarning yutuqlarini o'z vaqtida va yetarli darajada baholamaslik uning adolatni tiklash istagini uyg'otadi, agar xodimlardan birining xizmatlari kam baholansa, uning mehnat yutuqlari darajasining pasayishiga olib kelshi mumkin. Unda norozilik va xafachilik kabi hissi paydo bo'lishi mumkin.

Rahbarning ish vaqtidan oqilona foydalanish tamoyili. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har 100 ta menejerdan faqat bittasi yetarli ish vaqtiga ega. Ushbu tamoyil yana ikkita qoidani o'z ichiga oladi.

Ustuvorlik qoidasi: ishlarni muhimligi bo'yicha tartiblang va eng muhimidan boshlang.

Pareto qoidasi: italiyalik iqtisodchi V.Pareto printsipiga ko'ra, ish jarayonida sarflangan vaqtning 20% uchun menejer 80% natijaga erishadi, qolgan 80% sarflangan vaqt esa umumiy natijaning faqat 20% ni beradi.

Rahbar faoliyatida muloqot qilish va undan samarali foydalanish jamoada mexnat samaradorligini oshiradi.

Bir qator olimlar muloqotning quyidagi bosqichlarini ajratganlar: Birinchi bosqich - muhitda orientatsiya. Uchrashuv joyini tanlash, odamlarning joylashishi, o'zaro ta'sir qilish masofasini. Vaqt bo'yicha orientatsiya (muloqotni qachonga belgilash, unga qancha vaqt ajratish kerak), ijtimoiy yo'nalish (muloqot ishtirokchilarining qarashlari va qadriyatlari qanday, muloqotda qanday psixologik masofani saqlash kerak) kabilarni bilishi va qo’llash muxim.

Ikkinchi bosqich - suhbatdoshning diqqatini jalb etish. Bunda suhbatdoshiga oxangli va maqul keladigan so’zlar bilan suhbatlashish nazarda tutiladi.

Uchinchi bosqich - suhbatdoshlarning muloqot hajmi (kim va qancha gapiradi), muloqot tezligi (so'zlarning chastotasi, mavzularni, fikrlarni, tasvirlarni o'zgartirish tezligi), kayfiyat bo'yicha muvofiqligini qidirish bosqichi. Bu uch bosqich tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

To'rtinchi bosqichda- faktlar almashinuvi va ularni baholash, muloqot mavzusining har ikki tomoni uchun maqbul bo'lgan umumiy nuqtai nazarni izlash ro‘y beradi. O'zaro qiziqish uyg'onadi. Suhbatdosh tomonidan kutilgan shaxsiy xususiyatlar, uning odatlari, fikrlari, kayfiyatlari namoyish etiladi.

Beshinchi bosqichda muammoli vaziyat, ziddiyat, fikrlar to'qnashuvi paydo bo'lishi mumkin. Bu ijodiy o'zaro ta'sir, suhbatdoshlarning hech biri tomonidan taklif qilinmagan yangi yechimni izlash bosqichi.

Oltinchi bosqichda suhbatdoshlar beshinchi bosqichda ishlab chiqilgan narsalar asosida tezkor qaror qabul qiladilar. Topilgan yechimni amalga oshirishning qo'shma rejasi belgilanadi, muloqot natijalari qayd etiladi, suhbatdoshlar aloqadan chiqadilar.

Muloqotda yana bir axamiyatli jixat borki bu shaxslararo munosabatda suhbatdoshning savollari va ularning mohiyatini bilish.

Binobarin, shaxslararo munosabatda ma'lumot bizga o'z-o'zidan kelmaydi, uni olish uchun avvalo savol berish lozim. Suhbatdoshning savollaridan qo'rqmaslik kerak, chunki ular suhbat ishtirokchilarini faollashtirishga va ma'lumot uzatish jarayonini to'g'ri yo'nalishga yo'naltirishga yordam beradi.

Biz bilamizki beshta asosiy savollar guruhi mavjud. Bular quyidagilar:

Yopiq savollar. Bu «Ha yoki yo'q» javobi kutilayotgan savollardir. Bunda suhbatda keskin atmosferani yaratishga olib kelishi mumkin, shuning uchun bunday savollarni qat'iy belgilangan maqsad bilan ishlatish kerak. Bunday savollarni berishda suhbatdoshda so'roq qilinayotgandek taassurot paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun, yopiq savollar biz ma'lumot olishimiz kerak bo'lganda emas, balki tezda kelishuv yoki oldingi kelishuvni tasdiqlashni xohlaganimizda so'ralishi kerak.

Ochiq savollar. Bu savollarga «ha» yoki «yo'q» deb javob berib bo'lmaydi, aksincha ular qandaydir tushuntirishlarni talab qiladi. Bular «nima?», «kim?», «qanday?», «qancha?», «nima uchun?» kabi savollardan iborat bo’lishi mumkin. Bunday savollar bizga qo'shimcha ma'lumot olish imkonini beradi yoki suhbatdoshning motivlari va pozitsiyasini bilmoqchi bo'lganimizda bu kabi savollar beriladi.

Ritorik savollar. Bu savollarga to'g'ridan-to'g'ri javob berilmaydi, chunki ularning maqsadi yangi savollarni ko'tarish va hal etilmagan muammolarni ko'rsatishdir. Bunday savollarni berishdan maqsad nima? Ritorik savol berib, ma'ruzachi suhbatdoshning fikrlashini «yoqishga» va uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirishga qaratiladi.

Fikrlash uchun savollar. Ular jamoada suhbatdoshni fikr yuritishga, diqqat bilan o'ylashga va aytilgan narsalarni sharhlashga majbur qiladi. Ushbu savollarning maqsadi o'zaro tushunish muhitini yaratishdir[50].

Suhbatdoshlarning so'zlarini qaytarish:

Suhbatdoshning so'zlari, u sizni faol ravishda tinglayotganini sizning gapirishingizni kuzatib borayotganini, dalilingizni sinchkovlik bilan tekshirib, hamma narsani o'ylab ko‘rayotganini anglatadi. Izohlari bo‘lmagan suhbatdosh o'z fikriga ega bo'lmagan odam hisoblanadi. Shuning uchun ham suhbatdoshning mulohazalari va dalillariga suhbat jarayonida to'siq sifatida qaralmasligi shart. Ular suhbatni osonlashtiradi, chunki ular suhbatdoshning yana nimaga ishonch hosil qilishi kerakligini va umuman, masalaning mohiyati haqida nima deb o'ylashini tushunish imkoniyatini beradi[51].

Izohlarning quyidagi turlari mavjud:

- aytilmagan izohlar;
- noto'g'ri fikr yuritish;
- istehzoli gaplar;
- axborot olish maqsadidagi izohlar;
- o‘zini ko‘rsatish uchun izohlar;
- subektiv mulohazalar;
- xolis mulohazalar;
- qarshilik ko'rsatish maqsadidagi izohlar.

Bu kabilar suhbatdoshning ichki imkoniyatlarini to’rgi ochish hamda samarali muloqot va fikr yuritishga yordam beradi.

Bundan tashqari boshqaruv tizimida shaxslararo munosabatga kirishishda verbal va noverbal muloqotning o’rni va ahamiyati salmoqli.

[50] Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. Mas’ul muxarrir: A.Xolbekov. - T.:DJKD “Rahbar” markazi, “YUNAKS-PRINT” MCHD, 2006.

[51] Boymurodov N. Raxbar psixologiyasi. Oliy ta’lim, xalk ta’limi soglikni saklash, urta maxsus kasb-xunar ta’limi boshkdrmalarining ma’muriy xodimlari uchun kullanma,- T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.

Psixologlar tomonidan nutq psixologik muammo sifatida o‘rganilishi ham o‘ziga xoslik, uning qirralari, tuzilishi, mantiqi, tasniflanishi, mavjud. Yondashuvlar tahliliga to‘xtaladigan bo’lsak, nutqning psixologik tavsiflari yuzasidan mulohaza yuritish, uning tatbiqiy jihati qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Bizningcha, nutq shaxslararo munosabatga kirishishda, boshliq va bo‘ysinuvchi o‘rtasidagi munosabatlarda asosiy o‘rin egallaydi. Nutqning muayyan asoslariga suyangan holda noan’anaviy tasnifini berish uning qiymatini yanada oshiradi, inson – texnika munosabatini amaliy jihatdan namoyish qilgan bo‘ladi: verbal va noverbal orqali.

Genetik kelib chiqish jihatidan noverbal nutq birlamchi hisoblanadi, chunki insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, so‘zsiz nutq turlarini paydo bo‘lgan bo‘lib, u o‘z ichiga shaxs kamolotining yirik sanasini qamrab olgandir. Ma’lumki, qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funksiyani bajarayotgan bo‘lsa, o‘sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan.

Shaxslararo munosabatga kirishishda noverbal nutq turini shartli ravishda quyidagi ko‘rinishlarga ajratish mumkin:
Imo-ishora, Mimika, Pantomimika, Exologik, ya’ni aks sado, Signifikatsiya, Daktilogik (barmoq nutqi).

Inson yer yuzasidan hayot va faoliyat ko‘rsatish davrining dastlabki pallasida asosiy nutq turi sifatida imo-ishora alohida ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun etnik stereotiplar asosida muayyan kechinmalarni, ma’lum axborot va ma’lumotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin ma’noli, mazmunli nutq turi imo-ishorali nutq deyiladi.

Yuz harakatlari (fizionomiya) yordamida insonni inson tomonidan idrok qilish, o‘zgalar fikriga javob qaytarish, tana a’zolari rangining o‘zgarishi hisobiga shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon bo‘luvchi noverbal nutq turiga mimika deyiladi. Tabassum, jilmayish, miyig‘ida kulish, lab qisish va cho‘chaytirish, til chiqarish, qosh uchirish va suzish, xullas turli psixologik holatlarni, ayniqsa hissiy kechinmalarni aks ettiruvchi kommunikativ, interaktiv, perseptiv xususiyatli nutq turi mimika bo‘lib

hisoblanadi. Mimika yordami bilan raxbar haqgo‘ylik, yoqtirish va yoqtirmaslik, samimiylik va ikkiyuzlamachilik, hasad, quvonch, qayg‘u, baxtiyorlik singari yuksak tuyg‘ularni bilib olish mumkin.

Noverbal nutqni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) tovushsiz: a) imo-ishora, b) mimika, v) pantomimika, g) daktiologik; 2) tovushli: a) exologik (aks sado), b) signifikatsiya(shartli belgilar, signallar, modellar). Verbal nutq turkumini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) og‘zaki, 2) yozma, 3) monologik, 4) poliologik, 5) tashqi, 6)ichki, 7) ekspressiv, 8) impressiv, 9) lakonik (qatra, yig‘iq), 10) epik (yoyiq), 11) affektiv (jahl holatidagi). Raxbar insonning ijtimoiy- tarixiy taraqqiyoti davri tahlil qilinganda genetik kelib chiqish jihatidan birlamchi qatorida og‘zaki nutqni keltirish joiz. Og‘zaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo bo‘lgan nutq turidan biri hisoblanadi va u shartli ravishda quyidagi nutq ko‘rinishlarini qamrab oladi: monologik, dialogik, poliologik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig‘iq, qatra), affektiv (his-hayajon, jahl).

Pauza, mantiqiy urg‘u, temp, tembr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o‘zida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og‘zaki nutq deb ataladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak rahbarlar uchun muloqot juda muhim ahamiyatga ega. Bu rahbarlardan muloqot davomida e'tiborili bo‘lishni talab etadi. Chunki rahbarning muloqoti atrofdagilar, ularning ish faoliyati va ish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A.Turaxanova. Boshqaruv psixologiyasi. Darslik. Toshkent. O‘R JXU. 2022 yil.

2. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. Mas’ul muxarrir: A.Xolbekov. - T.:DJKD “Rahbar” markazi, “YUNAKS-PRINT” MCHD, 2006.

3. Boymurodov N. Raxbar psixologiyasi. Oliy ta’lim, xalk ta’limi soglikni saklash, urta maxsus kasb-xunar ta’limi boshkdrmalarining ma’muriy xodimlari uchun kullanma,- T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.

YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA PROFAYLINGNING O‘RNI

Axmedov Sherzodbek Oribjon o‘g‘li

O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda profaylingning o‘ni va ro‘li atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek profaylingdan foydalangan holda yo‘l harakati qoidalarini muntazam buzuvchi qoidabuzar haydovchilarni aniqlash va ularni profilaktika qilish bo’yicha bazi fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yo’l harakati, yo’l patrul xizmati, yo‘l harakati xavfsizligi, haydovchi profaylingi, sun’iy intellekt, xavfli haydash, huquqbuzar haydovchi.

Аннотация. В данной статье подробно анализируется роль профайлинга в обеспечении безопасности дорожного движения. Также представлены некоторые мнения по выявлению и профилактике водителей, систематически нарушающих правила дорожного движения, с использованием профайлинга.

Ключевые слова: дорожное движение, дорожно-патрульная служба, безопасность дорожного движения, профайлинг водителя, искусственный интеллект, опасное вождение, водитель-нарушитель.

Abstarct. This article analyzes in detail the role and significance of profiling in ensuring road safety. Also, some opinions on identifying and preventing drivers who systematically violate traffic rules using profiling are presented.

Keywords: road traffic, road patrol service, road safety, driver profiling, artificial intelligence, dangerous driving, offending driver.

Bugungi globallashuv va urbanizatsiya jarayonlarida transport tizimining samarali ishlashi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda fuqarolarning xavfsizligi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yo‘l-transport hodisalarining yuqori darajada sodir bo‘lishi nafaqat inson hayoti va salomatligiga, balki jamiyatning iqtisodiy va ma’naviy barqarorligiga ham jiddiy xavf tug‘diradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab 1,35 milliondan ortiq odam YTH oqibatida halok bo‘ladi, 20–50 million kishi esa turli darajadagi jarohatlar oladi. Ushbu ko‘rsatkichlar YTHlarni zamonaviy davrning eng dolzarb muammolaridan biri sifatida ko‘rib chiqishga asos bo’lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham yo‘l harakati xavfsizligi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda avtomobil transporti sonining keskin ortishi, shahar va qishloq hududlarida avtomobil

oqimining zichlashuvi, haydovchilarning intizomiy xatti-harakatlari hamda piyodalarning huquqiy ong darajasi yo‘l-transport hodisalari ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi IIV Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda respublika bo‘ylab 9 364 ta YTH sodir bo‘lgan bo‘lib, ularda 2 203 nafar fuqaro hayotdan ko‘z yumgan, 8 901 nafar shaxs esa jarohat olgan[52]. Bu ko‘rsatkichlar respublikamizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning an’anaviy usullari — yo‘l-patrul xizmatini kuchaytirish, nazorat kameralarini o‘rnatish, jarima va intizomiy choralarni kuchaytirish muayyan natijalar bermoqda. Ammo bu choralarning o‘zi yetarli emas. So‘nggi yillarda kriminologiya va xavfsizlik sohalarida qo‘llanila boshlagan **profayling** uslubi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda samarali vositalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Profayling mohiyatan shaxsning tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, psixologik reaktsiyalari va boshqa belgilariga qarab uning ehtimoliy xatti-harakatlarini oldindan prognoz qilishga asoslangan metoddir.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, profayling nafaqat aeroportlar va chegara nazorat punktlarida terrorizmga qarshi kurashda, balki yo‘l-patrul xizmatida xavfli haydovchilarni aniqlash, alkogol yoki giyohvand moddalar ta’sirida transport vositasini boshqarayotgan shaxslarni tezkor ravishda fosh etish, shuningdek, yo‘l-transport hodisalarini profilaktika qilishda ham qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston sharoitida profaylingni yo‘l harakati xavfsizligi sohasida qo‘llash masalasi hali yetarlicha o‘rganilmagan yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Yo‘l harakati xavfsizligi tizimi murakkab ijtimoiy-huquqiy institut bo‘lib, uning samaradorligi ko‘plab omillarga — yo‘l infratuzilmasi, transport vositalarining texnik holati, haydovchilarning malakasi va intizomi, aholining huquqiy madaniyati hamda nazorat organlari faoliyatiga bog‘liq. Shu bilan birga, inson omili yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda asosiy hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Statistika shuni ko‘rsatadiki, YTHlarning qariyb 50-60 foizi bevosita inson omili bilan bog’liq ya’ni tezlikni oshirish, spirtli ichimlik ichgan holda transport vositasini boshqarish, yo‘l belgilari va qoidalarini

[52] https://daryo.uz/2025/01/24/ozbekistonda-2024-yili-22-ming-nafardan-ortiq-fuqaro-ythlar-oqibatida-vafot-etdi?ysclid=mf3jpbvjkw340360967

e’tiborsiz qoldirish oqibatida yuz beradi. Shu nuqtayi nazardan, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda inson xatti-harakatini oldindan baholash, xavfli vaziyatlarni prognoz qilish, xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan shaxslarni tezkor aniqlash muhim vazifalardan biri sanaladi. Aynan shu vazifani bajarishda profayling samarali metod sifatida e’tirof etiladi.

Profaylingning yo‘l-patrul xizmati faoliyatida qo‘llanishi quyidagi asosiy funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi:

5. *Xavfli haydovchilarni tezkor aniqlash.* Mast holda, narkotik moddalar ta’sirida yoki ruhiy-emotsional stress holatida bo‘lgan haydovchilar ko‘pincha o‘zlarini ba’zi xatti-harakatlari orqali fosh etadi jumaldan, ko‘zning qizarishi, nutqdagi o‘zgarish, tana titrashi, o‘ta tajovuzkor yoki, aksincha, shubhali tortinchoq xatti-harakatlar. Profayling bunday belgilarni tizimli aniqlash imkonini beradi.

6. *YTHlarning oldini olish.* Yo‘l-patrul xizmat xodimi haydovchining holatini kuzatib, ehtimoliy xavfli shaxsni oldindan aniqlasa, YTH sodir bo‘lishidan avval choralar ko‘rishi mumkin bo‘ladi. Bu usul YTHlarning profilaktikasida muhim o‘rin tutadi.

7. *Huquqbuzarliklarni fosh etish.* Ba’zi haydovchilar kontrabanda, noqonuniy migratsiya yoki boshqa huquqbuzarliklarda qatnashishi mumkin. Profayling xodimlarga shubhali transport vositalarini tezroq ajratib olish imkonini beradi.

8. *Yo‘l harakati madaniyatini oshirish.* Haydovchilar profayling qo‘llanilayotganidan xabardor bo‘lsa, ularning o‘zini tutishi, qoidalarga rioya qilishga bo‘lgan mas’uliyati ortadi. Bu omil ham bilvosita YTHlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda profaylingni qo‘llash uch darajada samaradorlik keltirishi mumkin:

Individ darajasi: har bir haydovchining xulq-atvorini kuzatish orqali uning xavfli yoki xavfsiz ekanini aniqlash.

Tizim darajasi: YPX organlarining umumiy faoliyatida profayling metodlarini qo‘llash orqali nazorat samaradorligini oshirish.

Jamiyat darajasi: profilaktika va targ‘ibot orqali aholida “xavfsiz xatti-harakat modeli”ni shakllantirish.

Bu yondashuvning nazariy asosini “inson xatti-harakati xavfsizlikning asosiy determinantidir” degan konsepsiya tashkil qiladi. Mazkur g‘oya JSST, Yevropa transport xavfsizligi kengashi hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, barcha zamonaviy yo‘l harakati xavfsizligi strategiyalarida asosiy tamoyil sifatida belgilangan. Shu jihatdan qaraganda, profayling nafaqat nazorat va fosh etish vositasi, balki keng qamrovli **profilaktika mexanizmi** sifatida ham alohida o‘rin tutadi. Chunki u xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan vaziyatni oldindan aniqlashga va YTHning oldini olishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston mustaqillik yillaridan buyon transport infratuzilmasini kengaytirish, avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga katta e’tibor qaratib kelmoqda. Shu bilan birga, avtomobil transporti sonining keskin ortishi, urbanizatsiya jarayonlari va aholining transport xizmatlariga talabining o‘sishi yo‘l-transport hodisalari sonining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. Mavjud statistik ko‘rsatkichlar respublikamizda YTHlar hali ham jiddiy ijtimoiy muammo ekanini tasdiqlaydi.

Statistik tahlil shuni ko‘rsatadiki, YTHlarning asosiy sabablari inson omili bilan bog‘liq. Jumladan, tezlikni belgilangan me’yordan oshirish — umumiy YTHlarning 35–40 foizini tashkil etsa, mast holda transport boshqarish — 12–15 foiz, yo‘l belgilari va svetofor talablariga rioya qilmaslik — 10–12 foiz, piyodalar yo‘l qoidasini buzishi — 8–10 foiz va transport vositalarining texnik nosozligi — 5 foiz atrofida ekanligini ko’rishimiz mumkin.

Bundan tashqari O‘zbekiston sharoitida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda bir qator tizimli muammolar mavjud:

6. **Haydovchilarning huquqiy madaniyat darajasi pastligi.** Ko‘plab haydovchilar yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishni majburiyat sifatida emas, balki jazodan qochish vositasi sifatida ko‘radi. Bu esa intizomsizlik va YTHlarga olib keladi.

7. **Spirtli ichimlik va giyohvand moddalar ta’sirida haydash.** Yurtimizda bunday huquqbuzarliklar soni ham yuqoriligicha qolmoqda. Masalan, 2022-yilda mast holda transport vositasini boshqargan shaxslar 299 ta holatda YTH sodir etgan.

8. **Texnik nazorat tizimining samaradorligi pastligi.** Avtomobillarning texnik nosozligi bilan bog‘liq YTHlar ulushi yuqori bo‘lmasa-da, mavjud texnik ko‘rik tizimi ba’zan formallikka aylanib qolmoqda.

9. **Yo‘l-patrul xizmati faoliyatining cheklanganligi.** YPX xodimlari asosan jarima qo‘llash va qoidabuzarlikni qayd etishga yo‘naltirilgan. Biroq profilaktik chora-tadbirlar, xususan, haydovchilarning ruhiy-emotsional holatini kuzatish, xavfli shaxslarni oldindan aniqlash kabi yo‘nalishlar yetarli darajada rivojlanmagan.

10. **Huquqiy bazaning yetarli darajada mukammal emasligi.** Amaldagi qonunchilikda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning texnik va tashkiliy jihatlari keng yoritilgan bo‘lsa-da, inson omiliga qaratilgan innovatsion yondashuvlar — masalan, profayling uslublaridan foydalanish bo‘yicha aniq huquqiy mexanizmlar mavjud emas.

Yuqoridagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalasida inson omili hal qiluvchi rol o‘ynaydi. An’anaviy nazorat choralarining samaradorligi cheklangan bo‘lib, zamonaviy yondashuvlar, jumladan profayling kabi psixologik va kriminologik metodlarni tatbiq etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Profayling usullarini qo‘llash orqali haydovchilarning xavfli xatti-harakatlarini oldindan aniqlash, YTHlarni kamaytirish va yo‘l-patrul xizmati faoliyatining samaradorligini oshirish mumkin. Yo‘l-patrul xizmati (YPX) organlari yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning asosiy ijrochi subyektlaridan biridir. Ularning faoliyati ko‘p jihatdan huquqbuzarliklarni aniqlash, jarima qo‘llash va transport oqimini tartibga solishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, zamonaviy sharoitda YPX vazifalari yanada kengaymoqda. Xususan, inson omiliga asoslangan xavfsizlik yondashuvlarini qo‘llash, haydovchilarning psixologik va emotsional holatini tahlil qilish, potensial xavfni oldindan aniqlash — bugungi kun talabi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, profayling yo‘l-patrul xizmati faoliyatida yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Profaylingning YPX faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

5. **Haydovchilarning tashqi belgilariga asoslangan kuzatuv.** YPX xodimlari haydovchining yuz ifodasi, ko‘zning qizarishi, nutqdagi nuqson, g‘ayritabiiy asabiylashish yoki ortiqcha sokinlik kabi belgilarni kuzatib, mast yoki ruhiy stress ostida transport boshqarayotgan shaxsni aniqlashi mumkin.

6. **Xatti-harakatdagi shubhali alomatlarni fosh etish.** Masalan, yo‘l patrul posti oldida asabiylanib, to‘satdan tezlikni pasaytirish, hujjatlarni uzatishda ortiqcha shoshilish yoki qo‘rqinch alomatlari kontrabanda, noqonuniy yuk tashish yoki mast holatni yashirishga urinish belgisi bo‘lishi mumkin.

7. **Psixologik suhbat elementlarini qo‘llash.** YPX xodimlari haydovchi bilan qisqa suhbat jarayonida uning ruhiy-emotsional barqarorligini baholashi mumkin. Savollarga javob berishda ikkilanish, nutqning tartibsizligi yoki noto‘g‘ri mantiqiy izohlar shubhali vaziyatdan darak beradi.

8. **Texnik vositalar bilan integratsiya.** Profayling nafaqat insonning subyektiv kuzatuvi, balki videokuzatuv tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, avtoulov kameralarida haydovchining yuz ifodasini tahlil qiluvchi dasturlar mastlik yoki charchoq alomatlarini aniqlashi mumkin.

Profayling YPX faoliyatiga tatbiq etilganda quyidagi natijalarga erishish mumkin:

***Birinchidan,* YTHlar sonini kamaytirish.** Mast yoki xavfli haydovchilarni oldindan aniqlash orqali yuzlab YTHlarning oldi olinadi.

***Ikkinchidan,* Nazorat samaradorligini oshirish.** YPX xodimlari vaqtini barcha haydovchilarni tekshirishga emas, balki eng xavfli shaxslarni ajratib olishga yo‘naltirishi mumkin.

***Uchinchidan,* Huquqbuzarliklarning yashirin shakllarini fosh etish.** Kontrabanda, noqonuniy migratsiya yoki jinoyatga aloqador shaxslarning xatti-harakatlari profayling yordamida tezroq aniqlanadi.

***To’rtinchidan,* Jamoatchilik ishonchini oshirish.** YPXning profilaktik faoliyati kuchayishi, faqat jarimaga emas, balki xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgani aholida ijobiy munosabat uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda profaylingni joriy etish — nafaqat zarurat, balki strategik ehtiyojdir. Mamlakatda mavjud huquqiy asoslar bunday metodni rivojlantirish uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Eng muhimi, profayling qo‘llanilganda inson huquqlarini hurmat qilish va ilmiy asoslangan metodologiyadan foydalanish ta’minlanishi kerak. Bundan tashqari profayling yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda qo‘shimcha mexanizm

sifatida katta imkoniyatlarga ega. Ammo uning samarasi faqat huquqiy asoslar, professional xodimlar, zamonaviy texnologiyalar va inson huquqlariga hurmat uyg‘un bo‘lgandagina ta’minlanadi. Shu tarzda, profayling nafaqat YTHlarning kamayishiga, balki jamiyatda huquqiy madaniyat va xavfsizlik psixologiyasining yuksalishiga ham xizmat qiladi.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR

9. Greaves, S. P., & Ellison, A. B. (2011). Personality, risk aversion and speeding: An instrumental variables approach. Accident Analysis & Prevention, 45, 242-250. https://www.researchgate.net/publication/271602238_Driver_behaviour_profiles_for_road_safety_analysis

10. Hu, J., Wang, L., Zhang, J., Zhang, F., Yang, Z., & Mao, Y. (2024). Enhancing Driving Safety Evaluation Through Correlation Analysis of Driver Behavior. Sustainability, 16(9), 4067. https://doi.org/10.3390/su16094067

11. Mahmud, S. M. S., Ferreira, L., Hoque, M. S., & Tavassoli, A. (2018). Micro-simulation modelling for traffic safety: A review and potential application to heterogeneous traffic environment. IATSS Research, 42(1), 27-41. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1369847818308131

12. Oltedal, S., & Rundmo, T. (2006). The effects of personality and gender on risky driving behaviour and accident involvement. Safety Science, 44(7), 621-628. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0001457521003808

13. Papadimitriou, E., & Tselentis, D. I. (2023). Driver Profile and Driving Pattern Recognition for Road Safety Assessment: Main Challenges and Future Directions. IEEE Open Journal of Intelligent Transportation Systems, 4, 83-100. https://doi.org/10.1109/OJITS.2023.3239031

14. Sullman, M. J., Meadows, M. L., & Pajo, K. B. (2002). Aberrant driving behaviours amongst New Zealand truck drivers. Transportation Research Part F: Traffic Psychology and Behaviour, 5(3), 217-232. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC7143796/

15. Tecknotrove Systems. (n.d.). Driver Profiling System. Retrieved September 2, 2025, from https://tecknotrove.com/industries/automobile/driver-profiling-system/

16. World Health Organization. (2023). Road traffic injuries. Retrieved September 2, 2025, from https://www.who.int/health-topics/road-safety

KURSANTLARDA IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHGA OID NAZARIY YONDASHUVLARNING ILMIY-METODOLOGIK TAHLILI

Zohirov Nodirbek Ulug‘bekovich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash”

kafedrasi katta o‘qituvchisi, katta leytenant

zohirovnodirbek5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda axloqiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish masalasi ilmiy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Irodaning psixologik mohiyati g‘arb va sharq olimlari yondashuvlari asosida yoritib berilgan. Natijada, harbiy xizmatchilarda iroda va axloqiy sifatlarni rivojlantirish uchun to‘rtta metodologik asos ajratib ko‘rsatilgan: axloqiy-ma’naviy yondashuv, faoliyatga asoslangan yondashuv, motivatsion-kognitiv yondashuv va biopsixologik yondashuv.

Kalit so‘zlar: iroda, axloqiy sifatlar, harbiy psixologiya, sabr, jasorat, Forobiy, Ibn Sino, Rubinshteyn, Bandura, metodologik yondashuvlar.

Аннотатsiя: В данной статье научно-методологически анализируется проблема развития нравственно-волевых качеств у военнослужащих. Психологическая сущность воли раскрывается на основе подходов западных и восточных учёных. В результате выделены четыре методологических основания для развития воли и нравственных качеств у военнослужащих: нравственно-духовный подход, деятельностный подход, мотиватsионно-когнитивный подход и биопсихологический подход.

Ключевые слова: воля, нравственные качества, военная психология, терпение, мужество, Фараби, Ибн Сино, Рубинштейн, Бандура, методологические подходы.

Abstract: This article provides a scientific and methodological analysis of the development of moral and volitional qualities in military personnel. The psychological essence of will is explained based on the approaches of Western and Eastern scholars. As a result, four methodological foundations for developing will and moral qualities in military personnel are identified: moral-spiritual approach, activity-based approach, motivational-cognitive approach, and biopsychological approach.

Keywords: will, moral qualities, military psychology, patience, courage, Farabi, Ibn Sina, Rubinstein, Bandura, methodological approaches.

Harbiy xizmat o‘z mohiyati bilan insondan nafaqat jismoniy kuch va professional bilimlarni, balki yuqori darajadagi axloqiy-irodaviy sifatlarni ham talab qiladi. Iroda — shaxsning ongli maqsad sari harakat qilishida qiyinchiliklarni yengib o‘tishga qaratilgan psixik faoliyatidir. Harbiy xizmatchi faoliyatida iroda va axloqiy barqarorlik bir-biridan ajralmas bo‘lib, ular jangovar vaziyatda qaror qabul qilish, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va jamoaviy intizomni saqlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada iroda haqidagi klassik va zamonaviy nazariyalar ilmiy-metodologik tahlil qilinadi hamda harbiy xizmatchilarda axloqiy-irodaviy sifatlarni shakllantirishning ilmiy asoslari ko‘rib chiqiladi.

Irodaviy sifatlarni tadqiq etgan olimlarning nazariy qarashlari quyidagilar:

1. Sharq allomalari merosida iroda va axloqiy sifatlar:

Abu Nasr Forobiy inson baxtga erishishi uchun iroda, aql va axloqiy poklikni uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlagan. Uningcha, “fazilatli shahar” fuqarosi iroda va axloq orqali jamiyatning mustahkamligiga hissa qo‘shadi. Bu qarash harbiy intizomning ham ma’naviy poydevorini ko‘rsatadi.

Abu Ali Ibn Sino irodani inson ruhiy kuchlarining eng oliy darajasi sifatida talqin qilib, uni sabr va chidamlilik bilan bog‘lagan. Uning fikricha, iroda ong va hissiyotning uyg‘unligi orqali mustahkamlanadi. Harbiy xizmatchi uchun bu – qo‘rquvni yengish va vazifani oxirigacha bajarishda muhim.

Jaloliddin Rumiy o‘z masnaviylarida iroda va sabrni ruhiy kamolotning asosiy manbai sifatida ko‘rsatib, “inson o‘z ichki kurashini yenga olsa, tashqi qiyinchiliklar ham yengil bo‘ladi”, deya ta’kidlagan. Bu qarash harbiy sharoitda ichki qo‘rquvni yengish metodologiyasiga mos tushadi.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida iroda, sabr va jasoratni insoniy kamolot mezoni sifatida ko‘rsatadi. Uningcha, iroda axloqiy burch bilan uyg‘unlashganda, shaxs yuksak ma’naviyat sohibiga aylanadi. Bu fikr harbiy xizmatchida “vatanparvarlik iroda”sining shakllanishini ifodalaydi.

Sharq mutafakkirlari, xususan, **Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy** irodani, avvalo, **axloqiy-ma’naviy kamolot bilan uzviy bog‘liq** holda talqin qilganlar.

- Forobiy irodani fazilatli shaxsning jamiyatga foyda keltiruvchi xususiyati sifatida ko‘rgan.
- Ibn Sino irodani sabr va chidamlilik bilan uyg‘unlashgan ruhiy kuch deb bilgan.
- Rumiy insonning ichki kurashi tashqi qiyinchiliklardan muhimroq ekanini ta’kidlab, iroda va sabrni ruhiy yuksalishning kaliti sifatida ko‘rsatgan.
- Navoiy esa irodani axloqiy burch, jasorat va halollik bilan bog‘lagan.

Demak, Sharq allomalari irodani shaxsning **ruhiy poklik, sabr-toqat va jasorat orqali o‘zini komillikka olib boruvchi kuch** sifatida baholagan.

2. Klassik psixologik yondashuvlar

I. Kant irodani axloqiy qonuniyatlarga bo‘ysundirish qobiliyati sifatida talqin qilgan. Uning nazarida iroda axloqiy tanlovning poydevori bo‘lib, insonning majburiyatni ongli ravishda ado etishi bilan belgilanadi.

G. Vundt irodani psixik faoliyatning faoliyatiy markazi sifatida o‘rganib, uni hissiyot va tafakkur bilan chambarchas bog‘liq deb qaragan.

V. V. Bekhterev irodani insonning ijtimoiy moslashuvchanligini belgilovchi muhim omil sifatida ta’riflab, harbiy faoliyatda irodaning jamoaviy intizom bilan uyg‘unlashishini ta’kidlagan.

Sovet psixologiyasi maktabi

S. L. Rubinshteyn irodani shaxsning ongli faoliyatida ichki qarama-qarshiliklarni yengib o‘tishga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida tushuntirgan. Uningcha, iroda motiv va maqsad o‘rtasidagi ichki kurashni hal etadi.

A. N. Leontyev faoliyat nazariyasi doirasida irodani maqsad sari intilishning barqarorligini ta’minlovchi faoliyat komponenti sifatida o‘rganadi. Harbiy xizmatchida iroda — bu maqsadga yo‘naltirilgan, tashkillashtirilgan faoliyatdir.

B. G. Ananyev irodaviy sifatlarni shaxsning umumiy psixologik tuzilmasida intellektual, hissiy va motivatsion sohalar bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilgan.

3. Zamonaviy yondashuvlar

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi iroda va o‘zini o‘zi boshqarish jarayonini “o‘z-o‘zini samaradorlik” (self-efficacy) tushunchasi orqali izohlaydi. Harbiy xizmatchining irodasi, avvalo, uning o‘z imkoniyatlariga ishonchi bilan mustahkamlanadi.

K. Levinning maydon nazariyasi irodaviy qaror qabul qilish jarayonini motivlar maydoni sifatida ko‘rib, harbiy sharoitda tashqi bosim va ichki intilishlar o‘rtasidagi muvozanatni tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy neyropsixologiya irodani frontal po‘stloq faoliyati, emotsional barqarorlik va stressga qarshi psixofiziologik chidamlilik bilan bog‘laydi. Bu yondashuv harbiy psixologiyada irodaviy sifatlarni rivojlantirish uchun neyrotrening, biofeedback va VR-simulyatsiya kabi uslublarni qo‘llash imkoniyatini beradi.

G‘arb psixologiya maktablarida iroda ko‘proq **nazariy va ilmiy-psixologik jarayon** sifatida o‘rganilgan.

- **I. Kant** irodani axloqiy qonunga bo‘ysundirish qobiliyati sifatida izohlagan.
- **G. Vundt** uni psixik faoliyatning markazi, hissiyot va tafakkur bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘rgan.
- **S. L. Rubinshteyn** va **A. N. Leontyev** irodani faoliyatda qiyinchiliklarni yengib o‘tish va maqsad sari intilish sifatida tahlil qilgan.
- **A. Bandura** esa iroda va o‘zini o‘zi boshqarishni shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi orqali tushuntirgan.
- Zamonaviy neyropsixologiya irodani miya faoliyati, stressga chidamlilik va emotsional barqarorlik bilan bog‘lab o‘rganadi.

Demak, G‘arb olimlari irodani **motivatsion, faoliyatiy va neyropsixologik** jarayon sifatida tadqiq etishgan.

Ilmiy-metodologik tahlil

Nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda, harbiy xizmatchilar irodaviy sifatlarini rivojlantirish quyidagi metodologik asoslarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Axloqiy-me’yoriy yondashuv (Kant, Rubinshteyn) — harbiy xizmatchida mas’uliyat, burch, vatanparvarlik va intizomni mustahkamlash orqali iroda shakllanadi.
2. Faoliyat yondashuvi (Leontyev, Ananyev) — iroda amaliy faoliyat jarayonida, mashq va intizomiy tajribalar orqali rivojlanadi.
3. Motivatsion-kognitiv yondashuv (Bandura, Levin) — iroda shaxsning ichki ishonchi, motivatsiyasi va tashqi muhit bilan munosabati orqali mustahkamlanadi.
4. Biopsixologik yondashuv (zamonaviy neyropsixologiya) — iroda neyrofiziologik mexanizmlar bilan bog‘liq bo‘lib, uni maxsus trening va texnologiyalar yordamida rivojlantirish mumkin.

Sharq va G‘arb yondashuvlarini umumlashtirganda quyidagilarni ko‘rish mumkin:

1. **Sharq an’analari** irodani ko‘proq **axloqiy-ma’naviy, ruhiy jihatlar** bilan bog‘lagan bo‘lsa,
2. **G‘arb maktabi** irodani **ilmiy-psixologik va faoliyatga asoslangan** mexanizm sifatida izohlagan.
3. Har ikkala yondashuvning birlashish nuqtasi — iroda insonni qiyinchiliklarni yengishga, axloqiy burchni ado etishga va maqsad sari qat’iyat bilan harakat qilishga undovchi ichki kuchdir.

Harbiy xizmatchilarda axloqiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish nazariyasi turli psixologik maktablar va ilmiy yondashuvlarning integratsiyasini talab qiladi. Klassik psixologiyada iroda ko‘proq axloqiy-ontologik asosda tushuntirilgan bo‘lsa, sovet maktabi uni faoliyat bilan bog‘ladi, zamonaviy ilm esa motivatsiya va neyropsixologik omillarga urg‘u beradi. Shunday qilib, harbiy psixologiyada iroda va axloqiy barqarorlikni rivojlantirish metodikasi axloqiy-ma’naviy tarbiya, faoliyat jarayonida mashq qilish, motivatsion dastaklar va psixotexnologiyalar uyg‘unligida samarali natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Forobiy, A. N. *Fozil shahar ahlining qarashlari*. – Toshkent: Ma’naviyat, 1993.
2. Ibn Sino, A. A. *Tib qonunlari*. – Toshkent: Fan, 1980.

3. Rumiy, J. *Masnaviy manaviy*. – Tehron: Nashr-e Sorush, 1998.
4. Navoiy, A. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.
5. Kant, I. *Критика практического разума*. – Moskva: Mysl’, 1994.
6. Vundt, V. *Основй физиологической психологии*. – Moskva: Pedagogika, 1980.
7. Rubinshteyn, S. L. *Основй обшчей психологии*. – Moskva: Pedagogika, 1989.
8. Leontyev, A. N. *Деятельность. Сознание. Личность*. – Moskva: Smysl, 2005.
9. Ananyev, B. G. *Человек как предмет познания*. – Leningrad: LGU, 1968.
10. Bandura, A. *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. – New York: W.H. Freeman, 1997.
11. Lewin, K. *Field Theory in Social Science*. – New York: Harper, 1951.
12. Koltko-Rivera, M. E. “The Psychology of Worldviews.” *Review of General Psychology*, 2004, Vol. 8(1), pp. 3–58.
13. Davidson, R. J., & Begley, S. *The Emotional Life of Your Brain*. – New York: Penguin, 2012.
14. Hasanov, B. *Harbiy psixologiya asoslari*. – Toshkent: Akademiya, 2015.
15. Ergashev, I. *Irodaviy sifatlar psixologiyasi*. – Toshkent: Fan, 2020.

Narkotik profayling: Samarali kurash vositalari.
Профилирование наркотиков: эффективные инструменты борьбы.
Drug profiling: Effective tools for combating.

Maxsus-huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi dotsenti, yu.f.b.f.d. (PhD), Payziyev Abbos Muxammadovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada narkotik moddalarning qonunga xilof muomilasining oldini olish, qarshi kurashishda profayling tehnikasidan foydalanish, narkotik moddalarga qarshi kurashishda an’anaviy huquq-tartibot choralari bilan bir qatorda, zamonaviy tahlil usullarini qo‘llash, shuningdek, narkotik profayling tushunchasi, uning turlari, amaliyotdagi samaradorligi, huquqiy va axloqiy jihatlari, shuningdek, uni joriy qilishdagi muvaffaqiyatlar va muammolar atroflicha tahlil qilinadi.

Аннотатsiя: В статье представлен комплексный анализ применения методов профайлинга в профилактике и борьбе с незаконным оборотом наркотиков, применение современных аналитических методов в дополнение к традиционным правоохранительным мерам в борьбе с наркотиками, а также понятие наркопрофилирования, его виды, эффективность на практике, правовые и этические аспекты, а также успехи и проблемы при его внедрении.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the use of profiling techniques in the prevention and fight against illegal drug trafficking, the use of modern analytical methods in addition to traditional law enforcement measures in the fight against drugs, as well as the concept of drug profiling, its types, effectiveness in practice, legal and ethical aspects, as well as successes and problems in its implementation.

Kalit so‘zlar: profayling, narkotik, ijtimoiy parokandalik, reaksiya, sun’iy intellekt, kimyoviy tahlil, interpol, psixologiya, yurisprudensiya.

Ключавые слова: профилирование, наркотики, общественные беспорядки, реакция, искусственный интеллект, химический анализ, Интерпол, психология, юриспруденция.

Key words: profiling, drugs, social unrest, reaction, artificial intelligence, chemical analysis, Interpol, psychology, jurisprudence.

Bugungi kunda dunyodagi eng katta global muammolardan biri — bu narkotik moddalarning tarqalishi va ular bilan bog‘liq jinoyatchilikning ortishi hisoblanadi. Narkotik savdosi faqatgina shaxsiy sog‘liqqa tahdid solmasdan, balki iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy parokandalik, siyosiy barqarorlikning izdan chiqishi va xavfsizlik muammolarini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, chegaralar orqali narkotik moddalarni olib o‘tish, ularni tarqatish va noqonuniy pul aylanmasi jinoiy guruhlar uchun katta manbaga aylandi. Shu sababdan, davlatlar narkotik moddalarga qarshi kurashishda an’anaviy huquq-tartibot choralari bilan bir qatorda, zamonaviy tahlil usullarini ham joriy etmoqda.

Shunday usullardan biri — bu **narkotik profayling**dir. Profayling (inglizcha: profile — „profil“) — shaxsni tashqi ko‘rinishi, noverbal va verbal xulqidagi eng ko‘p axborot beruvchi maxsus belgilari, xususiyatlarini tahlil qilish asosida inson xulqini baholash va prognozlashga qaratilgan psixologik usul va metodikalar majmuini bildiruvchi tushuncha.

Bu jarayonda narkokurerlar, tarqatuvchilar va narkotik qochoqchilariga oid ma’lumotlar tahlil qilinadi, shubhali harakatlarga e’tibor qaratiladi hamda ehtimoliy xavflar saralanadi.

Dunyoda giyohvandlar soni ortib bormoqda – BMTning ma’lumotiga ko‘ra, oxirgi o‘n yil ichida ularning soni 296 million kishiga ko‘paygan .

Respublikamizda 2023 yilda giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq 8280 ta jinoyat aniqlangan bo‘lsa, shundan 6147 nafari jinoiy va 1407 nafari ma’muriy javobgarlikka tortilgan.

Javobgarlikka tortilganlarning 58 nafari chet el fuqarolari bo‘lib, shundan 49 nafari MDH davlatlari fuqarolari.

Tezkor tadbirlar natijasida 2 tn 31 kg 886 gr giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy muomaladan olingan. Shundan, 2 tn 25 kg 13 gr giyohvandlik vositalar va 6 kg 127 gr psixotrop moddalar.

Musodara qilingan giyohvandlik vositalarning 866 kg 253 gr kontrabanda bo‘lsa, 19 kg 687 gr o‘z hoxishi bilan topshirilgan va 31 kg 580 gr egasiz bo‘lgan. Shuningdek, 10486 m.kv maydonda tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud o‘simliklar yo‘q qilingan.

“Telegram” ijtimoiy tarmog‘ida giyohvandlik vositalarning noqonuniy savdosini amalga oshiruvchi 1499 ta akkauntlar aniqlanib, shundan 1311 tasi bloklandi. Qolgan 188 tasini bloklash bo‘yicha ijtimoiy tarmoq moderatorlariga xabar berilgan, shuningdek akkauntlarni reklama qiluvchi 2962 ta “narkograffiti” o‘chirilgan.

Ushbu maqolada narkotik profayling tushunchasi, uning turlari, amaliyotdagi samaradorligi, huquqiy va axloqiy jihatlari, shuningdek, uni joriy qilishdagi muvaffaqiyatlar va muammolar atroflicha tahlil qilinadi. Maqsad — mazkur usulning jamiyat xavfsizligidagi o‘rnini baholash va uni qonuniy, samarali va inson huquqlariga muvofiq tarzda qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishdir.

Shuningdek, Narkotik profaylingida samarali va amaliyotda sinovdan o‘tgan kurash usullarini sanab o‘tadigan bo‘lsak, ular texnik, amaliy va huquqiy yo‘nalishlarga bo‘lingan:

Ximiyaviy va fizik profayling vositalar - bular narkotik moddalarning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga asoslanadi, tahlil natijasida narkotik moddaning manbasi, ishlab chiqarilgan mintaqasi va sintetik usulini aniqlash uchun qo‘l keladi;

Harakatlar profayling vositalari - shaxsning tashqi harakatlari, psixologik holati va jismoniy reaksiyalarini tahlil qilish va shaxsning asabiylik, ko‘zlardan qochish, terlash, ovozda beqarorlik, qo‘ldagi titrashlar, ortiqcha harakatlar yoki jimlik, yuk ko‘pligi, marshrutning asosli emasligi;

Hujjat va sayohat ma’lumotlari tahlili - safar marshrutlari, sayohat maqsadi noma’lum, qayta-qayta o‘sha yo‘nalishlarda sayohat qilish, qochoqchilik ehtimoli bor yo‘lovchilarni oldindan aniqlash;

Sun’iy intellekt – ma’lumotlarni tahlil qilib, xavfni avtomat aniqlash, videokameralar va skanerlar orqali shaxsning harakatlarini tahlil qiladi, asabiylik,

qo‘lda shubhali harakat, yukni ehtiyotkorlik bilan olib yurish, yuk va transport vositalarida narkotiklar bor-yo‘qligi AI bilan tahmin qiladi, rentgen tasvirlari orqali narkomanni tanib olish, termal kameralar orqali noodatiy issiqlikni aniqlash, Masalan: AQSh va Xitoyda aeroportlarda kompyuter ko‘rish (computer vision) yordamida narkotik tashuvchilar 70–80% holatda avtomat aniqlangan. SI bilan boshqariladigan skanerlar (masalan, portativ narko-detektorlar) kimyoviy moddalarni tezkor aniqlash,

millionlab ma’lumotlar orasida narkotiklar bilan bog‘liq xatti-harakatlar, xatlar, moliyaviy operatsiyalar kabi shablonlarni avtomat tanib oladi. Shuningdek, Sun’iy intellekt narkotiklarga qarshi kurashda katta samara berishi mumkin. U xavfni oldindan aniqlash, tarqalishni kuzatish, kimyoviy tahlilni avtomatlashtirish va shaxslarni shubhasiz kuzatish orqali huquq-tartibot organlariga kuchli yordamchi bo‘ladi. Ammo bu texnologiyalarni faqat axloqiy, qonuniy va inson huquqlariga mos ravishda joriy qilish kerak. Inson huquqlari eng ustuvor qadriyat sifatida saqlanishi lozim;

Video kuzatuv va identifikatsiya texnologiyalari - yo‘lovchilarning yuz ifodalarini, harakat yo‘nalishlarini kuzatish, biometrik ma’lumotlar asosida tahlil qilish, avtomatik yuz va harakat tahlili qilish, real vaqtda shubhali harakatni kuzatish va chora ko‘rish;

Qidiruv va kuzatuv vositalari - narkotik moddalarni aniqlash uchun maxsus tayyorlangan itlardan foydalanish, portativ narkotik skanerlardan foydalanish (narko-detektorlar), rentgen va issiqlik skanerlar (ayniqsa yuk va chemodanlarda), fizik tashuv vositalarida narkotik moddani aniqlash;

Huquqiy va xalqaro hamkorlik vositalari - Interpol kabi tashkilotlar bilan ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish, xalqaro qonunlar asosida profayling protokollari (shaffof va diskriminatsiyasiz) qilish, qo‘shma tergov guruhlari, transmilliy qochoqchilikka qarshi samarali harakat;

Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish - profayling bo‘yicha maxsus tayyorgarlik kurslari (psixologiya, yurisprudensiya), huquq-tartibot organlari uchun treninglar, axloqiy (etika) va inson huquqlari sohasida ma’lumot berish, narkojinoyatlarga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining bilimini xalqaro standartlarga mos ravishda oshirishni tizimli yo‘lga qo‘yish.

Narkotik profaylingda samarali vositalar bir-biriga bog‘liq va kompleks ravishda ishlatilishi lozim. Faqatgina texnik vositalar emas, balki inson fe’l-atvori, ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyati va qonuniy asoslar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vositalarni inson huquqlariga zid bo‘lmagan holda, shaffof va ilmiy yondashuv bilan qo‘llash — narkotiklar tarqalishiga qarshi samarali kurash olib borishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuni ta’kidlash lozimki, narkotik jinoyatchilik jamiyat uchun juda katta tahdid tug‘diradigan, murakkab va tizimli jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Uning tarqalishi nafaqat inson salomatligi va ma’naviyatiga, balki davlat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, unga qarshi kurashishda zamonaviy, tizimli va ilmiy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalaga aylangan.

Shu nuqtai nazardan olganda, profayling — narkotik bilan bog‘liq jinoyatlarni barvaqt aniqlash, tahlil qilish va oldini olishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. U shaxsning psixologik, ijtimoiy, biometrik va povedensial (xatti-harakat) xususiyatlarini tahlil qilish orqali jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar to‘g‘risida ma’lumot to‘plashga imkon beradi. Ayniqsa, narkotik trafikini tashkil qiluvchi guruhlarning harakatlari va ularning ichki tuzilmasini fosh etishda psixologik va ijtimoiy profayling usullari yuqori samara bermoqda.

Shu bilan birga, profaylingning joriy qilinishi huquqiy-etik cheklovlar, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, texnologiya imkoniyatlari va malakali kadrlar yetishmasligi kabi qator muammolar bilan to‘qnash keladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy biometrik tizimlarni joriy etish, mutaxassislar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish va qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, narkotik profayling bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashning innovatsion, tezkor va aniq usullaridan biri sifatida jinoyat-huquqiy tizimda alohida o‘rin tutadi. Undan samarali foydalanish uchun ilmiy yondashuv, xalqaro tajriba va milliy sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. BMTning “Giyohvandlik vositalari to‘g‘risida”gi konvensiyasi. 2000-yil 15-noyabr, Nyu-York. https://lex.uz/docs/-1304566.

2. O‘zbekiston Respublikasining 813-I-son.19.08.1999 y. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lexuz.

3. “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024 — 2028-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiya”si 2024-yil 6-may, PF-73-son. https://lexuz.

4. Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazining 2023-2024-yillar uchun Informatsion byulleteni. https://www.unodc.org/centralasia.

5. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, https://lex.uz/ru/docs/-2655293.

6. Axmedov A.B. Jinoyatchilikka qarshi kurashda psixologik profaylingning o‘rni. – Toshkent: Yuridik fanlar jurnali, №2, 2022. – B. 45–52.

7. Ivanov P.N. Biometric Profiling in Criminal Investigations. – Moscow: Russian Academy of Internal Affairs, 2020. – 185 p.

8. Norqobilov F. Narkojinoyatlar: kriminologik tahlil va ularning profilaktikasi. – Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti, 2021. – 210 b.

9. Turabekov S. Use of Psychological Profiling in Detecting Drug Crimes in Uzbekistan // *Journal of Criminology and Legal Studies*, Vol. 5(1), 2023. – P. 31–38.

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA JAMOAT XAFSIZLIGINI TA‘MINLASHDA PROFAYLINGDAN FOYDALANISH

Ilmiy rahbar: Zurapov Ali O‘tkirovich *O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti iqtisodiy fanlar kafedrasi dotsenti*

Profaylingning o‘ziga xos xususiyatlari jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat manfaatlarini himoya qilishga qartilganligidir. Biroq shuni ta’kidlash kerakki ushbu texnologiya doimiy turg‘un emas, u doimo o‘zgarib turadi, to‘ldiriladi va takomillashtirib boriladi. Profayling oddiy so‘z bilan ta’riflaydigan bo‘lsak bu – jamiyatda aldov, chalg‘itish va yashirin yo‘l bilan o‘zining yoki boshqalarning qonunga zid maqsadlarini amalga oshirmoqchi bo‘lgan shaxslarni aniqlashga qaratilgan sohadir. Profayling texnologiyalari asosan operativ qidiruv va xavfsizlikni ta’minlash tadbirlariga qaratilgandir. Yaqin atrofimizdan qaraydigan bo‘lsak profayling Sobiq Ittifoq Sotsialistik respublikalarida psixatiriya va psixologiya bilimlariga tayanib maxsus xizmatlar (KGB) xodimlari tomonidan davlatning xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash hamda josus - ayg‘oqchilarni aniqlashda keng qo‘llanilgan. Profayling sohasidagi o‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki ushbu texnologiya rivojlangan davlatlarda bundan taxminan 50-60 yil muqaddam shakllangan bo‘lib asosan davlatlarning o‘z xavfsizligini ta’minlashga, terroristik xurujlarni oldini olish, davlat chegaralarida kontrabanda va noqonuniy ashyolarning kirib-chiqib kelishi, ketishini nazorat qilish va aniqlashga qaratilgan. Rivojlangan davlatlar yuqorida ko‘rsatilgan xurujlarni oldini olishga qaratilgan texnologik raqamlashtirilgan profayling dasturiy tizimlari mavjud. Bu tizim asosan aviaqatnovlar va transport sohasidagi terminal vazifani bajaruvchi davlatlarda keng yo‘lga qo‘yilgan. Davlat xavfsizligida terrorizm va tajovuzlarni oldini olish maqsadida AQShda profayling sohasi birinchilar qatorida qo‘llanilgan bo‘lsa, tez fursatda bu soha Isroil davlatida qiziqish o‘yg‘otdi va Isroil davlati joylashuv xududi notinchligi sababli bu davlatda profayling sohasiga ehtiyoj juda kattaligi sababli ushbu sohada ilmiy izlanishlarning rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Janubiy Koreyada 2000 yildan buyon Jamoat tartibini saqlashda profayling bilimi va texnikasini keng qamrovli qo‘llash tizimi joriy etilgan. Hozirda profayling bilan ishlovchi shaxslar (profaylerlar) xuquqni muxofaza qiluvchi tashkilotlar bilim yurtlarida

tarbiyalanib ularga talab kundan-kun oshib bormoqda. Jamoat tartibini saqlashda faol samarali usullardan biri bo‘lgan profayling, jinoyatlarni barvaqt, ya’ni sodir bo‘lmasidan turib aniqlanishiga, jinoyatchi bilan qadamma-qadam fikr yuritishga, uni kuzatib profillash orqali sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni barvaqt oldini olish amaliyoti qo‘llanilmoqda va ushbu yo‘nalishni rivojlantirish masalasiga jiddiy qaralmoqda. Profaylerlar xuquqni muxofaza qiluvchi tashkilotlar bilim yurtlarida psixologik bilimlari yuqori baholangan qobiliyatli tinglovchilar safidan saralab olinib jamoat tartibini saqlash, fuqaro aviatsiyasida, fuqaro transportida, bojxona, tergov, tahlil (analitika) va boshqa sohalarda samarali qo‘llanilmoqda. Profillash tizimi makondagi haqiqiy vaziyatga baho berish, to‘plangan guruhlarning, insonlarning o‘zini tutish harakatini bashorat qilish, tashqi omillarga reaksiyasini baholab to‘g‘ri qaror qabul qilishdan iboratdir. Muammoli holatlarni barvaqt tushunish, kuzatuv uchun samarali va qulay pozitsiya tanlash, kuzatuv tahlillariga asoslangan holda qaror chiqarish yoki tahlillarini keyingi instansiyaga yetkazish profaylerlarga qo‘yilgan asosiy ustuvor maqsad hisoblanadi. Janubiy Koreya demokratik respublikasining hamda aholisining demokratik qarashlari shunday tuzilganki davlat boshqaruvi, narxlarning qimmatlashuvi, sudlov tizimi hattoki tashqi ishlar vazirligining ma’lum bir harakati yoki harakatsizligi oqibatida fuqarolar to‘planib miting va qarshi namoyishlar e’lon qilishi odatiy holatga aylangan. Aynan ushbu miting va namoyishlarni ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketmasligi uchun huquqni muxofaza qilish organlari o‘z profaylerlarini safarbar qilishadi. Profaylerlar tomonidan ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi emotsional beqaror shaxslar aniqlanadi va politsiya xodimlari tomonidan yig‘ilgan olomondan ajratib olish chorasi ko‘riladi. Bu kabi tadbirlarda profayling texnikasi namoyishlarni 97% tinch o‘tishini ta’minlab dunyoda Janubiy Koreyani miting va namoyishlar tinch o‘tadigan davlatlar orasida yuqori o‘rinlarga olib chiqadi.

1996 yildan Janubiy Koreya davlatida jamiyatni sodir etilishi mumkin bo‘lgan jinoyatlardan himoya qilish maqsadida olib borilgan ilmiy izlanishlarda impulsiv jinoyatlar turumiga kiruvchi ketma-ket qotillik jinoyatlari o‘rganildi. 1975 yil Dae-Du Kim ketma-ket seriyali qotilliklarni sodir etgan, 1986 yil Xva Son seriyali qotillik ishi , 1994 yil Ji Jon Pa seriyali qotillik ishi, Bo- Hyon Da seriyali qotillik ishi, 1996 yil Mak

Ga Pa seriyali qotillik ishi va odam o‘g‘irlash, 1999 yil Jung Du Yong seriyali qotillik ishi ushbu jinoyat ishlari va jinoyatni ochishda qatnashgan xodimlar olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida o‘rganilganda, yuridik bilimga ega bo‘lish bilan birgalikda qotillarni aynan yuqori psixologik bilimga (insonlarni kuzatishga moyil) politsiya xodimlari tomonidan fosh etilgani tadqiqotlar davomida aniqlanib 2000 yildan Koreya davlatida politsiya akademiyasida profayling fani o‘qitila boshladi va xozirgi kunda jinoyatlarni oldini olishda hamda jilovlashda o‘z samarasini bermoqda.

Profayling o‘ziga yarasha ijobiy va salbiy jixatlariga ega. Dunyoda rivojlanayotgan davlatlarda aynan profaylingni qo‘llashda o‘ziga yarasha yutuq va kamchiliklarga ega. Kamchiliklarni e’tirof etadigan bo‘lsak Yevropa, AQSh, Isroil davlatlarida irqiy va diniy farqlanish, ma’lum bir irq va din vakillarini davlat xavsizligiga taxdid soluvchi shaxs sifatida xuquqni muxovaza qiluvchi organlari xodimlari tomonidan asossiz to‘xtatish, so‘roq qilishga sabab bo‘lmoqda ushbu holat muxojirlar hamda qochoqlar bilan ham tez-tez uchrab turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Кудряшова С.В. Юнина Ye.А.* Психология: учебно-методические материалы для самостоятельной работы студентов: Часть 1, 2. – Пермь, 2002. – С.258.

2. *Леонгард К.* Акцентуированные личности. – Ростов-на-Дону, 1997. – С.124.

3. *Петровский А.В.* Личность. Деятельность. Коллектив. – М, 1982. – С. 64.

4. *Радугин А.А.* Психология. / Понятие и структура «личности». – М., 2001. – С. 95 - 111.

PROFAYLING BILIMLARINI SHAKLLANTIRISHNING UMUMIY TAVSIFI

Utkirov Davron Aliyevich *– O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 2-bosqich kursanti*

Ilmiy rahbar: Bozorov Akmal Amonovich *O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti iqtisodiy fanlar kafedrasi professori*

Odamlarni profillash va ularning og‘zaki (verbal) va imo-ishoralari (noverbal) xatti-harakatlarini o‘rganish g‘oyasi ilk jamoalashuv davridan mavjud bo‘lib, dunyoqarash va ma’lum bir davrning asosiy tendensiyalariga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Ilm-fangacha bo‘lgan davrda fiziognomiya o‘ziga xos profil o‘rnini bosuvchi vosita bo‘lib, 17-19-asrlarda Yevropa va Rossiyada juda mashhur edi. Biroq, biz hozir bilgan profayling 19-asrda psixiatriya va kriminalogiya fanlari uyg‘unligida paydo bo‘lgan.

Profayling – bu “insonlarni o‘qish”ning amaliy usuli bo‘lib, u insonning shaxsiy xususiyatlari va odatlari, qadriyatlari,

motivlari va e’tiqodlarini tezkor o‘qib chiqish, hamda shaxsning voqelik, holat yoki vaziyatda kelgusidagi xatti-harakatini

bashorat qilish imkoniyatidir. _Profiling - bu amaliy psixologiya

usullaridan foydalangan holda potensial xavfli shaxslar va

vaziyatlarni aniqlash orqali noqonuniy xatti-harakatlarning

oldini olish texnologiyasi._Jinoyatchilarning ish usullariga ko‘ra psixologik portretini tuzishda kriminalogiya ekspertlari tomonidan 18-asrdan qo‘llanila boshladi. Usulning yorqin namoyon bo‘lishi 1888 yilda Londonda qotil Jekni (Potroshitel) qidirish ishlariga qaratilganligi edi. Qotillik yoki davomiy (seriyali) og‘ir jinoyatlarni sodir etgan shaxsni profillash, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, potensial gumonlanuvchilar doirasini sezilarli darajada kamayishiga imkon berardi. Italiyalik kriminolog Chezare Lombroso quyidagi konsepsiyani ishlab chiqdi, unga ko‘ra xulq-atvorning jinoiy turi tug‘ma xususiyatlar bilan belgilanadi. Ularning namoyon bo‘lishini

bilib, boshqa odamlar olomonidagi potensial jinoiy elementni aniq aniqlash mumkin. Xozirgi kunda bu qarash eskirgan hisoblanadi.

Nazariyotchi kriminalist G. Gross bu sohada o‘z nazariyasini ilgari surdi. Bu nazariya jinoiy qilmishni o‘rganish asosida shaxsning shaxsiy xususiyatlarini, uni qonunni buzishga undagan ijtimoiy holatlarni ham aniqlash imkonini berdi. Jinoyatchining psixologik portretini turli usullarda, jumladan, voqea joyidagi izlarni chizish, sur’atga olish mustaqil fanga, kriminalistikaning kichik bo‘limiga aylana boshladi.

Profaylingga qiziqishning ikkinchi to‘lqini bixeviorizm va xulq-atvor tahlilining paydo bo‘lishi bilan rivojlana boshladi. 1974 yilda FQBning Amerika Akademiyasi professori D. Duglas profayling sohasiga qo‘yiladigan talablar kafedrasini ochdi va jinoyatchi shaxsini profilini aniqlash sohasidagi tadqiqotlar yo‘nalishiga rahbarlik qildi. Aynan o‘sha davrdan texnologiya amalda qo‘llanila boshlandi va profayling bilan shug‘ullanuvchi shaxslar "profayler" atamasi paydo bo‘ldi.

FQB g‘oyalariga o‘sha davrda jamoat va transport xavfsizligi masalalari juda dolzarb bo‘lgan Isroilda tezda qiziqish o‘yg‘otdi. Isroil xavfsizlik xizmatida profayling usuli qabul qilinib, “El-Al” aviakompaniyasi profaylingni o‘ziga xos talqinini (versiyasini) – aviatsiya sohasiga taqdim etdi. Maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan bir guruh odamlar aeroportlarda yo‘lovchilar o‘rtasida so‘rov o‘tkaza boshladilar, ularga oddiy savollar yoki yo‘lovchilarning o‘zgacha xulq-atvorini aniqlash uchun rejali savollar berishdi.

Keyinchalik profayling sohasida, 1980-yillarda amerikalik psixolog Pol Ekman maydonga chiqib, tezkor xizmatlarga insonning haqiqiy psixologik holatini yuz ifodalari (mimika) orqali aniqlash imkonini beradigan o‘z texnikasini taklif etdi. Uning dasturning afzalligi masofaviy kuzatish imkoniyatini berar edi. Shu bilan birga, 1984 yilda ushbu metodning inglizcha talqindagi modeli yaratilib ICTS aviakompaniyasi tomonidan o‘z xavfsizligini ta’minlashda qo‘llanila boshladi. Natijada, profayling AQSh va ko‘plab Yevropa davlatlarining xavfsizlik xizmatlari tomonidan qo‘llanila boshlandi. Aynan o‘sha davrdan maxsus xizmatlar profayling yordamida yolg‘onni poligrafsiz, lekin yuqori darajadagi aniqlik va ishonchlilik bilan aniqlash imkonini beruvchi professional vosita sifatida, profil yaratishga jiddiy qiziqish bildirishdi.

Tezkor xizmatlar tizimida profayling metodini joriy etish

Tizim Yevropa va Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi tezkor xodimlar va xavfsizlik xizmatlari tomonidan tezda o‘zlashtirildi va jinoiy profilni aniqlashda foydali bo‘ldi. So‘rov dasturi (skripti) va yuzdagi mikro ifodalar nazariyasi umumiy birgalikda juda yaxshi ishladi, ular sud-tibbiyot olimlari uchun ham foydali bo‘lib, jinoyatchining shaxsini modellashtirish yoki uning kelgusidagi xatti-harakatlarini bashorat qilishda yordam berdi. Profayling yo‘nalishda tashillashtirilgan malaka oshirish kurslariga boshqa soha vakillari ham qiziqish bildirib, AQShda advokatlar, sudyalar, auditorlar va biznes-maslahatchilar malaka oshirishni boshladilar.

1990-yillarda profayling Rossiya Federatsiyasida faol rivojlana boshladi. Profillashda asosan shaxsning psixologik portretni chizishga eski sovet psixiatriya va psixologik tadqiqot asosida vujudga kelgan ayg‘oqchi (shpionaj) va terrorchilar bilan muzokaralar olib borish maktabiga tayanib olib bordi. Shu bilan birgalikda AQSh profillash tajribasiga tayangan holda ilmiy izlanishlar olib borib profayling maktabini rivojlantirishga erishdi.

Biznes sohasida profayling metodi va texnologiyalarini qo‘llash xozirgi kunda samarali natija berayotgan usul sifatida e’tirof etilmoqda. Biznes profaylingining bir nechta yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ularning har biri muayyan vazifaga asoslanadi. Asosiylari orasida:

Biznes profilini yaratish - biznes profilini yaratishda, profayling metodi va texnologiyalarini qo‘llab kundalik biznes-aloqalari va muzokaralarda biznes sherikning operativ psixodiagnostikasi vazifalari va qo‘shma manfaatlar va biznes manfaatlarini tezroq va yaxshiroq izlash uchun muzokaralarda profillash texnikasi va texnologiyalarini qo‘llaydi. Shu bilan birga, yolg‘onni aniqlashning asbobsiz texnologiyalari sheriklarning e’lon qilingan niyatlarining samimiyligini ishonchli aniqlash va muzokaralar va o‘zaro hamkorlikning shaffofligini ta’minlash imkonini beradi.

Kadrlar profilini yaratish ishga olish va u bilan ishlash jarayonida kadrlar bo‘yicha menejerlar qo‘llaniladi, ular profillashdan foydalangan holda nafaqat nomzodlarni birlamchi skrining va baholashni o‘tkazishi, balki xodimlarning individual

va kasbiy xususiyatlarini ham ularni to‘liqroq amalga oshirish uchun tushunishlari mumkin. kompaniyaning kadrlar strategiyasi.

Bank profilini yaratish bank reytingi va bank risklarini baholash texnologiyalarini yaratadi. Jismoniy va yuridik shaxslarga kredit berishda yo‘qotish xavfini kamaytirish uchun foydalaniladi. Bank profili boshqa ikkita - audit va biznes metodologiyasiga asoslanadi. Profillash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan xodim ariza berishda yoki bo‘lajak qarz oluvchi bilan suhbatdan so‘ng kredit mablag‘larining qaytarilmasligi xavfini hisoblab chiqadi.

Sug‘urta profilini yaratish firibgarlarni aniqlashga va sug‘urta kompaniyasiga murojaat qilish paytida yoki sug‘urta hodisasi yuz berganda noqonuniy foyda olishga qaratilgan sxemalarni fosh qilishga yordam beradi.

Axborot xavfsizligi sohasidagi profillashtirish xodimlarning xavf-xatarlari va tijorat ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni kompaniya perimetri tashqarisiga chiqarish tahdidlarini tahlil qiladi, shuningdek kompaniya xodimlarining axborot xavfsizligi siyosatining belgilangan rejimiga sodiqligini o‘rganadi.

Ish mantig‘ini tezda o‘zlashtirgan ba’zi profilchilar, torroq sohalardagi mutaxassislar o‘z konsepsiyasida bir-birini to‘ldiruvchi bir nechta usullarni birlashtirdilar. Ular orasida:

uning klassik shaklida profillash;

xulq-atvor harakatlarini kuzatib baholash;

yolg‘onni aniqlash;

so‘roq va so‘roq qilish tizimi.

Tizimlarning rivojlanishi tezda mamlakatda profaylingga bo‘lgan talabning kuchayishiga olib keldi, mutaxassislar safi ham tezkor qidiruv xizmatlari ham insonni o‘rganuvchi fan sohalarida izlanuvchi tadqiqotchilari bilan to‘ldirila boshlandi. Bir vaqtning o‘zida transport xavfsizligini ta’minlash va biznes strategiyalarini amalga oshirish muammolarini hal qilish bilan bir qatorda profillashtirish qiziqarli faoliyat sohasiga aylandi, unda biznes ma’lumotlari, biznesni himoya qilish va tranzaksiyalarni qo‘llab-quvvatlash bilan professional ravishda shug‘ullanadigan ko‘plab kompaniyalar ixtisoslasha boshladilar. Firibgarlik holatlari kamayib, operativ xizmatlarni jalb

qilmagan holda, kompaniyalarning xodimlari o‘zlari mijozlar bilan ishlashda profayling bilimlariga tayangan holda shartnomalarni tuzib muvafaqiyatga erishdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Кудряшова С.В. Юнина Ye.А.* Психология: учебно-методические материалы для самостоятельной работы студентов: Часть 1, 2. – Пермь, 2002. – С.258.

2. *Леонгард К.* Акцентуированные личности. – Ростов-на-Дону, 1997. – С.124.

3. *Петровский А.В.* Личность. Деятельность. Коллектив. – М, 1982. – С. 64

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA PROFAYLING XIZMATINING AHAMIYATI

Jurayev Zamirjon Mamasadikovich

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi Ijtimoiy-gumanitar fanlar sikli boshlig‘i, podpolkovnik, tel: 556518165

Annotatsiya:

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya bo‘linmalarida kontrakt asosida harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchi va xodimlarni jamoat tartibini va xavfsizligini ta’minlashda va kundalik faoliyatida qo‘llaniladigan profayling usulining ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Profayling, profayler, psixologik test, jestlar, fiziognomika, psixodiagnostika, poligraf.

Аннотация:

В статье раскрывается значение метода профилирования, используемого в обеспечении общественного порядка и безопасности в повседневной деятельности военнослужащих, сотрудников Национальной гвардии Республики Узбекистан, проходящих службу по контракту.

Ключевые слова: Профайлинг, профайлер, психологические тесты, жесты, физиогномика, психодиагностика, полиграф.

Annotation:

The article reveals the significance of the profiling method used in ensuring public order and security and in the daily activities of military personnel and employees of the National Guard of the Republic of Uzbekistan serving under a contract.

Keywords: Profiling, profiler, psychological tests, gestures, physiognomy, psychodiagnostics, polygraph.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining 2022 yil 13 yanvar kuni Xavfsizlik kengashining yig‘ilishidagi nutqida Jahon axborot makonida keskin kurash ketayotgan hozirgi vaziyatda axborot xavfsizligini ta’minlash, yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qilish, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi va jangovar ruhini mustahkamlash dolzarbligi ta’kidlandi. Xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash bugun ham, kelajakda ham eng ustuvor vazifamiz bo‘lib qoldi. Chunki faqatgina tinchlik-osoyishtalik mamlakatimiz har tomonlama rivojlanishining asosiy kafolatidir. Bulardan tashqari, Prezidentimiz, Vatanimiz kelajagi uchun sodiqlik bilan xizmat qiluvchi kadrlarni tayyorlash jarayonini, fuqaroni nafaqat ma’lum bir kasbni egasi bo‘lgandagina tayyorlash kerakligini, balki hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda kelajak egalari bo‘lmish yoshlar tarbiyasini, ularning kelajagi uchun mustahkam poydevor qo‘yilishini bayon qilib o‘tdi. Shu nuqtai nazardan harbiy xizmatchilarni xizmat faoliyatlarini muvaffaqiyatli olib borishlarida axborot texnologiyalaridan va hozirgi davr fan yutuqlaridan samarali foydalanishga o‘rgatish, amaliy mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etishda katta ahamiyat kasb etadi.[1]

Profayling metodi hozirgi kunda psixologiya sohasining yangi rivojlanib kelayotgan qiziqarli hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘idan biridir. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarilari faoliyati davomidagi munosabatlar tizimi etnopsixologik xususiyatlarga bog‘liq holda shakllanib boradi. Profayling metodining psixologik qonuniyatlari va mexanizmlari Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Bu metod yordamida harbiy xizmatchi psixologiya qonuniyatlariga tayangan holda shaxslararo munosabatga kirishadi. Profayling jarayonida harbiy xizmatchi bilish sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi.

Bu jarayonlar harbiy xizmatchini mantiqiy fikrlashiga, holatni o‘tmishdagi vaziyat bilan bog‘lashiga, o‘zaro solishtirish va qiyoslash malakasi, ob’ekti va sharoitini

mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi. So‘nggi vaqtlarda, aholi ko‘p jamoat joylarida, qo‘riqlanadigan muhim ob’ektlarda, ayniqsa havo transportida, profayl metoddan foydalanish keng ommalashmoqda. Agar profayling metodini fuqarolar bilan suhbatlashish, ularni ruhiy holatini kuzatish sifatida ta’riflanadigan bo‘lsa, bu metod ikkita bir-birini to‘ldiruvchi metodlardan, ya’ni ruhiy kuzatish metodi va so‘rov (suhbat) metodidan tashkil topgan bo‘lib, shaxs psixodiagnostikasining turi hisoblanadi. Bu usuldan Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatining ko‘plab yo‘nalishlarida, jumladan, aholi ko‘p to‘planadigan jamoat joylarida, qo‘riqlanadigan o‘ta muhim ob’ektlarda, jamoat transportining amaldagi barcha turlarida xavfsizlikni ta’minlashda foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Agar profayling sohasida xorij tajribasini o‘rganadigan bo‘lsak, uni bevosita kriminal profayling (asosan Yevropa va AQShda keng tatbiq etilgan) hamda transportdagi profayling (asosan Isroil va Rossiyada keng tatbiq etilgan)ga ajratish mumkin.

Profayl metod asoschilari psixolog olimlar P.Ekman, V.Frizen, M.Sukerman va B.De Paulolar hisoblanishadi. 2012 yil Yolg‘onni tadqiq qilish bo‘yicha Xalqaro Akademiyada Ye.Spiritsa tomonidan kriminal profayling usuli taqdim etildi.

Kriminal profayling – taxmin qilinayotgan jinoyatchi shaxs xususiyatlarini tashhislovchi kompleks usullar yordamida psixologik profilining yaratilishi tushuniladi.[2]

Kriminal profayling odatda, jinoiy xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslarning xulq-atvorini o‘rganishga qaratilgan yo‘nalishdir. Uning metodologik asosi psixologiyaning «bixevioristik» nazariyasiga (inson xulq-atvorini o‘ranish) tayanadi. Unda inson harakatlarini yuzaga keltiruvchi motivlar bevosita tahlil qilinadi. Buyuk Britaniya, Avstriya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlari politsiya tizimida faoliyat olib borayotgan psixolog-mutaxassislar aksariyat hollarda qotillik jinoyatlarini fosh etishda tajribali harbiy xizmatchi amaliy ko‘mak berib boradilar. Ular kriminal profayling usuli orqali shaxs xulqidagi noodatiy harakatlarni qay uslubda amalga oshirgani, hudud geografik joylashuvining o‘ziga xos xususiyatlarini, voqea joyida jinoyat sodir etgan shaxs tomonidan qanday izlar qolganini psixologik tahlil qiladilar. Shu bilan birga, jabrlanuvchining turmush tarzi, hayoti davomida erishgan yutuq va

muvaffaqiyatsizliklari, shaxslararo munosabatlari, faoliyatiningyo‘nalishi hamda undan qoniqish hissi, ruhiy sog‘lomligi, nizoli vaziyatlarda o‘zini tutib turishi, o‘ziga xos psixologik fazilatlari, hayotga qarashlari va intilishlari, oiladagi va yaqinlari, do‘stlari, dushmanlari orasidagi o‘zaro munosabatlari, jamiyatda qabul qilingan norma va me’yorlarga bo‘lgan munosabati va shaxs haqidagi boshqa axborot manbalarini chuqur psixologik tahlil qilib, jinoyatni fosh etishga ko‘mak beradigan izlanishlar olib boradilar. Natijada, yakuniy xulosalarga tayangan holda jinoyatchi shaxsning psixologik portretini yaratishga harakat qiladilar.

Profayling texnologiyasi 5 bosqichdan iborat:

6) jinoyat va oldin shunga o‘xshash qilmishlar sodir etgan jinoyatchi tiplari (psixologo-psixiatrik tipologiya) psixologik mazmundagi holatlar tahlili;

7) jinoyatni tergov qilish joyining mukammal o‘rganilganlik tahlili;

8) jabrlanuvchilarning mashg‘ulot va qiziqishlarini atroflicha o‘rganish;

9) jinoyatni tergov qilishga jalb qilingan hamma shaxslarning ehtimolli motivatsion omillarini shakllantirish;

10)jinoyatchini tasvirlash (fe’l-atvori ko‘rsatishiga, tashqi psixologik mohiyati asosida).

Ma’lumki, biror-bir huquqbuzarlikni amalga oshirmoqchi bo‘lgan shaxs o‘zining psixologik holatini to‘liq nazorat qila olmaydi, uning organizmida, fiziologik va tashqi ko‘rinishida o‘zgarishlar yuzaga keladi, vaziyatga affektiv yondashuv, yolg‘on va nosamimiy harakatlar, asabiylashish kuzatiladi.

Inson tiplarini o‘rganish bo‘yicha konstitutsional nazariyada, uning asoschisi nemis psixiatri Ernest Krechmer (1888-1964) bo‘lib, 1921 yilda u bu nazariyani ilgari surgan. U asosan temperament tiplarini morfologik konstitutsiyasiga qarab aniqlashga e’tiborini qaratgan. Ya’ni insonning ta’na tuzilishiga qarab uning psixologik xususiyatlari, temperamenti va xarakterini aniqlash mumkin deb hisoblagan.

Asosiy tadqiqotlari shu masalani yoritishga qaratilgan bo‘lib, Krechmer insonlarni ta’na tuzilishiga qarab uch turga ajratgan va ularning har biriga ta’rif bergan. [3]

Astenik – (grek tilidan olingan bo‘lib asthenes – *zaif* degan ma’noni anglatadi) turga tegishli insonlar o‘rta bo‘yli va oriq kishilar bo‘lib, jussasi kichikroq bo‘ladi. Shuning



uchun ko‘pgina hollarda ularning bo‘yi past bo‘lib ko‘rinadi.

1-rasm. Astenik tipidagi inson ko‘rinishi.

Ta’na va yuz terisi nozik, yelkasi tor, qo‘llari va bilaklari ingichka, ko‘krak qafasi tor bo‘lgan hamda mushaklari yaxshi rivojlangan oriq kishilardir. Asteniklarning yuzi odatda uzun va burni katta bo‘ladi

Ularga emotsional zaiflik, doimo o‘z-o‘zini tahlil qilish, xatti- harakatlarini o‘rganish kabi xislatlar namoyon bo‘ladi, bunday insonlar yolg‘izlik hissiga moyil bo‘ladilar.

Atletik (grek tilidan olingan bo‘lib athletes – *kurashchi* deganma’noni anglatadi) turiga tegishli insonlarning suyak va mushaklari yaxshi rivojlangan, o‘rtacha yuqori yoki baland bo‘yli, yelkasi va ko‘krak qafasi keng, boshini tik tutib yuradigan kishilardir. Tana tuzilishi pastga qarab qisqarib (torayib) ketadi, boshi ko‘pincha cho‘ziq, tuxumsimon tuzilishda bo‘ladi. Ularning irodasi kuchli bo‘lib, qat’iyatlilik, o‘z fikri ustida qaysarlik bilan turib olish kabi xislatlar bilan tavsiflanadi.



2-rasm. Atleik tipidagi inson k o‘rinishi.

Piknik (grek tilidan olingan bo‘lib *pyknos – yirik* degan ma’noni anglatadi) turiga tegishli insonlarning bosh ko‘krak qafasi va qorin bo‘shlig‘i yaxshi rivojlangan, semirishga moyil, tayanch harakat a’zolari yaxshi rivojlanmagan kishilar. Ular juda emotsional bo‘lib, turli hayotdagi vaziyatlarga haddan ziyod bo‘yoq beradilar va isterikaga (jazavaga tushishga) moyildirlar. Doimo hayotdan zavqlanib yashashga harakat qiladilar.



3-rasm. Piknik tipidagi inson ko‘rinishi.

Astenik tip egalari – o‘g‘rilik, firibgarlik, tovlamachilikka moyil bo‘ladilar.

Atletik tip egalari – zo‘ravonlik harakatlariga moyil bo‘ladilar.

Piknik tip egalari – muttahamlik va qalloblikka moyil bo‘ladilar.

Aralash tip egalari esa jamiyatga zid harakatlarni sodir etishga moyil bo‘ladilar.

1980-1992 yillarda “Chikatilla” manyak nomi Butun sobiq ittifoqda tarqalib ketgan. Uni shuningdek, “Rostovlik manyak” deb ham ataydilar. Uni sodir etgan jinoyatlarini fosh etishda va o‘zini topishda juda katta qiyinchiliklar bo‘lgan. 10 yil muddat ichida uni sodir etgan jinoyatlarini o‘rganishga va ushbu jinoyatni aslida “kim” sodir etganligini topishga juda ko‘p vaqt sarf etilgan. O‘tkan 10 yil davomida qurbonlar soni 50 dan ortiq bo‘lgan va ularning aksariyat qismini bolalar va ayollar tashkil etgan. Tergovchilar hattoki, qotilni qanday ko‘rinishda ekanligini va qanday ijtimoiy qatlamga tegishli ekanligini bilishga ojizlik qilganlar. Shu sababli tergov xodimlari psixiatrlarga murojaat qilishga majbur bo‘lganlar. Murojaat etilgan psixiatrlardan faqat bittasi Aleksandr Olimpiyevich Buxanovskiy ushbu ishni ko‘rib chiqishga va jinoyatchi shaxsini psixologik portretini yaratib berishga qaror qilgan. Ushbu jinoyatni o‘rgangan holda A.O. Buxanovskiy jinoyatchini 90% psixologik portretini to‘g‘ri aytib bergan. U bergan ma’lumotlarga tayangan holda Ichki ishlar idoralari xodimlari “Chikatilla”ni iziga tushganlar. [4]

A.O. Buxanovskiy jinoyatni sodir etish turiga, qurbonlarning yoshini, jinoyat joyini, kunini, jinoyat izlarini o‘rgangan holda o‘sha davrda va hozirgi kunda keng qo‘llanilib kelinayotgan E.Krechmerning konstitutsional nazariyasidan foydalanib “Chikatilla”ni astenik tipiga tegishli ekanligini aytadi. U pedafil, kanibal, ozg‘in, klassik ko‘rinishda kiyinib yuruvchi, insonlar bilan yaxshi munosabatga kirisha oladigan (sotsiopat emas), oilali, ma’lum bir ish grafigiga ega ishda ishlovchi insonligini aytgan.

A.O. Buxanovskiy Andrey Chikatillani asosan qurbonlarini o‘rmon ichkarisidagi hududda kuchli vahshiy qiynoqlar bilan o‘ldirib, ochiqdan ochiq o‘likni yashirmay tashlab ketganiga va o‘rmon ichkarisigacha ular o‘z oyoqlari bilan (majburlamagan holda) borganlari uchun uni qo‘rqinchli ko‘rinishga ega emas balki, klassik uslubdagi kiyimlarni kiyib yurishi, insonlar u bilan muloqotga kirishganlarida undan cho‘chimaydilar, unga ishongan holda u bilan birga ketadilar deb aytgan. Andrey Chikatillani hech qanday psixiatr ro‘yxatida turmaganligini sababi ham aynan shunda bo‘lib u sotsiopat emasligi jamiyatda insonlardan qochmasligi muloqotni to‘g‘ri va chiroyli shaklda olib borishini aytgan. Shuningdek, u o‘z qurbonlariga birinchi zarbani deyarli har doim bosh miyasining orqa qismiga zarba berish bilan boshlagan. Ushbu

ma’lumotlarni o‘rgangan holda A.O. Buxanovskiy uni zaif “Astenik” tipdagi ozg‘in inson deb aytgan, chunki u o‘zidan zaif bo‘lgan bolalarga va ayollarga ham orqadan zarba bergan, agarda oldidan zarba bersa, ular qarshilik ko‘rsatishga ulgurishlari va jinoyat izlari ko‘payib ketishi mumkinligini bilganligi sabab bo‘lgan bunga. Shuningdek, A.Chikatilla o‘z qurbonlarini organlarini (ko‘zlari, burni, jinsiy a’zolarini) kesib olib, ularni iste’mol qilgan (kanibal) holatlar ham kuzatilgan. Qurbonlar asosan bir necha marotaba pichoq (50 va undan ziyod) bilan zarba berishdan qon ketishi oqibatida qiynalib qurbon bo‘lganlar. Qotillik asosan haftaning ma’lum bir kunlarida sodir etilgan, Shu sababli A.O. Buxanovskiy ushbu qotil haftada uch (3) ish kunida ishlovchi ma’lum bir ish jadvaliga ega bo‘lgan inson ekanligin ta’kidlagan. [5]

Hozirgi kunda A.O. Buxanovskiy yaratib ketgan qotillarning tiplari, u yozgan monografiya va adabiyotlardan ko‘plab qotilliklarni ochishda va jinoyatlarga moyilligi bor insonlarni o‘rganishda va davolashda keng foydalanilib kelinmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib Milliy gvardiya bo‘linmalarida kontrakt asosida harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarni o‘zlari xizmat olib borayotgan hududlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun aholi ko‘p to‘planadigan joylarda (istirohat bog‘lar, bozorlar, stadionlar, aeroport, vokzallar) insonlarning xatti-harakatlariga to‘g‘ri baho berish bo‘yicha markazda olib borilayotgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar natijasida olgan bilimlarini mustahkamlab o‘zlarining tajribalarini boyitish maqsadida doimiy ravishda profayling usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilar bilan olib borilgan amaliy mashg‘ulotlardan olingan bilimlarni xizmat faoliyatlarida qo‘llash jamoat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchilarga biriktirilgan joylarda turli xil insonlar bilan muloqotga kirishishdan oldin ularning ruhiy holatiga e’tibor qaratilishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022 yil 13 yanvar kuni Sh.M. Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashi yig‘ilishidagi nutqi. Xalq so‘zi gazetasi 14 yanvar №9 (8071)

2. Кудин В.А., Статный В.М. Профайлинг в деятельности органов внутренних дел: от теории и методологии к практике // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. 2013. №3 (59). - с. 45-47.

3. Паршукова Л.П., В. М. Карлышев., Шакурова З. А. «Физиогномика» Архивная копия от 15 августа 2012 на Wayback Machine / Серия «Высшее образование». Ростов н/Д: Феникс, 2004. - 384 с.

4. Бурлачук Л. Ф. Психодиагностика: Учебник для вузов. - СПб.: Питер, 2006. - 351 с: ил. - (Серия ≪Учебник нового века≫). - с.104

5. Дюк В. А. Компьютерная психодиагностика.-СПб: «Братство», 1994. - 364 с.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llashning huquqiy tartibga solish masalalari

Yunusov Davronbek Bekmirza o‘g‘li.
Jamoat xavfsizligi universiteti tayanch doktoranti, kapitan.

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tezisda harbiy xizmatchilari tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlashda jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llash tartibining huquqiy asoslari tahlil qilingan. Ogohlantirishning aniq tartibi, harbiy xizmatchilarning o‘zini tanishtirish mexanizmlari hamda majburlov choralarini qo‘llash yetarli darajada belgilanmaganlik muammosi ko‘rsatilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligi ta’minlash, jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar, huquqiy tartibga solish, majburlov choralari.

Аннотация: В данной научной диссертации анализируются правовые основы порядка применения физической силы и специальных средств военнослужащими при обеспечении общественной безопасности. Выявлена проблема недостаточной регламентации четкого порядка предупреждения, механизмов представления военнослужащих и применения принудительных мер, разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Обеспечение общественной безопасности, применение физической силы, специальные средства, правовое регулирование, принудительные меры.

Annotation: This scientific thesis analyzes the legal foundations of procedures for the use of physical force and special means by military personnel in ensuring public security. The problem of insufficient regulation of clear warning procedures, mechanisms for military personnel identification and application of coercive measures has been identified, with proposals and recommendations developed accordingly.

Key words: Public security provision, use of physical force, special means, legal regulation, coercive measures.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Biroq, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda kuch ishlatish, jumladan jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llash jarayonida inson huquqlarini hurmat qilish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Shuning uchun ham, inson huquqlarini ta’minlash barcha huquqiy davlatlarning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlarini ta’minlashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan kuch ishlatish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmonida[1], Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash bevosita O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilab berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga[2] muvofiq, 2017-2021 yillarda amalga oshirilgan islohotlar milliy davlatchilik va suverenitet, inson huquq va erkinliklari, xavfsizlik va huquq-tartibot, chegaralar daxlsizligini ta’minlash, qonun ustuvorligi, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish va fuqarolarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam poydevorni yaratdi va “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ga asos bo‘ldi.

Xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalariga muvofiq, huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda qo‘llaniladigan choralarning mutanosibligi va qonuniyligi prinsiplariga qat’iy rioya etish talab etiladi. Jismoniy kuch ishlatish va maxsus

vositalarni qo‘llash mexanizmlari vaziyatga mos bo‘lishi, zarurat darajasidan oshmasligi hamda qonun doirasida amalga oshirilishi shart.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qonunchiligi tizimli ravishda takomillashtirilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari tomonidan jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llash tartibi, shartlari va chegaralari belgilangan. Ushbu faoliyat O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Harbiy nizomlari, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonuni[3], shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining tegishli vakolatlarni aniqlashtiruvchi buyruqlari asosida chiqarilgan idoraviy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bu huquqiy asoslar jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llashning qonuniy, oshkora va adolatli tizimini ta’minlaydi, fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilgan holda jamoat xavfsizligini samarali ta’minlash imkonini beradi.

Xalqaro huquqiy asoslarga muvofiq, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1990-yil 29-avgust – 7-sentabrda Gavanada o‘tkazilgan “Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala to‘g‘risida”gi 8-kongressida qabul qilingan “Huquq-tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslar kuch va o‘qotar qurol ishlatishining asosiy prinsiplari” huquq-tartibot idoralari faoliyatining xalqaro standartlarini belgilab beruvchi muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjatning maxsus qismiga ko‘ra, “…huquq-tartibot idorasi xodimi o‘zlarini shunday shaxslar sifatida tanishtiradi va kuch ishlatishi haqida ogohlantirish beradilar, ushbu ogohlantirishga javob qaytarilishi uchun yetarli vaqt beradilar, ushbu harakatlar huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha xodimlar uchun xavf tug‘dirgan yoki boshqa shaxslar hayotiga jiddiy ziyon yetkazish xavfini tug‘dirgan holatlarda ogohlantirishsiz qo‘llash”[4] mumkinligi mustahkamlangan.

Ammo shuni ta’kidlash joizki, BMT tomonidan qabul qilinadigan bunday huquqiy hujjatlar asosan tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ularda huquqni muhofaza qilish organlari harbiy xizmatchi (xodim)lari tomonidan ogohlantirishning aynan qaysi shaklidan foydalanish lozimligi to‘g‘risida aniq ko‘rsatmalar belgilanmagan. Bu holat xalqaro normalarning universallashgan tusini aks ettiradi va turli mamlakatlarning o‘ziga xos huquqiy tizimlari, madaniyati va an’analarini hisobga olish imkonini beradi.

Shu sababli, BMTga a’zo mamlakatlar o‘z huquqni muhofaza qilish tizimlarida kuch ishlatish bo‘yicha normalarni mustaqil ravishda ishlab chiqish va tatbiq etish vakolatiga egadirlar. Bu Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari tomonidan jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llash tartibotlarini ishlab chiqishda yuqorida ta’kidlanganidek, ijtimoiy xavfli qilmishning xususiyatiga qarab ogohlantirib yoki ogohlantirishsiz qo‘llash mexanizmlarini batafsil belgilash imkonini beradi. Ogohlantirib qo‘llash deganda, avval huquqbuzarga ogohlantirish berilib, so‘ng kuch ishlatilishi tushunilsa, ogohlantirishsiz qo‘llash esa nihoyatda xavfli va tezkor chora talab qiladigan vaziyatlarda bevosita qo‘llashni nazarda tutadi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari tomonidan jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llash jarayonidagi aniq protsessual harakatlarni belgilab beruvchi batafsil qoidalar normativ-huquqiy hujjatlarda yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Normativ-huquqiy bazadagi bunday bo‘shliq huquqbuzarliklarga qarshi kurashda jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llash amaliyotida jiddiy muammolarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, Milliy gvardiya harbiy xizmatchi (xodim)larining o‘z vakolatlarini amalga oshirishda noaniqliklarga duch kelishi, harakatlarining huquqiy asoslanganlik darajasining pasayishi va natijada fuqarolarning huquq va erkinliklariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Normativ hujjatlarda ogohlantirishning umumiy tartibi belgilangan bo‘lsa-da, ogohlantirishning mazmuni, ya’ni qanday so‘zlar bilan ifodalanishi aniqlashtirilmagan. Bu esa amaliyotda turli xil talqinlarga va har xil yondashuvlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ogohlantirishning aniq matni belgilash maqsadga muvofiq. Misol uchun, Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi xizmat faoliyatida maxsus vositalarni qo‘llaydigan vaziyatlar taqozo etsa, “To‘xta, aks holda maxsus vosita qo‘llayman!” yoki jismoniy kuch ishlatish uchun “To‘xta, aks holda jismoniy kuch ishlataman!” kabi iboralarni idoraviy normativ hujjatlarga tatbiq qilish maqsadga muvofiq. Albatta, ona tilimizda “to‘xta” so‘zi harakatlanayotgan insonni to‘xtatish barobarida “bu ishni bajarishdan cheklan” kabi ma’nolarni ham beradi. Jismoniy kuch ishlatish va maxsus vositalarni qo‘llash keysida ham “to‘xta” so‘zi shu ma’noda talqin qilinishi lozim.

